


K. KALANOV, U. SABIROVA

IJTIMOIIY ANTROPOLOGIYA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

KOMIL KALANOV, UMIDA SABIROVA

IJTIMOY ANTROPOLOGIYA

**5210100 – Sotsiologiya va 5520100 – Ijtimoiy ish yo'nalishlari
uchun**

Toshkent

“Go To Print“

2020

UO'K: 572(075)

KBK: 28.71

K 18

Kalanov, K., Sabirova U.

Ijtimoiy antropologiya [Matn]: o'quv qo'llanma /
K. Kalanov, U. Sabirova. – Toshkent: «Go To Print»,
2020. – 176 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada "Ijtimoiy antropologiya" fanining asosiy tushuncha va komponentlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. O'quv qo'llanmaning asosiy mavzulari mumtoz ijtimoiy antropologiya namoyondalari, odamzotning tarixiy evolyutsiyasi jarayonida biologik qonuniyatlardan sotsial qonuniyatlarga o'tish jarayonlarini kuzatish; odamning rivojlanishiga tabiiy va sotsial omillarning ta'siri darajasini, shuningdek, konkret madaniy muhit sharoitida odamning uni o'rab turgan ijtimoiy va tabiiy muhit bilan munosabatlari qonuniyatlari va mexanizmlari atroflicha bayon qilindi. O'quv qo'llanma keng kitobxonlar ommasi, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalar uchun ijtimoiy antropologiya fani bilimlarni kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin.

Taqrizchi:

sots.f.d., prof. A.A. Umarov

Mazkur o'quv-qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil 6-aprelidagi 137-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

UO'K: 572(075)

KBK: 28.71

ISBN 978-9943-6882-5-4

© K. Kalanov, U. Sabirova.

© «Go To Print», 2020.

1-MAVZU. IJTIMOIIY ANTROPOLOGIYAGA KIRISH

Reja:

1. Antropologik fanlarning tasniflanishi
2. Ijtimoiy antropologiyaning yo'nalishlari
3. Ijtimoiy antropologiyaning ilmiy uslubiy qismi

Tayanch tushunchalar

Antropologiya, madaniy nisbiylik, madaniy universalizm, etnotsentrizm, klassik arxeologiya

Antropologiya insonni biologik va madaniy jihatlarini tadqiq qilib, insoniyat ibtidosi va evolyutsiyasi borasidagi qarashlar va ijtimoiy urf-odatlarini o'rganuvchi fandır.

Antropologiya "anthropus" va "logus", so'zlarining birikmasidan tashkil topgan bo'lib, insonni o'rganish yoki inson to'g'risidagi fan degan ma'noni anglatadi.

Antropolog atamasini birinchi bo'lib Aristotel qo'llagan.

Antropologiyaga ta'rif berilishi:


1. Oksford lug'atlarida: Insoniyat jamiyati va uning urf-odatlarini kelib chiqishni tadqiq qilish; Insoniyat evolyutsiyasi va strukturasi tadqiq etish.

2. Olim Kryober tarifiga ko'ra: "Antropologiya – insoniyatning yuzaga kelishi va ma'lum bir guruhlarining xulq-atvoriga asoslari haqidagi fandır.

3. Antropolog olim Gerskovitsning ta'rifiga ko'ra: "Antropologiya insonni rivojlanish darajasini baholashi kerak"

Madaniy antropologiya

Madaniy antropologiya insoniyat madaniyatini o'rganadi. Insoniyat ijtimoiy hayotida kashf etilgan va yo'lga qo'yilgan tizimlarni tadqiq etib, uning davomiyligini aniqlash lozim. Bu umumiy tizim madaniyat hisoblanadi. Madaniyat bu ijtimoiy merosdir. Bu tizim avlodan avlodga o'tib kelmoqda. Buni yasama, tajriba yoki tushunish ekanligini tadqiq qilish lozim. Shuningdek, madaniy antropologiya insoniyatning urf-odatlarini, an'analari, ijtimoiy hayoti, dini, san'ati, iqtisodiy va siyosiy tashkilotlarini



ham o'rganadi. E.A. Xoubelga ko'ra, "Madaniy antropologiya antropologiyaning asosiy yo'nalishi sifatida asosiy e'tiborni insoniyat urf-odatlarining kelib chiqishiga qaratishi lozim".

Madaniy antropologiya ikki turga bo'lib tasniflanadi:

1. Tarixiy arxeologiya: Arxeologiya tarixiy davrni o'rganish demakdir. Shu sababli, bu fan tarixiy fakt qoldiqlarini o'rganadi. Arxeologiya tarixning yozilmagan qirralarini kashf etadi. Arxeologik qazishmalar davomida topilgan faktlar va buyumlar bizga insoniyatning madaniy hayoti borasidagi tassavurlarimizni boyitishga yordam beradi. Madaniy yutuqlarni aniqlash va ularning tarqalish yo'nalishlarini ham aynan arxeologiya orqali tadqiq etish mumkin.

2. Ijtimoiy antropologiya. Ijtimoiy antropologiya atamasi nomidan kelib chiqib turibdiki, ijtimoiy tashkilotlar va ijtimoiy institutlarni yuzaga kelishini tadqiq qilish demakdir. Antropolog olim Fertga ko'ra, "Ijtimoiy antropologiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri ijtimoiy jarayonlarni taqqoslash bo'lishi lozim"

Tabiiy antropologiya va madaniy antropologiya bir-biri bilan o'zaro bog'liq. Tabiiy antropologiyadagi ba'zi faktlar ijtimoiy antropologiyadagi jumboqlarni yechish uchun yordam beradi. Bundan tashqari arxeologiyadagi topilmalar esa, tabiiy antropologiyaning ba'zi bo'limlaridagi tadqiqotlarda foydali bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy antropologiya antropologiyaning muhim bir yo'nalishi hisoblanadi. Ijtimoiy antropologiya boshqa yo'nalishlardan farqli ravishda insoniyat hayotini ijtimoiy jihatdan tahlil etib berishi bilan farqlanadi.

Ijtimoiy antropologiyani olimlar quyidagicha ta'riflaydilar:

1. R.Piddingtonga ko'ra: "Ijtimoiy antropologiya ibtidoiy jamiyatlardagi madaniyatni o'rganadi". Ijtimoiy antropologiyaga bunday ta'rif tor doirada tushunishdir. Chunki antropologiya faqatgina ibtidoiy madaniyat shakllariga emas, zamonaviy jamiyatdagi madaniyatni o'rganadi. Bu borada antropolog olim S. Dyubening yondashuvi ko'proq mos keladi.

2. S. Dyubening fikriga ko'ra: "Ijtimoiy antropologiya – madaniy antropologiyaning bir qismi bo'lib, birinchi navbatda madaniyatning moddiy ko'rinishlarini emas, ijtimoiy struktura va diniy e'tiqod bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etishga e'tibor qaratadi". Shundan ma'lumki, ijtimoiy antropologiya ijtimoiy institutlar, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy hodisa bilan bog'liq ijtimoiy strukturalarni tadqiq etadi.

3. S.Pennimanning fikriga ko'ra: "Madaniy antropologiyaning bir qismi bo'lib ijtimoiy hodisalarni yuzaga kelishi tadqiq qiluvchi bo'limdir.

4. Hind olimi M. Shirinivasga ko'ra: "Bu insoniyat jamiyatlarini taqqoslab tadqiq etish imkonini beruvchi fan yo'nalishidir".

5. Charlz Vinik: "Ijtimoiy antropologiya ijtimoiy xulq-atvorni o'rganuvchi ayniqsa ijtimoiy shakllar va ijtimoiy institutlarni tizimli taqqoslab o'rganuvchi fan yo'nalishidir".

Ikki og'iz so'z bilan aytganda, ijtimoiy antropologiya barcha mamlakatlardagi kishilarning ijtimoiy xulq-atvori va ijtimoiy hodisada ishtirokini bir-biri bilan taqqoslab tadqiq qiluvchi fan yo'nalishidir.

"Ijtimoiy antropologiya" fanini juda keng ma'noda tushunish mumkin. Bu fan o'zining doirasiga madaniyatning boshqa shakllari bo'lgan va iqtisodiy-siyosiy hayotda amal qiladigan normalarni ham tadqiq etadi.

Ijtimoiy antropologiyaning yo'nalishlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Etnografiya. Etnografiya ijtimoiy antropologiyaning asosiy sohasi hisoblanadi. Insoniyat irqini tahlil etadi, shu bilan birgalikda ularga doir ijtimoiy-madaniy farqlanishlarni aniqlaydi.

2. Oila antropologiyasi. Oila jamiyatning muhim ijtimoiy instituti hisoblanadi. Bu boshqa jamiyat va madaniyat shakllarida oila ko'rinishlarini va vazifasini tadqiq etadi. Shu bilan birgalikda, nikoh va nikoh bilan bog'liq munosabatlarni tahlil etadi, uning qay tarzda amalga oshirilishi va farqlanishlarni ijtimoiy jihatlarini ko'rsatib beradi.

3. Iqtisodiy antropologiya. Ijtimoiy tashkilotlarda iqtisodiy qoidalar juda muhim o'rin tutadi. Bir qator keskin ijtimoiy o'zgarishlar iqtisodiy o'zgarishlar bilan yuz beradi.

Ijtimoiy antropologiya insoniyatning ibtidoiy sivilizatsiyasidagi iqtisodiy boshqaruvni tadqiq etib, uning ijtimoiy rivojlanishga ta'siri darajasini aniqlashtiradi.

4. Siyosiy antropologiya: Siyosiy antropologiya ijtimoiy strukturada iqtisodiy boshqaruv kabi muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy antropologiya siyosiy boshqaruvning barcha turlari, qonuniyatlari va qoidalarni o'rganadi. Siyosiy hayotni tadqiq qilish barobarida ularning evolyutsion o'zgarishlarini alohida qayd qilib boradi.

5. Simvolika va Lingvistika. Til va belgilar bilan izlanishlarni olib borib, ularning jamiyatdagi ahamiyati va boshqa jamiyatlarga ko'chib o'tish yo'nalishlarini aniqlaydi. Bu jamiyatni tadqiq qilish borasida muhim faktlar qayd etish qoidalarini izohlaydi.

Bundan tashqari lingivistikada ijtimoiy antropologiyada qo'llaniladiga yo'nalishlar mavjud.

Ular quydagilar:

I) Tavsiflovchi lingivistika: Unda individual va mahalliy tillarni o'rganadi;

II) Tarixiy lingivistika. Unda tillar tarixi o'rganiladi;

III) Taqqoslovchi lingivistika. Til borasida taqqoslovchi tadqiqotlar olib boriladi;

IV) Umumiy lingivistika. Bu bir nechta tillar farqlanishining minimal va maksimal ildizlarini o'rganadi.

Ijtimoiy antropologiya fan sifatida

Ijtimoiy antropologiya ilm-fanni nima ekanligini ijtimoiy jihatdan ochib beruvchi fan ham hisoblanadi. Bir qancha olimlar bu borada tortishib, fanning ahamiyati aniq bir narsani loyihalashtirishida deb ko'rishadi. Bu borada olimlar ilm-fanni qanday tushuntirishlarini ko'rib chiqishimiz lozim bo'ladi.

Bir qancha olimlar bu borada quydagicha so'z yuritishadi:

1. J. Bisanz: "Usul emas sinash fan mazmuni bo'la oladi"

2. R. Grin: "Fan dunyoni tadqiq yo'lidir".

3. A.Veynberg: "Fan dunyoga qarashning muayyan shakli hisoblanadi"

4. Karl Pirson: "Fan – deb borliqda o'zning qat'iy uslublariga ega uslublar majmuasiga aytiladi".

Fanning yuzaga kelishi fan deb atalishi uchun, qo'yilgan talablar tahlil etilganda, quydagicha xulosalarga kelish mumkin va uning kerakli mezonlari va maxsus tavsifi quydagicha ko'rinishlarda bo'ladi:

1. Ilmiy uslub. Har qanday fan mazmunigagina emas, balki ilmiy uslubiga ham ega bo'lishi lozim.

2. Dalillarga asoslanishi. Fan – faktlarni o'rganish hisoblanadi. Unda real holatdagi haqiqatni aniqlaydi.

3. Universiallik. Fan qoidalari universal bo'lishi lozim. Bu xamma joyda va har qanday davrda o'zini ko'rsata olishi kerak.

4. Asoslanganlik: Fan qoidalari asoslangan holda bo'lishi lozim. Asoslanish har qanday davrda ham kerak bo'ladi. Asoslanish haqiqatni yuzaga chiqarishning eng maqbul yo'lidir.

5. Sababiylik va o'zaro aloqadorlik. Fan o'zaro aloqadorlik sabablarini umumiylik bilan bog'langan mazmunini aniqlashi kerak bo'ladi.

6. Prognozlash. Fan sinalgan va umumiy qoidalar asosida o'zaro ta'sir munosabatlarini oldindan aytib bera olishi kerak bo'ladi. Bu borada fan o'zi o'rnatgan qoidalar asosida masalaga yondashib, sabab ehtimollik asosida ishontira olishi lozim. Olimlar umumiylik va o'zgarmaslikga fan qoidalari qanchalik ta'sir eta olishini bilishadi.

Ijtimoiy antropologiyaning ilmiy uslubiy qismi

Ilmiy metod muayyan mazmunda tizimli ravishda tadqiq etish hisoblanadi. Bu metod katta sabr, tinimsiz mehnat, obyektivlik va uzoqni ko'ra bilishni talab etadi. Har qandan odam ilmiy yondashuvga ko'ra o'zining tadqiqot predmeti yuzasidan muammoni aniqlashtirib oladi. Muammo qancha aniq bo'lsa uni tadqiq etish shuncha oson bo'ladi.

Ijtimoiy antropologiyani yuqorida aytib o'tilgan oltita asosga asoslanib ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda barcha elementlar mavjudligini ko'ramiz.

1. Ijtimoiy antropologiya foydalanadigan ilmiy uslublar: Ijtimoiy antropologiya foydalanadigan barcha metodlari ilmiy uslublardir. Ular o'rganilayotgan obyektning xususiyatiga qarab jarayonning holatiga qarab qo'llaniladi. Birinchi navbatda kuzatish orqali ilmiy dalillar yig'iladi. Shundan so'ng ma'lum shaklda yozib boriladi. So'nggida materiallar umumiy qoidalar asosida tasniflanadi. Ilmiy dalillarning ishonchlilik darajasi aniqlashtiriladi.

2. Ijtimoiy antropologiyaning dalillarga asoslanishi: Ijtimoiy antropologiya ijtimoiy hodisa, munosabatlar va reaksiyalarga doir faktlar taqqoslab tadqiq etadi. Ishtirokchini kuzatish asosiy usul hisoblanadi. Bu usulda antropolog aniqlashi lozim bo'lgan masala yuzasidan belgilangan odamlar ichida yashab faktlarni oladi va ularni tahlil etib boradi. Bu usulni qulayligi vaziyatga qarab obyektни o'zgartirishi yoki masalada ko'zda tutilmagan boshqa qiziq faktlarga duch kelishi mumkin.

3. Ijtimoiy antropologiyaning umumiylik prinsipi: ijtimoiy antropologiya qoidalari barcha mamlakatlarda foydalanilayotganligi shubhasizdir.

4. Ijtimoiy antropologiyani asoslash prinsipi: Ijtimoiy antropologiyaning ish olib borishi doimo haqiqatni isbot etadi. Ishonchlilik darajasini har qanday odam har qanday paytda tekshirib olishi mumkin.

5. Ijtimoiy antropologiya sababiy-o'zaro ta'sir munosabatlarini aniqlaydi: Ijtimoiy antropologiya sababiy-o'zaro aloqadorlikni ijtimoiy fakt, hodisa va munosabatlarda aniqlaydi. Misol uchun: antropolog turli xil madaniyat shakllarini tadqiq qilayotganda aniq muayyan bir madaniyat ko'rinishi bilan o'zaro aloqadorlikni taqqoslaydi va sababidagi o'zaro aloqadorligini aniqlaydi.

6. Ijtimoiy antropologiyagada bashorat qilish funksiyasi mavjud. Misol uchun, madaniy o'zgarishlarni kuzatish davomida hayot tarzining o'zgarishini oldindan aytib beri mumkin.

Ijtimoiy antropologiya sotsiologlar, psixologlar, siyosatshunoslar va ijtimoiy islohatchilar tushunchalariga inqilobiy o'zgarishlarni olib keldi. Ularga insoniyat jamiyatini tahlil etishni tashkillash borasida kerakli takliflarni bera oldi.

Ijtimoiy antropologiyaning maqsadlari:

Ijtimoiy antropologiyaning birinchi maqsadi – insoniyat xulq-atvori borasida ma'lumotlar yig'ishdir. Insoniyat xulq-atvori baxsli subyekt hisoblanadi. Ibtidoiy jamiyatda odam insoniy xulq-atvorining elementar va juda oddiy shakllariga ega bo'lgan. Madaniyatning asosini tushunishda insoniyat xulq-atvorining unga ta'sirini muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash lozim.

Ijtimoiy antropologiyaning boshqa bir maqsadi – madaniyatlar to'qnashuvi jarayoni va natijasini o'rganishdir. Ayniqsa ibtidoiy jamiyatlar asta-sekinlik bilan boshqa rivojlangan madaniyalar bilan to'qnashib bormoqda. Bu to'qnashuvlar o'z navbatida ijtimoiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Antropologlardan madaniy to'qnashuvlar oqibatlarini oldindan aytib berish talab etiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy antropologiyani asosiy maqsadi – insoniyat jamiyatini, ijtimoiy institutlar va madaniyatlarni o'rganish va ularning ildizini topishdan iborat. Bundan tashqari, qadimiy va hozirgi jamiyatlarni solishtirib o'rganish borasida tarixiy bilimlarni yanada kengaytirish mumkin. Bu arxeologiya va tarix fanlari bilan o'zaro bog'liqlikda amalga oshiladi.

Yo'q bo'lib borayotgan ibtidoiy jamoalarni tadqiq etish

Ijtimoiy antropologiyaning birinchi obyekti ibtidoiy odamlar madaniyati ular yaratgan ijtimoiy tizimdir. Shundan kelib chiqqan holda, ijtimoiy antropologiya birinchi navbatda ibtidoiy jamiyatlarni tadqiq etishga e'tiborini qaratadi.

Ralf Piddington ibtidoiy jamiyatlarni quyidagicha tavsiflaydi:

1. Ibtidoiy jamiyatning birinchi belgisi – savodsizlik va yozuv yoki adabiyotning mavjud emasligi;
2. Ibtidoiy jamiyatda klanlar va totemlar misolida kichik guruhlar ijtimoiy tuzilmaning asosini tashkil etadi;
3. Juda past darajadagi texnologik ishlanmalar;
4. Ijtimoiy aloqada qondoshlik asosi muhim deb asoslanishi;
5. Oddiy iqtisodiy munosabatlarni etishmasligi va ko'p mehnat sarf etiladigan mashg'ulotlarning mavjudligi.

Shunday qilib, ibtidoiy jamoalar kichik jamiyat hisoblanadi. Robert Redfield buni "xalq jamoasi" deb atagan. Uning fikrida,

san'at va dinshunoslik ibtidoiy jamoalarda qanday tavsiflanishi ko'rsatilmagan.

Mustaqil ish mavzulari

1. Antropologik fanlarning tasniflanishi
2. Ijtimoiy antropologiyaning yo'nalishlari
3. Ijtimoiy antropologiyaning ilmiy uslubiy qismi
4. Madaniy nisbiylik va madaniy universalizm
5. Etnotsentrizm va klassik arxeologiya

Nazorat savollari

1. Antropologik fanlarning tasniflanishi qanday?
2. Ijtimoiy antropologiyaning yo'nalishlarini sanab bering.
3. Ijtimoiy antropologiyaning ilmiy-uslubiy qismini ta'riflang.
4. Madaniy nisbiylik va madaniy universalizm tushunchalarini izohlang.
5. Etnotsentrizm va klassik arxeologiyaning o'zaro bog'liqligi nimada?

2-MAVZU. IJTIMOIIY-MADANIY ANTROPOLOGIYA FANIDA NAZARIYALAR

Antropologiyaning yo'nalishlari

Reja:

1. Evolyutsionizm va diffutsionizm nazariyalarning ijtimoiy antropologiyada tutgan o'rni
2. Funktsionalizm ijtimoiy antropologiyadagi universal yo'nalish sifatida
3. "Shaxs va madaniyat"
4. Strukturalizm yangi yo'nalish sifatida

Tayanch tushunchalar

Evolyutsionizm, diffutsionizm, funksionalizm, shaxs va madaniyat, strukturalizm

Bu bo'limning asosini nazariyalar mazmunini tushinish deb tushunsak o'rinli bo'ladi. Nazariya – faktlarning hususiyatini tabiiy yoki ijtimoiy hodisa bilan bog'langanlik qonuniyatlarini aniqlashtiruvchi o'zaro bog'liq gipotezalar yig'indisidir. Shuni ham ta'kidlash lozimki, davr talabi bilan "ustuvor" va "tafakkur maktabi" bo'lgan xulosalarni qabul qilish lozim.

Quyida biz antropologiyaga oid nazariyalarning yuzaga kelishi, ularni tushunish va tushuntishlardagi yutuq va kamchiliklarini qisqacha muhokama qilamiz.

Evolyutsionizm

Bu nazariya madaniy va sotsiomadaniy evolyutsiya nazariyasi ham deb ataladi. Evolyutsionizm antropologiyani tushunish borasida XIX asrning oxirgi choragi davomida asosiy tushuncha deb yuritilgan. Bir qancha olimlar isbotlashlaricha antropologiyaning fan sifatida rivojlanishi evolyutsion nazariyani ishlab chiqilishi bilan bog'liq bo'lgan.

XIX asrda antropologiyada rivojlangan bu nazariyaning "ibtidosi yo'q evolyutsiya" g'oyasini ishlab chiqqan ikki buyuk vakili E. Teylor va G. Morgan bo'lgan. "Ibtidosi yo'q evolyutsiya"

jamiyatning rivojlanishi va sivilizatsiyasini murakkabligi tadqiq qiluvchi yo'nalishdir. Bu nazariya jamiyatni bir yoki boshqa evolyutsiya va rivojlanishi bosqichlarini tadqiq eta olishi bilan ahamiyatli bo'lgan.

Ch. Darvinning evolyutsion nazariyasi rivojlanishi Gerbert Spenser, Genri Morgan, Djordj Freyzer kabi olimlarning ilmiy xulosalarini shakllanishiga yordam bergan.

Sotsiomadaniy evolyutsiyaning umum qabul qilgan mazmuni shundan iboratki – insoniyat jamiyatning sivilizatsiyasi va o'zgarish jarayoni bilan bir qatorda ularning umumiy madaniy axborotlar zahirasi ham o'zgarib boradi.

Evolutsionizmning asosiy g'oyasi insoniyat tarixida va sotsiomadaniy tizimlarida oddiylardan murakkablikka qadar taraqqiy topgan "ibtidosiyo'q" yo'nalishdan iboratdir. Evolutsionizm nazariyasida madaniyat vaqt o'tishi bilan rivojlanadi, deb yondashadi. Bu nazariyaning asosiy dastagi shundan iboratki, madaniyatning yuzaga kelishi yuksalishi huddi biologik jarayonlar kabi yuz beradi, deb hisoblanishidadir. Insoniyat jamiyatining qadim zamonlardan hozirga qadar oddiylardan murakkablikka qadar rivojlanishi texnologiyasi bilan bog'laydilar.

Bu nazariya "ibtidoiy jamiyatlarning" yangi sotsial va madaniy shakllariga moslashishini atrof-muhit sharoitlarning o'zgarishi bilan yashab qolishga bo'lgan kurashning yuzaga kelishi bilan o'zaro bog'laydilar. XIX asrda evolyutsion nazariya G'arb jamiyatlarini boshqa jamiyatlardan keyin yuzaga kelgan, deb ta'kidlagani uchun etnotsentrizmlar tomonidan tanqidga uchraydi. Bu o'sha payt siyosatida yo'lga qo'yilgan kolonial jarayonlar va irqchilik g'oyalari bilan bog'liqdir. Ularning qarashlari ziddiyatli va ko'plab isbotlarni talab qilgan.¹

Diffutsionizm

Diffutsionizm nazariyasi XX asrning birinchi yarmida rivojlanishni boshlagan bo'lib, u ham jamiyatning rivojlanishi

¹ Introduction to Sociocultural Anthropology. - page 38- 40.

nima uchun oddiy yoki bir necha xil ekanligini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu nazariya jamiyatlar boshqa bir jamiyatdan madaniy hususiyatlarni o'zlashtirishi natijasida ijtimoiy o'zgarishlar yuzaga kelishi borasidagi nazariyani ilgari suradi. Bu nazariyada jamiyatlar o'rtasida iqtisodiyot, diniy qarashlar va madaniy ong kabi tushunchalar o'zaro tarqalgan va yoyilgan, deb tushuniladi.

Buni jamiyatlar o'rtasidagi madaniyat borasidagi ayrim o'xshashlik bilan izohlash mumkin. Bu nazariyaning keskin tarafdorlari bo'lgan Britaniya diffutsionistlari Misr sivilizatsiyasini toifasidagi manbalarni asos qilib olib, boshqa jamiyatlarga asta-sekinlik bilan yoyilgan deb tushunishadi. Bu nazariyaning zaifligi shundaki, bu ham etnotsentrik ko'rinishda bo'lgan. Diffutsionistlar G'arb jamiyati bo'lmagan o'ziga xos quyi turuvchi jamiyatlardir, ularning xalqlari sivilizatsiya rivojlanishiga unchalik xissa qo'shmagan, deb ishonishadi. Biroq bunga qaramay diffutsionizm Misr, Yunoniston, Rim kabi klassik sivilizatsiyasini yuzaga kelishini tushunish borasida bir qator isbotlar keltira olgan.¹

Funksionalizm

Funksionalizm anglash usuli sifatida madaniyat tarixining butun tarixi davomida mavjud bo'lib kelgan. Tana va uning hayotiy ko'rinishlari odamlarning o'zaro birgalikdagi hayotining turli jihatlari istiora, o'xshashliklar, andozalar sifatida xizmat qilib kelgan. XX asr uchun xos bo'lgan jamiyat va madaniyatni o'rganishga bo'lgan funksional yondashuvning ildizlari fransuz olimlari O.Kont va E.Dyurkgeym, ingliz olimlari B.Malinovskiy va A.Radkliff-Braunlarning asarlarida ko'rsatib o'tilgan. Funksionalizmning vujudga kelishi "umumiy sotsiologik qonunlar"ni o'rnatishga intilishdan kelib chiqqan. Muvofiq ravishda B.Malinovskiy yana "oddiygina ma'lumotlar to'plash, ta'riflash va tasniflash bilan bog'liq bo'lgan fan sifatidagi etnografiya va maqsadi fenomenlarining qonunlari va izohlarini qurish bo'lishi mumkin bo'lgan etnologiya"¹ o'rtasidasi farqlarni keltirgan

¹ Introduction to Sociocultural Anthropology. - Page 41.

abstrakt nazariyalarni jamiyatning turli ko'rinishlariga tadbiq qilinishini o'rgangan. Vazifa va tuzilmaning asosiy konseptlari, ulardan ko'p hollarda foydalangan va o'zining ijtimoiy tizim g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan organik o'xshashliklarni keltirib chiqargan G.Spenserdan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilgan.

Bu nazariya jamiyat madaniyati bir butunlikdagi ikki funksional va disfunktsional qismlardan tashkil topgan deb hisoblaydi. Bu nazariya jamiyatni murakkab tizim sifatida ko'rib, yuqoridagi qismlar qat'iylik va birdamlikni tashkil etsa, jamiyatning hayotidagi ijtimoiy xulq-atvor barqaror tarzda davom etadi.

Barcha ijtimoiy strukturalar jamiyat harakatini ta'minlaydi. Britaniya antropologlari Radkliff Braun va Bronislav Malinovskiyar funksionalizmga ikki nazariyani ilgari suradi:

Strukturaviy funksionalizm – ijtimoiy strukturalarning turli elementlari jamiyatdagi ijtimoiy tartib va muvozanatni saqlab turish borasida ustunlik qiladi deb tushunish.

Psixologik funksionalizm – shaxsning ruhiy holatidan kelib chiqqan ehtiyoj jamiyat tomonidan qondiriladi deb tushunish.

Ijtimoiy va madaniy hodisalarni funksional (vazifaga oid) jihatdan izohlashda vazifa konsepsiyasining o'zi odamlarning tashqi muhitga yo'naltirilgan harakatlarining biologik va ruhiy asoslarini nazarda tutadi. Oxirgisi nafaqat ekologik o'lchamlarni, balki inson tomonidan yaratilgan obyektlarni ham qamrab oladi. Bundan tashqari, funksiya (vazifa) konsepsiyasida texnologiyalar, jumladan mashina texnologiyalari ham ijtimoiy-madaniy o'zaro munosabatlar mahsuli va vositasi, odamlarning ehtiyojlari va talablarini qondirilishi imkoniyatini yaratuvchi, ijtimoiy va madaniy tizimlar tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro almashinuvlarni belgilab beruvchi madaniyatni yetkazish vositalari sifatida ahamiyatli o'rin tutadi. Shunday qilib, "muayyan uyushma hayotida har bir madaniy element o'z o'rniga ega va alohida vazifani bajaradi, deb hisoblanadi. Mazkur vazifalarni aniqlash fanning "ijtimoiy fiziologiya" deb atash mumkin bo'lgan maqsadi hisoblanadi. Funksional usulning dastlabki postulati shundan iboratki, barcha jamiyatlar va madaniyatlar uchun bir xil bo'lgan umumiy "fiziologik", yoki funksional qonunlar mavjud.

Funksional usulning maqsadi mazkur umumiy qonunlarni aniqlash va ularni har qanday madaniyatning har qanday elementi yordamida izohlashdan iborat.

Funksional nazariyaning kamchiligi shundaki, nima uchun jamiyat bir hil yoki turlicha ekanligini tushuntirib bera olmaganligida. Funksionalist antropologlar dunyo tartibga kelishida raqobat va ziddiyatga kamroq e'tibor berishgan deb faraz qilish mumkin. Bu nazariya jamiyatni barqaror va o'zgarimas deb ko'rib, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni tushuntirib bera olmadi. Shu kamchiliklarga qaramasdan funksionalizm antropologiyada empirik tadqiqotlarga katta xissa qo'shgan.¹

"Shaxs va madaniyat"

Bu yo'nalish psixologik antropologiya deb ham nomlanadi. Bu yo'nalish XX asrning birinchi yarmidan boshlab tarix sohasidagi izlanishlarda muhim ahamiyat kasb eta boshlagan. "Madaniyat va shaxs" yo'nalishi tarafdorlari kishilar tomonidan madaniyat shakllarining turli xususiyatlarini jamiyatga berishi mobaynida madaniyatni yanada tezroq rivojlanishiga ta'sir eta oladi, deb tushunishadi. Bu nazariya madaniyat integratsiyasi o'sishi mexanizmi borasida izlanishlar olib boradi.

Bu nazariyaga go'daklik va ilk bolalikdagi kechinmalar orqali shaxs shaklanadi, deb ta'kidlovchi neo-Freyd psixologiyasi ta'sir qilgan. Keyinchalik bu maktabni rivojlantirgan olimlar madaniyatlar orqali milliy xarakterni o'rganishga urinib ko'rishdi. Izlanishlar mobaynida antropologlar stimullar, shaxs tizimi, impulslar, his qilish yo'nalishi, munosabatlar cho'qqisi kabi psixologik tushunchalarni qo'llashdi. "Shaxs va madaniyat" yo'nalishi namoyondalaridan Bronislav Malinovskiy va Margaret Mid psixologik ko'rinishlar madaniyat o'zgarishi bilan o'zgarib boraveradi, deb tushuntirishga urinib ko'rishdi. Voyaga etgan shaxslarda bolalikda ko'rgan-bilganlari keyinchalik uning madaniyatida aks etadi, deb tushuntirishadi.

¹ Introduction to Sociocultural Anthropology. – p.p. 43-44.

Bugungi kunda "madaniyat va shaxs" yo'nalishi quyidagi mavzularning qiyosiy-madaniy tadqiqotlariga katta e'tibor qaratgan:

- ijtimoiy-tuzilmaga oid, shuningdek madaniyatning qadriyatga oid barqaror tarkibiy qismlarini hamda ijtimoiylashtirishning stereotip, modal va ayniqsa birlamchi (bolalar misolida) namunalarini qiyoslash;

- ijtimoiylashtirishning madaniy stereotiplarini shaxsning o'zini tutishida, o'zaro ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo'ladigan modal, bazaviy tuzilmasi xususiyatlari bilan qiyoslash;

- shaxsning bazaviy jihatlarining ijtimoiy zarur bo'lgan vazifalar, ijtimoiy-madaniy rollarning mohiyati, madaniyatning projektiv jihatlarini bilan aloqasi;

- shaxsning bazaviy jihatlarini hamda madaniy namunalarini ijtimoiy jihatdan qabul qilingan me'yorlaridan og'ish (ularning har qanday ko'rinishida) va ruhiy nuqsonlar bilan qiyoslash.

Strukturalizm

Strukturalizm antropologiyadagi tadqiq qilishning yangi turlaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalish madaniyatning tartibiy strukturasi o'rgatuvchi etnologiya va ramzli antropologiyaga o'z e'tiborini qaratadi. Strukturalizm antropologiyada fransuz antropologi K.Livi Stross tomonidan ilgari surilgan. Hususan, u shunday deydi: "Biz inson tafakkuridagi strukturani topish orqali dunyo borasidagi umumiy qoidalar tartib etishimiz mumkin". Bu nazariyadagi muammo shundaki, ular jamiyat o'zgarishlarini statik tarzda tushuntirishlaridadir. Nazariya madaniyatni o'rnatilgan tartib deb ko'rib, madaniyatga ko'nikish darajalarini baholab chiqadi.¹

Simvolizmning strukturaviy o'rganilishi²

E.Dyurkgeym har bir totemning har qanday o'ziga xos xususiyatdan emas, balki qabila totemizmi strukturasi o'z

¹ Introduction to Sociocultural Anthropology. - page 49.

² ENCYCLOPEDIA OF SOCIAL AND CULTURAL ANTHROPOLOGY./ Edited by Alan Barnard and Jonathan Spencer.- London & New York, 2002. - page 46.

maqomidan kelib chiqqan timsol sifatidagi ahamiyatini isbotlab beradi. E. Dyurkgeymning totem tamg'alari ma'nolarining ijtimoiy kelib chiqishi haqidagi nazariyasi K.Livi Strossga ta'sir o'tkazgan va uning semiologiyaga oid strukturaviy nazariyasining ta'rifi mashhur bo'lib ketgan. Keyinchalik Levi-Stross "Yovvoyi aql" asarining to'rtinchi bobida totemizm haqidagi strukturaviy nazariyasini rivojlantirgan. Bu yerda u Markaziy Avstraliya totemizmining strukturaviy mantig'ini hindlarning kasta tizimi bilan qiyoslagan. Spenser "Murinbata" qabilasining dinini tahlil qilishda ham strukturaviy yondashgan, ushbu yondashuvning asosi Spenserning Murinbata qabilasi orasida olib borgan dala qidiruv ishlaridan olingan. Stannerning iqtibosda yozishicha, u ushbu asarlarni nashr qilishni boshlagandan so'nggina Livi-Strossning tahlilini o'rganib chiqqan.

Mustaqil ish mavzulari

1. Strukturalizm nazariyasining tasniflanishi
2. "Shaxs va madaniyat" maktabi ilmiy uslubiy qismi
3. Psixologik funksionalizm yo'nalishi
4. Diffuzionizm va evolyutsionizm

Nazorat savollari

1. Evolyutsionizm va diffuzionizm nazariyalarning antropologiyadagi tutgan o'rni qanday?
2. Funksionalizm antropologiyadagi universal yo'nalish sifatida qachondan o'rin topa boshlagan?
3. "Shaxs va madaniyat" maktabi yo'nalishiga kim asos solgan?
4. Strukturalizm yangi yo'nalish sifatida qachondan tarkib topa boshladi?



3-MAVZU. ETNOS VA ANTROPOGENEZ

Reja:

1. Zamonaviy insonning shakllanish omillari va antropogenez
2. Etnos va irqiy mansublik muammosi. Etnik mansublik
3. Etnoslarning hududiy joylashuvi bo'yicha tasniflanishi

Tayanch iboralar


Biologik evolyutsiya, etnik mansublik, irqiy mansublik, antropogenez, millat, xomosapins (Homo Sapiens), paleolit davri

Insonning biologik evolyutsiyasi borasida 30 ga yaqin ilmiy konsepsiyalar mavjudir. Insoniyatning kelib chiqishi va uning rivojlanishini turli sharoitlar va bosqichlarda o'rganishni taklif etadigan turli xil nazariyalar mavjudki, ular o'z navbatida fanga turlicha yondashish natijasida ham yuzaga kelgandir.

Odamlarning kelib chiqishi va tabiati haqidagi savolga, inson turli vaziyatlar va qator bosqichlar sababli o'z xislatlarini yo'qotgan va odamlarga aylanib qolgan nisbatan mukammalroq mavjudotlarning avlodi sifatida talqin qilinadigan ezoterik ta'limotlarda o'ziga xos javob qaytarilgan (R. Shtayner, E. P. Blavatskaya, E. Muldashev). Mazkur gipoteza tarafdorlari dalillarni qadimiy buddizm, iudizm, afsona va rivoyatlarning matnlari kabi, zamonaviy ilmiy bilimlar nuqtai nazaridan izohlash imkoni bo'lmagan moddiy faktlardan ham oladilar. Shubhasiz, bu kabi gipotezalar "bekorchi to'qimalar" emas, chunki ular keng ko'lamli va xilma-xil empirik asosga tayanadilar. Biroq bugungi kunga qadar ilmiy bilim sohasiga eng asosiy (biologik, arxeologik, genetik ma'lumot) isbot sifatidagi va ilmiylikning me'yorlari va ideallariga mos kelgan biologik evolyutsiya gipotezasi kiritilgan.

Zoologik sistematikaga muvofiq "ongli inson" turi (Homo Sapiens) hayvonlar qirolligiga, kordonlilar turiga, sut emizuvchilar sinfiga, ustunlar safiga, hominidlar sinfiga mansub, deb hisoblanadi. Hominidlar oilasi ichida yirik zamonaviy antropoidlar – gorillalar turi, osiyo orangutanglari turi, shimpanzalar turi ajralib turadi. Ongli insonning aynan shimpanze turi bilan genetik,

anatomik, biokimyoviy yaqinligi kuzatiladi. 99% genlar bir xil, faqat birgina xromosoma juftligi bilan farq qiladi, gemoglobindagi 141ta aminokislotaning ketma-ketligi shimpanze gemoglobinidagi ketma-ketligi bilan to'liq mos keladi.



Ma'lumki odamning yuzaga kelishi va evolyutsion jarayonlar yuzasidan insoniy qiyofa kasb etishi borasidagi g'oyalar Charlz Darvinga tegishlidir. Uning nazariyaning mohiyatida "tabiiy tanlanish" tushunchasi yotadi. Uning ilmiy gipozetasiga ko'ra inson tabiiy yo'l orqali turli xil omillar ta'sirida hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan degan ilmiy faraz yotadi.

Biroq Darvinning konsepsiyasi asossiz emas. Uning o'tmishdoshlari J.L. Byuffon, J.-B. Lamark, Karl Linneylar, o'simliklar va hayvonlarning ilmiy tasnifini yaratuvchilari – inson va maymunlarning ko'plab umumiy jihatlariga e'tibor qaratganlar. XIX asrning boshlariga qadar to'plangan ma'lumotlar shu kabi xulosa qilish imkonini beradi. Ch.Darvinning yutug'i shundan iboratki, u evolyutsiya mexanizmlarini aniqladi va o'z konsepsiyasini empirik usullar yordamida asoslashga intilgan.

Tanlov g'oyasi Ch.Darvindan mustaqil ravishda uning zamondoshi, ingliz tadqiqotchisi A.Uolles tomonidan ilgari surilgan. Biroq u tanlov nuqtai nazaridan insonning kelib chiqishini tushuntirish imkoni mavjud emas, chunki u tabiiy tanlov jarayonida paydo bo'lishi mumkin bo'lmagan xususiyatlarga (ong, adolat hissi, estetik hissiyotlar) egadir. Ushbu xususiyatlar

faqatgina ko'rinmas ma'naviy dunyodan izlash lozim bo'lgan boshqa sababning ta'siri natijasi bo'lishi mumkin.

Ch.Darvinning konsepsiyasi zamonaviy antropologiyada avvalambor evolyutsiya yagona ildiz, tana va ular bilan bog'langan shoxlar obrazida ifodalangan sodda (to'g'ri chiziqli) qarashlar uchun tanqid qilingan. Yangi arxeologik ma'lumotlar (masalan, 2000 yildagi fransuz-keniya ekspeditsiyasining natijalari) eaolyusiyaning an'anaviy sxemasi qayta ko'rib chiqilishi lozimligini ko'rsatadi: avstralopiteklar inson ajdodlari emas. Bu mustaqil boshi berk tarmoqdir, biroq shunga qaramasdan – umumiy ajdoddan evolyutsion kelib chiqish prinsipi saqlanib qolmoqda. Inson va hayvonot hayotining tashkillashtirilishi o'rtasida, Homo Sapiens ning paydo bo'lish bosqichlarida evolyutsiyaning umumiylikini ko'rsatuvchi umumiy jihatlar ko'p ekanligiga qaramasdan prinsipial farqlar ham mavjud: hayvonot dunyosida mavjud bo'lgan "ijtimoiylilik" shakllarining barchasi morfologik asoslarga tayanadi va biologik, shu jumladan morfologikomillarning hamda geografik sharoitlar – yashash muhitining ta'siri mahsuli hisoblanadi.

Sotsiogenez (inson jamiyatining o'zining shakllanishi) va yanada ko'proq darajada shakllanib ulgurgan inson jamiyati tarixi hal qiluvchi darajada tabiiy emas, balki sun'iy (notabiiy) omillar bilan bog'liq. Omillarning, jumladan madaniy omillarning aynan shu tizimi jamiyat shakllanishining sharti sifatida namoyon bo'ladi, shu sababli sotsiogenez haqida emas, balki sotsiomadaniygenenez haqida gapirish to'g'riroq bo'lar edi.

Insoniyat antropogenezi va evolyutsiyasi borasida quydagicha ilmiy farazlar alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Rus olimi Matyushinani ilmiy faraziga ko'ra insoniyatning yur yuzidagi dastlabki qadamlari sharqiy va janubiy Afrikada yuzaga kelgan deb tushuntiradi. Uning bunday fikrga kelishiga geologik tadqiqotlar natijasida u erdagi radiatsion fonning o'zgachaligi bilan izohlaydi. U mutatsiya omilini anatomik o'zgarishlarda xususan, bosh chanoq shakli va tik yurish kabi holatlarda asosiy rolni o'ynagan deb tushuntirish beradi.

2. Iqlim o'zgarishi: havoning sovishi, tropik o'rmonlarning qisqarishi va yaylovlarning kengayishi. Maymunlarning yashash sharoitining o'zgarishi, oziqlanish jarayonining o'zgarishi natijasidagi evolyutsiya;

3. Kichik mutatsiyalarining tabiiy saralash natijasida boshqa mutatsiyaga qo'shilib ketishi.

Dastlabki Etnografiya¹

Bizdagi Sharqiy Afrikaga oid ma'lumotlar mumtoz YUNon va Arab manbalariga borib taqaladi. Ushbu manbalar portugaliyalik dengizchilar tomonidan o'n oltinchi asrda yozib qoldirilgan. Sharqiy Afrikaga oid ma'lumotlar, o'n to'qqizinchi asrning birinchi o'n yilligida geografik tabiati Yevropaga ma'lum bo'lgan, ikkinchi yarmida esa dengizchilar, tadqiqotchilar, mustamlakachilar va missionerlar tomonidan kundalik turmush tarzi, etnografiyasi haqidagi ma'lumotlar olingan. Ularning barchasi o'z yo'nalishlari bo'yicha pioner bo'lishgan, lekin juda ham kamchiliklari akademik bilimlarga ega bo'lishgan. Dastlabki bilimlarga asoslangan ma'lumotlar hozirgacha ham qadrlanadi. Ularning ko'p ma'lumotlari dalilsiz ma'lumotlarga yoki mish mishlarga asoslangan holda yozilganligi uchun foydasiz hisoblanadi. Faqatgina o'n to'qqizinchi asrning boshlaridagi manbalar o'zining aniqligi va yaxshi yozilganligi sababli klassik antropologik manba sifatida ajralib turadi. Masalan, shvedsiyalik olim Gerard Lindbolmning *Kamba of Kenya* monografiyasi va shvedsariyalik evangilist X. A. Djunodning ikki tomlik *Thonga of Mozambique* asarlari kiradi. Bu ikkala manba etnografik metodlar va talablar asosida yozilgan, butun mahalliy madaniyatni o'z ichiga oladi.

Etnos va irqiy mansublik muammosi. Etnik mansublik

Etnik mansublik deganda ma'lum insonlar jamoasining madaniy va tabiiy jihatdan ahamiyatli darajada farq qilishi, hamda

¹ ENCYCLOPEDIA OF SOCIAL AND CULTURAL ANTHROPOLOGY. Edited by Alan Barnard and Jonathan Spencer. - London & New York, 2002. -P. 54

o'ziga xos ijtimoiy va madaniy o'ziga xoslikni kasb etishi tushuniladi. Irqchilik – ma'lum bir irq vakillari boshqa irq vakillariga nisbatan o'zini ustun deb biluvchi ijtimoiy va siyosiy suiste'mollik hisoblanadi. Etnik va irqiy munosabatlar ijtimoiy antropologiyada dinamik tahlilni yuzaga chiqarishga ta'sir etadi. Bu masala bilvosita va bevosita shaxsiy, mahalliy, milliy va hattoki global miqyosda tahlil etiladi.

Ma'lum bir etnik guruhning o'xshashlik tamonlari nuqtai nazaridan birlashishi etnik mansublik deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda, etnik mansublik insonlar jamoasining boshqa jamoalardan madaniy va tabiiy jihatdan ahamiyatli darajada farq qilishi va o'ziga xos ijtimoiy va madaniy o'ziga xoslikni kasb etishi tushuniladi. Bu mamlakatlar yoki jamiyatlar o'rtasida madaniy farqlanishga asos bo'la oladi.

Etnik jamoa a'zolarining e'tiqodlari, qadriyatlarini, urf-odatlarini va me'yorlari jihatdan o'ziga xoslik tarzida umumiylikni kasb etadi. Bu o'ziga xoslik til, din, tarixiy tajriba, geografik sharoit, irqiy farqlanish kabi sababidan yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Etnik guruhlar ma'lum joylarda birdamlik va uyushgan holda yashashi ham mumkin.

Etnik guruhlarini o'zlarini tili, dini, geografiyasi, tarixi va kelib chiqishi yuzasidan ham aniqlash mumkin. Etnik guruhlarini biologik nuqtai-nazardan asoslanganda irq borasida tushunchalar paydo bo'ladi. Bunga qaramay, irq madaniy va biologik kamsitish atamasidir. Biroq hozirgi kunda bu ancha eskirgan va iste'moldan chiqqan atama hisoblanadi.

Antropologlar aytishadiki irq madaniy va ijtimoiy jihatdan yaratilgan deb, ular insonlar ijtimoiyligi yaratganligi nazarda tutishib biologik mavjudlik emas deb ta'kidlashgan. Irq etnik masublika o'xshab biologik reallik emas, balki madaniyat kategoriyasiga kiradi deb ta'kidlashgan.

Irqchilik ijtimoiy va siyosiy jihatdan ko'p ishlatiladigan termin bo'lib, biologik tushunchalar orqali bir guruhning boshqa guruh ustidan o'zini ustun qo'yishidir. Irqchilik biologik farqlanishni o'z ichiga olib xalqlar o'rtasidagi munosabatlarga rahna solishga sabab bo'luvchi tushuncha hamdir. Dunyodagi har bir nuqtasidagi

irqiy jihatdan tasniflash yaxshi mazmunga ega deb tavsiflanmaydi. Bu odatda ma'lum bir guruh odamlarning boshqa biridan ustun qo'yishini anglatadi. Shu sababdan, agar hatto u fuqarolik tushunchalarida biologik tushuncha bo'lsa ham, irq biologik mansublikni ifodalashi qiyin. Irq borasida bunday tushunish olimlar orasidan ko'ra keng jamoatchilik orasida muhimroq hisoblanadi. Antropologlar bunga boshqalarga qaraganda fundamental tarzda yondashishdan yiroq bo'lishadi.

Haqiqat shuki, qadim zamondan insonlar yuqori va past turuvchi irqilar majudligiga ishonishgan va bu ishonishlar hozirgi zamonaviy jamiyatlarda qahr va g'azabni uyg'otmoqda. Bu ozchilik guruhlarining ko'pchilik tamonidan ekspluatatsiya va ustunlik qilishlarining asosiy manbasi bo'lib kelgan.

Lekin inson bolasi dunyoga kelgandan keyin o'z-o'zini, atrof-muhitni dunyoni bilishi, o'qishi, o'rganishi, tarbiyalanishi, diniy va dunyoviy ilmlarni egallashi, diniy, axloqiy, estetik, badiiy, huquqiy, siyosiy qarashlarga ega bo'lishi, o'zining ichki ma'naviy dunyosini hosil qilish, mustaqil fikrlovchi shaxsga aylanishi kabi uning ma'naviy-ruhiy jihatlari ham borki, bularsiz uning insonligi mumkin bo'lmaydi.

Umumiy ko'rinishlariga ko'ra irqilar biologik farqlanishlari bilan ahamiyatli deb biladigan madaniy kategoriyadir. Bundan tashqari irqni biologik atama deb tushunish bir muncha kamsitish hamdir. Ya'ni bu boshqa ilmiy fakt sifatida qabul qilinmadi.¹

Etnik identifikatsiya. Har bir madaniyat doirasida o'xshashlik – o'zgaruvchan va vaziyatga oid kattalikdir. Shunday qilib, qishloqda inson qishloqda o'zini yashovchi sifatida his qiladi va boshqalar tomonidan ham shu kabi qabul qilinadi. Shaharda esa uni o'z shevasi, odatlari, marosimlariga ega bo'lgan joyning vakili sifatida qaraladi. Boshqa davlat bilan urush jarayonida esa u avvalambor – o'z mamlakatining fuqarosidir. Boshqa so'zlar bilan aytganda, etnik o'xshashlik chegaralari harakatchan, o'suvchan va madaniy jihatdan bog'liq.

¹ Introduction to Sociocultural Anthropology. - Debub University. - P.137-141.

Etnik o'xshashlik, sinfiy o'xshashlik kabi ko'pincha mafkuraning asosiga aylanadi, uni vujudga keltiruvchi va unga amal qiluvchi guruhlar esa etnotsentrik harakatlarni boshqaradilar.

Etnos ham o'z navbatida, bugungi kunda atrof-muhit va boshqa birliklar bilan o'zaro munosabatdagi, tuzilmaga oid-funksional va dinamik, sinxron va diaxron tartibdagi yaxlitlik sifatida ifodalanishi mumkin bo'lgan madaniy birlikni belgilovchi markaziy toifalardan biri hisoblanadi. Mazkur toifa an'anaviy ravishda avloddan avlodga o'tib keluvchi muayyan o'xshash jihatlarga ega bo'lgan odamlarga tegishli. "Odatda bu kabi jihatlarga irqiy mansublik, teri rangi, geografik kelib chiqish, til, urf-odat, din kabilarni kiritadilar. Ular hattoki tashuvchilar sifatida tan olinmasa-da, o'xshash jihatlarga ega bo'ladi, va shu ma'noda obyektiv tabiatga ega bo'ladi. O'xshash jihatlarning muayyan to'plamiga ega bo'lgan chehralar, xuddi moddiy tengsizlik tizimida umumiy vaziyatni egallab turgan shaxslar guruhini aks ettiruvchi ijtimoiy sinf kabi umumiy etnik asosga tegishli bo'lgan guruhni tashkil etadi".

Etnik guruh madaniy birlik sifatidamajburiy xususiyatlar majmui sifatida ifodalanadi. Birinchidan, o'ziga xos etnik jihatlarning namoyon bo'lganligi. Ikkinchidan, o'xshashlik fenomenining mavjudligi bilan: odamlar bu kabi jihatlarning to'plamiga egalikni, ya'ni etnik toifaga tegishlilikni tushunadilar va qadrlaydilar. Uchinchidan, muayyan tashkiliy tuzilmaning mavjudligi bilan, ya'ni gap umumiy etnik o'z-o'zini identifikatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxslarning o'zaro barqaror aloqaga kirishuvchi uyushmasi haqida bormoqda.

Bu turdagi xususiyatlarning o'ziga xos jihati, avval aytib o'tganimizdek, ularning shaxsiy tanlov yordamida emas, balki madaniy jihatdan meros qilib olinishi yoki singdirilishi orqali o'zlashtirilishi, deb hisoblanadi. Ayni vaqtda gap qondosh aloqalar emas, balki ko'p hollarda ajratib ko'rsatish o'ta murakkab bo'lgan ijtimoiy-madaniy xususiyatlar haqida boradi. Etnik identifikatsiya, yoki odatda aytiladiganidek, "etnik toifa" yetarli darajadagi barqaror madaniy jihat hisoblanadi. "Etnik guruhlar o'zgartirilishi, tartibga solinishi va hatoki parchalanishi mumkin, ayni vaqtda

etnik toifalar siyosiy bosimga yetarli darajada barqarordir. Etiklikni nazorat qilishning eng yodda qolarli tarixiy xatolardan biri sotsiologik barqaror etnik toifalarni assimilatsiya qilish siyosati bo'lgan!"

Shunday qilib, demografik va sinfiy jihatlarga qo'shimcha sifatida etnik jihatlar inson uyushmalarining "tabiiy" va ilmiy o'zgarishlarining muhim asosini etadi.

Avstraliya aborigenlari¹

Avstraliya hududiga ilk odamlar bundan taxminan ellik ming yillar avval kelib o'rmasa boshlagan. 1788-yilda Britaniya Avstraliyani o'z koloniyasiga aylantirgan vaqtda butun qit'ada ikki yuz yoki undan ortiqroq aborigen tilida so'zlashuvchi jamoalar mavjud edi. Mustamlakalashtirish jarayoni izchil kechgan hududlarda aborigenlarning iqtisodiyoti asta-sekinlik bilan tanazzulga yuz tutdi. Endilikda ular haqidagi ma'lumotlarni faqatgina tadqiqotchilarning xabarlarida uchratish mumkin. Biz mana shunday xabarlar orqali doimiy bo'lmagan qarorgohlar, eyishga yaroqli ildizlarni (*Dioscorea sp.*) etishtirish va ilonbaliq to'siqlari inshootlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Bunday amaliyotlar yaqin orada o'tkazilgan arxeologik izlanishlar natijasida qit'aning janubiy va janubi-g'arbiy hududlarida mavjud bo'lganligi o'z tasdig'ini topgan bir vaqtda Avstraliya antropologiyasi asosan Yevropaliklarning qarorgohlaridan uzoq bo'lgan hududlarda ro'y bergan. Avstraliya tub aholisining "tipik" madaniyati haqidagi tasavvurlar ham mana shu hududlardan olingan.

Redklif-Braun va uning izdoshlari jamiyatlarni turlar va urug'larga ko'ra tasniflash chog'ida "antropologik kapalak yig'ish" kabi xatoga yo'l qo'yib, nojo'ya ish qilganliklari uchun keyinchalik Edmund Lich tomonidan mazax qilingan bir vaqtda uning Avstraliyaga oid to'plangan etnografik ma'lumotlarni tartibga solganligi muhim yutuq hisoblanadi. Ushbu narsa aslo

¹ ENCYCLOPEDIA OF SOCIAL AND CULTURAL ANTHROPOLOGY. Edited by Alan Barnard and Jonathan Spencer. London & New York 2002. - page 43.

jiddiy to'siqlarga uchramagan. Ushbu uslub deyarli butunlay tavsiflab berilgan. Insoniyatning turli jamiyatlari nima sababdan o'ziga xos shakllarga ega bo'lishi, vaqt o'tishi bilan taraqqiy etishga olib keladigan tizimlarga moyillik qilishini tushuntirib bera oladigan gipotezalar mavjud emas.

Redklif-Braundan farqli ravishda uning shogirdi V.L. Uorner o'zining etnografiyaga oid klassik asari bo'lmish "Qora sivilizatsiya" ni (1937) yaratish maqsadida Avstraliyaning shimoli-sharqidagi Arngelm Erida joylashgan Millinggimbi degan joyda 1926- va 1929-yillar oralig'ida kengaytirilgan dala qidiruv ishlarini olib borgan. Uorner shimoli-sharqiy Arngelm Yerining tub aholisini *Murngin* deb nomlagan. Bugungi kunda bu odamlar o'zlarini *Yolngu* deb nomlaydilar. Uning etnografiyasi mahalliy tashkilot, urug'chilik, urush, din va Indoneziyalik baliqchilar bilan ayriboshlash va munosabatlarga (bugungi kun uchun xos bo'lmagan) oid dalillar haqida umumiy ma'lumotlarni taqdim etadi.¹

Etnoslarning hududiy joylashuvi bo'yicha tasniflanishi

✓ Paleolit davri yakunida (taxminan 15 ming yil oldin) Yerdagi odamlarning umumiy soni taxminan 3 mln. atrofida bo'lgan.

✓ 4-5 ming yil avval Yerdagi aholi taxminan 25 mln kishiga ko'paygan.

✓ ikki ming yil oldin yer yuzi aholisi 150-200 mln. kishiga etgan. Arxeolog va paleontolog mutaxassislarining fikrlaricha, bu davrda asosiy aholining 70% Osiyoda yashagan.

✓ Milodiy eraning oxirgi XIX asri mobaynida Yer shari aholisi 10 marta ko'paygan.

✓ 1500-yildan 1750-yilgacha aholi soni taxminan 300 mln. kishiga ko'paygan bo'lsa, 1750-yildan 1900-yilgacha 910 mln.ga ko'paygan. Aholi sonining intensiv o'sib borish jarayoni 19-asrning ikkinchi yarmiga taalluqli bo'lib, bu davrda odamlarning o'rtacha yashash yoshi oshgan.

¹ ENCYCLOPEDIA OF SOCIAL AND CULTURAL ANTHROPOLOGY. Edited by Alan Barnard and Jonathan Spencer. London & New York 2002 page 44-45

✓ Yer shari aholisi notekis joylashgan bo'lib, 70 foiz aholi quruqlikning atiga 7 foizidagina istiqomat qiladi.

Sharqiy yarim sharda 80 foiz va janubiy yarim sharda esa 2,0 foiz aholi yashaydi.

Aholi sonining o'sishi yoki kamayishi o'ziga xos tarixiy, ijtimoiy va biologik sabablar bilan bog'liq bo'lgan. XX-XXI asrlarda yer sharida odamlar soni juda tezlik bilan o'sib bormoqda. Bunga 50 yil oldin Yer shari aholisi hozirgiga qaraganda ikki baravar kam bo'lganligi va aholining qariyb yarmidan ko'pi 25 yoshga yetmasdan vafot etganligi yorqin misol bo'la oladi.

XX asrda Yer shari aholisi jadal sur'atda ko'payib borgan. Ona zaminda istiqomat qilayotgan odamlar soni 3 mlrd.dan oshgan, yoki amalda 3 baravarga ko'paygan. Bunda Lotin Amerikasi (6,1 marta) va Afrika mamlakatlarida (4,7 marta) ko'paygan bo'lsa, Yevropa aholisi (1,7 marta) va sobiq SSSR aholisi (2,1 marta) nisbatan kam ko'paygan.

Aholisi nufusi 80 mln dan oshiq bo'lgan mamlakatlar (2012 yil)

Mamlakatlar	Aholi soni	O'sish ko'rsatgichi
XXR	1 354 790 000	▲ 0,481 %
Hindiston	1 227 150 000	▲ 1,312 %
AQSh	314 705 000	▲ 0,899 %
Indoneziya	237 641 326	▲ 1,040 %
Braziliya	199 321 000	▲ 1,102 %
Pokiston	190 291 000	▲ 1,551 %
Nigeriya	170 123 000	▲ 2,553 %
Bangladesh	161 083 000	▲ 1,579 %
Rossiya	143 180 000	▲ 0,013 %
Yaponiya	127 368 000	▼ -0,077 %
Meksika	114 975 000	▲ 1,086 %
Filippin	103 775 000	▲ 1,873 %
Vetnam	91 519 000	▲ 1,054 %
Efiopiya	91 195 000	▲ 3,179 %
Misr	83 688 000	▲ 1,922 %
Germaniya	81 305 000	▼ -0,200 %

Villar	Jami	Afrika	Osiyo	Yevropa	Markaziy va Janubiy Amerika	Shimoliy Amerika	Okeaniya
1750	791 000	106 000	502 000	163 000	16 000	2 000	2 000
1800	1 000 000	107 000	657 000	203 000	24 000	7 000	2 000
1850	1 262 000	111 000	809 000	276 000	38 000	26 000	2 000
1900	1 650 000	133 000	947 000	408 000	74 000	82 000	6 000
1950	2 518 629	221 214	1 398 488	547 403	167 097	171 616	12 812
1955	2 755 823	246 746	1 541 947	575 184	190 797	186 884	14 265
1960	3 021 475	277 398	1 701 336	604 401	218 300	204 152	15 888
1965	3 334 874	313 744	1 899 424	634 026	250 452	219 570	17 657
1970	3 692 492	357 283	2 143 118	655 855	284 856	231 937	19 443
1975	4 068 109	408 160	2 397 512	675 542	321 906	243 425	21 564
1980	4 434 682	469 618	2 632 335	692 431	361 401	256 068	22 828
1985	4 830 979	541 814	2 887 552	706 009	401 469	269 456	24 678
1990	5 263 593	622 443	3 167 807	721 582	441 525	283 549	26 687
1995	5 674 380	707 462	3 430 052	727 405	481 099	299 438	28 924
2000	6 070 581	795 671	3 679 737	727 986	520 229	315 915	31 043
2005	6 343 628	887 964	3 787 508	724 722	558 281	332 156	32 998

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Neandertal odamning evolyutsiyasiga biologik va sotsial omillarning ta'siri
2. Irqlar haqidagi tushuncha
3. Insoniyatning populyasion rang-barangligining evolyutsion qimmati
4. Irqlar va intellekt
5. Etnik antropologiya
6. Etnik mansublik

Nazorat savollari

1. Zamonaviy insonning shakllanish omillarini sanab bering
2. Antropogenez atamasini izohlang.
3. Etnos va irqiy mansublik muammosi hozirgi kunda qanday?
4. Etnoslarning hududiy joylashuvi bo'yicha tasniflanishi bo-rasida ilmiy qarashlar qanday?

4-MAVZU. IRQLAR, IRQCHILIK VA KSENOFOBIYA

Reja:

1. Irq va irqchilik, irqlarning vujudga kelishi
2. Irqlikga oid nazariyalar
3. Irqlarni tasniflash
4. Irqiy munosabatlar muammosi va irqchilikning zamonaviy ko'rinishlari

Tayanch tushunchalar

Populyasion konsepsiya, tarixiy konsepsiya, irqiy kamsitish siyosati, irqlar farqlanishi, ijtimoiy belgilar, biologik belgilar

Irq – bu insonni faqatgina biologik farqlanish belgilariga ko'ra ahamiyatini hisobga olib ajratishdir. Klassik irqiy belgilar tashqi ko'rinishda quydagi belgilar bilan farqlanishi mumkin: ko'z rangi va shakli, lab, burun, soch, teri rangi, yuz tuzilishi, bosh shakli. Odamlar bir-birlarini asosan yuz belgilaridan tanib olishadi. YUZ belgilari muhim irqiy belgi hisoblanadi. Shuningdek, tana tuzilishi – bo'y va og'irlik, qaddi-qomat yordamchi vazifani bajaradi. Lekin tana belgilar irqiy belgilar ichida sharoit nuqtai nazaridan o'zgaruvchan hisoblanadi. Shuning uchun yuz belgilari asosiy irqiy belgili hususiyat sifatida olingan.

Biologik va ijtimoiy belgilar o'rtasidagi bog'liqlik yo'qligi hisobga olib insonlar guruhini turlicha usullarda tasniflarga ajratishga to'g'ri keladi.

Qadimdan o'z-o'zini anglagan, o'z mavqei belgilab olgan odamlar guruhini etnos deb atash mumkin. Bu asosan til, madaniyat, an'ana, din, madaniy-xo'jalik turi amalga oshirida farqlanishiga qarab belgilanadi. Bu hodisalar odamlarning biologik xususiyati bilan bog'liq bo'lmaydi. Biologik va ijtimoiylik hodisasi faqatgina tarixiy bog'liqlik hisoblanadi.

Odamlar u yoki bu etnik guruhga birlashib, asta sekinlik bilan millatni tashkil etadi. Qabila – insonlar eng oddiy ijtimoiy-etnik tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Millatlarni birlashtirib xalqni tashkil qilishi ijtimoiy tashkilotning eng yuqori cho'qqisi

hisoblanadi. Bir kichik qabila boshqa qabila bilan odatda bir antropologik turga kiradi va u yoki boshqa tamondan qarindoshlik darajasida bo'ladi. Bir xalqning vakillari antropologik turga ko'ra turlicha ham bo'lishi mumkin.

Atigi bundan bir necha ming yil ilgari yer yuzi aholisi bunchalik ko'p va zich joylashmagan edi. Odamlar o'zlashtirgan erlar hozirgidan kam farq qilgan. Odamlar ilk paleolit davridan boshlab sayyoramizning yashash mumkin bo'lgan joylariga etib borishgan. Shunday holatlar ham bo'lganki, ajralib qolgan guruhlar boshqa aloqalarni uzoq vaqtga yo'qotgan. Tashqi dunyo bilan aloqa mavjud bo'lmasligi insonlar turlicha darajadagi farqlanishlar sharoitida rivojlanishiga olib kelgan. Bunga ikki asosiy sabab qilib, biri geografik uzoqlik, ikkinchisi ijtimoiy omilni belgilash mumkin.

Odatda insonlar guruhining boshqa guruhlardan ajrab qolishiga orollar, turli tog' vodiylari, o'tib bo'lmas o'rmonlardan makon topishlari sabab bo'lgan. Ajralishlar turlicha mashtabda bo'lishi mumkin. Misol uchun, Janubiy va Shimoiy Amerika xindular deyarli ming yildan ortiq vaqt davomida insoniyatning boshqa dunyosidan ajralgan holda yashadi.

Bundan tashqari And va amazonka selve qabilalari boshqa hindu qabilaridan ajragan holda yashagan. Avstraliya aborigenlari boshqa dunyo bilan ming yillar ajragan holda yashagan shuningdek qit'ada alohida geografik barerlar ham mavjud bo'lgan. Masalan, pigmey qabilalari faqat qit'aning sharqiy qirg'oqlarida barrinoslar tog'larda istiqomat qilishgan.

Aniq bir insoni ko'rinishlarini tavsiflab, uning u yoki bu irqga mansubligi aniqlashlash tipologik yondashuv hisoblanadi. Buning tarafdorlari irqning o'ziga xos xususiyati namunalariga qarab turlarga ajratishni ko'zda tutadi. har bir individ qandaydir xususiyatiga ko'ra u yoki bu irqiy turga mansub bo'ladi. Misol: qalin lablar va katta burunlar, jingalak sochlilik va qora tanlilik negroid irqqa mansublikni bildiradi. Shunday sxemaga ko'ra insonlarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Bu yondashuvga murakkablik shundaki oq tanli bo'lgan insonlarni qaysi irqga mansubligini aniqlash qiyinligidadir. Chunki ozgina o'xshashlik

farqlarida adashish aka-ukalarni ham boshqa boshqa irlarga ajratib ko'rsatish olib kelishi mumkin. Bunday belgilar va turlarning soniga qarab insoning irqini aniqlashtirish o'zgarishi mumkin.

Populyasiya ta'limoti

Irqshunoslikda populyasiya ta'limoti juda ahamiyatli hisoblanadi. Unga ko'ra irq – bu populyasiyalar majmuidir. Aniq bir insonni u yoki bu irqga mansubligini individual xususiyatiga ko'ra emas, balki u yoki bu populyasion omillarga tegishligiga qarab turlanadi.

Irqiy belgilar avloddan-avlodga kompleks tarzda meros bo'lib ham o'tmasligi mumkin. Juda ko'plab evolyutsion va populyasion jarayonlar tufayli irqiy belgilar noaniq bo'lib borishi ham mumkin.

Ba'zida irqlar bir-biridan juda farq qiladi, ularni adashtirib yuborish mumkinmasdek tuyuladi. Lekin bunday emas. To'g'ri Markaziy Afrika pigmeylarini Tibet aholisidan farqlash mumkin, lekin Kongo va Mekongada juda o'xshash odamlarni uchratish mumkin. Turli xil geografik sharoitlardagi odamlarni o'rganib, ularda ba'zi bir irqiy belgilarda o'xshashlik borligini aniqlash mumkin.

Tarixiylik ta'limoti

Irqlarning tarixiylik ta'limoti antropolog olim Bunak tomonidan ilgari surilgan. Unga ko'ra irq – tarixiy kategoriya darajasining cho'qqisi hisoblanadi.

Modomiki, irqlar doimiy rivojlanish sharoitida ekan, har bir tarixiy davrda o'zining irqlari mavjud bo'ladi. Qadimgi arxantrop va neandertal odamlarining ham o'ziga xos irqlari mavjud bo'lgan.

Bunakning fikriga ko'ra, irqlarning o'zgarish jarayoni to'xtovsiz yuz beradi va irqlarining bir-biri bilan qo'shilib ketishi tahlil qilish ham ko'p ahamiyatga ega bo'ladi.

Yirik rus antropolog olimi Alekseev irqlarni vujudga kelishi va mavjud bo'lishi ularning tasniflanishi borasida quydagicha modelni taklif etadi. U ilk paleolit davrida irqlar vujudga kelishi o'choqlari mavjud bo'lgan va turli darajadagi irqlar shakllanishi aynan shu davrga borib taqaladi deb tushuntirish beradi. Bu

o'choqlarni u birinchi, ikkinchi va uchinchi darajalarga bo'lib chiqqan. Irqlar shakllanishining dastlabki o'chog'i katta irqlar yuzaga kelishining markazi hisoblanadi. Ikkinchisi esa, kichik irqlar uchun o'choq. Har bir alohida o'choqda zamonaviy irqlarda asos bo'lgan, muayyan irqiy belgilarning kompleksi mavjud bo'lgan. Mavjud o'choqlar bir – biridan to'laligicha ajramagan holda bo'lgan.

Irqlarni kelib chiqish tarixini turli mamlakatlardagi genetik ma'lumotlarni bir biriga solishtirish orqali ham amalga oshirish mumkin. Haqiqatdan ham aksariyat ko'pchilik genlarda tasodifiy tanlov asosida olingan odamlar guruhida ular o'rtasida hech qanday farq yo'q.

Irqlar mavjud emasligi borasidagi noreallik aksariyat morfologik belgilarning geografik taqsimoti va individual o'zgaruvchanlik xususiyatlari bilan bog'lash mumkin.

Irqlarni tasniflashni ko'lab turlari mavjud. Ular asosan belgili hususiyatlarni farqlanishiga qarab guruhlangan va tasniflangan. Irqiy sxemalarni shartli ravishda ikki katta guruhga ajratish mumkin: belgi hususiyati bilan cheklangan; belgilarning o'zgarish mumkinligiga qarab.

Irqlarni bunday turda tasniflash borasida yorqin sxemalardan biri polshalik antropolog olim Y. Chekanovskiy tomonidan ishlab chiqilgan. U ishlatgan belgilar va ularning tarkibiga qarab uning sxemasi ham faqat sharti ekanligi bilamiz. Shunga qaramay irqlarga oid insoniyatning umumiy tushunchasidan farqli ekanligi ko'ramiz.

Ikkinchi tasniflash turida ochiq belgilar to'plamiga qarab tuzilgan sxemalarni ko'rishimiz mumkin. Irqlarning geografik joylashuvi tasniflashdagi asosiy qoida hisoblanadi. Dastlab irqlarning dunyo xaritasida egallagan o'rni aniqlanadi va keyin ular ichida alohida belgilariga ko'ra yana turlarga ajratiladi.

Antropolog olim Daniker irqlarni belgi turlariga qarab, antropologik xilma-xillikda guruhlarga ajratgan. Danikerning sxemasi boshqa antropolog olimlarning qarshiligiga uchragan bo'lsa ham, hozirgi zamonaviy irqiy munosabatlarga to'la javob beradi. U dastab 6 ta asosiy undan so'ng 29 ta ikkinchi darajalari irqlari

farqlanishlarini keltirib o'tgan. Uning 1902-yilda yaratgan jadvalida faqatgina biologik belgilar hisobga olingan.

Antropolog olim Bunakning irqlar joylashuvi bo'yicha jadvali

No	Asosiy irqiy guruhlar	Kichik irqiy guruhlar
1	Junsimon sochlar va katta burunlar	Bushmen, negritoss, negr, melaneziya
2	Jingalak va to'lqinsimon sochlar	Efyofiya, avstraliya, dravidiy, assiroid
3	To'lqinsimon qora sochlar va qora ko'zlar	Hind-afg'on, arab, berber, o'rta yer dengiz bo'yi, iberiy, g'arbiy, adriatika
4	To'lqinsimon yorqin sochlar va yorqin ko'zlar	Shimoliy va Sharqiy
5	Tekis yoki to'lqinsimon sochlar va qora ko'zlar	Ayn, polinizey, indoneziya, janubiy amerika
6	Tekis sochlar	Shimoliy Amerika, O'rta Amerika, patagon, eskimos, lomar, ugor-enisey, turon, mongol

Etnoslarning hududiy joylashuvi bo'yicha tasniflanishi

Tropik	Afrika	Bushmen Negril Negro-Gvineya Sudan Nilot
	Okeaniya	Tasman Negril Papua Melaneziya
Janubiy	Kontinental	Badariy Veddoid
	Janubiy Indoneziya	Avstraliya Indoneziya Polineziya Kurill

G'arbiy	Kushit	Berber Efyopiya	
	O'rta Sharq	Semmit-arab Suriya-Eron Farg'ona Pontiya Kavkaz Kaspiy	
		O'rta er dengizi	Iberiy Ligur Quy Dunay Bolqon
		Yevropa	Atlantika Markaziy G'arbiy Yevropa Boltiq Markaziy Sharqiy Yevropa Subarktika
Sharqiy	Ural	Ural	
	Sibir	Samodiy Evenkiy mongol, O'rta osiyo Turk, O'rta Osiyo Sibir-Artika Osiyo-Amerika Artika	
	Janubiy Osiyo	Xitoy Myao-yao Vet Janubiy Osiyo Kxmer Janubiy Osiyo Yapon	
	Amerika	Tinch Okeani Atlantika Markaziy Amerika Amazonka And Neoartika Patagon	

Irqchilik – irqiy kamsitish siyosati. Fransuz olimi J.A. Gobino XIX asr o'rtalarida birinchi bor irqchilik g'oyalari ilgari surib "oriylar" ni oliy irq deb e'lon qiladi. Irqchilik fashizmning rasmiy

mafkurasiga aylanadi. Irqchilik asosida Janubiy Afrikada apoteid siyosati olib borilgan. Irqiy kamsitishlarni to'xtatish borasida xalqaro konvensiya qabul qilingan. O'zbekiston 1995-yil 31-avgustda ushbu konvensiyaga qo'shilgan.

Antropologlar fikricha, irq madaniy va ijtimoiy jihatdan yaratilgan. Irq etnik mansublika o'xshab biologik reallik emas, balki madaniyat kategoriyasiga kiradi deb ta'kidlashgan.

Irqchilik ijtimoiy va siyosiy jihatdan ko'p ishlatiladigan termin bo'lib, biologik tushunchalar orqali bir guruhning boshqa guruh ustidan o'zini ustun qo'yishidir. Irqchilik biologik farqlanishni o'z ichiga olib xalqlar o'rtasidagi munosabatlarga rahna solishga sabab bo'luvchi tushuncha hamdir. Dunyodagi har bir nuqtasidagi irqiy jihatdan tasniflash yaxshi mazmunga ega deb tavsiflanmaydi. Bu odatda ma'lum bir guruh odamlarning boshqa biridan ustun qo'yishini anglatadi. Shu sababdan, agar hatto u fuqarolik tushunchalarida biologik tushuncha bo'lsa ham, irq biologik mansublikni ifodalashi qiyin. Irq borasida bunday tushunish olimlar orasidan ko'ra keng jamoatchilik orasida muhimroq hisoblanadi. Antropologlar bunga boshqalarga qaraganda fundamental tarzda yondashishdan yiroq bo'lishadi.

Haqiqat shuki, qadim zamondan beri odamlar yuqori va past turuvchi irqqlar mavjudligiga ishonishgan va bu ishonishlar hozirgi zamonaviy jamiyatlarda qahr va g'azabni uyg'otmoqda. Bu ozchilik guruhlarning ko'pchilik tamonidan ekspluatatsiya va ustunlik qilishlarining asosiy manbasi bo'lib kelgan.

Lekin inson bolasi dunyoga kelgandan keyin o'z-o'zini, atrof-muhitni dunyoni bilishi, o'qishi, o'rganishi, tarbiyalanishi, diniy va dunyoviy ilmlarni egallashi, diniy, axloqiy, estetik, badiiy, huquqiy, siyosiy qarashlarga ega bo'lishi, o'zining ichki ma'naviy dunyosini hosil qilish, mustaqil fikrlovchi shaxsga aylanishi kabi uning ma'naviy-ruhiy jihatlari ham borki, bularsiz uning insonligi mumkin bo'lmaydi.

Umumiy ko'rinishlariga ko'ra irqqlar biologik farqlanishlari bilan ahamiyatli deb biladigan madaniy kategoriyadir. Bundan tashqari irqni biologik atama deb tushunish bir muncha kamsitish hamdir. Ya'ni bu boshqa ilmiy fakt sifatida qabul qilinmadi.¹

¹ Introduction to Sociocultural Anthropology. Debub University. - P. 137,138,139.

Klassik irqiy belgilarni bu nuqtai-nazarni yoqlovchilar rad etadilar. Ular irqiy belgilar murakkab genlar orqali avloddan avlodga o'tib boradi va buni turli hil yoki bir xil ekanligi hozirgi fan hali hamon o'rganish qobiliyatiga ega emas deb fikr yuritishadi.

G'arb tadqiqotchilarning irqiy reallikni rad etishi G'arbiy Yevropadagi va Shimoliy Amerikadagi irqchilik munosabatlarning havotirli holati bilan bog'liq. Oxirgi vaqtlarda MDH mamlakatlarda ham irqchilik muammolari ko'zga tashlanmoqda. AQSHning ko'plab shtatlarida qora tanli va kelib chiqishi Lotin Amerikalik bo'lgan aholi soni bo'yicha ko'pchilikni tashkil etadi, Yevropadagi immigrantlar asosan G'arbiy Afrika va Yaqin Sharqdan kelishgan, shuning uchun u erlarda irqiy munosabatlar juda nozik masala hisoblanadi.

Yevropa va Amerikada siyosiy va iqtisodiy elita vakillarini kelib chiqishi yevropaliklarga borib taqaladi. Shu sabab, qolgan irq vakillari o'zini ozchilik xis qilib kamsitilgandek tuyulishi mumkin. Oxir oqibat bu irqchilikka sabab bo'lishi mumkin. Tabiiyki, hukumat jamiyatdagi bu kasallikni davolash uchun har qanday chorani ko'radi. Ko'pincha siyosiy maqsadlarda "negr" so'zi "Afro-Amerikalik"ga, "Hindu" so'zi "tub amerikalik" so'zlariga almashtirilib ishlatiladi.

Bu holat ham u erdagi antropologiya faning nuqtai-nazariga ham bevosita ta'sir etgan. Irq bilan bog'liq tadqiqotlar hamma darajada tanqidga va ta'qiqga uchramoqda. Fanda irqning mavjud emasligi bilan ular ijtimoiy muammoni oldini olishni ko'zlamoqda.

Irqlar farqlanishi global miqyosda anglash 1960-yillardan boshlab yuzaga kela boshladi. Biroq irqchilik irqiy o'zini ustun qo'yish natijasining ijtimoiy tashkil etishidir. AQSH 1930- va 1940-yillar mobaynida bir qancha ijtimoiy antropologlar irqchilikni darajasini o'rganishib uning shimoldagi qora tanlilar gettolari yuzaga kelishi va segeratsiyasi jarayoni tahlil etishgan. Bundan tashqari antropologlar irqiy jamiyatlarning tarixiy shakllanishi, irqiy kategoriyalarni mahalliy va siyosiy iqtisodiy darajada qanday amal qilishi o'rganishgan.

AQSHda olib borilgan tadqiqotlar irqiylik xususiyatidan ko'ra etnik mansublikka qaratilgani bilan farqlanadi. Yevropa va Shimoliy Amerika jamiyatlaridagi multikulturilizatsiya jarayoni 1990-yildan boshlab vaziyatni o'zgarishiga sabab bo'lgan. Dunyoning repressiv rejimlaridan o'zini qochqin sifatida Yevropa va Amerikada qochqin sifatida panohtopishi bu erlardagi etnik va irqiy kamsitilishlarga yo'l qo'yilmaydigan ijtimoiy tizimlar mavjud degan tushchalar beriladi.

Bunday sharoitda antropologlar faqatgina yangi mavzudagi tadqiqotlarga emas, irqchilikning jamiyatga ta'siri va uning institutlashuvi masalasini o'zlarining fanning ichiga kiritishi zarurati ham tug'iladi.¹

Ksenofobiya so'zi ikki qismdan "ksenos" iborat bo'lib, grek tilida begona, boshqacha fikrlovchi, va "fobos" – qo'rquv, degan ma'nolarni anglatadi. Muayyan shaxsda o'zi uchun tanish bo'lmagan odamlar, yoki noan'anaviy urf-odatlar oldida asossiz qo'rquv hissi vujudga keladi. Ksenofobiya – bu kuchli nafrat va boshqalarning dunyoni qabul qilishi, madaniy qadriyatlariga nisbatan murosasizlik, xorij madaniyatiga bo'lgan nafrat – yolg'on vatanparvarlik hissi.

Ijtimoiy jihatdan chet ellik odamlarni qat'iy qabul qilmaslik yetarli darajada tajovuzkor tabiatga ega bo'lishi mumkin – ksenofobiya xavfsizlikka tahdid solgan holda jiddiy bahslarning vujudga kelishiga psixologik turki bo'lib xizmat qilishi mumkin. Zamonaviy insoniyat tarixida ksenofobiyaning aniq jihatlariga ega bo'lgan millatlararo nizolar vujudga kelganligini tasdiqlovchi faktlar mavjud. Jamiyatning milliy va irqiy farqiga ko'ra "o'ziniki" va "tahqirlanganlar"ga ajratilishi – bu mumkin bo'lmagan holat, biroq bu kabi vaziyat hozircha mavjud bo'lib kelmoqda. Fobiya har qanday ko'rinishda ham – vahimali qo'rquv, u odamlarni ma'nosiz va axmoqona harakatlarga itaradi, atrofdagi dunyoni noto'g'ri tushunishga olib keladi. Olimlar tarixiy o'zaro munosabatlar – urush, bosib olishlar, madaniy qadriyatlarining

¹ Encyclopedia Of Social And Cultural Anthropology. Edited by Alan Barnard and Jonathan Spencer. - London & New York, - P. 699-700

ko'inishini o'zgartirish jarayonida genetik ksenofoyuiya shakllanishi mumkin. Psixologlarning ta'kidlashicha ksenofobiya yuqumli – u boshqalarga osonlik bilan yuqishi mumkin. Bu kabi holatni ksenofobiyaning eng ko'p tarqalgan turlariga ajratish mumkin:

- irqiy;
- diniy;
- hududiy;
- etnik;
- maishiy;
- ijtimoiy.

Ksenofobiya – ko'ngilsiz kurash, agar u ochiq shaklda namoyon qilinsa odamlar, millatlar zarar ko'rish mumkin. Shuningdek, ksenofobiyaning juda kam hollarda namoyon bo'luvchi turlari ham mavjud:

1. **Seksizm** – qarama-qarshi jinsga bo'lgan murosasiz (nafratli) munosabat.
2. **Eydjizm** – yoshga oid ravishda odamlarga haqoratomez munosabat.
3. **Gandikapizm** – insonni cheklangan jismoniy imkoniyatlariga ko'ra diskriminatsiya qilish (kamsitish).

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. *Irqlar haqidagi tushuncha*
2. *Insoniyatning populyasion rang-barangligining evolyutsion qimmati*
3. *Irqlar va intellekt*
4. *Millat va irq*
5. *Etnik antropologiya*

Nazorat savollari

1. *Irq va irqchilik hozirgi kundagagi ahamiyatini bayon eting*
2. *Irqlarning vujudga kelishi borasidagi ilmiy qarashlar*
3. *Irqlikga oid nazariyalarning turfa xilligi nimada?*
4. *Irqlarni tasniflashni borasidagi qarashlarni bayon eting*
5. *Irqiy munosabatlar muammosini va irqchilikning zamonaviy ko'inishlarini izohlang.*

5-MAVZU: INSON VA MADANIYAT. MADANIY TARAQQIYOT VA TURMUSH TARZI

Reja:

1. *Madaniyat tushunchasi va uning ma'noli tarixi*
2. *Madaniy talvasa va uning madaniy me'yor to'qashuvida namoyon bo'lishi*
3. *Madaniy taraqqiyot va zamonaviy jamiyat*

Tayanch iboralar

Madaniyat tushunchasi, madaniy talvasa, madaniy taraqqiyot, madaniyat yaxlitligi, modernizatsiya, identiklik

O'zbek tilidagi ko'plab ensiklopedik lug'atlarda "Madaniyat" arabcha – madina (shahar, kent) so'zidan kelib chiqqanligi yozilib, u tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usulidir, degan ma'noda talqin qilinadi. "Madaniyat alohida shaxs (indivud), sotsial guruh yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradigan tushunchadir. Dastlab, madaniyat tushunchasi insonning tabiatga nisbatan maqsadga muvofiq ta'siri (erga ishlov berish, ya'ni kultivatsiya qilish, lotincha "culture" so'zidan olingan), hamda insonning o'zini tarbiyalash, o'ziga ishlov berish ma'nolarida ifodalagan. Keyinchalik madaniyat tushunchasi vositasida "sivilizatsiya" (taraqqiyot) bilan bog'liq mazmun tushunila boshlandi. Madaniyat inson faoliyatining maxsuli va sifat ko'rsatkichi sanaladi. Insonning o'zi ham pirovard natijada madaniyat maxsulidir. Jamiyatdagi madaniy muhit qanday bo'lsa, inson ham shunday shakllanadi."¹

"Madaniyat" so'zining tarixiga e'tibor qaratilsa, u ijtimoiy hayotda ma'no jihatidan murakkab talaffuzga ega mazmun kasb etib, ilmiy amaliy va kundalik hayotda keng qo'llaniladi. Turli ijtimoiy-gumanitar fanlarda ong va tafakkur bilan bog'liq turli

¹ Фалсафа қомусий лугат. (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров). – Т.: Шарқ, 2004. - 230 б.

sotsial tizimlardagi murakkab tushunchalarning izohini ta'riflashda ham unga murojaat qilinadi.

Madaniyat so'zining ma'nosi fanga qanday qilib kirib kelgani va shakllanganligi to'g'risida tilshunos tadqiqotchi R.Uilyams bildirgan fikrlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu atama "*colere*" so'zidan olingan bo'lib, uning turli Yevropa tillari talaffuziga o'rnashishida lotincha "*cultura*" so'zining ta'siri yuqori bo'lgan. Ijtimoiy fanlarda *solere* atamasi "o'rnashib olmoq", "madaniylashtirmoq", "otaliqqa olmoq", "bo'ysunmoq", "amal qilmoq" kabi ma'nolarda keladi. Ushbu jumalarning ayrimlari vaqt o'tishi bilan o'zining mustaqil ma'nosiga ega bo'lib bordi va ilmiy atamashunoslikda keng qo'llanilib, ayrim holatlarda joyi kelsa ma'no jihatdan bir-birini to'ldirib turadi. Jumladan, "o'rnashib olmoq" so'zi ma'nosi lotin tilidagi "*colonus*" so'zidan olingan bo'lib, keyinchalik *koloniya* so'zining kelib chiqishi uchun sabab bo'lgan. "Amal qilmoq", "bo'ysunmoq" fe'llari esa lotincha "*cultus*" so'zidan olingan bo'lib, hozirgi adabiyotlarda "*sig'inish*" (kult) ma'nosida ishlatiladi.

"*Sulture*" atamasi dastlab "xizmat qilmoq", "amal qilmoq" so'zlariga mazmun jihatidan yaqin bo'lgan "rivojlantirish", "kultivatsiya qilish" ma'nolarini berib, o'rta asrlardagi ingliz tilida u to'g'ridan to'g'ri "xizmat ko'rsatish" ma'nosini anglatgan. Qadimgi fransuz tilida "*couture*" so'zi qisman biomadaniyat izohida qo'llanilib, kundalik hayotda alohida mazmun kasb etgan va keyinchalik "*culture*" shaklida talaffuz qilina boshlandi. Fransuzlarda *sulture* so'zining arxaik foydalanilgan jumllarining barchasida nimanidir, masalan, hayvonot yoki o'simliklar dunyosini madaniylashtirish (kultivatsiya qilish) jihatlari tushunilgan. Bu esa o'z navbatida ushbu atamaning boshqa yevropa xalqlari lahjasida qo'shimcha ma'nolarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Xususan, ingliz tilidagi "*coulter*" – (plug, so'qaning tishi ma'nosida keladi) so'zi lotin tilidagi mehnat qurolini anglatuvchi "*culter*" so'zidan kelib chiqqan. Uning keyingi evolyutsiyasi madaniylashtirish (kultivatsiya qilish), tabiiy hodisa va jarayonlarni insoniyat bilan bog'lash, odamlarni unga o'rgatish va madaniy rivojlantirish bilan bog'liq tasavvurlar bilan

izohlanadi. Shunday bo'lsada ushbu so'zning qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ma'nosi ko'p asrlar davomida saqlanib qolgan. Agrokultura, kultivatsiya kabi so'zlar shular jumlasidandir.

XVIII asrning o'rtalarida Yevropa mamlakatlari, xususan Angliyada madaniyat yoki ilmiy ma'noda kultura atamasi aql va tarbiya bilan uyg'unlashtirildi. Ingliz faylasufi F.Bekon o'z qarashlarida "madaniyat va aqlni parvarishlash" haqida fikrlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqilsa, parvarishlash – bu kultivatsiyaning sinonimi o'rnida keladi. Shu davr ruhoniylari "zodagon kishilarning o'z farzandlarini tarbiyalash uchun cherkovga topshirishni istamayotganlari va buning o'rniga "bola tug'ilganidan uning aqlini madaniyatlashtirib borililayotganligi" (persons of either birth or culture) to'g'risida noliydilar". Bunda ikki jihatga to'xtalib o'tish muhim. Birinchidan, metafora, ya'ni majoziy ma'noda madaniyat bilan tarbiyaning uyg'unlashuvi odatiy bo'lib bora boshladi va unda aql (ong va tafakkur) inson ma'naviy yuksalishini shu ikki omil bilan parvarishlab bordi. Ikkinchidan, insonning ruhiy erkinligi va uning individual sotsial imkoniyatlari ijtimoiy hayotda rivojlanish va takomillashib borish uchun madaniyat atamasidan unumli foydalanishga sabab bo'ldi. Bu esa ushbu atamaning fanlar tizimida yanada universallashtiruviga olib keldi.

XVIII–XIX asrlarda zamonaviy madaniyat so'zining ko'pqirrali, ammo chalkash ma'noli tarixi boshlandi. Bu davrda madaniyatning izohini ifodalovchi "*culture*" talaffuzi yoniga "*civilis*", ya'ni "fuqaroga taalluqli", "fuqaroga oid" ma'noni beruvchi atama qo'shildi. U lotincha "*civis*" – fuqaro so'zi bilan qo'shilgan holda "sivilizatsiya" jamlanmasining o'zagini tashkil qiladi. XX asrning 90-yillarida (keyinchalik ham) o'zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda ayrim tadqiqotchilar ushbu atamani forsiydagi "*tamaddun*" so'zi bilan izohlashga harakat qildilar. Ta'kidlash mumkinki, bu izoh o'zbek tilida o'zining to'liq lug'aviy ifodasini bera olmadi. Xususan, sotsiolog va siyosatshunos tadqiqotchilari orasida keng munozarali asar hisoblangan S.Xantingtonning mashhur asari ingliz tili (*The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*)dan tarjima qilinganda "Tamaddunlar

yoki sivilizatsiyalar to'qnashuvi..." deb emas, balki "Madaniyatlar to'qnashuvi..." deb talaffuz qilinmoqda.

Ijtimoiy fanlarning uzoq muddatli evolyutsiyasi davomida "sivilizatsiya" atamasi dunyodagi tarixiy jarayonlar va uning yutuqlarini, insonning jismoniy, ma'naviy va ruhiy kechinmalaridagi axloqiy tarbiyaning poklanishi, qonunchilik ustuvorligi hamda jamiyatdagi sotsial tartib ma'nolarini anglatib keldi. XIX asrning oxirlarida dastlab Fransiya, keyinchalik Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlarida sivilizatsiya so'zi ko'plik ma'nosida qo'llanila boshlandi. Mustamlakachilik siyosati bir vaqtning o'zida yangi madaniyatlar bilan to'qnash keldi va buning natijasida turli xil sivilizatsiyalar to'g'risida fikr-mulohazalarga oid asarlar paydo bo'la boshladi.

Sobiq ittifoq paytida madaniyat atamasiga berilgan izohlar tabiiyki, rus tilidagi manbalardan olib izoh berilardi. Shu vaqtlarda madaniyat so'zini "Madina" shahriga qiyoslab yozilgan kitob yoki maqolalar qariyb uchramasdi. "Kultura" fe'li rus tilida N.Kirillovning 1845-yili chop etilgan "Horijiy tillar cho'ntak lug'ati"da ilk bor iste'molga kiritilgan. Lekin unga shu vaqtlarda jamiyatshunos mutahassis va davlat arboblarning alohida e'tibor qaratmaganligi ma'lum. Rus mutafakkir olimi I.Pokrovskiy o'zining "Rus tilidagi xatolar bo'yicha qaydlar varog'i" asarida hattoki ushbu so'zni muloqot uchun keraksiz deb e'lon qiladi. Faqatgina XIX asrning 80-yillariga kelib kultura, ya'ni madaniyatning zaruriyati xususida G'arb tillarida berilgan ma'no bo'yicha iste'molga kiritilishiga ruxsat etiladi. Atoqli tilshunos rus olimi V.Dal tomonidan yozilgan to'rt jildlik lug'atning ikkinchi qismida "kultura" so'ziga qisqagina to'xtalib o'tadi.¹ Bunda madaniyat ma'nosi Yevropa tillarida qanday shaklda bo'lsa, shu holatda beriladi. Sivilizatsiya atamasi esa jamiyatning umumiy holatidan kelib chiqib alohida shaxslarning tarbiyasi, hulq-atvori darajasida tushunilib, yovvoyilik va varvarlikka to'la-to'kis qarshi holatda tasvirlanadi.

¹ Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка. - М.: Издание книгопродавца-типографа М.О.Вольфа, 1881. - С. 217.

Zamonaviy Yevropa tillarida ijtimoiy fanlarga qo'llab madaniyat so'zining to'rtta asosiy ma'nosi qiyoslab ko'rsatiladi: 1) Umumiy jarayonlarning intellektual, ma'naviy, estetik rivojlanishidagi mavhum ma'nolar (masalan, oliy ma'lumotlilar madaniyatli kishilar; ammo barcha oliy ma'lumotlilarning intellektual darajasi baland bo'lmasligi, estetik didi yuksak darajada shakllanmagan bo'lishi ham mumkin va h.z.lar); 2) Jamiyatning sotsial taraqqiyotida huquq, tartib, axloq tolerantligiga asoslangan ma'noda keluvchi madaniyat; ushbu vaziyatda madaniyat so'zi sivilizatsiya so'zining ma'nosi bilan mos keladi; 3) qaysidir bir jamiyat yoki insonlar guruhining ma'lum bir tarixiy davrga xos bo'lgan mavjudlik usuli yoki hayot tarzining xususiyatlariga mavhum ishora; (masalan, sug'dlar madaniyati, maya madaniyati va b.) 4) aqliy-intellektual madaniyat, bunda dastavval badiiy faoliyat shakllari va mahsulotlarining mavhum tavsifini ifodalovchi musiqa, adabiyot, rangtasvir, teatr, kino va shu kabilarni anglash mumkin. Asosan madaniyat vazirligi tasarrufiga kiruvchi ushbu jarayonlarni katta ehtimol bilan aholi "madaniyat" sifatida talqin etilishi ko'p kuzatiladi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib "madaniyat" so'zining ma'nosi umumiy jihatdan bir-biriga qisman bog'liq bo'lib, insonning jamiyatda tutgan o'rnini belgilashda yuksak tuyg'ularni ifodalovchi atama sifatida shakllandi. Lekin madaniyat talaffuziga faqat ijobiy jihatdan yondashilgan, deyish xato bo'ladi. Tarixda bir madaniyatning ikkinchisi ustidan bo'lgan tazyiqi tufayli, unga salbiy dushmanlik munosabati hissiyotlar orqali shakllangan davrlar bo'lgan. Dastlabki ko'rinish Angliyada XIX asrda vujudga kelib, unda muhtasham "estetsizm" va "lirik hayot" o'rtasidagi qarama-qarshilik M.Arnold asarlarida paydo bo'ladi. Bu davrda estetsizm tanqidchilari iste'moldagi "culture" so'zi o'rniga raqiblari tomonidan "kashf qilingan" masxaromuz o'xshatish shaklidagi "culchah" so'zidan foydalanganlar.

Madaniyatga nisbatan dushmanona kayfiyatni shakllanishi mustamlakachilik va ikkita jahon urushini vujudga keltirdi. XX asrning dastlabki o'n yilliklarida nigilizm va avangardchilar, 60-70 yillardagi yoshlar harakatlari esa G'arbda madaniyatni an'ana

tayanchi hamda insoniyat kelajagi yo'lidagi asosiy to'siq sifatida ko'rib, uni butkul bartaraf qilish uchun bo'lgan turli xil ziddiyatlarni paydo qildi. Madaniyatga nisbatan doimiy dushmanlik munosabati bir tomondan ma'lum toifa ziyoli kishilarning tanadagi aql va qalb haroratini baholashda o'zlarini haddan ziyod yuqori baholovchi nisbatan asossiz da'volari bilan bog'liq edi. Ikkinchidan, oddiy insonlarga nisbatan kamtarona munosabatning hamma vaqt ham etishmasligi "madaniyatli hisoblangan" kishilarga norozi munosabatlarni keltirib chiqarardi. Shu tipda tushuniladigan madaniyatni ta'riflash uchun, turli millatlarda kamsituv ma'nosidagi ba'zi bir maxsus atamalar yuzaga keldi. Jumladan Amerikada *culture-vulture*, Rossiya va rusiyzabon MDH davlatlarida shunga yaqinroq *kultur-multur* jumlasini ishlatilsa, o'zbeklar orasida ko'pincha *madaniyat-padaniyat* kabi norozi ohanglar qo'llanilib turadi. Masalan, "...yo'qot-e madaniyat-padaniyatingni", degan e'tirozli jumalarni hozir ham uchratish mumkin.

Madaniyat sotsiologiyasi sohaning tarmoq yo'nalishi hisoblanib, u madaniyatning vujudga kelishi, zamonaviy holati va istiqbolini tarixiy va sotsial tadqiqotlar yordamida o'rganadi. Madaniyatning jamiyat hayotidagi roli haqida tasavvurlar jiddiy ravishda o'zgarib borar ekan, shunga mos ravishda fanning predmeti, maqsadi, tuzilmasi va usuli haqidagi tasavvurlar ham yangitdan shakllanmoqda. AQSH universitetlarida madaniyat sotsiologiyasi fani o'rniga madaniy antropologiya yoki sotsial antropologiya o'qitilib, asosan madaniyatning etnik jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Sotsial antropologiya va madaniyat sotsiologiyasi umuman olganda madaniyat falsafasining ilmiy metodologiyasi va tahliliy apparatini keng qo'llaydigan, hamda o'z oldiga sotsiomadaniy o'zgarishlar qonuniyligini aniqlash va tahlil etishni asosiy maqsad qilib belgilaydi. Ko'p holatlarda u sotsiomadaniy tahlil deb ham ataladi. Sotsiomadaniy tahlil – bu ilmiylikka qo'yiladigan keskin intizomdan ko'ra ko'proq nazariy tadqiqot yo'nalishi bo'lib, o'zida obyektivlik va subyektivlik jarayonlarini ham gavdalantiradi.

"Sotsial madaniyat" atamasi sotsiologiyada "sotsial munosabatlardagi madaniyat"¹ deb ham nomlanishi mumkin. U kishilarning jamiyatdagi hulq-atvorlari va sotsial o'zaro munosabatlari asosida shakllangan qadriyatlar tizimi bo'yicha tartibga solinib kelingan. Sotsial madaniyatning asosiy o'zagi jamiyati, davlat va boshqa sotsial institutlarning (O'zbekistonda mahalla instituti alohida ahamiyat kasb etadi) faolyatida namoyon bo'ladi. Shulardan kelib chiqqan holda, sotsial madaniyatning asosiy shakllari o'zida axloqiy, huquqiy va siyosiy madaniyat turlarini qamrab oladi.

Kishilik jamiyatining insoniyat dunyosi va tabiatga nisbatan aynan to'g'ri kelmasligida biz sotsial tarix qonuniyatlari hamda sotsial taraqqiyotning o'ziga xos jihatlari mavjudligini qayd etamiz. Shuningdek, bunda biz sotsiumning faqat insonga xos bo'lgan faoliyat shakli, ya'ni madaniyatning yuzaga kelish va mavjud bo'lish jarayonlarini hisobga olamiz, umumlashtiramiz.

Insoniyat turining tabiiy yashash muhiti – bu organik butunlik, insonlar mavjudligining zaruriy asosidir. Inson va uning yashash muhiti bu butunlikning o'zaro tobe' qismi sanaladi. Biroq insoniyat dunyosi va aniq insonning o'z tabiati yoki o'zga kishilarga aynan to'g'ri kelmasligida insonning o'z tabiiy organik butunligiga moslashish jarayoni "fojeaviy" o'rin tutgani yo'q. O'ziga o'xshaganlar bilan muloqotga kirishish zarurati – sotsial tarix, ijtimoiy taraqqiyot va kulturogenenezning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib chiqdi². XXI asrning so'nggi o'n yilligida sotsiallik bilan bog'liq masalalar dunyo hamjamiyatining diqqat markazida turadigan bo'ldi. Uning ahamiyati shundaki, taraqqiy etib borayotgan jamiyatda mazkur masala, ya'ni "sotsiallik"ga nisbatan qo'shimcha o'zlashtirilgan yoki o'zgartirilgan, ammo natijasiz "sayqal" berish yuqorida ta'kidlaganimiz sotsiumda kutilmagan tug'yonlarga olib kelishi mumkin.

Sotsiologik nuqtai-nazardan har qanday madaniyatning sotsial munosabatlar tizimini tahlili qiladigan bo'lsak, fan nuqtai

¹ Фролов С.С. Социология. - М.: Гардарики., 1999. - С. 125.

² Культура, культурология и образования (Материалы "Круглого стола"). Выступления В.А. Лекторского // Вопросы философии, 1997. - № 2. - С.4

nazaridan mutahassislar, ushbu jarayonni “madaniyat”, “ijtomiyat” yoki “siyosat” deb alohida talqin qilishdan ko‘ra, ilmiy asosda “sotsiomadaniy” deb fikr bildirishga odatlanganlar. Shundan kelib chiqib, sotsial madaniyatni “sotsiomadaniy” jarayon sifatida qarash ham mumkin. XX asrning taniqli mutaffakiri S.Xantington fikricha “yangicha shakllanayotgan dunyoda mohiyatan mavjud nizolarning asosini yo mafkura va yoki iqtisod tashkil etmaydi. Insonlarning bir-birlaridan uzoqlashuvi va ular o‘rtasidagi nizolarning manbalari madaniyat orqali sodir bo‘ladi”.¹

Axborot kommunikatsion madaniyat bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib borgan Kanadalik antropolog va madaniyatshunos tadqiqotchi G.Maklyuen insoniyat tarixida muloqot va madaniyatning uchta shakli bo‘lib o‘tganligiga alohida e‘tibor beradi. Demak, bular a) og‘zaki an‘analarga asoslangan madaniyat, b) yozuv va bosma yozuv an‘analariga asoslangan madaniyat, v) madaniyatning elektron shakli². Bundan kelib chiqqan holda, biz O‘zbekiston sharoitida G.Maklyuen tomonidan keltirilgan izohning uchinchi, ya‘ni madaniyatning elektron shakli tobora rivojlanib borayotganligini e‘tirof etmoqchimiz.

Sotsiomadaniy jarayonlar ichida keng tarqalgan hodisalardan biri – “madaniy talvasa”, aniqrog‘i madaniy talvasaga tushish hisoblanadi. Ushbu atamani ilk bor 1960-yili amerikalik tadqiqotchi Kalervo Oberg (*Kalervo Oberg*) ilmiy muhitga kiritgan. Madaniy talvasaning paydo bo‘lishi oddiydan murakkabga qarab boradi va insonda pessimistik, ya‘ni noxushlik kayfiyati darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, u shunchalik ko‘p madaniy talvasaga tushadi. Bunda eski bilan yangi o‘rtasidagi to‘qnashuv, kechagi kun bilan bugunning bir-biriga mos tushmasligi, avlodlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, geografik hududning o‘zgarishi asosida psixologik va sotsial kayfiyatdagi tushkunlik holatlarini kuzatishimiz mumkin.

¹ Грачев Г.В. Информационные технологии политической борьбы в российских условиях // Полис. 2000. - № 3. - С. 10

² McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. - Cambridge, 1994. - P. 92.

Boshqa bir amerikalik mutaxassis F.Bok fikricha “madaniy talvasa insonda o‘zga dunyo bilan o‘zaro faoliyatga kirishish natijasida o‘zi uchun notanish bo‘lgan belgi va ramzlar bilan to‘qnash kelish oqibatida vujudga keladigan tashvishli holat, hadiklar asosida paydo bo‘ladi”.¹ U o‘zining madaniy antropologiya bo‘yicha maqolalar to‘plamining kirish qismida (bu qism Culture Shock, ya‘ni Madaniy talvasa deb nomlangan) muammoga quyidagicha ta‘rif beradi: “Madaniy talvasa so‘zining keng ma‘nodagi mazmuni – bu, aytaylik kimdir o‘z uyini tark etayotganida, keyinchalik shu uyga o‘zining begona bo‘lishidir. Inson madaniy talvasa holatida xuddi iblisning vasvasasiga tushgandek, mutlaqo o‘ziga notanish bo‘lgan, ammo mavjud makonda hamma vaqt bayon etib kelingan ishonchli va qabul qilingan hodisalarning guvohi bo‘ladi. Siz tasodifan kirib kelgan guruhda odamlar har kuni ijro etadigan umumiy madaniy rollarga sherik bo‘lishingizga to‘g‘ri keladi. Bunda o‘zingiz o‘ylab ko‘rgandek so‘z va muomalangizni loyihalashtirishning iloji bo‘lmaydi. Chunki barcha, shu jumladan siz ham ko‘pchilik qatori dunyoni amalda bir xil ko‘rasizlar, bir birlaringizdan nimani kutishni bilasizlar. Shunday bo‘lsada, begona jamiyatga o‘tib, siz qiyinchiliklarga duch kelasiz, tanangizda ojizlik va adashish hissini tuyasiz va buni ilmiy tilda madaniy talvasa deyish mumkin.² O‘quvchimizga muammoni yanada tushunarli bo‘lishi uchun quyidagi misolni keltirish o‘rinli bo‘ladi. Tabiatan hisob-kitobli va o‘ziga xos tartibga amal qilib yashaydigan G‘arb kishisi uchun o‘zbeklar turmush tarzida alohida ahamiyat kasb etadigan nahorgi osh marosimi madaniy talvasa holatini keltirib chiqarishi aniq. Erta tong sahardan muzika sadolari ostida to‘kin dasturxon ustida issiq somsa va yog‘li palovni 200 tadan 500 tagacha odamga tekinga tarqatilayotganini ko‘rib, u o‘zida diskomfort sezadi. Shuningdek, uning ertalabki nonushta vaqtida bir chashka kofe yoki apelsin sharbatini ichib, ish joyiga ketishini hisobga olinsa, ushbu marosim jarayoni bilan ilk to‘qnash kelgan har

¹ Ph.K.Bock. Culture Shock. A reader in modern cultural anthropology. - New York, 1970. - P. 23.

² O‘sha joyda.

qanday odamdagi noqulaylikni his etish oson. O'z navbatida boshqa jamiyat kishisining o'zga madaniy dunyoga tushib qolganda shu kabi marosim yoki odatlar oldida dezorientatsiya, ya'ni ajralib qolish holatini zamonaviy dunyoda tez-tez kuzatish mumkin.

Madaniy talvasaning mazmuni eski va yangi o'rtasidagi madaniy me'yor va orientatsiyalar to'qashuvida namoyon bo'ladi. O'tmishga aylangan davrning ishtirokchisi va guvohi bo'lgan shaxs avval shu jamiyatga xos bo'lib, keyinchalik uni tark etishi natijasida yangi bir ijtimoiy hayotni ifodalovchisiga aylanishi mumkin. Buni biz sobiq ittifoq davrida ta'lim olib, butun hayotini mustaqillikka baxshida qilgan odamlar misolida ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, madaniy talvasa – bu individual (shaxs) ong darajasidagi ikki madaniyat to'qnashuvidir. Zinhor uni etnik yoki diniy madaniyatlardagi kelishmovchilik omillari bilan bog'lash kerak emas. Qaysidir bir insonning madaniy talvasa holatiga tushishi, uning o'zga muhitdagi madaniyat bilan to'qnash kelib, shuning natijasida o'zida diskomfort, ya'ni noqulaychiliklarni his etishi bilan bog'liq.

Madaniy talvasa faqat bir shakl bilan uzoq muddatli davom etmaydi. Buning uchun individ o'zida mujassam bo'lgan stereotip (ongda qotib qolgan odat)larni qaysidir tartibda sindirib boradi. Jumladan, XX asr ta'lim tizimida erkak va ayol jinsiga mansub bo'lgan kishilarning bir sinfda bilim olishi madaniy talvasa sifatida paydo bo'lgan bo'lsa, bugun bu jarayon oddiy holatga aylanib ulgurdi. Yoki ayol kishining avtomobil rulini boshqarishini bundan 15–20 yil oldin ko'rib, o'zida noqulaychiliklarni his etgan qanchadan-qancha odamlarni uchratish mumkin edi.

Dunyoning globallashuvi va axborotlar ko'lami tarqalishi avj olib borayotgan bugungi davrda har qanday odam bir necha bor u yoki bu darajadagi madaniy talvasa holatini o'z tanasida his etishi mumkin. Bunga milliy yoki diniy farqlar, kiyinish, ovqatlanish, musiqa, oilaviy muhit tarbiyasi kabi omillar ta'sir o'tkazadi. Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, ta'kidlash kerakki, bir jihatdan madaniy talvasa holatida kimdir tezda o'zini o'nglab olsa, ikkin-

chidan, unda insonlar og'ir noqulayliklar ichida qolib ketishi mumkin.

F.Bok fikricha, talvasa holatidagi madaniy to'qnashuvli nizoni yechishning besh usuli mavjud. Birinchi usulni u shartli ravishda "gettolashgan" ("getto" so'zidan olingan) deb ataydi. Zamonaviy jamiyatda migratsiya jarayonlarining avj olishi gettolashish omilini kuchaytirmoqda. Shaxsning o'zga jamiyatga kelib qolganida mahalliy tilni bilmasligi, tortinchoqlik, o'zga dinga e'tiqod va boshqa shu kabi sabablar tufayli o'ziga notanish bo'lgan madaniyat bilan muomalaga kirishishga majbur bo'ladi. Shunday sharoitda u o'zining shaxsiy madaniy muhitini yaratishga harakat qiladi. Boshqa hamyurtlari, qarindosh-urug'lari, qabiladoshlari bilan o'zlariga mos bo'lgan muhit yaratib, mavjud "begona" madaniyat ta'siridan o'zini o'rab oladi, ya'ni himoya vositasini yaratadi.

Ko'plab G'arbdagi katta, o'rtacha va hatto kichik shaharlarda mahalliy madaniyatdan keskin farq qiladigan getto madaniyatlari paydo bo'ldi. Bularga hind, xitoy, turk, arab va shu kabi kvartallarni misol qilish mumkin. Masalan, Berlinning Kroysberg tumaniga bir necha o'n yilliklar davomida turk migrantlari va qochoqlari kelib joylasha boshladilar. Nemis olami va turmush tarzini qabul qilishni istamagan turklar o'zlarining sotsial dunyosini ajdodlar an'analari asosida davom ettirib, butunlay yopiq tizim yaratadilar. Natijada turk disporasi o'rniga o'ziga xos getto paydo bo'ldi. Bu kabi tumanlarda istiqomat qiluvchilar nafaqat turkcha talaffuzda gaplashishadi, unda hatto ko'chalarning nomlari va qiyofasi, undagi reklama va e'lonlar ham turk tilida bitilgan. Turkcha tamaddixonalar va restoranlar, turk banklari va sayohat byurolari, turk partiyalari vakolatxonalar va devorlarda turk tilidagi siyosiy shiorlarni har qadamda uchratish mumkin. Kroysbergda butun umr nemis tilida biror so'z gapirmasdan yashab o'tish mumkin. Bunday getto – arman, gruzinlar ham revolyutsiyadan oldin Moskvada bo'lgan. Kanadaning Toronto shahrida gettolashgan tumanlar shu darajada o'ziga xos milliy ahamiyat kasb etganidan, amerikalik kinorejissyorlar Kalkutta,

Bangkok yoki Shanxayda olinishi kerak bo'lgan sahnalarni Torontodagi kvartallarda olishni ma'qul ko'rishadi.

Madaniy to'qnashuvga oid nizolar yechimini hal etishdagi ikkinchi usul – assimilatsiya, ya'ni “qorishib ketish” bo'lib, u o'z mazmuniga ko'ra, gettolashgan jarayonning aksi sanaladi. Assimilatsiya jarayonida shaxs o'zining asriy madaniyatini rad etib, o'zi uchun yangitdan o'zlashtirilgan vatanning madaniy-ma'naviy boyliklarini to'lig'icha o'zlashtirishga harakat qiladi.

Talvasali holatdagi madaniy to'qnashuv nizosini yechishning uchinchi usuli “oraliq masofali” bo'lib, unda madaniy aloqalar o'zaro hamkorlikda mujassam bo'ladi. Aloqalar to'g'ri amalga oshishi va har ikki tomonga foydali bo'lishi uchun o'zaro xayrixohlik va oshkoralik bo'lishi shart. O'zaro munosabatlarda tomonlarning biri “avtoxton” (mahalliy) va ikkinchisi “muhojir” (qochoq) bo'lsada tarixda muvaffaqiyatli madaniy aloqalar ko'p uchragan. Masalan, ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston, xususan Toshkent shahriga juda ko'p sonli turli millat vakillari evakuatsiya qilinadi. Odamlar bilan birga yirik sanoat korxonalari, ilmiy akademik tashkilot va muassasalarning ko'chirib kelinishi fan va ta'limning rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi. O'zbek va turli millatga mansub madaniyatlarning yaqinlashuvi o'ziga xos madaniy simbiozni shakllantirdi. Aholi orasida ko'ptillilik paydo bo'ldi, jamiyatning intellektual iqlimi o'zgarib, dinlararo va millatlararo totuvlik kuchaydi. Umuman olganda o'zaro madaniy aloqalarning natijalari birdaniga amalga oshishi bilan ko'zga ko'rinmaydi. Ular vaqt o'tishi bilan o'z ahamiyatini namoyon qilib, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy jihatdan jiddiy tus olib boradi.

To'rtinchi usul qisman, yoki “vaqtinchalik assimilat-siyalashuv” deb nomlanib, unda shaxs ijtimoiy hayotning qaysidir bir tarmoqlarida o'zga madaniyat foydasiga o'z madaniyatini qisman qurbon qiladi. Masalan, xizmat joyida o'zga madaniyat muhiti me'yor va talablariga moslashsa, oilasi va qarindosh urug'lari davrasi, ma'naviy-maishiy sohalarda o'zi mansub madaniyat normalariga amal qiladi. Madaniy talvasani bartaraf etishning ushbu usuli bugungi zamonaviy jamiyatning eng ommalashgan ko'rinishi hisoblanadi. Ko'pincha muhojirlar o'zga

dunyoga qisman assimilat-siyalashadi va o'z turmush tarzini ikkita, lekin bir-biriga teng bo'lmagan qismga ajratishga majbur bo'ladi. O'zga hududda gettolashgan madaniyat to'liq shakllanmasa, unda shaxsning mavjud muhitga qorishib ketishi qisman yuz beradi. Lekin qisman assimilatsiya jarayoni keyingi avlodlarga o'tganda to'liq assimilat-siyalashuvga o'tib ketishi mumkin.

Davriy o'zgarishlar natijasida XX asr tadqiqotchilarining e'tibori ko'proq “konstant” madaniyatlar, ya'ni barcha xalqlarning turmush tarzidagi doimiy barqaror elementlarni ozmi ko'pmi darajada o'zgartirmagan holatda o'rganishga qaratiladi. Bunda insonning borlig'ini madaniy bezovchi rango-ranglikdagi farqlar alohida ajratib olinadi. Natijada madaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarning mavzusi ham o'zgarib boradi. Sotsiologiyada asosiy mavzu sifatida insoniyatning tarixiy madaniyati emas, balki aniq mavjud madaniyatlar tadqiqot obyektiga aylandi. Astasekinlik bilan bunday yondashuvlar global-evolyutsionizmga oid qarashlardan voz kechishga olib keldi.

Madaniyat haqidagi tajribaga asoslangan fanlarda evolyutsionizmga asoslangan g'oyalari o'z o'rnini saqlab qoldi va turli tadqiqotlarning sotsial-falsafiy asosi sifatida taraqqiyotning madaniy rivojlanishiga davriy nazariyalar xizmat qildi. Madaniy davriylik deganda o'zgarishlarning ma'lum ketma-ketlik fazasi va madaniyatning barqaror rivojlanishi tushiniladi. Ilmiy qonuniylik asosida davriy o'zgarishlar bir-biridan keyin kelishi mumkin, ammo ular qaytalanuvchi yoki takrorlanuvchi mazmun kasb etib qoladi. Biz buni inson hayoti bilan qiyoslashimiz mumkin. Bilamizki, inson tug'ilgach o'z tanasida bolalik, yoshlik, balog'at, etuklik, keksalikni boshdan kechiradi va hayotdan ko'z yumadi. Organitsistik yondashuv nuqtai-nazaridan kelib chiqib madaniyatlar to'g'risida ham shunday deyish mumkin: har bir madaniyat tug'iladi, o'z davrini yashab o'tadi va yakuniga etadi. Davriylik nazariyasining turli vakillari madaniyatning hayotiy substrati (asosi)ni turlicha aniqlashgan, uning mavjudlik davrini turlicha tasvirlab, mavjud va poyoniga etgan madaniyatlarni turlicha tasniflab, tarixiy davrlarga taqsimlaganlar. Jumladan, Chor Rossiyasi tarixchisi va madaniyatshunosi general N.YA.Danilevskiy

tomonidan 1871-yilda chop etilgan "Rossiya va Yevropa" asarida madaniy-tarixiy turlar haqida gapirib o'tadi va ulardan o'ntasini ajratib ko'rsatadi. Bular misr, xitoy, qadimiy semit (assuriya-vavilon-finikiya madaniyati), hind, fors, yahudiy, yunon, rim, yangi semit yoki arab, roman-german yoki yevropa madaniyat turlarida o'z ifodasini topadi. Ushbu madaniy-tarixiy turlar yoki sivilizatsiyalarning har biri o'z shaxsiy tarixiga ega bo'lib, bunda insoniyatning umumiy yoki universal rivoji haqida mulohaza yuritish shart emas.

Har bir madaniy davrlarning qadimiy, o'rta va yangi tarixiy jihatlari mavjud. Ulardan ba'zilari allaqachon o'zining mavjudlik davrini tugatgan, ayrimlari esa hali ham mavjud bo'lib, rivojlanishning turli bosqichlarini o'tamoqda. Davriylik g'oyasidan kelib chiqib, N.Danilevskiy tarixiy rivojlanishning beshta qonunini tuzadi. 1) Bir-biriga yagona til yoki tillar guruhi bo'yicha ancha yaqin bo'lgan har qanday qabila yoki xalqlar oilasiga mansub o'ziga xos mustaqil madaniy-tarixiy turlar; 2) Mustaqil madaniy-tarixiy davrga oid bo'lgan sivilizatsiya tug'ilishi va rivojlanishi uchun, unga mansub xalqlar siyosiy mustaqillikka ega bo'lishlari zarur; 3) Bir madaniy-tarixiy davr sivilizatsiyasining boshlanishi boshqa davrdagi madaniyatlarga hamma vaqt ham jiddiy ta'sir o'tmaydi. Har bir davr madaniyatni ozmi-ko'pmi darajada begona sivilizatsiyalar ta'siri ostida takonillashtirib boradi; 4) Turli madaniy-tarixiy davrga mansub sivilizatsiyalar tarkibidagi etnografik elementlar har xil bo'lganidagina o'zining mukammallik, rang-baranglik va taraqqiyotiga erisha oladi; 5) Madaniy-tarixiy davrlarning taraqqiyot jarayoni ko'pincha bir marta meva beradigan (yoki gullaydigan) ko'p yillik o'simliklarga qiyoslanadi. Ularning o'sib, rivojlanish davri noma'lum davomiylikda bo'ladi, ammo gullash va hosil berish davri – nisbatan qisqa bo'lib, bir yo'la o'zining hayotiy kuchini bitirib tugatadi. N.Danilevskiy zamonaviy tarixshunoslik va madaniyat fanida davriy nazariyalarga asos solgan birinchi olim sanaladi. Keyinchalik O.Shpengler, A.Toynbi, P.Sorokin, L.Gumilevlar o'z tadqiqot ishlarida sivilizatsiyalar rivojlanishiga oid tadqiqotlarni davom ettirishdi. Ular davriy taraqqiyotga oid qarashlarning tarafdorlari uchun

"umumiylikni madaniy yaxlitlikdan iborat bo'lgan "tarixiy shaxsiyat" va ushbu yaxlitlikda mavjud bo'lgan "davriy hayot" haqidagi tasavvurlardan tashkil topgan" ligini bayon etadilar. Shpenglarning fikricha, har bir davr madaniyatdan sivilizatsiyaga qarab rivojlanishdan iborat bo'ladi. So'nggida madaniy yaxlitlik o'z umriga yakun yasaydi va yangisiga o'rnini bo'shatib beradi. Sotsiologiyada ushbu qarash yangi paradigmalarga asoslangan davriy ta'limot bo'lib, u metodologik nuqtai-nazardan strukturali-funksionalizmni ifodalaydi.

"Madaniyat yaxlitligi" g'oyasi sotsial antropologiya fanida chuqur o'rganilib, ushbu ta'limotni B.Malinovskiy va A.Redkliff-Braunlar ishlab chiqqanlar. Ular yaxlitlik deb tushuniladigan madaniyatda "ortiqcha" elementlar yo'q, degan mazmundagi qarashdan kelib chiqib o'z nazariyalarini ilgari suradilar. "Biz nimani ko'rib chiqmaylik, masalan, kiyimlarning bezak elementlari, diniy urflar, marosimlar shakli – bularning hammasi o'zida madaniyat yaxlitligini ifodalovchi ma'lum funksiyalarni bajaradi. Buni biz kishilar guruhining yashash uchun mavjud muhit sharoitlariga moslashishining o'ziga xos shakli", deb tushunishimiz mumkin. Misol uchun musulmon arxitekturasi shaklan Sharq mamlakatlarida bir-biridan farq qilsa-da, mazmunan o'ziga xos yaxlitlikni his etamiz. Bu holat ayniqsa masjid va madrasalar qurilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Davriy nazariyalar va strukturali-funksionalizm ta'limoti sotsiologiyada madaniyat haqidagi tasavvurlarni evolyutsion paradigma doirasida ishlab chiqilgan g'oyalardan farqli o'laroq o'zgartirib yubordi. Unga ko'ra har bir madaniyat rivoji evolyutsion pillapoyada egallagan o'rnidan qat'iy nazar o'zining ahamiyatli ekanligini namoyon etdi. Shu sababali ham strukturali-funksionalizm vakillari o'z ko'rsatilib o'tilganidek, har bir madaniy organizm qanchalik murakkab yaralish bo'lgani uchun, madaniyatlarni qoloq (primitiv) yoki o'ta rivojlangan turlarga bo'lish mumkin emas. Evolyutsion taraqqiyot nuqtai nazaridan qoloq deb hisoblangan va rivojlanish pillapoyasining pastki qatorlarida turgan madaniyatlar funksionalizm bo'yicha har qanday ilg'or madaniy tuzilmalar kabi harakat qilish qonunuyatiga

ega tizim sifatida qabul qilina boshlandi. Bu qarash yevropacha markazlashgan dunyoqarashlarga nisbatan qattiq zarba bo'ldi. Yuqorida ta'kidlanganidek madaniyatga nisbatan antropologik taraqqiyotni qo'llash davom ettirildi va rivojlantirildi.

Ikkinchidan, yuksak madaniyat iyforini beruvchi muzey-archiv yondashuvi o'tmishda qoldi. Madaniyatni tushinish uchun marosim, urf-odat va dunyoqarashlarni tasvirlashning o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Har qanday madaniyatning yaxlitligini aniqlashda undagi mavjud dunyoqarashning u yoki bu elementi aynan qaysi funksiyani bajarayotganligi hamda ushbu yaxlitlikni qanday "ushlab turganini" aniqlash kerak bo'ladi. Qolaversa, zamonaviy jamiyatda madaniyatshunoslik paradigmasining o'zgarishi bilan muzeylar tushunchasiga bo'lgan munosabatning o'zi ham o'zgardi. Zamonaviy muzeyning ko'rgazmalardan asosiy maqsadi, undagi madaniy muhitning asliga mos g'oyalarini namoyon qilishdir.

Madaniyat modernizatsiya nazariyasi doirasida ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar tahlil qilinadigan asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Taniqli siyosatshunos va sotsiolog olim S.Xantington o'zining mashhur "Madaniyatlar to'qnashuvi" asarida demokratiya, oligarxiya va diktatura, liberalizm va konservatizm, totalitarizm va konstitutsionalizm, natsionalizm va internatsionalizm kabi ilmiy qarash va nazariy fikrlashlar madaniyatshunoslikka oid fanlarda orqa planga o'tib qolgan edi. Birinchi darajaga esa yuz yillar davomida rivojlangan Amerika va Yevropa xalqlarining fikrlash tasavvurini dixotomik aniqlab bergan zamonaviylik va an'anaviylik konsepsiyalari chiqib oldi. Sotsiologik ta'limotlar tizimida ushbu dixotomiya tahminan quyidagicha ko'rinish oladi. An'anaviy jamiyatlar uchun o'ziga xoslik tarzidagi madaniyatga motivatsiya beruvchi modellarning askriptiv, partikulyar, diffuz hodisa shakllari.

Askriptiv (ingl. ascription-qo'shimcha kiritish, nisbat berish) atamasi fanga R.Linton tomonidan kiritilgan bo'lib, keyinchalik T.Parsons tomonidan takomillashtirilgan. U sotsiologik bilimlar tizimida "nisbat berish yoki yutuqqa erishish" (ascription-achiyevment) qarama-qarshiligini ifodalovchi mazmuni anglatadi. Qaysidir bir individ (shaxs) haqida fikr yuritganda yoki

unga nisbatan o'zini tutish hulq-atvoriga berilgan sifatlarga qarab fiziologik madaniyat (yosh, jins, etnik nufuz, tana rangi va boshqalar) yoki sotsiomadaniy hulqi va muvaffaqiyatiga ko'ra (qaysidir kasb vakili, fuqaro, soliq to'lovchi va shu kabilar) ko'ra mo'ljal olish mumkin. Bu tushuncha sotsial mavqeni xarakterlash, ya'ni shaxsning jamiyatda qaysidir bir qatlamga mansubigini ifodalovchi mezonni belgilashda keng qo'llanilishi mumkin. Rivojlangan sanoat mamlakatlarida shaxsning sotsial mavqesi uning haqiqiy muvaffaqiyatlari (yutuqlariga qarab) bilan aniqlanadi. Shu sababli ham askriptiv belgilar (nisbat berish) sanoatlashgan jamiyatlarda hech qanday ahamiyat kasb etaydi.

Universallik (umumiylik) yoki "universal-partikulyar" atamasi madaniyatshunoslikda muqobil rag'batlantirish turlaridan biri hisoblanadi. Umumiy motivatsiyaga ega individ har qanday teng ma'nodagi belgilarga ega bo'lgan sotsial obyektga nisbatan bir xil mo'ljal oladi; partikulyar mo'ljal esa, aksincha, individ uchun faqatgina o'ziga xos ahamiyatga ega belgan sotsial obyektlarni e'tiborga oladi. Masalan, har qanday toifali bemorga ko'mak beradigan vrach umumiy-universal mo'ljal olgan hisoblansa, asosan o'zining tanishlari yoki guruhiga mansublarni davolaydigan vrach olgan mo'ljal partikulyar hisoblanadi.

Sotsiologiyada yana bir jihat – diffuz, ya'ni o'ziga xoslik madaniyatlarini o'zaro taqqoslashda muqobil variantlardan hisoblanadi. Maxsus belgili mo'ljallarga asoslangan o'zaro munosabatlarda shaxsning faqatgina o'z hamkori bilan sodir bo'ladigan tabiiy aloqalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi (masalan, savdo bitimlarida sotuvchi va xaridor munosabatlari). Diffuz mo'ljalga asoslangan munosabatlarda esa shaxsning o'zi birlamchi o'rin tutadi (masalan, oila yoki jamiyat a'zolari birbirlarini shunday qabul qilishadi).

Zamonaviy jamiyat uchun ko'pincha maxsus belgili mo'ljallar xos bo'lib, sotsiomadaniy jarayonlardagi o'zaro munosabatlarning ixtisoslashgan shaklini tashkil etadi. U. T.Parsons tomonidan ishlab chiqilgan "uch juftli motivatsion o'zgarishlar" tizimiga

asoslanadi.¹ Bular: a) sotsial guruhlarning barqarorligi va o'ta chegaralangan makonda harakatchanlik; b) nisbatan barqaror va oddiy professional differentsiatsiya; v) askriptiv (nisbiy) mavqelar bilan diffuz (muqobil) o'zaro ta'sirga asoslangan qatlamlar tizimidan tashkil topgan.

Sanoatlashgan jamiyatlar uchun mavjud o'ziga xosliklar universallik (umumiylik) va maxsus modeli motivatsiyaga asoslangan yutuq keltiruvchi mo'ljal olish bilan xarakterlanadi. Unda sotsial harakatchanlikning yuqori darajasi, asosan vertikal xarakterga ega bo'lib, o'ta rivojlangan va o'zga sotsial tuzilmalardan alohida ajralib turuvchi kasblar tizimida erishilgan nufuzga asoslangan "egalitar" qatlamli madaniyatni shakllantiradi. Maxsus funksiyali, askriptiv (nisbiy) asosga ega bo'lmagan madaniy "assotsiatsiya"larning ustunligi tufayli, konseptual tizimlar asosida shaxs va jamiyatning mutlaqo turli qiyofalari chiziladi.

An'anaviy jamiyatda esa inson faoliyati askriptiv nufuzga mo'ljal oladi va shuning asosida unga madaniy nisbat beriladi. Bir vaqtning o'zida kishi o'zining va sherigining jinsi, yoshi, yashash joyi, barqaror ijtimoiy ahvoli bo'yicha sotsial ierarxiya (pillapoya)da qaysidir tabaqa, qatlam yoki kastaga ega ekanligi bilan ajralib turadi. "Sherik" kategoriyasi "diffuzli" (muqobil) asosida qabul qilinadi. Masalan, qaysidir bir joy yoki hududdan chiqqan hamyurti bilan faxrlanish, maqtanish, ta'sirlanish kabi sifatlar An'anaviy jamiyat kishisida bu kabi tuyg'ular sotsial harakat belgisi sifatida ham ifodalanadi. Bu o'ziga xos bitim, shartnoma sifatida ham ifodalanib, hech qanday rasmiy yoki legitim mazmun kasb etmasligi ham mumkin. Sherik shuningdek "partikulyar" qabul qilinadi, ya'ni mo'ljal olish individ uchun faqatgina o'ziga xos ahamiyatga ega belgan sotsial obyektlarni e'tiborga oladi.

¹ Ковалев А. Д. Формирование теории действия Толкотта Парсонса // История теоретической социологии. В 4-х тт. -Т.3. -М.: Канон, 1997. -С.150-179; Lexikon zur Soziologie / Hrsg. W. Fuchs u.a. Opladen: Westdeutscher Verlag, 1978. S. 885.

Zamonaviy jamiyatda inson va guruh munosabatlari sotsiomadaniy jihatdan o'zgacha qabul qilinadi. Har bir kishining yutug'i, u tug'ilgan kunidan boshlab qaysidir bir qatlamga mansublik bilan emas, balki mehnat va qobiliyat asosida o'z sa'y-harakati bilan erishilgan mo'ljalga qarab hukm chiqariladi. O'zaro munosabatlarda idrok va o'zaro ta'sir bir tomondan maxsus shakllantirilgan, ikkinchi tomondan esa universal, umumiy jihatlarga tayanadi. Maxsus shakllangan xususiyatlar dunyoni bilishda turli tarixiy davrlar tajribasida egallangan va shu bilan birga zamonaviy davrda idrok etilayotgan tafakkur asosida namoyon bo'ladi. Ammo o'zaro munosabatlarga kirishishda "sherikchilik" tamoyili faqat bir tomonning ehtiyojlarini, ya'ni kishiga hamfikir bo'lgan muhim va zaruriy xarakteristika bilan hisoblashadi. Masalan, shifokor uchun uning qarshisida turgan bemorni ijtimoiy holatidan ko'ra biologik xususiyati muhim o'rin tutadi. Tananing rangi, tug'ilgan joy, siyosiy qarashlar, kasbiy darajasi va boshqa ko'rsatkichlar Gippokrat qasamyodiga ko'ra hech qanday ahamiyatga ega emas. Uning uchun barcha bemorlar teng va bu universallikning ko'rinishi sanaladi. Ammo shifokor hamma vaqt bu qoidaga amal qilmasligi mumkin. Kasbiy mahorati oshib, ilmiy maqomga ega darajasi ko'tarilib borgan sari, uning oldida ma'lum bir guruh, toifa va institutlarning xarakteristikasi aniqlanadi. Maqsadli guruhlarning ustunligi sotsial harakatchanlik sifatida namoyon bo'ladi. Oliy toifali mavqega ega vrachning oldida "sotsial mavqe qoidasi"ga ko'ra, bemorning egallagan kasbi va nufuzi doirasidan kelib chiqib, maqsadga qaratilgan xizmat ko'rsatilishi mumkin. Masalan, elita guruhlarga ilmiy tekshirish institutining direktori xizmat ko'rsatib, oddiy fuqarolarga praktikant yoki yuqori tajribaga ega bo'lmagan mutahassislarni biriktirib qo'yilishi mumkin. Biz bunda partikulyar holatni kuzatamiz.

Zamonaviy jamiyatda insoniyatga qaysidir tur (odam maymundan paydo bo'lgan va h.k.) yoki ijtimoiy mavjudot deb qarash orqali, uning sotsiopsixologik tavsifini zaif guruhga bog'lab qo'yish deyarli o'zini oqlamaydi. U bugun mukammal shaxs sifatida namoyon bo'lmoqda. Uning biologik va sotsial

ehtiyojlaridan tashqari, ong faoliyatini boshqarish va nazorat qilishda jinsiy ehtiyojlar ham alohida o'rin tutishini uyatli yoki andishali yopiq mavzu sifatida qarashlar qariyb yo'qoldi. Jamiyatlarni turlarga ajratish va shaxslarning turmush tarzini bir-biriga qiyoslaydigan bo'lsak, bugungi kunda ijtimoiy hayotda madaniyat va sivilizatsiyalar qarama-qarshiligini osongina payqashimiz mumkin. Bu esa "madaniy pessimist"lar va "madaniy tanqidchi"lar sonining oshib borishiga vaj sabab bo'layotganini tushunish mumkin. Zamonaviy jamiyatning sotsiomadaniy tasniflariga ilmiy-texnik bilimlar, ta'lim, ommaviy aloqalar tizimining rivojlanishi, yuqori darajadagi tibbiyot, o'rtacha umr ko'rishning uzayishi, demokratik va siyosiy ozodlik tizimining rivojlangan mobilligi, sog'liqni saqlash, pensiya ta'minoti va shu kabilar kiradi. Ularni tavsiflash uchun bir qator nazariya va metodologiyalar paydo bo'ldi. Shulardan biri jamiyatning modernizatsiyalashuv nazariyasi.

Ko'plab tadqiqotchilar modernizatsiyalashuvni yevropaparastlikka qiyoslashadi. Ushbu g'oya vakillarining fikriga ko'ra, modernizatsiyalashuv va u bilan bog'liq ko'plab hodisalar zamonaviy jamiyatdagi insonning hayotini bezaydi. An'anaviy jamiyat kishisi uchun modernizatsiyalashuvning u qadar ahamiyati yo'q. Yuksalish sari qat'iy yo'naltirilgan monolinear (bir chiziqli evolyutsiya yoki bir tekis taraqqiyot, degan ma'noni berib, qandaydir bir omilni o'zida mahkam qamrab oladi)¹ taraqqiyot g'oyalariga tayanib harakat qilinsa, ta'kidlash mumkinki evolyutsion o'sish shunga mos ravishda bo'lib, unda jamiyatning har tomonlama modernizatsiyasiyalashuvini qat'iy belgilab bo'lmaydi.

O'sish g'oyasi bilan bog'langan qat'iy yo'naltirilgan monolinear taraqqiyot g'oyalariga tayanib harakat qilsa, shunga mos ravishda jamiyatlarning modernizatsiyasi ham qat'iy va biron tomonga o'zgartirib bo'lmaydigan qaysarlikni ifodalaydi. Modernizatsiya nazariyasining ashaddiy tarafdorlari har qanday

¹ Манба:
https://gufo.me/dict/enru_social/monolinear_evolution#ixzz4nobdDw5r

boshqarib bo'lmaydigan jarayonni ilmiy bayon etish orqali ular faqat uning amalga oshish jarayoniga yordam berishlari mumkin, ya'ni boshqa davlatlarga texnologiya va nou-xaularni etkazib, ularga o'z etik norma va qadriyatlarini, faoliyat modeli, institut va tashkilotlarini kiritish va joriy qilish orqali. Biz "madaniy shok" haqidagi bo'limda madaniy kolonizatsiya deb ataganimiz, modernizatsiya nazariyasi pozitsiyasidan modernizatsion jarayonning qismi sifatida qabul qilinadi. Demak, "eskilik"dan "zamonaviylik"ka o'tadigan ko'prik modernizatsiya orqali o'tadi. S.Xantington shu sohada ishlayotgan deyarli barcha mualliflarda ochiq yoki yashirin holatda uchraydigan modernizatsiyaning to'qqizta asosiy xarakteristikasini aytib o'tadi:

- 1) modernizatsiya – bu revolyutsion jarayon bo'lib, u sotsial institutlar, tizimlar, jamiyatlar va insonlar hayotida tubdan bo'ladigan keskin o'zgarishlardagi xususiyatlarning davomiyligini tahmin qiladi;
- 2) modernizatsiya – bu kompleks (har tomonlama) jarayon bo'lib, u jamiyat hayotidagi qaysidir jihatning bir tomoni yoki o'lchamiga e'tibor qaratmasdan, mavjud ijtimoiy tizimni to'laligicha qamrab oladi;
- 3) modernizatsiya – bu tizimli jarayon bo'lib, unga ko'ra qaysidir bir omil yoki hodisaning o'zgarishi natijasida ijtimoiy taraqqiyotda qandaydir qo'zg'alish, siljish sodir bo'lib, uning natijasida sotsial tizimda keskin to'ntarish (revolyutsiya) sodir bo'ladi;
- 4) modernizatsiya – bu global jarayon bo'lib, u qachonlardir an'anaviy bo'lgan mamlakatlarning zamonaviy holatga o'tishi yoki shu jarayonga intilish pallasida turganini anglatadi;
- 5) modernizatsiya – bu ko'lamli jarayon bo'lib, unga ko'ra mavjud o'zgarishlar keng ko'lamda ijtimoiy hayotni revolyutsion darajada qamrab olishi mumkin. Hozirgi vaqtda o'zgarishlar surati keskin o'sib bormoqda, ammo modernizatsiya bir soatda yuzaga keladigan hodisa bo'lmay, ma'lum vaqtni talab qiladi, aniqrog'i bir necha avlodlarning almashinuvi davomida sodir bo'ladi;
- 6) modernizatsiya – bu pog'onali jarayon bo'lib, u barcha jamiyatlarga xos bo'ladi. modernizatsiyalana turib bir xil

bosqichlardan o'tadi. Har bir jamiyat taraqqiyot va rivojlanish yo'lidan borar ekan, deyarli bir xil bosqichlarni bosib o'tadi. Ammo ushbu yo'l qachon o'tilgan, yoki qaysi bosqichda ekanligi mavjud jamiyatning modernizatsiya jarayonini qanday boshlashiga bog'liq;

7) modernizatsiya – bu gomogenli (bir xususiyatli) jarayon bo'lib, turli xususiyatga ega bo'lgan an'anaviy jamiyatlardagi umumiy jihatlarni namoyon etadi;

8) modernizatsiya – bu ortga qaytarib bo'lmas jarayon hisoblansada, unda ma'lum joyda to'xtalishlar, qisman ortga qaytishlar bo'lishi mumkin. Ammo bu jihatlari nisbiy bo'lib, modernizatsiya jarayoni boshlanib ketgach, u muvaffaqiyatsiz yakuniga etishi mumkin emas;

9) modernizatsiya – o'suvchi jarayon bo'lib, bu yo'lda ko'p yovuzlik va qiyinchiliklar bo'lsada, oxir oqibat hammasi o'zini oqlaydi. Chunki modernizatsiyalashgan zamonaviy jamiyatda insonning madaniy va moddiy farovonligi behad yuqori ahamiyat kasb etadi.

Davr taraqqiy etib borishi bilan ijtimoiy fanlar tizimida sotsiomadaniy modernizatsiyaga oid nazariyalar tanqidi bir tomonlamali berila boshlandi. Tanqidga o'ta ahamiyatli qoidalar ham uchray boshladi. Tanqidchilar o'zaro munozaraga kirishar ekanlar, asosan an'anaviylik va zamonaviylik tushunchalarining assimetrik va dixotomik jihatlari bo'lgan e'tiborni qayd etadilar. Ular zamonaviy jamiyatlarni mukammal, an'anaviylarini esa o'zgaruvchan va ziddiyatli xarakterga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Biz ham o'z navbatida o'zbek jamiyatidagi an'anaviylik va zamonaviylik maqomining bugungi holatini qay tartibda baholash kerakligini mahalliy tadqiqotchilar muhokamasiga tashlagan holda mulohazalarimizni ilgari surmoqchimiz. Aksariyat ilmiy adabiyot, OAV materiallari va Internet ma'lumotlarida ko'pincha mualliflar tomonidan "an'anaviy o'zbek jamiyati" degan iborani tez-tez qo'llanilishini kuzatamiz. Ishonch bilan aytish mumkinki, bugungi o'zbek jamiyati an'anaviylikka mansub emas. Aholining nahor oshiga borishi, kechqurungi nikoh bazmlari, navro'z yoki hayit bayramlarini nishonlanishi ko'pchilik

tasavvur qilganidek an'anaviylik yoki milliy qadriyatlar namunasi ekanligini anglatmaydi. Bularni odat yoki e'tiqodga vosita bo'lgan element sifatida baholash mumkin. O'zbek jamiyati modernizatsiyalashgan tizim bo'lib, o'zida to'liq zamonaviylikni aks ettiradi. Aholining savodxonlik holati, huquqiy madaniyati, ilmiy-texnik imkoniyatlari, transport va kommunal infratuzilmalarning mavjudligi, axborot bilan ta'minlanganlik darajasi bunga yaqqol misol bo'ladi. Faqat zamonaviylikning rivojlanish sur'ati va shakliga oydinlik kiritilishi kerak xalos. Bugungi kunda kimano kiygan Yapon, do'ppili o'zbek yoki belbog' taqqan xitoylikni an'anaviy jamiyat kishisiga qiyoslash butunlay noo'rin bo'ladi.

Tez-tez o'zini an'anaviy hisoblaydigan jamiyatlar bilan mukammal shakllangan zamonaviy jamiyatlar o'rtasidagi farqlarni o'ta murakkablashtirish bugungi kunda deyarli o'z ahamiyatini yo'qotgan. Bundan tashqari an'anaviy jamiyatlar haqidagi statik va qo'zg'almas sifatida qabul qilingan tasavvurlar ham noto'g'ri. An'ana nafaqat o'ziga meros oladi, balki bo'ladigan o'zgarishlarni ham tahmin qiladi. Butun dunyoda jamiyatlar dinamik rivojlanmoqda, biroq majburiy modernizatsiyaning bosim bilan kiritilishi an'analar bilan chegaralangan taraqqiyot o'rtasida nizolarning vujudga kelishiga olib kelmoqda. Ikkinchidan, "zamonaviy" jamiyatlarning a'zosi bo'lishga intilayotgan insonlarning tafakkuridagi identiklik bilan bog'liq muammolar qayd etilmoqda. Identiklik (identus – aynanlik, mansublik, o'xshashlik) – shaxs tomonidan o'zining qaysi sotsial guruhga mansubligi hamda shu sotsial guruh doirasida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, maishiy, axloqiy stereotiplarga amal qilinishi tushuniladi.

Identiklik jamiyatda sotsiologik, psixologik, falsafiy, antropologik, huquqiy va madaniy mazmun kasb etadi. Bunda shaxsning intuitiv (ichki his bilan) ravishdagi sotsiomadaniy identifikatsiyasi muhim rol o'ynaydi. Sotsiomadaniy identifikatsiya – bu shaxsning mavjud sotsiumda turli madaniy xususiyatlarni

o'zida jamlaganligi va shuning asnosida undagi sotsial birliklarga tegishli ekanligini anglash, his etishdi.¹

Sotsiomadaniy identifikatsiya tarkibida kichik sotsial guruhlar, sinflar, hududiy birliklar, etnik va milliy guruhlar, xalqlar, sotsial harakatlar, davlat va global sharoitda butun bir insoniyat ham kiradi. Bunda inson sotsial munosabatlar tizimidagi madaniy subyekt, ya'ni agent (tashuvchi) sifatida o'zini idrok etadi, his etadi va baholaydi.

U yoki bu identifikatsiyaning ijtimoiy strukturadagi o'rni sotsiomadaniy kontekstning o'zgarishi ta'sirida almashishi mumkin. Masalan, har bir davrning boshqaruv apparatidagi o'zgarishlar yangi shaxslararo yoki avlodlararo identifikatsiyani paydo qilishi mumkin. Jumladan, XX asrning 30–60-yillaridagi insonlar uchun non mukofot rolini bajarishi muqarrar edi. Ammo bugungi kun avlodiga nonning qadrini android tizimidagi texnik vositalar (kompyuter, telefon, turli maishiy texnika buyumlari) qiymati bilan solishtirish mutlaqo tushunarsiz holat hisoblanadi.

Madaniy munosabatlarda identiklik muhim ahamiyat kasb etib, u milliy, etnik, fuqarolik, kasbiy, hududiy, diniy-konfessional, gender va yoshga oid mazmun kasb etadi. boshqa turlarga bo'linib, u o'z qamrovidagi insonlarni iqtisodiy, siyosiy, maishiy, ma'naviy, madaniy, mental jihatdan hayot tarzida ma'lum stereotiplar hosil qilishi, fikrlash, hulq-atvor natijasida sotsial guruh yoki qatlamlarni yaratishi bilan xarakterlidir.

“Zamonaviy jamiyat” atamasi ilk bor G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika tadqiqotchilari tomonidan ilgari suriladi. Bugungi kunda ushbu atama G'arb dunyosi zamonaviy jamiyatlari va o'zga dunyo zamonaviy jamiyatlariga bo'linadi. Masalan, musulmon-islom dunyosi, sharq mamlakatlari, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Afrika qit'asidagi zamonaviy jamiyatlar kabi jumalar tez-tez uchraydigan bo'ldi. Umuman olganda modernizatsiyalashgan madaniyat bir xil ma'noda ilgari surilsada,

¹ Борневассер М. Социальная структура, идентификация и социальный контакт // Иностранная психология. – 1993. – Т.1. – № 1. – С. 69.

unda doimo zamonaviylik bilan an'anaviylik o'zaro bir-birini rad etib kelmoqda.

Amerikalik antropologlar A.Kreber va K.Klakxonlar 1952-yili shu davrgacha madaniyatga berilgan 150 dan ortiq ta'riflarni tahlil etadilar. Ular madaniyatning ingliz va amerika adabiyoti asosidagi hamda nemis-fransuz turmush tarzi ana'analariga asoslangan tadqiqot ishlarining ko'p qirrali ta'limot va tasniflarini tahlil etadilar. Kreber va Klakxon madaniyat atamasiga berilgan ta'riflarni to'rtta asosiy turga ajratadilar: 1) E.Taylor tomonidan madaniyatga berilgan antropologik ta'rif: “madaniyat yoki sivilizatsiya keng etnografik ma'noda o'zida bilim, e'tiqod, san'at, ma'naviyat, qonunlar, udumlar, odatlar va boshqa imkoniyatlarni mujassamlashtirib, insonni jamiyat a'zosi sifatida shakllantiradi”

2) Tilshunos olim E.Sepir tomonidan sotsial meros va an'anaviy jarayonlarni aks ettiruvchi tarixiy tasnif: “madaniyat – bu sotsial jarayon bo'lib, avloddan avlodga meros bo'lib o'tuvchi qoidalarning faoliyati va ishonchliligini aks ettiruvchi ijtimoiy hayotimiz hujayrasidir”.

3) Antropolog olim K.Uislarning me'yoriy-normativ tasnifi: ushbu tasnif ikki guruhga bo'linadi; a) hayot tarzi tushunchasi bilan bog'liq tasnifga ko'ra, “jamoalari yoki qabiladagi hayot tarzi madaniyat hisoblanadi... Qabila madaniyati o'zining bir turdagi e'tiqodi va amaliyoti bilan a'zolarni boshqaradi” b) ideallar va qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lgan tasnifga ko'ra, “madaniyat – bu inson oliy qobiliyatining doimiy ro'yobga chiqishida sotsial organizmdagi energiya qoldiqlaridan xalos bo'lishidir”.

4) U.Tomasning qadriyatli tasnifiga ko'ra, “madaniyat – bu turli sotsial guruh (institut)dagi insonlarning moddiy va ijtimoiy qadriyatlaridir”.

Ingliz yozuvchisi Ch.Snou 1959-yili o'zining “Ikki madaniyat va ilmiy inqilob” deb nomlangan mashhur nutqida (keyinchalik ushbu nutq uning publitsistik ishlari to'plamiga kiritiladi) ziyolilar o'rtasidagi madaniy ong farqini ko'rsatib beradi. Unga ko'ra ongdagi tafakkur shakli ikki guruhga ajratiladi: bir tomondan adabiy jihatdan shakllangan gumanitar sohadagi ziyolilar va

ikkinchisi tabiiy-ilmiy va texnik sohadagi ilmi (bilimli) kishilar. Snouning fikricha har ikkala guruhga mansub insonlar dunyoqarashi va ularning qadriyatlariga bo'lgan munosabati keskin mulohazakor tabiatga ega. Tabiiy-ilmiy va texnika soha vakillari yaratuvchanlik ruhidagi ishonch bilan kashfiyotlar qilishga moyil bo'lsalar, ijtimoiy soha vakillari ilm-fan va texnik yutuqlar tufayli an'anaviy qadriyatlar yo'qolib borayotganligini, imkon qadar vorisiylikni saqlab qolishni ta'kidlaydilar. Ushbu qarama-qarshiliklar natijasida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida falsafiy bilimlardan sotsiologiya, antropologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlarni ajralib chiqishiga turtki berdi. O'sha davr falsafiy g'oyalaridagi konservativ fikrlar doirasida "madaniyatning tanqidi" degan atama yuzaga keldi. Kezi kelganda ta'kidlamochimiz, ya'ni O'zbekistonda XX asrning 90-yillarida paydo bo'lgan sotsiologiya sohasiga bugungi 2017-yilda hamon "bu fanning o'zi kerakmi yoki kerak emas" deb qarovchilarning ikkilanishlari, afsuski achinarli.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, aksariyat tadqiqotchilar madaniyat va sivilizatsiyani bir-biriga yaqin tushunchalar sifatida izohlaydilar. Lekin bu ikki atama yagona mazmun kasb etganda, ular uchun ikki xil so'z ishlatilmasdi. Madaniyat sivilizatsiyaga nisbatan hayotga hissiy yondashuv va ma'naviy ijodkorlik ruhi bilan yondoshadi. Unda adabiyot, san'at, musiqa, falsafa hukmronlik qilsa, sivilizatsiyada sovuqqon va murakkab hisob-kitoblar dunyosi hamda texnik konstruksiyalarga asoslangan texnik-ilmiy ong ustuvor bo'ladi. Madaniyatning ijodiy tabiati sivilizatsiyaning "raqamli" olami, ma'naviy mehnat esa jismoniy ish bilan qarama-qarshi keladi. Mavjud bayram marosimlari tadbirlarga, dam olish ishlashga, erkinlik zaruratga qarshi qo'yiladi.

Snouning "Ikki madaniyat" asari XX asrning o'rtalarida dunyoga kelgan bo'lib, juda ommaviylashib ketadi va u jamiyatshunoslikdagi mumtoz qarama-qarshilikning bir ko'rinishi sifatida saqlanib qoldi. Uning madaniyatga bo'lgan yondashuvi muaamoga avval yozilgan tanqidlardan nimasi bilan farq qilgan, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bunda ikki xil yo'nalish mavjud

bo'lib, birinchisi madaniyatni baholashda qutbiy o'zgarishni yuzaga kelishi, ya'ni adabiy va ijtimoiy sohadagi ziyolilarning dunyoqarashlarida an'anaviylikdagi ijtimoiy rollarni salbiy baholashga erishishi. Ikkinchi guruh vakillari bir qadar konservativ bo'lib, unda an'ana va udumlarning ashaddiy tarafdori sifatida qolib ketishlari. Bu esa o'z navbatida keskin ilmiy-publitsistik va dramatik bahs-munozaralarni keltirib chiqardi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida ushbu holatning yaqqol ifodasini qariyb 25 yil mobaynida milliy OAV (televidenie, gazeta-jurnallar, radioeshittirish) va Internet (mahalliy saytlar, sotsial tarmoqlar)dagi turli xil debatlarida kuzatdik. Milliy OAVlarda an'anaviylik urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar, udumlarni qattiq himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, aksincha sotsial tarmoqlarda globallashtirilgan dunyoning texnik yutuqlariga katta e'tibor qaratilardi. E'tirof etadigan tomoni shundaki ijtimoiy-gumanitar sohasining davlat tashkilotlarida ishlaydigan xodimlari an'anaviylikni qattiq turib himoya qilganlari holda, o'z farzand va nabiralarni rus yoki yevropalashgan bog'cha va maktablarga ta'lim olishlari uchun berardilar. Albatta bu paradoksl holat jamiyatda yopiq tushunmovchiliklarni keltirib chiqarardi.

Nemis sotsiologi V.Delenis 1985-yili o'zining "Uch madaniyat" degan asarini nashrdan chiqaradi. (138) U to'g'ridan-to'g'ri Snou taklif etgan g'oyalarga ishora qilib, madaniy dunyoqarash sohasida muhim rolni "uchinchi madaniyat", ya'ni zamonaviy ijtimoiy fanlar o'ynaydi. U ijtimoiy fanlar deganda falsafa, sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik, sotsial antropologiya kabi fanlarni nazarda tutadi. Agar XIX asrda ikki qutbli dunyoqarash (zamonaviylik va an'anaviylik) mo'ljallarini shakllantirish uchun kurash huquqi mavjud bo'lsa, endilikda ushbu kurash "uchinchi" madaniyat doirasida kurtak ochadi. U ijtimoiy fanlar doirasida amalga oshirilib, bunda ideal tabiiy-ilmiy bilimlarga mo'ljallangan pozitivistik pozitsiya an'anaviy adabiy-gumanitar yondashuvga yaqinroq bo'lgan germevtik yo'l orasida kechadi. Gumanistik an'analarda germevtika deganda, biz qadimgi qo'lyozmalarni talqin qilish va uning mohiyatini anglash san'atini ilmiy jihatdan tushunamiz. XX asrning atoqli

mutafakkirlari F.Ionin, L.Shlyayermayer, V.Diltey, keyinchalik M.Xaydeggerlar o'zlari tomonidan ishlab chiqilgan gernevnik falsafani insonning o'zini o'zi anglash va ma'naviy mavjudligini bilish usuli deb atadilar.

XX asrning birinchi yarmida sotsiologiya sohasida pozitivizmga qaratilgan mo'ljall olish ustuvorlik qila boshlaydi. 50 yillardan boshlab fan va ta'limda ijtimoiy va mafkuraviy g'oyalarning har bir jamiyatda muhim omilga aylanishi sotsial-gumanitar yondashuvlarni universallikka aylantirdi. Fanning eng radikal tanqidchilari ham madaniyat doirasida tabiiy fanlardagi sotsial masalalarni inkor etmaydigan bo'ldilar. Shunday qilib, madaniyat sotsiologiyasining rivojlanish dinamikasiga e'tibo beradigan bo'lsak, u o'zida "an'anaviylik", "zamonaviylik" va "ijtimoiy-gumanitar fanlardagi yondashuvlar" tizimi bo'yicha tadqiq etilganligini kuzatishimiz mumkin.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. *Madaniyat tushunchasi va uning ma'noli tarixi*
2. *Madaniyatlar to'qnashuvi va assimilatsiya*
3. *An'anaviy jamiyat*
5. *Zamonaviy jamiyat*
6. *An'anaviylik, urf-odat*

Nazorat savollari

1. *Ijtimoiy fanlarda solere atamasi qanday ma'noni anglatadi?*
2. *S.Xantingtonda ochiq yoki yashirin holatda uchraydigan modernizatsiyaning to'qqizta asosiy xarakteristikasini aniqlang.*
3. *Nemis sotsiologi V.Delenis 1985 yilda nashr etilgan asarni aniqlang.*
4. *"Zamonaviy jamiyat" atamasi ilk bor qaysi davlatlar tadqiqotchilari tomonidan ilgari suriladi?*

6-MAVZU. ZAMONAVIY ANTROPOLOGIYADA MADANIYAT SHAKLLANISHI KONSEPSIYALARI

Reja:

1. *Madaniyat va jamiyat. Moddiy va ma'naviy madaniyat*
2. *Madaniyat evolyutsiyasi va sivilizatsiya*
3. *Ma'naviy madaniyatning tarkibiy tuzilishi (Submadaniyat, elitar madaniyat, ommaviy madaniyat)*

Tayanch iboralar

Moddiy va ma'naviy madaniyat, submadaniyat, elitar madaniyat, ommaviy madaniyat, madaniyat evolyutsiyasi, sivilizatsiya madaniyatning tavsifi

Madaniyat insonning unikal darajadagi erishgan yutug'i hisoblanadi. Bu insoniylikning belgilaridan biri hisoblanadi. Insoniyat bo'lmasa madaniyat ham bo'lmaydi, insoniylikni darajasi esa madaniyat darajasi bilan ham o'lchaniladi. Inson madaniy olamda tug'uladi va unda tarbiya topadi. Olamdagi boshqa jonzorlar hayvonot olamida yashaydi. Inson qaysi jamiyatda dunyoga kelsa, o'sha jamiyatdagi madaniy olamda dunyoga kelgan hisoblanadi. Har bir inson qandaydir madaniyatni vakili hisoblanadi. Madaniyat insoni boshqa hayvonot dunyosidan ajratib turuvchi o'ziga xos sifatlardan biri hisoblanadi.

Madaniyatni keng ma'noda tushunadigan bo'lsak, u bizning hayotimizdagi xulq-atvorimiz, falsafamiz va etikamiz, axloqimiz, an'ana va urf odatlarimiz, siyosiy, diniy va iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq faoliyatimiz tushuniladi. Inson individual va jamoaviy hayoti davomida madaniyatni o'zlashtiradi. "MacIver and page" kitobida keltirilishicha "madaniyat - uslublar, qadriyatlar, ijodkorlik va intellektual faoliyat sohasidir. Bu bir butunlikdagi inson ma'lum jamoadan o'zlashtiruvchi jamiyatning merosidir".

Madaniyat borasida antropolog olimlarning quydagicha fikrlari mavjud:

1. Bronislav Malinovskiy madaniyatni insoniyatning ijod na'munalarini majmuasi deb ta'kidlagan. U madaniyatni insoniyat

faoliyati natijasida sharoitga moslashtirish orqali erishgan na'munasi ham deb ataydi.

2. Mashhur Angliyalik antropolog olim Edvard Teylor madaniyatni inson tamonidan jamiyat a'zosi sifatida erishadigan bilim, axloq, e'tiqod, san'at, odatlar bilan bog'liq murakkab majmua deb ataydi.

3. Robert Bayrested madaniyatni biz jamiyat a'zosi sifatida o'ylayotgan va qilayotgan xatti-harakatlarimizni murakkab tizimi deb hisoblaydi.

Madaniyatning tavsiflari

1. Madaniyatni anglash. Madaniyat biologik meros sifatida o'tmaydi, lekin insonni ijtimoiyligini anglatadi. Bu tug'ma tendensiya hisoblanmaydi. Madaniy bilan bog'liq instinklar mavjud bo'lmaydi. Madaniyat odatda xulq-atvorni ham anglatadi.

2. Madaniyat ijtimoiydir. Madaniyat yakka holda mavjud bo'lmaydi. Bu hech qanday individual hodisa emas. Madaniyat ijtimoiy o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladi va rivojlanadi. Jamiyat a'zolari o'rtasida tarqaladi.

3. Madaniyat ommalashgandir. Madaniyat ommalashishi bilan sotsiologiyada ahamiyatlidir. Bu inson yakka holda o'zlashtiradigan jarayon emas.

4. Madaniyat o'tkazuvchandir. Madaniyat bir avloddan boshqa avlodga o'tish xususiyatiga ega. Madaniyat gen orqali emas, til, xarakterlar vosiyasida etkaziladi.

5. Madaniyat davomli va mujassamdir. Madaniyat to'xtovsiz jarayon sifatida mavjudir. U tarixiy tarraqiyot davomida mujassamlashib boraveradi. Madaniyat oldingi va hozirgi yutuqlarni mujassamlashtirib insoniyatning kelajakdagi yutuqlariga zamin yaratadi.

6. Madaniyat integratsionlashgandir. Madaniyatda muntazamlik tendensiyasi mavjudir. O'z navbatida u boshqa jamiyat sohalarini o'zaro aloqasini ta'minlaydi.

7. Madaniyat dinamik va moslashuvchandir. Madaniyat statik holda barqarorlik kasb eta olmaydi. Unda asta sekinlik bilan, lekin

doimiy o'zgarishlar yuz beradi. O'zgarish va yuksalish madaniyatda latent holatda bo'ladi.¹

Moddiy va ma'naviy madaniyat

Moddiy madaniyat deb, insoniyat tamonidan yaratilgan obyektlar shunigdek, instrumental vositalar, jihozlar, avtomobillar, dambalar, yo'llar, ko'priklar kabi inson faoliyati natijasida o'zi uchun moddiylik asosida yaratgan narsalarni misol qilib keltirish mumkin. Qadimgi obidalar, ishlab chiqarish usullari, texnik va moddiy jihozlar moddiy madaniyatning namunalari hisoblanadi. Moddiy madaniyatni o'zgarishi va rivoj topishi bilan sivilizatsiya rivojlanadi.

Ma'naviy madaniyat insonni ichki ruhiy dunyosini yuzaga chiqaradigan madaniyat namunalaridir. Ma'naviy madaniyatni insoning nutqida, me'yorlarda amal qilishi, e'tiqodi, urf-odatlariga rioya qilishi, marosimlar va uslublarida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek qadriyatlar va tafakkur bilan bog'lik xatti-harakatlarini jamlamasini ma'naviy madaniyat deb hisoblash mumkin.

Madaniyatni funksiyalari deb quyidagilarni belgilash mumkin:

- Madaniyat bilimlar majmuasidir
- Madaniyat holatni aniqlashtiradi
- Madaniyat munosabatlarni belgilaydi
- Madaniyat bizning faoliyatimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega
- Madaniyat xulq-atvor namunasini ta'minlaydi
- Madaniyat insoniylikning qolipidir

Madaniy evolyutsiya bosqichlari va sivilizatsiya

Evolyutsiya so'zi - sifatli o'zgarishlar jarayonini ifodalaydi. Evolyutsionizm ushbu jarayonni bayon qiluvchi, tushuntiruvchi ilmiy faoliyat hisoblanadi. Charlz Darvin va Gerbert Spenser evolyutsion jarayonlarini ilmiy tarafdin tushuntirib bergandan

¹ Social Anthropology Core Course Calicut University page 26-27-28

so'ng, sotsiologiya va antropologiya fanlariga evolyutsion nazariyalar ham kirib kela boshladi.

Evolyutsionizm antropologiyadagi asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Gerbert Spenser evolyutsiyani birinchilardan bo'lib tushuntirishga harakat qilgan. Keyinchalik uning insoniyat jamiyati va madaniyatini o'rganish borasidagi g'oyalarini Edvard Teylor va Levis Morganlarning qarashlari bilan uyg'unlikda kasb etgan.

E. Teylor o'zining madaniyat tushunchasiga qo'shgan xissasi bilan zamonaviy antropologiyaning otasi deb ham ataladi. U o'zining "Ibtidoiy madaniyat" kitobida madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini yoritgan. E.Teylor madaniyat oddiylkdan murakkablik sari rivoj topadi va jamiyatlar bu bosqichlar orqali yuzaga keladi deb ta'kidlagan. U bu jarayonlarni din tushunchalarni paydo bo'lishi va rivojlanishi misolida tushuntirib berishga harakat qilgan. E.Teylor madaniyatni biologik nuqtai-nazardan aniqlanmagan degan nazariyani ilgari suradi. U madaniyatni o'rganishda irqiy tamonlama yondashishni bartaraf etgan.

E. Teylor madaniyat borasida izlanishlarda tarixiy jihatdan tahlil etish muhim degan fikrda bo'lgan va madaniyatni tarixiy jarayoning bir qismi sifatida baholagan. Uning fikriga ko'ra, antropologiya insoni tarixiy jarayonlarda tadqiq qilishi kerak.

E.Teylorning yana bir fikrlaridan biri, oldingi davrdagi madaniyat borasidagi tushuntirishlar xato olib borilgan deb hisoblaydi va madaniyatni antropologiyaning asosiy mavzusiga aylantiradi. U ta'kidlaydiki, madaniyat va sivilizatsiya bir butunlikdagi etnografik ahamiyatni kasb etib, insoning jamiyat a'zosi sifatida erishgan bilimi, e'tiqodi, axloqi, uruf-odatlari, san'ati kabi namunalarini uning bir butunligini ta'minlaydi. Uning madaniyat tarixi borasidagi nazariyasi madaniy jarayonlarning falsafasiga asoslangan bo'lib, quyidagi uch bosqichni o'z ichiga oladi. Yovvoyilik, Varvarizm va Sivilizatsiya. U bu uch universal rivojlanish bosqichlarini taklif etadi. Lekin, uning fikrlari qadimgi

tarixni qayta tiklash borasida harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajarishini o'ylamagandi.¹

Edvard Teylorning "Qadimgi jamiyat" kitobida berilgan chizmasi²

1	Yovvoyilikning qadimgi davri	Meva va ildiz orqali kun ko'rish va nutqning paydo bo'lishi
2	O'rta Yovvoyilik	Baliqchilik va olovdan foydalanish
3	So'nggi Yovvoyilik	Kamon va o'q yoydan foydalanish
4	Ilk varvarizm	Rassomchilik va kullochilikning yuzaga kelishi
5	O'rta varvarizm	Hayvonlarni qo'lga o'rgatish, sug'orish va dala ishlari, toshg'ishdan binolar
6	So'nggi varvarizm	Temirni eritish jarayonini kashf etilishi va temirdan instrument vositasida foydalanish
7	Sivilizatsiya	Fonetik alifbo va yozuvning paydo bo'lishi

Yana bir antropolog olim Gordon Chaydning insonning shakllanishi davrlari va madaniyat rivojlanishining chizmasi³

Arxeologik davr	Madaniy rivojlanish
Paleolit	Yovvoyilik
Neolit	Varvarizm
Mis-tosh davri	Yuqori varvazim
Ilk Bronza davri	Sivilizatsiya

¹ Social Anthropology Core Course Calicut University page 29

² Social Anthropology Core Course Calicut University page 31

³ Social Anthropology Core Course Calicut University page 50

Ma'naviy madaniyatning tarkibiy tuzilishi

Submadaniyat

Submadaniyat – turli ijtimoiy guruhlar madaniyati deb qaraladi. Submadaniyatga ijtimoiy qatlamlar: shaharliklar, qishloq aholisi, yoshlar, ishchilar, dehqonlar, o'rta qatlam, quyi qatlam va hatto yuqori qatlam kiradi. Gap shundaki, shu qatlamga kiruvchi kishilar faqatgina a'zolarining qatlamiga tegishli madaniyatni yoqtiradilar, qolgan qatlamlardagi madaniyat turi ularga begonadek, tushunarsiz ko'rinadi. Sababi esa submadaniyat har bir o'ziga tegishli guruhni boshqa guruh madaniyatlaridan "izolatsiya"da saqlaydi. Masalan, eng rivojlangan va faol bo'lgan yoshlar submadaniyati. Yoshlar submadaniyatining markazini musiqa tashkil qiladi.

Elitar madaniyati turi

Oliy – elitar madaniyat. Elita (fransuzcha *elita* – eng sara, eng yaxshi, saralangan) – har qanday ijtimoiy tuzilmaning boshqaruv jihatlarini muvofiqlashtirish hamda rivojlantirish funksiyalarini amalga oshiruvchi oliy, imtiyozli qatlamdir. Elita haqidagi nazariyalar dastavval Platon, Aristotel, Nitshe va boshqa olimlarning qarashlarida bayon qilingan. Hozirgi G'arb sotsiologiyasida elita turli xil talqin etiladi. Bunda elita hokimiyatga yo'nalgan, siyosiy jihatdan eng faol odamlar jamiyatda eng ko'p obro', maqom, boylikka ega bo'lgan, ommaga nisbatan aqliy va axloqiy ustunlikka ega odamlar (X. Ortega va Gasset), jamiyatning noijodiy ko'pchiligidan farq qiluvchi qismi (Toynbi), eng malakali mutaxassislar, menedjerlar va boshqaruv tizimidagi oliy xizmatchilardir, deb izohlanadi. Elitar madaniyati ostida, odatda, an'anaviy ijtimoiy-gumanitar va ilmiy-texnik (intellektual) madaniyat tushuniladi.

Estetika va antropologiya¹

Biz g'arblashmagan jamiyatlarda antropologiyaning estetikaga bo'lgan munosabatida muhim bo'lgan ikki masalani aniqlashtirib

olishimiz zarur. Birinchidan, biz san'at va estetik antropologiyasini ajratib bo'lmaz antropologiya sifatida ko'rib chiqishimiz shartmi? Birinchi bo'lib, biz umuman san'at obyektlari yoki ko'plab artefaktlarni yaratmagan jamiyatlar muammosiga duch kelamiz. Papua Yangi Gvineyadagi Foy va janubiy Sudandagi Dinka bunday jamiyatlarga yaqqol misol bo'la oladi. Ya'ni ularda artefaktik yoki san'at jihatidan rivojlanish yo'q, lekin ularda poetik qo'shiqlar shaklidagi og'zaki san'at shakli yuqori darajada rivojlangan. Bu etnotsentrik sifatida antropologlar tomonidan tanqid qilingan estetik yuksalish markazi sifatida G'arbdagi *object d'art* ga olib keladi. Biz san'at obyektlarisiz estetikani tasavvur qila olamiz. Estetikasiz san'at dunyosini tasavvur qila olamizmi?

Muammoni ko'rib chiqish jarayonida, biz ikkinchi masalaga to'xtalamiz. "Estetika" atamasining ma'nosiga bog'liq bo'lishiga qaramasdan, kamida ikkita farqli jihatni ajratib olimiz shart. Birinchisi, nima go'zal ekanligiga qarab didni baholash bilan bog'liq (Kantning "*Critique of Judgement*" asarida aniq berilgan). Ikkinchi, umumiy ma'noga ega bo'lib, his qilish bilan bog'liqdir (Kantning "*Critique of Pure Reason*" asarida aniq berilgan). Ko'plab nog'arbiy tadqiqotlar estetikani har qanday jamiyatda uchraydigan go'zallikni o'rganish bilan chegaralanib qolgan. Antropologlardan biri Morfiy (1991) estetikani inson sezgisiga sensorli ta'sir qilish sifatida izohlaydi. Lekin bu yerda hech qanday o'z o'zidan ta'sir etadigan kuch yo'q. Go'zallik haqidagi fikrlarmizni nog'arbiy bo'lgan madaniyatlarga singdira olmaymiz. Antropolog olimlar fikricha, antropologik nazariya turli xil jamoaviy odatlarga mantiqiy o'ylangan yashirin g'oyalar shaklini o'zi olib kira olishidan tashkil topmagan. Bu Kantning "Aniq Sabab Tanqidi" (*Critique of Pure Reason*)idagi transandantal estetikasiga reklama hisoblanadi. Kantning sxematizm g'oyasi (zamonaviy antropologiya asosida asos solingan) hech nimani anglatmaydi. Marilayn Stresern (Marilyn Strathern) kabi antropologlardan biri muammoni o'ziga xos harakat shaklida ijtimoiy hayot ko'rinishi shaklini tashkil qilish vositasi sifatida Melaneziyacha (Melanesian) ijtimoiy jarayon bilan ochib beradi (1988).

¹ ENCYCLOPEDIA OF SOCIAL AND CULTURAL ANTHROPOLOGY. Edited by Alan Barnard and Jonathan Spencer. - London & New York 2002. - P. 52

Keyingi savol san'atning qanday shaklda kelishi va ijtimoiy metod sifatida kelishi bilan bog'liq.

Ommaviy madaniyat

Ommaviy madaniyat – madaniyat mavjudligining murakkab, hamma vaqt bir xilda talqin qilinmaydigan o'ziga xos shakli. "Ommaviy madaniyat G'arb madaniyati bilan bog'liq hodisa deb tushuniladi, shuningdek, u g'oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida talqin qilinadi. Ommaviy madaniyat chuqur ijtimoiy va madaniy ildizlarga ega. Ommaviy madaniyat paydo bo'lishining ijtimoiy-iqtisodiy ildizlari yirik sanoat ishlab chiqarishning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Madaniyat va jamiyat. Moddiy va ma'naviy madaniyat
2. Madaniyat evolyutsiyasi va sivilizatsiya
3. Ma'naviy madaniyatning tarkibiy tuzilishi.
4. Submadaniyat,
5. Elitar madaniyat
6. Ommaviy madaniyat

Nazorat savollari

1. Edvard Teylorning sxemasiga ko'ra rassomchilik va kullochilikning yuzaga kelishi madaniyat rivojlanishining qaysi bosqichida paydo bo'lgan?
2. "Yovvoyilik, Varvarizm va Sivilizatsiya" bu uch universal rivojlanish bosqichlarini taklif etgan antropolog olimni aniqlang.
3. "Ibtidoiy madaniyat" kitobi muallifini aniqlang.
4. Fransuz tilidan tarjima qilinganda "eng yaxshi, eng sara" degan ma'noni anlatuvchi so'zni toping.

7-Mavzu. ANTROPOLOGIYADA SIYOSIY TIZIMLAR VA SIYOSAT

Reja:

1. Siyosat va siyosiy tizim tushunchasi
2. Siyosiy antropologiya va uning fan sifatida rivojlanishi
3. Qadimgi davrda siyosiy qarashlar va ta'limotlarning shakllanishi
4. Siyosatning shakllari va darajalari

Tayanch iboralar

Siyosiy institutlar, ijtimoiy guruh, siyosiy tizim, postmodern, iqtisodiy siyosat, siyosiy ta'limotlar

Siyosat davlatni idora etish uslubi, san'ati. Siyosat o'zi tabiyati, maqsadi va amalga oshirish uslublari, manfaatlarini ifoda etish darajasi bilan farqlanadi. Siyosat mamlakatlar xalqlar taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Siyosat turli-ijtimoiy guruhlar, kuchlar manfaatini o'zaro uyg'unlashtirish bilan bog'liq holda kechadi. Aks holda siyosiy hayotda boshbodoqlik, parokandalik kabilardan iborat siyosiy tanazzul holati yuzaga kelishi mumkin.

Qadimgi yunon faylasufi Demokritning fikricha, "siyosat davlatni idora etish, boshqarish mahoratidir". Aflotun siyosatni xukmdorlarning san'ati sifatida, ya'ni shoxning odamlarni (jamiyatni) boshqarish sohasidagi bilimi va qobiliyati sifatida ta'riflaydi. "Siyosat san'atining mohiyati, – deydi u, – davlatning umumiy hayotini oqilona tashkil etish va olib borish qobiliyatida, siyosiy "matoni" to'qish qobiliyatida namoyon bo'ladi"

Qadimgi grek mutafakkiri Aristotel ta'kidlaganidek, "Siyosat inson faoliyatining ajralmas qismiga aylangan holda u tirikjon sifatida inson tabiatida" joy olgan bo'lib jamoada, davlatda yashashi va boshqa odamlar, davlat institutlari bilan o'zaro harakat qilmoqlikka mahkum etilgan.¹

¹ История политических и правовых учений. - СПб., 2000. - С.16.

Siyosiy institutlar – davlatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladigan davlat muassalari, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari. Siyosiy institutlar siyosiy hayotni tashkil etish va amalga oshirishning o'ziga xos shakli bo'lib, jamiyatdagi siyosiy aloqalar va munosabatlarning uzviyligini ta'minlaydi. Siyosiy institutlar qator siyosiy ahamiyatga ega vazifalarni bajaradi: jamiyat a'zolarining turli-tuman siyosiy ehtiyoj va manfaatlarini qondiradi, siyosiy munosabatlarni muvofiqlashtirib va nazaorat qilib boradi, turli siyosiy guruhlarda sinflarning siyosiy manfaatlarini uyg'unlashtiradi. Siyosiy institut faoliyati jamiyatda qabul qilingan siyosiy norma va prinsiplar asosida, jamiyatdagi siyosiy tuzum va siyosiy strukturaga mos ravishda amalga oshiradi.

Siyosiy tizim – jamiyatdagi muayyan siyosiy funksiyani bajaradigan ijtimoiy institutlar tizimi. Siyosiy tizimning ikki darajasi mavjud: mamlakatning siyosiy tizimi va xalqaro siyosiy tizim. Birinchisi, u yoki bu jamiyatning siyosiy sohasini qamrab olsa, ikkinchisi butunjahon hamjamiyatini o'z ichiga oladi. Siyosiy tizimda xalq qiluvchi bo'g'in vazifasini davlat o'taydi. Chunki, davlatsiz hech qanday tizimning bo'lishi mumkin emas. Siyosiy tizimga davlatdan tashqari siyosiy partiyalar, turli ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, siyosiy ta'sir ko'rsatish qo'mitalari, turli institutlar va zaruriy qaror qabul qilish imkonini beruvchi mexanizmlar kiradi. Ushbu institutlarni tashkil etish tamoyillari jamiyatning siyosiy tuzumini belgilaydi.

Siyosiy antropologiya ijtimoiy va madaniy antropologiya sohalari orasida fan sifatida shakllanishida eng so'nggilardan biri bo'lgan. 1940- va 1960-yillar orasidagi antropologlar bu fan sohasini qonun qoidalarini va dasturini ishlab chiqishgan.

Qisqa vaqt davomida siyosiy antropologiya siyosat kelib chiqishi va mazmuni tushunish borasida fan muammolarini xalq etish yo'lini topa oldi. 1950-yilda siyosiy olim Devid Iston siyosiy antropologlarni siyosatchilarga kuch aloqalari va tengchilik manbasi sifatida baho berishgani uchun tanqid ostiga oladi.

Siyosiy antropologiya antropologiyada bo'lgani kabi dunyoni qurish va qayta qurishni aniqlash borasidagi yo'nalishlari bilan bu

fan o'zini topmoqda. Siyosatni o'rganuvchi antropologlar dastlab o'zining nazariyalarini Britaniya madaniyati gegomoniyasi ta'sirida qolganligi keyinchalik AQSHning Sovuq Urush orqali dunyo sistemasida dominonlik qilishini ta'sir etganligini ta'kidlashadi. Fan o'zagidagi tanqidiy burilishga imperializmni qulashi va Amerikaning Veytnam urushidagi mag'lubiyati sabab bo'lgan. Bu ikki voqea olimlarni modernlikdan postmodernlikka o'tishi uchun sabab vazifasi o'tagan.

Fanni shakllanishi birinchi davri (1879–1939) da antropologlar siyosatni boshqalar mafaati uchun xizmat qiluvchi voqealik sifatida o'rganishgan. Ikkinchi davr (1940–66) da siyosiy antropologiya o'zining tizimli strukturasi shakllantirdi. Uchinchi bosqich 1960-yillar o'rtalaridan boshlangan bo'lib, unda fan sifatida qat'iy bir yo'nalish sifatida shakllantirildi.

Siyosiy antropologiyaga paradigmalar asta-sekinlik bilan tartibga keltirala boshlangan. Siyosiy burilishlar borasidagi qarashlar geografiya, ijtimoiy tarix, adabiy tanqichilikda yoritilgan faktlar orqali shakllantirilgan.

Antropologiyada siyosiy yo'nalishni shakllanishiga xissa qo'shgan olimlardan Evans Pritchard, Xomi Bhabha va Viktor Tyunerlarni alohida ta'kidlab o'tish zarur. Antropologlar o'zlarining intellektual vositalariga tanqidiy ko'z bilan qayta ko'rib chiqqanliklarini tan olish lozimki, bu siyosiy antropologiyaning fan sifatida qayta jonlanishiga sabab bo'lgan.

Siyosiy tashkilotlarni o'rganishni birinchi professional o'rganishga Amerika etnologiya instituti tamonidan Amerika tub aholisini o'rganish davomida 1879-yilda tamal toshi qo'yildi. Institut siyosiy etnografiyaga oid chop etgan nashrlarida asosan uch yo'nalishi borasida so'z boradi:

– siyosiy jamiyatni qayta tuzish va qayta ko'rib chiqishni qisman ideallashtirish;

– qabilaviy tashkilotlar va ularning huquqiy amaliyotini borasidagi kuzatishlar hisoboti;

– hukumatning hindulik kelishuvi munosabatlari borasidagi hisobot hujjatlari;

Gerbert Spenser va Genri Morganlarning qarashlari institut olimlarining konseptual tahlil etishlari uchun yordam berib, ko'p vaqt davomida etnografiyaga oid tadqiqotlarda qo'l kelgan. Yevropa va Amerika antropologiyasida sivilizatsion jarayonlarni evolyutsiyasini arxeologiyaga oid tadqiqotlar bilan bog'lab o'rganish tez tez uchrab turadi.¹

Sharqiy Afrika, istiqomat qiladigan qabilalar orasida yoshga oid institutlarning turli shakllari, yosh bosqichlari, yosh guruhleri (chiziqli nomlash va siklli nomlash) va avlod sinflari ayniqsa yaxshi ishlab chiqilgan (Bakstyor va Almagor, 1978). Ushbu kompleks madaniy tuzilmalarning funksiyasi va mohiyati ijtimoiy antropologlarning nazaridan chetda qolib kelgan. Bu borada hech qachon kuzatuvlar olib borilmagan. Birinchidan, ushbu institutlar ayollarga qaraganda ko'proq erkaklarga taalluqli bo'lgan. Ayollar orasida ham bunga muqobil tashkilot bo'lgan bo'lishi mumkin, biroq ushbu tashkilot doimo erkaklar tashkilotining ta'siri ostida vujudga kelgan, ayollarning o'zlari ham odatda o'zlarining yoshga bog'liq guruhlar tizimidan bexabar qolib ketishgan.

Ikkinchidan, yosh guruhleri va avlod sinflari egalik huquqi yoki nazorat ma'nosida chorva yoki boshqa mulk egaligi shakliga nisbatan hech qanday moddiy manfaatga ega hisoblanmaydi. Chorvaga egalik qilish huquqlari oila va urug'da shakllantirilgan muayyan shaxslarga tegishli bo'ladi. Hatto "jangchilar" yoshidagi guruhlarining hujumlari natijasida qo'lga kiritilgan zahira ham alohida shaxslarga taqsimlab beriladi va oila a'zolari tomonidan hazm qilinadi. Boshqa tomondan guruh va bosqichlar unvon, tamg'a va imtiyozlardan foydalangan holda kishilar orasida jinsiy muomala, go'sht va ichimlik, xususan qurbonlik qilingan hayvonlarning maxsus kesib olingan joylari, qurol-yarog' taqib yurish, uylanish va oila qurish kabi holatlarda xarajatlarni nazorat qilishda ba'zi imtiyozlarga egadek bo'lib ko'rinadi.

Nil bo'yida yashaydigan qabilalarda boshqaruv idoralarning markazlashgan va ierarxik tizimi yetarli miqdorda bo'lmaganligi uchun doimo yosh guruhleri tizimlariga oid bo'lgan lavozimlar

tomonidan boshqarib kelinadigan hukumat funksiyalarini ko'rishga kuchli mayl mavjud bo'lgan. Masalan, janubiy Sudanda yashaydigan Sharqiy Nilliklar orasida yosh sinflarining hatto 1980 yilga qadar mahalliy hukumatlarda bevosita ishtirok etishi haqidagi dalillar uchrab turadi. Hukumat tepasidani yoshi keksalarni (*monomiji* "Qishloqning otalari") almashtirish ushbu shaxslarning judayam keksayib ketishi va o'rini vorislariga bo'shatib berishlaridan iborat davomiy jarayon emas, aksincha bu narsa yosh guruhlarining katta avlodlari to'satdan qishloq uchun mas'ul ekanliklarini his qila boshlagan vaqtdagi "revolyutsiya" deb hisoblanadigan muayyan oraliqlarda amalga oshiriladi. Hukmronlikning bu tariqa o'zgalarga o'tishi har 20 yilda o'tkaziladigan sahnaviy tadbir bilan amalga oshiriladi, unda yoshi o'tgan avlod bilan hukmronlikka da'vogar avlod o'rtasida soxta jang o'tkaziladi. Avlodlar o'rtasidagi bunday muxolifat Sudandagi nizolar chog'ida ham kuzatilgan. 1980-yilda qo'zg'olonlar va Xartumga yordam berish uchun hukumat avlodlar aro muxoliflarni qo'llagan edi (Simons, 1992).¹

Siyosatning shakllari va darajalari

Siyosiy antropologiyada zamonaviy ijtimoiy ilmiylik erasi 1960-yillarning oxiridan fanga kirib kela boshladi. Shu paydan boshlab fanga 6 ta muhim paradigm paydo bo'ldi va muhim ahamiyat kasb eta boshlagan bular: yangi evolyutsionizm, tarixiy-madaniy nazariya, siyosiy iqtisod, strukturalizm, xarakat nazariyasi va prosessual nazariya.

Siyosiy iqtisod yana Uchinchi Dunyo siyosati tahlili borasidagi radikal shakllarining ilg'orlika chiqib oldi.

Ilmiy adabiyotlarda siyosatning turli jihatleri va uning tarkibiy qismlari ajratiladi. Siyosiy taqsimotining keng bo'lingan ko'rinishlari – bu undagi shaklning mazmun va jarayonning chegaralanganligidir.

¹ Encyclopedia Of Social And Cultural Anthropology. - page 644.

¹ Encyclopedia of social and cultural anthropology. Edited by Alan Barnard and Jonathan Spencer. - London & New York 2002. - Page 58-59

Siyosat shakli – bu turg'unlik, barqarorlikni ta'minlovchi va idamlarning siyosiy xulq-atvorini tartibga solishga imkoniyat beradigan, uning tashkiliy tuzilma, institutlaridir.

Siyosat shakli davlatda, partiya va guruhlar manfaatlarini huningdek qonunlarda, siyosiy va huquqiy normalarda mujassamlashadi.

Iqtisodiy siyosat – bu jamiyatning siyosiy tizimining bosh o'g'ini sanalmish davlat tomonidan mamlakat iqtisodiy negizini, noddiy asosini zamon talablari, jamiyat azolari, huquq va erkinliklariga muvofiq olib boradigan tashkiliy boshqaruv va taqsimot yo'nalishida bo'ladigan munosabatlardir.

Ijtimoiy siyosat – jamiyatda mavjud turli ijtimoiy guruhlar, holini moddiy va ma'naviy turmush darajasini, uning kam-kam qatlamlarining ijtimoiy holatini hisobga olib tuziluvchi siyosatdir.

Madaniy siyosat – mamlakatni umuminsoniy va milliy qadriyatlarini asosida taraqqiy ettirishga qaratilgan davlat siyosatidir. Bundan tashqari *xalq ta'limi, kadrlar, huquqiy, demografik, ekologik, harbiy, agrar* va h.k. siyosat sohalari mavjud.

Siyosatning asosiy qismlari va bo'laklaridan tashqari siyosatga amal qilishning darajalari ko'rsatib o'tiladi.

Misol tariqasida, YU.Gulanovning siyosatining to'rt darajasiga qaratilgan qarashlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Quyi daraja mahalliy muammolarni hal etish (uy-joy muammasi, maktab, jamoatchilik transporti va h.k.). Bu darajadagi siyosiy faoliyat asosan individlar tomonidan amalga oshiriladi, huningdek bir qism masalalar mahalliy assotsiatsiyalar tomonidan hal etilishi mumkin.

2. Mahalliy daraja davlatning aralashuvi talab etiladi. Aktiv siyosiy faoliyat, guruhlar, assotsiatsiyalar mintaqani iqtisodiy rivojlantirishdan manfaatdor bo'lganlar tomonidan amalga oshiriladi.

3. Milliy daraja siyosat nazariyasida markaziy o'rinlardan birini tashkil etadi va resurslarni taqsimlovchi asosiy institut bo'lgan davlatning mavqei bilan belgilanadi.

Xalqaro daraja, unda siyosiy faoliyatning asosiy subyekti milliy davlat hisoblanadi.

Tashqi siyosat – muayyan bir davlatning hududidan tashqaridagi davlatlar bilan yoki davlatlardagi faoliyati nazarda tutiladi. Davlatning tashqi siyosati uning *ichki siyosati*, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro munosabatlarda amal qilayotgan tamoyillarga bo'lgan munosabati, maqsadi va vazifalari bilan belgilanadi.

Xalqaro siyosat – davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatni tartibga solib turishga qaratilgan siyosat sifatida har bir davlatning tashqi siyosati, davlat hokimiyatining shakli, siyosiy yo'li tizimining xarakteri bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Qadimgi davrda siyosiy qarashlar va ta'limotlarning shakllanishi

Siyosiy ta'limotlar – davlat tuzilishi, siyosiy hokimiyat va ijtimoiy (sinfiy, millatlararo, xalqaro va boshqalar) munosabatlarga oid nazariyalardir. Siyosiy nazariyalar ular vujudga kelgan u yoki bu jamiyat hayotining ijtimoiy-sinfiy sharoitlari bilan bog'liqdir. Siyosiy nazariyani siyosatning asosiy bo'laklari (hokimiyat, siyosiy munosabatlar va muassasalar, siyosiy faoliyat, siyosiy hayot normalari, siyosiy ong va h.k.) to'g'risidagi bir-biri bilan bog'langan tasavvurlar tashkil qiladi. Siyosiy nazariya rivojlanishi silliq va tekis amalga oshmaydi. Har qanday siyosiy nazariyani o'rganishning asosiy talablaridan biri uning davr sharoitlari bilan aloqasini aniqlashdir. Mutafakkirlar davr muammolarini qay darajada yoritilganini ham aniqlash zarurdir. Siyosiy g'oyalar siyosiy kurash vositasidir. Uning davomida kurashayotgan sinflar o'z oldilariga ma'lum maqsadlarni qo'yadilar. Davlat faoliyatining shakllari, vazifasi va mazmunini belgilash siyosatning muhim elementlaridan biridir. Jamiyat va davlatning siyosiy tuzilishi, siyosati, hamda hokimiyatning xarakteri to'g'risidagi tasavvurlar har qanday siyosiy nazariyaning siyosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Siyosiy ta'limotlar ijtimoiy munosabatlarning ifodasi sifatida jamiyatning sinflarga ajralishi natijasida ularning manfaat va maqsadlari o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqqan. Ularni hal etish

, qandaydir tashkilot zarur bo'lgan. Bunday tashkilotning umoyondasi sifatida davlat vujudga kelgan va u siyosat sini anglatgan.

k, siyosiy qarashlar avval boshda afsona, keyin esa ilimlarning bir qismi sifatida amal qilib kelingan bo'lsa, davriga kelib siyosiy tadqiqotga nisbatan mustaqil fan tal qila boshladi. Yangi tarixiy davrda fanning mazmuni maqsadlari va unga erishish vositalari, shuningdek, amal qilayotgan ijtimoiy kuchlarni o'rganishga Hozirgi siyosiy tadqiqot adolatlilik, hokimiyat, qonun, qarorlik, ijtimoiy va siyosiy tashkilotlar rivojlanish i, siyosiy targ'ibot, siyosiy tizim, siyosiy madaniyat 'rganishga qaratilgan.

dagi fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkin: limotning vujudga kelishi uzoq tarixiy o'tmishga ega jamiyatning rivojlanishi bilan birga takomillashib, loirasi kengayib boradi. Demak, siyosat, siyosiy g rivojlanish g'oyalari tarixi, g'oyalarning o'rin va g'oyalar kurashi tarixidir.

tarixiy davrning, har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning asl maqsad-manfaatlarini, unda sodir bo'layotgan turli gi ijtimoiy siyosiy va ma'naviy-axloqiy harakatlarni ga yaqin tarzda ifoda eta oladigan siyosiy g'oyalarning hakllanadi va amaliyotiga tadbiq etiladi. Ko'pincha tiv xususiyatli siyosiy g'oyalar va uning zaminida noiy-siyosiy tuzumning o'ziga xos va o'ziga mos ning mohiyatini anglatadigan siyosiy g'oyalarga amal cuzatamiz. Ana shu xususiyatlarni e'tiborga olgan ngi sharq va g'arb mutafakkirlarning jamiyat va inson, davlat to'g'rsidagi nazariy qarashlariga e'tibor Dastlabki siyosiy qarashlar diniy an'ana, huquqiy, fiy qarashlar shaklida namoyon bo'ldi.

Sharqdagi siyosiy g'oyalar: Dastlabki siyosiy- lar barcha xalqlarda, qadimgi Sharqda ham, antik n afsona, rivoyatlar negizida shakllangan. Ularga l tartiblar umumbashariy, koinot tartiblarining uzviy b chiqishi jihatidan-ilohiydir. Ana shunday tushunish obaynida Sharqda, keyinchalik G'arbda ham insonlar,

ular o'rtasidagi munosabatlar, azaldan belgilanganligiga asoslanib barqaror dunyoqarshni shakllantirdi. Bu qadimgi davrdagi tuzum, davlat, siyosatga doir ifoda etilgan g'oyalarni 3 turga ajratish mumkin:

1. Diniy qarash;
2. Yuridik qarash;
3. Siyosiy sotsiologik qarash tarzida yuzaga keldi.

Bularda siyosiy hodisalar har xil talqin etilgan. *Qadimgi Xitoyda* imperator yer yuzidagi tartiblarni iloxiy tartiblar bilan bog'lab turuvchi yagona shaxs deb qaralgan. Xitoy imperatori osmonning o'g'ligina emas, o'z xalkining otasi ham hisoblangan. *Qadimgi Misrda* esa xudo – hukmdor hokimiyatning ilk manbai sifatida qaralgan. Erda ham uning ta'siri xuddi shunday saqlanib qolgan. Bu o'ziga xos piramidaga qiyos etilgan, uning uchi xudo va uning saylab qo'ygan fir'avnlari, asosi esa oddiy xalq deb qaralgan. Ular o'rtasida ruhoniylar va zadagonlar turgan. Jamiyat va davlatning xulq-atvori insonning ko'proq qaysi toifaga tegishligi bilan belgilangan.

Qadimgi Hindistonda ham jamiyat va davlatning kelib chiqishi ilohiy, mavjud tartib va qoidalar ham shu asosda o'rnatilgan, degan g'oyalar mavjud bo'lgan.

Dastlabki diniy – siyosiy qarashlar bundan deyarli uch ming yil avval hozirgi O'zbekiston hududida, Xorazmda yaratilgan yozma manba "Avesto"da bayon qilingan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da o'rta Osiyo, Xuroson eron va shimoliy Hindistonda vujudga kelgan 26 ta davlat, ularning boshqarilish tartibi, xo'jalik va madaniy hayoti haqida so'z yuritiladi.

"Avesto" dagi "Daxyu sastar" atamasi – davlat darajasiga o'sib chiqqan ma'muriy-siyosiy birlik bo'lib, uni boshqargan podshoh – "Kaviy" nomi bilan yuritilgan. Kaviylar ayni vaqtda bosh ruhoniy – koinotlik vazifasini bajargan. Hukmdor davlatni oqsoqollar kengashi yordamida boshqargan. Jamiyat a'zolari 4 guruhga: koinotlik, harbiylar, chorvadorlar, dehqon va hunarmand- larga ajralgan. Koinotlik va harbiylar davlatni boshqarish huquqiga ega bo'lgan yuqori martabali guruh sanalgan.

"Avesto"da bayon qilingan zardushtiylik ta'limotiga ko'ra butun olam bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikkita asos – yaxshilik va yomonlik, bunyodkorlik va buzg'unchilik, yovuzlik o'rtasidagi kurash zaminiga qurilgan bo'lib, oqibat natijada bu kurash yomonlik ustidan ezgulikning g'alabasi bilan yakunlanadi. yana ezgulik yo'liga qadam qo'ygan odamlar hamisha uchta tamoyilga, ya'ni, ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalga asoslanmog'i kerak, deb uqtiriladi.

"Avesto"da olov, yer, suv va havo jamiki mavjudotning bosh intihosi, deb qaralgan. Ularni iflos qilish eng og'ir gunoh hisoblangan. Bu qoidani buzgan kishi 400 qamchi jazosiga mahkum etilgan.

Demak, yurtning tinch-osoyishtaligini saqlash, halqning farovonligini ta'minlash, hayot manbai bo'lgan ekologik muhit musaffoligi davlat hokimiyatining muqaddas burchidir, deb qaralgan.

"Avesto" kitobida bayon qilingan yuqoridagi siyosiy-falsafiy g'oyalar hozirgi kunimizda ham dolzarb vazifalardan sanaladi.

Konfutsiyning davlat haqidagi nazariyasi: Konfutsiy (yer.av. 551–479) – ta'limoti falsafiy va siyosiy-huquqiy fikr tarixida Suqrot dan keyin muhim rol o'ynagan. Konfutsiy davlatning patriarxal- *paternalistik* konsepsiyasini rivojlantirgan. Uning ta'kidlashicha, davlat-katta oiladir. Imperator hokimiyati go'yo oila boshlig'i-otaning hokimiyatidek adolati va qo'l ostidagilariga mehr-shafqatga asoslangan. Hukmdor va fuqarolar munosabati – oila a'zolarining munosabatini eslatadi: kichiklar kattalar qaramog'ida va ularga itoat qiladi. Konfutsiy odamlarni ijtimoiy kelib chiqishga ko'ra 4 qatlamga ajratadi:

- 1) aslzodalar (har qanday bilimga tug'ilishdan ega);
- 2) bilimlarga o'qish-o'rganish jarayonida ega bo'lganlar;
- 3) bilimlarni qiyinchilik bilan o'zlashtiruvchilar;
- 4) bilim olishga intilmaydiganlar.

Shu tariqa odamlar o'rtasida tengsizlik mavjudligi va omi odamlar, qo'yi tabaqalar, kichik oliy nasab aslzoda, kattalarga bo'sunishlari zarurligi belgilab beriladi. Hokimiyat oqsuyaklar qo'lida to'planishi lozimligiga asoslanadi. Konfutsiy hokimi-

yatning adolat va mehr-shafqatga asoslanadi, fuqarolar esa isyonlardan o'zlarini tiyishlarini uqtiradi. Boshqarish-hammani joy-joyiga qo'yish demakdir.¹ Davlat xokimiyati xalq ishonchisiz mavjud bo'la olmaydi, ammo hukmdorlar hammaga o'rnak bo'lishlari lozim. Konfutsiy ta'limotiga ko'ra "*Hukmdor xalqni o'z farzandidek sevishi, fuqarolar esa xukmdorni o'z otasidek hurmat qilib, e'zozlashi lozim*" deyiladi. Odamlarning "najib" va past kishilarga bo'linishini o'zgartirib bo'lmaydi deyilgan. Bu ta'limot Xitoyda ko'p asrlar xukmron ideologiya bo'lib xizmat qilib keldi.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Siyosat va siyosiy tizim tushunchasi
2. Politegenез va uning o'ziga xoslikgi
3. Siyosiy antropologiya va uning fan sifatida rivojlanishi
4. Siyosiy qarashlarning o'ziga xosligi sabablari
5. Qadimgi davrda siyosiy qarashlar va ta'limotlarning shakllanishi
6. Siyosatning shakllari va darajalari
7. Siyosatning geografik sharoit bilan bog'liqligi
8. Etnos o'ziga xoslikning siyosiy tizimga ta'siri
9. Siyosiy tuzilmalarning o'ziga xosligi
10. Milliy siyosat tushunchasi

Nazorat savollari

1. Siyosat va siyosiy tizim tushunchasini izohlang.
2. Siyosiy antropologiya va uning fan sifatida rivojlanishi bayon eting.
3. Qadimgi davrda siyosiy qarashlar va ta'limotlarning shakllanishi sabablarini aniqlang.
4. Siyosatning shakllari va darajalari qanday bo'ladi?
5. Jamiyatdagi turli sinflarning madaniyatining uziga xosligi nimada namayon bo'ladi?

¹ Yusupova G.X., Bugaeva G.A. Siyosiy fikrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi. Politologiya kursi bo'yicha ma'ruzalar matni. 1-qism Toshkent: UzMU, 2000, 7-14 betlar.

8-MAVZU. ZAMONAVIY OILA VA QARINDOSHLIK

Reja:

1. Oila va nikoh munosabatlari
2. Oilaning tipik va tipik bo'lmagan shakllari
3. Qarindoshlik munosabatlari
4. Qarindoshlik va klanlar

Tayanch iboralar

Qarindoshlik, klan, nikoh, belgilangan va imtiyozli nikoh, levirat va sororet, tabu, nasl qoidasi

Nikoh ayol va erkakning birgalikda hayot kechirishiga ruhsat beruvchi jamiyatning sotsial nazorat vositasi hisoblanadi. Oila jamiyatning sotsial instituti sifatida namoyon bo'ladi. Antropolog olim Vestermarkning fikriga ko'ra, "nikoh – ozmi ko'pmi avlod qoldirish maqsadiga, aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan ittifoq". Nikoh ayol va erkakga farzand ko'rish bilan, ota va ona bo'lishi bilan bog'liq sotsial maqom beradi. Mashxur antropolog Lovie ta'kidlaydiki, nikohni ortida ikkita maqsad va ehtiyoj turishi mumkin: kundalik yumushlarni engish uchun birgalikda hayot kechirish va avlod qoldirish ehtiyoji.

Tarixiy taraqqiyot natijasida ayol va erkak o'rtasidagi nikoh munosabatlari qonuniy ko'rinishga kelgan. Bu nikoh instituti jamiyat tamonidan doimo qo'llab-quvvatlab kelinadi.

Nikohning shakllari

Hozirgi kunda insoniyat jamiyatlarida nikohning ikki shakli amalda bo'ladi: – Monogam, ya'ni bir ayol va bir erkak o'rtasida nikoh;

– Poligam bir erkak va ikki yoki undan ortiq ayollar o'rtasidagi nikoh.

Bundan tashqari ayrim ibtidoiy jamiyatlarda nikohning qadimgi shakllari saqlanib qolgan. Misol uchun poliandri – ya'ni bir ayolning bir necha erkak bilan nikohda bo'lishi.

Nikoh uchun turmush o'rtog' tanlash

Jamiyatda har doim ham shaxs o'zi yoqtirgan kishi bilan nikoh qura olmaydi, bu nikohni tartibga solish borasida ishlab chiqilgan tartib qoidalaridan biri bo'lgan. Qadimda nikoh ittifoqi tuzilishining birinchi mezoni bu jamoaning fikri ustuligi bilan izohlangan.

Belgilangan va imtiyozli nikoh

Ko'p jamiyatlarda birinchi amakivachalar, xolavachalar va boshqa yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohga izn berilgan. Bunda asosan oldindan kelishuvlar amal qiladi. Qachonki shaxs nikoh uchun mukammal yoshga etganda belgilangan nikoh amalga oshiriladi. Ba'zi bir jamiyatlarda bu majburiy hisoblanmaydi, lekin bu qarindoshchilik rishtalarini uzilmasligini ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Bunday nikohlar imtiyozli nikohlar ham deb ataladi. Bu turdagi nikohlar amalga oshirilishida ko'proq quydagi uch yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Yaqin qarindoshlar almashinish nikohi. Bu tushuncha birinchi bo'lib 1888 tilda olim Teylor tomonidan ifodalangan. Bu aka-uka yoki opa-singillarning farzandlari o'rtasidagi nikoh tuzilishidir. Bunday nikoh tushishning shakllari asosan Markaziy Osiyoda ham uchrab turadi.

Bu nikohga ko'pincha bolalar hali aqli tanimagan paytda ularning ota-onalarning kelishib qo'yishi natijasida amalga oshiriladi.

2. Parallel yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohlar. Bu turdagi nikoh musulmon jamiyatdalarida tarqalgan.

3. Levirat va Sororet – ko'pchilik jamiyat madaniyat normalarida umr yo'ldoshi vafot etgandan so'ng oilaning boshqa tirik qolgan a'zosi bilan tuziladigan nikoh. "Levir" so'zi lotinchadan tarjimadan qilganda "turmush o'rtog'ini ukasi" degan ma'noni anglatadi. Ko'pincha an'anaviy jamiyatlarda turmush o'rtog'i vafot etgandan so'ng uning ukasi bilan nikohga kirishgan. Yana bir odatga ko'ra, agar erkak kishining turmush o'rtogi vafot etsa, uning singlisiga uylanishga majbur etilgan. Lotinchadan tarjima qilganda "Sorror" so'zi singil ma'nosini anglatadi.

Tutqunlikdagi nikoh

Bu nikoh turi ko'pincha qizning roziligisiz biron joyga olib borib nikohiga olish. Bunda hattoki qizning otaliqa olgan yoki qarindoshlaridan ham ruhsat olinmaydi. Ko'pchilik ibtidoiy jamiyatlarda bunday nikoh turlari odat hisoblanadi. Ko'pchilik Markaziy Osiyo xalqlarida ham bunday nikoh turlari saqlanib qolgan.

Sotib olish orqali nikoh

Bunday nikoh turlari ko'pincha qabilaviy jamiyatlarida turmush o'rtog' tanlashga erishish uchun odatda ko'p qo'llaniladi. Ko'pincha ana'anaviy jamiyatlarda kelin uchun qalin berilishi yoki kuyov uchun sovg'a berish kabi ko'nishlari mumkin.

Almashinish orqali nikoh

Bu ham "nikohni sotib olish" turi sifatida ham qaraladi. Bunda ma'lum qabiladan kelin yoki kuyov qabul qilinsa, ayni o'sha qabiladan kelin yoki kuyov qabul qilinadi.

Qochish orqali nikoh

Ba'zi qabilalarda asosan ikki yoshni voyaga etgandan so'ng qochib ketishlari uchun sharoit yaratib berishadi. Bu Sharqiy Avstraliyadagi aborigen qabilalarda uchrab turadi. Hozirgi kunda ko'pincha ota-onasining roziligini ololmaganlar qochish orqali nikoh tuzish holatlari uchrab turadi.

Insoniyat jamiyatining debochasida nikoh ham oila ham mavjud bo'lmagan. Oila va nikoh deb nomlangan institutlar ijtimoiy rivojlanishning ma'lum bosqichlaridan so'ng kirib kelgan. Oilaning tarixiy ildizlari borasida ko'pchilik antropologik tadqiqotlar va tahminlar olib borilgan. L. Morgan, J. Freyzer va R. Briffaultlar kabi olimlarga Davrin va Spenserning evolyutsion nazariyasi ta'sir etgan. Ular oila evolyutsiyasi borasida ilmiy qarashlarni shakllantishga harakat qilishgan.¹

¹ Social Anthropology Core Course. Calicut University.- page 54,55,56,58,59.

Levi-Strauss urug'chilik haqida¹

Levi-Strauss o'zining qarindoshlar o'rtasidagi nikohga oid asarini yozishda Redklif-Braunning Avstraliya haqidagi asaridan juda ko'p o'rinlarda yaqqol foydalangan. U Redklif-Braun tomonidan aniqlangan qarindoshlar o'rtasidagi nikohning uch turini urug'chilik tuzumining uch ehtimoliy strukturasi sifatida o'zlashtirib olgan va "Urug'chilik tuzumining elementar strukturalari" asarining etnografiyaga oid birinchi bo'limida Avstraliyaga oid materiallarni tahlil qilgan. Redklif-Braun urug'chilik shaklini oilaviy munosabatlarning ijtimoiy integratsiyaning yuqori bosqichiga progressiv tarzda erishish yo'lida qabilaviy jamoa shakliga o'tishi sifatida ta'riflaydi. Levi-Strauss esa urug'chilik shaklini global (qabilaviy) bosqichda amalda bo'lgan tafakkur shaklining samarasi sifatida ta'riflaydi va odamlarni "otaning otasi" va "onaning otasi" kabi qarama-qarshi munosabat kategoriyalariga olib keladi. Levi-Strauss Redklif-Braunning Avstraliya urug'chilik tizimining turli ko'rinishlari ijtimoiy integratsiyaning turli darajalarini taqdim etadi, biroq tadqiq etilgan *Murngin* tizimi yirik ijtimoiy tarmoqlarni katta quvvat bilan ta'minlaydi, chunki ona tomondan qarindoshlar o'rtasidagi nikoh ittifoqining tizimi cheksiz darajada kengayishi mumkin, ayni vaqtda ikki tomonlama nikohga asoslangan Kariera va Aranda tizimlari esa tanazzulga yuz tutishga moyil bo'lib qolmoqda, degan gipotezasiga ergashadi.

Uorner Murngin qabilasi ota tomondan qarindoshlar o'rtasidagi nikoh shakliga ega ekanligini ko'rsatib o'tadi, biroq ularning urug'chilikka oid atamaları ichidan ettita ota chizig'ini ajratib beradi. Egodan uzoq bo'lgan ikki "tashqi" chiziq qarama-qarshi tomonga taalluqli bo'ladi va shuning uchun ham bir-biriga nikohlana olmaydi. Bu *Murngin* urug'chilik tizimida mavjud bo'lgan avlodlarning juda ko'p qismiga ma'lum bo'lgan ziddiyatlarni keltirib chiqargan. *Murngin* haqidagi bahslarning aksariyati maxfiy bo'lishiga qaramasdan, bu Redklif-Braunning

¹ ENCYCLOPEDIA OF SOCIAL AND CULTURAL ANTHROPOLOGY. Edited by Alan Barnard and Jonathan Spencer. London & New York 2002. page 45

modelidagi muhim noaniqliklarni yoritib beradi. Ushbu modelga ko'ra urug'chilik shakli terminologiyasidagi avlod chizig'i, erga egalik qiluvchi guruh va yaylov hududi bir xil ko'rinishda shakllangan. Ushbu noaniqliklar Xyat va Stannerlar tomonidan ilmiy jihatdan o'z yechimini topgan, biroq aborigen aholi tomonidan erga nisbatan o'zlarining atamasini huquqiy jihatdan anglashga da'vo qilish yo'lidagi ilk urinishi sababli taqdim etilgan antropologik dalil natijasida qaytadan yopilgan.

Odamlar jamoasi xo'jalik faoliyatining jiddiy buzilishi, urug'ning yashab qolishi uchun xavfning ro'yobga chiqishiga olib keldi. Shu tarzda yuzaga kelayotgan jamiyatda, urug' ichidagi jinsiy muloqotni boshqarish, biologik instinkt, zoologik individualizmni jilovlash uchun maxsus ijtimoiy me'yorlar shakllana boshladi. Ana shunday ijtimoiy me'yorlardan biri mazkur urug' ichida erkak va ayollarning jinsiy muloqotlarini ma'lum bir muddatga (ovga tayyorlanish, ov vaqtlarida) taqiqlovchi jinsiy tabular (ta'qiqlash)ning yuzaga kela boshlaganligidir.

Tabu – axloqiy me'yorlarga qaraganda ancha jiddiy va qattiq ta'qiqdir. Axloqiy me'yorlarni buzuvchilarni jamoa jazolashi, uni yo'q qilib yuborishi ham yoki kechirib tirik qoldirishi ham mumkin bo'lgan. Ko'pincha esa tabularni buzganlar, ular buni bilib qilganmi, yoki bilmaymi bundan qat'iy nazar so'zsiz jazolangan, yo'q qilib yuborilgan.

Ishlab chiqarishdagi jinsiy tabularni yuzaga kelishi urug' o'rtasida erkak va ayolni maishiy ajratib qo'yish bilan kuzatiladi. Tabu vaqtida erkaklarning nafaqat ayollarga teginishi, balki ularga qarashi, ular bilan gaplashishi, ular tayyorlagan ovqatni iste'mol qilishi, hatto ular bilan bir tom ostida ya'ni "bir uyda" bo'lishi ta'qiqlangan.

Dehqonchilikning yuzaga kelishi, mavsumiy dala ishlarining ortib borishi bilan jinsiy tabulardan xoli vaqtlar borgan sari kam muddatli bo'lib boravergan. Erkaklarda ham, ayollarda ham jinsiy zo'riqishning jadalligi ortib borgan. Shuning uchun tabulardan xoli qolgan vaqt oralig'i o'ziga xos shahvoniy ayshu ishratlarga aylana borgan.

Oila va uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra quyidagilarga farqlanadi:

To'liqligiga ko'ra: to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan (ikkinchi nikoh) oilalar.

Bug'inlar soniga ko'ra: nuklear (ota-ona va bolalardan iborat bo'lgan) va ko'p bo'g'inli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a'zolari birga yashovchi) oilalar.

Bolalar soniga ko'ra: farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, 3-4 bolali, 5 va undan ortiq bolali oilalar. Turli mamlakatlarda bu mezonlar turlicha-

dir. Masalan, AQSH, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda 3-4 bolali oilalar ko'p bolali oilalar hisoblanadi. O'zbekistonda bunday oilalar farzandlar soni o'rtacha bo'lgan oilalar sarasiga kiradi.

Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar oilasi, aralash tipdagi oila.

Er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko'ra: oliy ma'lumotlilar, o'rta-maxsus, o'rta, tugatilmagan o'rta va turli saviyadagi ma'lumotga ega bo'lgan qayliklardan tashkil topgan oila.

Oilaning "yoshiga" ko'ra: yosh oila (1 yilgacha, 3-5 yillik, 6-10 yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar), o'rta yoshdagi oila, etuk yoshdagi oila (qariyalar oilasi).

Qayliklarning ota-ona oilasi (ota-onasi)ning moddiy ta'minlanganlik darajasi jihatidan qudalarning bir-biriga mos ekanligi yoki ular orasida katta tafovut mavjudligi bo'yicha bir-biriga mos va mos bo'lmagan oilalar.

Regional jihatlariga ko'ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oila.

Nikoxdan koniqganlik saviyasiga ko'ra ajralish saviyasidanikohdan qoniqganlik darajasi quyi saviyada bo'lgan oila, o'rta saviyada va nikohdan qoniqganlik darajasi yuqori saviyadagi oila.

Oilada ayol yoki erkak yetakchiligiga ko'ra: er yetakchi bo'lgan oila, xotin yetakchi bo'lgan oila, er va xotin yetakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oila.

Oilada er-xotin orasidagi munosabatlariga ko'ra: avtoritar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar.

Er-xotinlarning millatiga ko'ra: bir millatli yoki baynalminal oilalar. Baynalminal oilalarni o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin: dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga kirgan millat vakillari orasida nikohutar, masalan, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-turkman, rus-ukrain, o'zbek-tatar va boshqalar, dini, urf - odatlari yoki tili bir guruhga kirmagan millat vakillari orasidagi nikoxlar. Masalan: o'zbek-rus, o'zbek-ukrain, o'zbek-eston, o'zbek-nemis va boshqalar.

Yuridik rasmiylashtirilganligiga ko'ra: sinovdagi oila (birga yashamaydi, ammo hali nikohni rasmiylashtirmagan, chunki birlari bilan norasmiy nikohda, rasmiylashtirish arafasidagi oila (birga yashashadi, oila qurish maqsadi aniq, ammo ayrim obyektiv sabablarga ko'ra rasmiylashtirish kechiktirilayabdi), nikoxdagi oila, nikoxdan tashqari oila (ayrim erkak kishilarning ikkinchi, uchinchi, yuridik jihatdan norasmiy oilasi).

Qarindoshlik

Antropologiyadagi muhim tushuncha bu – “qarindoshlik” tushunchasidir. Oddiy jamiyatlarda qarindoshlik munosabatlari juda keng, fundamental va ta'sirchan bo'lib, uning natijasida “ijtimoiy tizimlar” o'zining barqarorligi saqlaydi. Lekin mukammalroq jamiyatlarda qarindoshlik me'yoriy shaklda ijtimoiy munosabatlarning bir qismi sifatidagina qaraladi. Sotsiologlar oila sotsiologiyasini o'rganishdan tashqari holatlarda buning muhimligini ta'kidlashmaydi. Antropologlar bu borada ko'proq muhim bo'lgan qarama-qarshi tushunchalarni berishadi, chunki qarindoshlik va oila antropologik izlanishlarda fokusli tushunchalari keltirib chiqaradi. Har qanday jamiyatda har bir voyaga etgan shaxs ikki xil nuklear oila a'zosi hisoblanadi. Misol uchun: Kishi o'zi tug'ilib voyaga etgan oilasi va voyaga etib nikohdan keyin o'zi paydo qiladigan oilasi. Qarindoshlik ijtimoiy guruhlaridek bo'lmasa ham, shaxslarni o'zaro birlashtirib turadi. Bu bir butunlikda tuzilmaviy jihatdan odamlarni munosabatlar asosida birlashtirib turishga xizmat qiladi.¹

¹ Social Anthropology Core Course Calicut University. - page 63

Qarindoshchilik asoslari asosan qondoshlik asosiga quriladi. Bu asosan an'anaviy jamiyatlarda o'zini yaqqol namoyish etadi. Qarindoshchilik qadimda ona tomondan belgilangan bo'lsa hozirda ota-tomon ustun hisoblanadi.

Nasl qoidasi – “Nasl” bu shaxslar o'rtasidagi mavjud biologik munosabatlarning ijtimoiy tan olishdir. Qarindoshlik aloqalari deyarli barcha jamiyatlarda juda muhim hisoblanadi. Shubhasizki, shaxs doimo qarindosh kishisiga nisbatan o'zini majburiyati sezadi va o'z navbatida qarindosh kishisidan huddi shuni kutadi. Naslnig qoidasiga muvofiqiyat va meros bog'liq holda bo'ladi.¹

Klan

Klan bir oiladan ko'ra kattaroq bo'lgan qarindoshlik guruhidir. Bunda klan a'zolarida to'g'ridan-to'g'ri qarindoshlik bog'lanishlar bo'lmasada, ajdodlari bir bo'lib bir-birlari bilan munosabatlari shajaraviy jadvalga qarab ko'rib chiqishadi. Klanlarda avlodlarda ajdodlariga nisbatan afsonaviy qarashlar mavjud bo'ladi.

Klanlarga a'zolik nasldan-naslga o'tib boraveradi. Klanlar a'zolari odatda bir-birlari bilan do'stona munosabatda bo'lishadi va ijtimoiy jihatdan muhtojlik holatlarida yordam berishadi.²

Klan a'zolar ajdodlaridan qolgan ramzlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishadi. Ular bu ramz doimo ularning amaliy hayotida yordam bermasligini bilishsada, nasldan naslga meros sifatida berib borishadi.

Klanlar kelib chiqish asosiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi:

1. Ota tomonlama klanlar. Klanlar a'zolari o'zlarini shajarasini ota-tamonlama tuzib chiqishsa, ota tomonlama klanlar deb ataladi. Har bir o'g'il farzand klanni nomini o'ziga meros qilib oladi, lekin qizlar boshqa oilaga borgandan so'ng, o'sha joydagi klan nomini o'zlashtirib nomini o'zgartiradi.

¹ Social Anthropology Core Course Calicut University. - page 64

² Social Anthropology Core Course Calicut University, page 66

2. Ona tomonlama klanlar. Bunday klanlarda ona nomi saqlanib qoladi. Bu asosan Hindiston janubiy hududlarida kuzatiladi.

3. Ajdodli klanlar. Bu klanda klan a'zolarini ayol yoki erkak ekanligi muhim rol o'ynamaydi, faqatgina ajdodlarga tegishli ekanligi ahamiyatli hisoblanadi.

4. Ramzli klanlar. Bunda asosan ajdodlaridan meros qolgan va shu asosida o'zaro birlashib turadigan qarindoshlar guruhiga aytiladi.

5. Hududiy klanlar. Bunda asosan klan a'zolari o'zlarining kelib chiqqan hududlari, o'xshashliklari yuzasidan o'zaro mustahkam aloqaga kirishishadi. Bunda qarindoshlik muhim rol o'ynamasada, o'zaro bir-birini tushunish va o'zaro ishonchining mavjudligi muhim rol o'ynaydi.

Klanlarning funksiyasi:

- Klanlar o'zing a'zolariga birodarlik rishtalarini ta'minlaydi;
- Klanlardagi ayol va erkaklar bir-birlari bilan aka-ingillaridek munosabatda bo'lishini ta'minlaydi;
- Klan o'zining a'zolarini ijtimoiy me'yorlarni buzgan xolatlarda jazolashi ham mumkin;
- Klan hukumatdek harakatlanadi. U faqat inoqlik navjudligini ta'minlash uchun hukm chiqirib qolmasdan, turli hil anksiya qo'llashi ham mumkin;
- Klanlar mulkga egalik qilish ustidan nazorat o'rnatadi;
- Klan a'zolari o'zlarining diniy va turli tantanalarda o'zaro irlashishi ta'minlaydi.¹

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Zamonaviy oila va qarindoshlik
2. Oila va nikoh munosabatlari
3. Oilaning ananaviy va noananaviy shakllari
4. Qarindoshlik munosabatlari

¹ Social Anthropology Core Course Calicut University.- page 68.

5. Qarindoshlik va klanlar
6. Oilaning sotsial institut sifatida shakllanishi
7. Oila evolyutsiyasi
8. Qarindoshlik va zamonaviy jamiyat

Nazorat savollari

1. Oila va nikoh munosabatlarini ta'riflang.
2. Oilaning ananaviy va noananaviy shakllari qanday?
3. Qarindoshlik munosabatlari borasidagi ilmiy qarashlar qanday?
4. Qarindoshlik va klanlarning o'zaro bog'liqligi nimada?

9- MAVZU. TAFAKKUR TARZI VA KUNDALIK HAYOT (DOIMIYLIK)

Reja:

1. "Kundalik hayot" tushunchasi
2. "Kundalik hayot" strukturasi
3. A. Shyusning kundalik hayot sotsiologiyasi

Tayanch iboralar

kundalik hayot, tiriklik va hayotlilik olami, mehnat faoliyati, posmodernik kundalik hayot, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish

Kundalik hayotda "madaniyat" atamasini qo'llar ekanmiz, ongning oliy maxsullari bo'lgan san'at, adabiyoti, musiqa, rassomlik kabilarni nazarda tutamiz. Madaniyatning bu qirralari sotsiologiya fani yuzasidan ham chuqur o'rganiladi. Sotsiologiyada madaniyat tushunchasi ijodiy faoliyating biz yuqorida sanab o'tgan turlarinigina emas, yana boshqa ko'p hodisalarni ham qamrab oladi. U o'z ichiga kiyinish xususiyatlari, oilaviy hayot va nikoh marosimlari, mehnat faoliyati va diniy rusumlar, bo'sh vaqtni qanday o'tkazish kabilarni ham qamrab oladi.

Albatta, yuqorida ko'rib chiqilgan vaziyatni "anglash" faoliyatiga va Tomas teoremasiga yanada to'g'riroq xulosa berishi uchun uni qaytadan ko'rib chiqish va lozim bo'lsa qo'shimchalar kiritish kerak bo'ladi. Inson tomonidan avvaldan anglangan har qanday vaziyat, shu vaziyatning asl ko'rinishini butunlay o'zgartirishga qodir emas. (Biz yuqorida nazariy faoliyat hisoblangan "anglash"ni jarayonini amaliy hisoblangan "faoliyat" jarayoniga tenglashtirgan edik. Lekin, shuni unutmash kerakki, hech qanday "anglash" jarayoni vaziyatning asl mohiyatini va ko'rinishini o'zgartirishga qodir emas). Ya'ni, unga ko'ra, inson bir vaziyatni anglashga urinar ekan, shu vaziyatning asl mohiyatidan kelib chiqib, unga har safar o'zgacharoq baho beradi va uni angelaydi, lekin aslo, bu vaziyatning o'zini tag-tubi bilan butunlay o'zgartirib yubora olmaydi. Inson hech qachon

vaziyatning asl holatini o'zgartirgan holda unga umuman yangicha maqom berib, uni boshqacha tarzda anglamaydi. To'g'ri, inson, anglash jarayonida vaziyatning ayrim jihatlarini o'zgartirib anglashi mumkin, lekin bu uni vaziyatining o'zini tubdan o'zgartirib baholaydi, oqni qora rangda angelaydi, degani emas. Inson anglash jarayonida vaziyatga "haqiqat" bosqichidan kelib chiqib baho beradi. U haqiqatdan butunlay uzoqlashib keta olmaydi va bu bilan vaziyatning o'zining asl holatini o'zgartirib yubora olmaydi.

Sotsiologiyada E. Gusserl g'oyalarining davomchisi bo'lgan zamonamiz olimlardan biri A. Shyus o'zining sotsiologik qarashlarini bayon etar ekan, uni quyidagicha ta'riflaydi: "Dunyoviylik ya'ni, "tiriklik, hayotlilik" olamiga murojaat qilish – bu ijtimoiy olamga murojaat qilish, uning ichga yashash uchun kirib borishdan o'zga narsa emas".¹ Ilmiy tilda aytadigan bo'lsak, barcha empirik fanlarning predmeti sifatida olam va odam, ularning o'zaro aloqasi va hodisalari keladi, lekin ushbu fanlarning o'zlari ham aynan shu olamning bir bo'laki hisoblanadilar. Biz ongli mavjudot sifatida jamiyat va madaniyat ichida o'zimiz kabilarni bilan birgalikda yashar ekanmiz, istasak-istamasak shu jamiyat va madaniyatning bizga ko'rsatadigan ta'siriga bog'liqmiz. O'z navatida, biz o'zimiz ham istasak-istamamsak ham shu jamiyat va madaniyatga ta'sir ko'rsatamiz. Jamiyat a'zolari mavjud ekan, ular ijtimoiy xarakterda bo'lishadi. Ularning ijtimoiy xarakatlari esa boshqa insonlarning ijtimoiy xarakatlariga va faoliyatlariga asoslanadi. Ayan shu qoida asosida kishilar o'rtasida o'zaro aloqalar mavjud bo'ladi, aynan shu qoida asosida jamiyatda ijtimoiy xatti-xarakatlar mavjud bo'ladi va aynan shu qoida asosida insonlar o'rtasida yangi munosabatlar qurilib ular ijtimoiylashganligi xususiyatini oladi. Jamiyatning ijtimoiylik xususiyati shundan kelib chiqadi. Biz shu bilan ijtimoiylashgan mavjudotimiz, biz shu bilan tirikmiz!

¹ Schütz A. Collected Papers. Hague: Nijhof. 1962. Vol. 1. 79 6.

Shyusning Gusserl g'oyalari^{*} asoslanib sotsiologiya faniga kiritgan "tiriklik va hayotlilik olami" xaqidagi qarashlari ko'pgina olimlarning e'tiborini o'ziga tortdi. Natijada, vaqt o'tishi bilan sotsiologiya fanida yaratilgan yangi konsepsiyalarda Shyus qarashlari ya'ni, "tiriklik olami": inson hayotiy faoliyatining olami sifatida – qat'iy bo'lgan va kishilar ijtimoiy xulqiga o'z tasirini ko'rsatayotgan ijtimoiy qonun-qoidalar "tizim"iga qarshi qo'yila boshlandi. Ilm-fan taraqqiy etib, kishilik jamiyati murakkablashib borayotgan davrda sotsiologiya faniga xali ham obyektivizm sotsiologiyasi asosida ya'ni, qat'iy ijtimoiy-tizimiy yondashuv (asosan tabiiy fanlarga tegishli bo'lgan) asosida ish ko'rish jamiyatning asl mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Sotsiologiyani faqat tabiiy fanlar qonuniyati asosida o'rganish natijasida bugungi kunga kelib bu fan jamiyatga nisbatan qarashda "hayotlilikni"ni ifodalay boshladi.

Madaniyat va kundalik hayot

Jamiyatga bir tomonlama qarash va uni faqat kundalik faoliyatning bir qismi sifatida e'tirof qilish bilan sotsial munosabatlarga kirishishdagi turli jabhalar o'rtasidagi bog'liklarni aniqlashtirishga qaratilgan izlanishlar yetarli bo'lmaydi. Insonlarning g'oyalari, qadriyalari, me'yorlari, e'tiqodlarisiz va tafakkur etish yo'llarisiz jamiyat mavjud bo'la olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, insoniyat jamiyati "madaniyat" asosida quriladi va unga doimo muhtoj bo'ladi.

Madaniylashish orqali inson hayvonot dunyosi vakiliga o'xshamaydi. Insoniyat ko'plab o'z xatti-harakatlarini avtomatik instink orqali amalga oshirmaydi. U o'z xatti-harakatlari mavjud madaniyat qoidaliga tayanib amalga oshiradi. Bu jarayonlarni insonlar kundalik hayotida doimo yuz beragigan ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog'liq bo'ladi. Bu inson qaysi jamiyatda yoki ijtimoiy guruhda ijtimoiylashgan bo'lsa, o'sha jamiyatda amal

^{*} Шюц давом эттирган "тириклик, ҳаётlilik олами" хақидаги ғояни биринчи бўлиб Гуссерль айтган.

qiluvchi madaniyat normalariga javob beradigan tarzda xatti-harakatlarni amalga oshirishi anglatadi.

Kundalik hayotni tushunish uchun shaxsning jamiyatdagi strukturadan kelib chiqqan faoliyatidan kelib chiqadi, lekin madaniy sharoit doirasida bu holat sodir bo'lishi mumkin. Har bir shaxsning madaniy holati zamonaviy mukammal jamiyatlarda o'z ifodasini topadi. Umumiy darajada biz g'oyalar, tushunchalar, ta'lablar va tafakkur etish uslublari kabilar haqida gapira olamiz. Bundan tashqari biz shaxning faoliyati qanchalik milliy va hududiy madaniyat bilan bog'liq darajada ekanligi tekshirib ko'rishimiz mumkin.

Muayyan darajada biz ijtimoiy guruhlar, etnik guruhlar va jamiyatning a'zolarini qanday birlashtib turishi va ularning kundalik yumushlarini bajarishda ijtimoiy jamoaviylik va madaniy o'xshashliklarni ko'ra olamiz.

Zamonaviy jamiyatda madaniyat insonlarning faqatgina o'ziga yuklatilgan rollarni mahorat bilan ijro etishigina bog'liq bo'lmaydi. Bu shunigdek ularning "faoliyat" ni davomida "ijro" etadigan rollarini "orzu –istaklar" bilan muayyan shartlashib olish yo'llariga bog'liq bo'ladi.

Yangi kundalik hayot

Yangi madaniy davr ko'rinishlari faqatgina fan sohalarida emas, balki kundalik hayotda ham o'zini namoyon etmoqda. yangi, posmodernik kundalik hayot vujudga kelganligi to'g'risida bilish mumkinmi? Bugungi kundalik hayot vujudga kelishi nimalardan iborat?

Zamonaviy kundalik hayotni A. Shyusning kundalik hayot uslublarning olti belgisi yordamida ko'rib chiqamiz:

- Mehnat faoliyati;
- Osoyishtalik mavjudigiga ishonch;
- Hayotga g'ayrat va faollik bilan munosabatda bo'lish;
- Vaqt borasida havotir;
- Ma'lum shaxsda shaxsga oid xususiyatlarni aniqlashtirishga bo'lgan intilish;
- Ijtimoiylikning alohida shakli.

Kundalik hayotni tavsiflovchi bu faoliyat elementlari ichida-mehnat faoliyatini A. Shyus boshqalaridan ustun sifatida ko'rsatgan. Bunday faoliyat – insoniyat tarixning umumiy tarkibi hisoblanadi. Insoniyat doimiy ravishda aqliy va jismoniy mehnat faoliyati bilan shug'ullanib kelgan. Lekin faoliyatning yangi davrida tabiiy o'zgarishlar va tafakkur taraqqiyoti natijasida faoliyat turining kundalik hayotda turlicha aks etayotgan ko'rinishlarini kuzatishimiz mumkin. Ko'plab faoliyat turlari, turli belgilar va ramzlar asosida tashkil etiladiki, bu aqldan tashqari holatda amalga oshiriladi. Bunga yorqin misol sifatida zamonaviy moliya sohasini olishimiz mumkin. U erda pul va qimmatli qog'ozlar virtual va raqamli shaklda bo'lib tabiiy mohiyati mavjud bo'lmaydi, bu o'z navbatida iqtisodiy hayotning bir yo'li sifatida ko'rinadi.

Pullarning o'z mavjudligini o'zgartirgani bilan iqtisodiy hayotda ular o'z funksiyasini bajaraveradi. Zamonaviy pul muomalasining katta qismini elektron pullar tashkil etadi va bu iqtisodiy hayotni tubdan o'zgartiradi.

Bir tamondan insonlar turli xarakatlardan turli darajada faoliyatini engillashtirishi mumkin. Misol uchun, yirik moliya spekulyasiyalari insonlar hayot darajasi pasayishiga bevosita ta'sir etib, fuqarolarning oldindan aytish qiyin bo'lgan jismoniy va ruhiy jihatdan yuqoridagi inqirozlarning qurboniga aylanishi mumkin.

Shunday qilib, kundalik hayot faoliyatining A. Shyusning tavsifida u tashqi dunyo uchun mo'ljallanganligi bilan xarakterlanadi.

Yoshlar jamiyatning yosh chegaralari bilan belgilanuvchi, ijtimoiy-siyosiy tizimda alohida qiziqishlari, qadriyatlar va qarashlari bilan ajralib turuvchi ijtimoiy demografik guruh hisoblanadi. Shuningdek, ular jamiyatning intiluvchan va tashabbuskor qatlami bo'lib, ularning ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etishlariga turli xil omillar ta'sir ko'rsatadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turli yoshdagi yoshlar guruhlariga bo'sh vaqt turlicha ta'sir etishi amalda isbotlangan. Aynan bo'sh vaqtlarida yoshlar aqliy, jismoniy jihatdan shakllanadi.

Albatta, mehnat qilish jarayoni ham insonning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Yoshlarning tez rivojlanib borishi, ular duch keladigan qarama-qarshiliklar, shaxs sifatida etilishi, yoshlarning yangi qadriyatlarni izlashga bo'lgan ehtiyoji ko'pgina sotsiologlarning diqqatini jalb etadi. Yoshlarning o'z-o'zini yaxshi bilib olishi, fuqarolik pozitsiyasini kuchayishi, ma'suliyati va ziyolilik darajasining o'sib borishi – tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda esa yoshlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lum yosh guruhiga mansub yoshlar (14dan 20yoshgacha) uchun bo'sh vaqt bu shunday borliqki, bunda ularning shaxsiy erkinlik va mustaqil bo'lishga ehtiyojlari yorqin namoyon bo'ladi. Yoshlarning bo'sh vaqtini sarf etish holatini o'rganishda avvalo ularning yosh chegaralarini aniqlab olish zarur. Chunki ularning bo'sh vaqtdan samarali foydalanishlarida yosh xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Bugungi kun olimlari tadqiqotlarida yosh chegarasi 13–14 yoshdan 29–30 yoshgacha deb e'tirof etilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 20 yoshgacha bo'lgan yoshlarda asosiy muammo – ularning kasb tanlashi, ma'lumot olishi va hayotga mustaqil qadam qo'yishi bilan bog'liqdir. Shunday ekan, yoshlarni bo'sh vaqtini qanday tashkil etishlarini, 16–18 yosh oralig'idagi yigit-qizlar faoliyatini o'rganish bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, yoshlarning, ayniqsa, kollej o'quvchi-yoshlarining bo'sh vaqtini samarali tashkil etish jamiyat ravnaqida o'zining salmoqli o'rniga ega.

Shaxsning har tomonlama rivojlanishida u shug'ullanuvchi faoliyat turlari bir-birini to'ldirib boradi. Masalan, rivojlanish uchun faqat adabiyot o'qish yoki jamoat ishlari bilan shug'ullanishgina emas, balki toza havo va ko'ngil ochish ham muhim ahamiyatga ega ekanligini olimlar ta'kidlaydilar va bir-birini kompensatsiyalaydi (masalan, maktabda ta'lim olish ayrim vaziyatlarda uy sharoitida mustaqil o'qib-o'rganish bilan almashtiriladi, bunda radio, televidenie, matbuot orqali ham axborot olinadi).

Faoliyat turlari har kim tomonidan har xil qadrlanadi, ammo ularni bir-biriga nisbatan qarama-qarshi qo'yish noto'g'ridir. Har

kim bo'sh vaqtida o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o'ziga manzur bo'lgan faoliyat turi bilan shug'ullanishni afzal ko'radi. Qachonki, shaxsda u yoki bu faoliyat turini tanlash imkoniyati bor bo'lsagina, bo'sh vaqt shaxsning har tomonlama rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Obyektiv nuqtai nazarga ko'ra, harakatni tanlashning insonda real imkoniyati bo'lishi kerak (ta'lim muassasalari, madaniy-ma'rifiy muassasalar, moddiy bazaga ega bo'lgan sport to'garaklari, kino, teatr, konsert zallari va hokazo). Ammo qiziq bir holat. Inson bo'sh vaqtida yuqoridagi faoliyat turlaridan foydalanishi uchun boshqa bir narsadan voz kechishiga to'g'ri keladi. aynan mana shu erda inson o'zining erkin tanlash huquqini amalga oshiradi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini tashkil etishda teatrlar, muzeylar, kinoteatrlar, kutubxonalar, diskotekalar, kurslar, yoshlar tashkilotlari, madaniyat uylari, turli xil muassasalar faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi shaxsning ijtimoiylashuviga turtki bo'lib, shaxsda qadriyatlar tizimini shakllantirishda asosiy o'rin egallaydi.

Har bir talaba biror marta bo'lsa-da, teatr, kinoga yoki majburan olib borilganda ham muzeyga borgan. Ammo shu o'rinda bir savol tug'iladi: hozirgi akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari yoki oliy o'quv yurtlari talabalarining nechitasi madaniyat uyiga borgan? Istiqomat qilayotgan tumanida madaniyat uylari faoliyat yuritayotganligidan xabardormi? U o'zi qanday muassasa? Afsuski, yoshlar bilan bo'lgan suhbatlar shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat yoshlar madaniyat uyi nima ekanligini faqat yuzaki tasavvur qiladilar, xolos.

10-MAVZU. SOTSIAL MAQOM VA IJTIMOIIY TENGSIZLIK

Reja:

1. "Ijtimoiy maqom" tushunchasi.
2. Ijtimoiy stratifikatsiya va uning ko'rinishlari.
3. Tengsizlikning ijtimoiy madaniy va iqtisodiy asosi.
4. Tengsizlik konsepsiyalari

Tayanch iboralar

Ijtimoiy makom, status, tengsizlik, stratifikatsiya, katlam, struktura, ijtimoiy faollik, sinflar masalasi

1. Maqom so'zi sotsiologiyaga lotinchadan kirib kelgan bo'lib, u qadimgi Rimda u jismoniy shaxsning moddiy axvoli va huquqiy holatini ifodalardi. Biroq, XIX asrning oxiridan boshlab olimlar unga yangicha ma'no bera boshlashdi. Unga muvofiq maqom bu – kishining jamiyatdagi ijtimoiy holatidir. Demak, ijtimoiy holat deganda umumlashtirilgan hodisani tushunish mumkin bo'ladi, ya'ni insonning iqtisodiy ahvoli, siyosiy imkoniyatlari va demografik xususiyatlari kabilar shunga taalluqlidir.

Sotsial status bu – kishining jamiyatda egallagan holatining ko'rinishidir. Har bir kishi butun umri davomida bir nechta statusga ega bo'lib yashaydi. Masalan, u o'g'il, keyinchilik ota, buva, o'quvchi, student, professor, pensioner va hokozolar

Ijtimoiy mavqe shaxsning muayyan ijtimoiy tizimida egallagan konkret o'rnini ifodalaydi. Ijtimoiy rol esa shaxsning ijtimoiy tizimida egallagan mavqe bilan bajaradigan faoliyati majmuini ifodalaydi. Masalan, ma'muriy – buyruqbozlikka asoslangan. Sovet tizimi buyruqboz shaxslar tipini shakllantirib qo'ydi. Bunday shaxs tipiga "Yuqori" ko'r-ko'rona, so'zsiz bo'ysunish, dunyoqarashi tor, bir tomonlama, o'z mansabini saqlab qolish va yuqori mansablarga erishish yo'lida har qanday qabihlikdan qaytmaydigan, munofqlik kabi xususiyatlarga ega bo'lganlar kiritildi. Bunday kishilarning shaxs xususiyatlari ular bajaradigan vazifasiga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Shaxs tipining

bunday ko'rinishi hozirda ham jamiyat hayotini yangi sharoitda erkin rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shaxs faoliyati deganda, uning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy hayotda nomoyon bo'lishi xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik insonning shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo'lib uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qondirishlari va sifat ko'rsatkichidir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatidir. Shaxs faolligi deb uning hayotini boshqarish bilan, qadriyatlarini nomoyon bo'lish xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik insonning shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo'lib, uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qondirish usuli va sifat ko'rsatkichidir. Shu jihatdan shaxs faoliyati sotsiologiyada keng va kichik (tor) ijtimoiy darajalarda o'rganiladi. Shaxsning bunday darajalarda o'rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi.

2. Jamiyatdagi bog'lanishlarni tushunishimizga yordam beradigan muhim konsepsiya bu – ijtimoiy stratifikatsiya konsepsiyasidir. Bizning atrofimizdagi ijtimoiy muhit voqea-hodisalarning betartib yig'indisidan iborat emas. Odamlarning xulq-atvorida, ularning o'zaro munosabatlarida chuqur muntazamlik seziladi. Mana shu muntazamlik bilan ijtimoiy stratifikatsiya g'oyasi bir-biriga bog'langan. Ba'zi jihatdan jamiyatning strukturaviy tomonlarini binoga qiyoslab ta'riflash mumkin. Binoga muayyan shakl berib turadigan devorlari, poli va tomi bor. Ammo, bu bu qiyoslashni aynan tushunmaslik kerak, unda biz masalaning mohiyatidan uzoqlashib ketamiz. Ijtimoiy stratifikatsiya insonlarning xatti-harakatlari va munosabatlari bilan belgilanadi: strukturalar barqarorligi, mukammalligi ularning makonda va zamonda takrorlanib turishiga bog'liq. Shunday qilib, ijtimoiy ishlab chiqarish va ijtimoiy stratifikatsiya sotsiologik yondashuv doirasida juda mahkam bog'langan. Shuning uchun ham biz kishilik jamiyatlarini binolar sifatida tasavvur qilishimiz mumkin va bu binolar har daqiqada o'z tarkibidagi g'ishtlardan qayta tiklanib turadi. Bizning barcha xatti-harakatlarimiz o'zimiz yashayotgan jamiyatning strukturasi ta'sirida shakllanadi va ayni

paytda biz ham o'z harakatlarimiz bilan bu strukturalarga ta'sir qilib (muayyan darajada o'zgaritirib ham) turamiz.

Bugungi kunga qadar ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy strukturaga berilgan ko'pgina ta'riflar mavjud. Bu ta'riflarni o'rganar ekanmiz ular orasidan eng haqiqatga yaqinini va umumiy jihatga ega bo'lganlarini tanlab chiqdik.

Jamiyatdagi ijtimoiy kuchlarning o'zaro aloqadorligi orqali o'zgarib boruvchan tizimlar sistemasi bu – ijtimoiy strukturadir.

Ijtimoiy stratifikatsiya – tushunchasi ijtimoiy jarayonlar va ularning o'zaro munosabatlari, o'zaro qaramliklari aloqalarni aks ettiradi.

Sotsiologik lug'at va izohli lug'atlarda ham ijtimoiy strukturaga berilgan ta'riflarning bir biriga yaqinligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, B Shefersning lug'atida quyidagi ta'rif keltiriladi:

Ijtimoiy stratifikatsiya ostida ijtimoiy hayotning bir maromdagi qonuniyatlari ya'ni, ijtimoiy xulq, ijtimoiy qatlam kabilar tushuniladi.

Shunga o'xshash ta'rifni amerikalik zamonaviy sotsiolog T. Xolt lug'atida ham beriladi:

Ijtimoiy stratifikatsiya (a) ijtimoiy tuzum qatlamlari orasidagi mavjud bo'lgan bir maromdagi munosabatlarni, (b) o'z mavqei bilan boshqalardan ajralib turuvchi individual yoki jamoaviy pozitsiyalarning tashkilotini bildiradi.

Ijtimoiy stratifikatsiya keng ma'noda – turli ijtimoiy jamoalararo (qatlamlar, ijtimoiy birliklar, tashkilotlar) va ijtimoiy institutlararo aloqalarning yig'indisini anglatadi, tor ma'noda – ijtimoiy rolni bajara olish uchun zarur hisoblangan va ma'lum bir huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy pozitsiyalarning o'zaro bog'langan yig'indisini bildiradi. Ijtimoiy stratifikatsiya ijtimoiy tizimning normal ishlashini, uning turg'unligini ta'minlab beruvchi jamiyatning ichki tuzilmasidir.

Ijtimoiy stratifikatsiya – ijtimoiy qatlamlar, guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, mehnat taqsimoti, ijtimoiy institutlar xarakteri bilan belgilanadigan ijtimoiy tizim tarkibiy qismlari o'rtasidagi turg'un aloqalar tarmog'idir. Iqtisodiy munosabatlar

ijtimoiy strukturaning qolgan tarkibiy qismlari o'rtasida belgilovchi rolni o'ynaydi. Jamiyatda uning sinfiy tarkibi muhim ahamiyatga ega. Aholining ijtimoiy strukturasi uning kasbiy, milliy, jinsiy, yosh, madaniyat va bosh. belgilariga ko'ra bo'linishini ham qamrab oladi. Mustaqillik sharoitida mulkchilikka, umuman, iqtisodiy jarayonlarga demokratik yondashuv qaror topayotganligi tufayli ijtimoiy strukturada ham qator o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Agar, ijtimoiy strukturaga berilgan yuqoridagi ta'riflarni barchasini umumlashtirilgan holda berilsa, ikki holat o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bular: tizimiy-tashkiliy va stratifikatsion holatlardir. Bir tarafdin ijtimoiy stratifikatsiya jamiyatni yagona butunlikda ushlab turgan turli tizimlar aloqasi bo'lsa, ikkinchi tarafdin esa, ijtimoiy stratifikatsiya – ketma-ketlik tartibida joylashgan ijtimoiy mavqelar, guruhlar, jamoalar, kishilar turli qatlamlari, tabaqalari yig'indisidir.

Ijtimoiy stratifikatsiya xaqida gap ketganda jamiyatdagi turli qatlamlar va ularning ketma-ketligi, ularning o'zaro bog'liqligi haqida to'xtalmasdan iloj yo'q. Lekin nimagadir ijtimoiy strukturaga berilgan ko'pgina ta'riflarda (jumladan, yuqorida keltirilgan ta'riflarning ham ayrimlarida) ijtimoiy qatlamlarning ketma-ketligi masalasi kam yoritiladi yoki umuman tushib qoladi. Chuqurroq o'ylab qaralsa, aynan "tengsizlik" jarayonining mavjud bo'lishi ijtimoiy strukturani o'zgarish yoki rivojlanish tomon etaklaydi.

3. Sinflar masalasi darhaqiqat, sotsiologik izlanishlarning markazi bo'lgan va bo'lib kelmoqda. So'nggi o'n yillar davomida buni ijtimoiy tushuntirishga ta'luqli bo'lgan malasalar o'sib borgan. Sinflar o'rtasidagi farqlanishlar va ijtimoiy tengsizlik yo'q bo'lman va sinflarning ahamiyati turli sharoitlarda turlicha o'zgarib bormoqda.¹

Ijtimoiy sinflarning sotsiologik g'oyasi bilan tanishtirish uchun biz, jamiyatdagi tengsizlikning tuzilishini tushuntirishda foydalanilgan dalillar va nazariyalarini asosiy jihatlarini haqida bahs yuritishimiz kerak. Buning mohiyati sotsiologiya konsepsi-

yasida tilga olingandek obyektiv iqtisodiy pozitsiya jihatdan xarakterlanadi. Bu jamiyatda shaxsning faoliyati, shaxsning mulki miqdori ko'rsatgichi va shaxsning kirim manbai, shaxs yashash sharoitini va uni o'zgartishga bo'lgan imkoniyati jamlamasidan tuzilmaviy ko'rinishga keladi.¹

Sinflar subyektivdir, ya'ni turli kategoriyalarda, ijtimoiy tassavur doirasi uning real darajada farqlanishi mavjudligi bahs yuritiladi lekin u ijtimoiy joylashuv va muayyan tarixiy vaqtga bog'liq holda o'zgaradi. Misol uchun: insonlarning turli yashash tarzi darajasi ularning iqtisodiy resurslarga egaligik qilishi bilan o'lchanadi. Iqtisodiy xilma-xilikni bunday tushinish jamiyatdagi o'ziga xos guruhlarini jamoaviy tarzda bog'langanligi bilan izohlanadi.

Sinflar odatda moddiy erishganlik va yashash standartlari sinflarning munosabatida ijtimoiy o'rin bilan belgilanadi. Buni shunday tushunishda behisob sinflar paydo bulishi mumkin. Shuning uchun umumiy belgilarni davomiyligiga ko'ra ko'ra jamiyat a'zolarini ma'lum bir sinfga tegishli bulishi mumkin. Misol uchun yukori sinf, ishchilar sinfi va o'rta sinf. Ijtimoiy pozitsiyasini o'lchashda shaxsning daromat darajasini hisobga olish elementar daraja hisoblanadi.

Sinf tarixiy tengsizlikning o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi. Bu o'lchov qaysi ishlab chiqarish iqtisodiyoti tizimida mehnatdan daromat olishga imkon beruvchi yo'llar haqida bahs yuritadi. Bu mehnat eksplotatsiyasi va uni o'zlashtirish, mulkga egalik qilish va iqtisodiy daromatlarni taqsimlash borasidagi munosabatlarni anglatadi.²

Sinf siyosiy kategoriya sifatida ko'rinishga ega bo'ladi. Sinflar sotsiologik tushuntirishning ajralmas obyektiv tushunchasi hisoblanadi. Lekin bu tushunchalarning normativlari to'laligicha ijtimoiy strukturaviy tengsizlikni tushuntirib bera olmaydi.

Sinf nazariyasini tushunishda noana'vaviy va kuchli sotsiologik kabi ikki hil bo'lgan va zamonaviy sinflar tahlilini

¹ Cultural Sociology: An Introduction 2012 page 47

¹ Cultural Sociology: An Introduction 2012 page 48

² Cultural Sociology: An Introduction 2012 Page 49

amalga oshiradigan yo'nalishlar mavjud. Sinflar to'g'risida dastlabki konseptualizatsiya bu markscha konseptualizatsiyadir. Unga ko'ra ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning markazida mehnat va kapital va daromat olish darajasi turadi deb hisoblanadi. Sinflar nazariyasining bu turi markazida kapitalizning Markscha tasvirlarinishi yotadi va bu Karl Marks tomonidan asos solingan va rivojlantirilgan. Marksning bu nazariyasi ashaddiy g'oyasiy izdoshlarini ruhlantirgan va kapitalistik jamiyat doirasidagi fundamental namunalarning kuchli va ehtiyotkor tahlilini olib borishgan. Bu o'sha zamon olimlari uchun bu yo'nalishni davom ettirish uchun ilhom bag'ishlagan.

Marks sinfiy tafovutlarni kapitalizm dinamikasining markaziga joylashtiradi va uning yo'q bo'lishi bashorat qiladi. Makscha a'nanaga ko'ra kapitalizm ikki sinfning mavjudligidan stukturasi hosil qilishi muhim hisoblanadi: U burjuaziya deb nomlagan mahsulot yoki kapitalga ega mulkdorlar va proletariat ya'ni faqatgina mehnat kuchini sotuvchi ishchilar. Burjuaziya sinfi o'zining hususiy fabrikalari va meros qolgan boyliklarga yoki qandaydir holdinglarda ulushga ega bo'lishi mumkin va bu ularga iqtisodiy va ijtimoiy qudrat taqdim etgan. Ishlab chiqarish kapitaliga egalik qilish bilan birga mahsulotlardan keldigan foydani o'zlashtirish imkonini beradi. Bu jarayonda ishchilar faqatgina o'zlarining maoshlariga egalik qilishadi va kapitalistlar tomonidan davomli tarzda ezish holatida bo'ladi. Bu holat Marksning nazarida oxir oqibatda kapitalizm barqarorligi tahdid sifatida ko'rinadi. Buning natijasida, iqtisodiy ishlab chiqarishning kapitalistik tizimlari doirasida ekplatatsiya qilinishi, oxir-oqibatda inqilobiy shart-sharoitlarni yuzaga keltirishi mumkin deb Marks xulosaga keladi. Kapitalizmning markscha ko'rinishining markazida kapital egalari va ishchilar guruhi asosida tashkil etilgan sinflar o'rtasidagi munosabat yotadi deb tushuntirish berilgan. Unda kapital va iqtisodiy mahsulotlarga egalik qilish munosabatlari shaxs pozitsiyasining asosini tashkil qiladi.

Maks Veberning sinflar borasida g'oyasi Marksni bilan oz miqdorda o'xshashdir. Veber zamonaviy jamiyat stratifikatsiyalari asosida sinflar va statuslar o'rtasidagi tafovutni ko'rgan. U sinf

atamasiga tarif berishda – sinfning negizida mulkga egalik qilish yoki turli qobiliyatlar va mohirlik bilan erishiladigan moddiy daromatlar natijasida yuzaga keladigan qatlam deya tushuntirish beradi. Bu moddiy resurslarga turlicha yondashish oqibatda hayot imkoniyatlari asosiy omil bo'lib shaxsning hayotini oldinga qarab intilishining tearektoriyasi bo'lib hizmat qiladi. Veber ta'kidlaydiki status moddiy imkoniyatlarni aks ettirmaydi lekin, status va shafafga bilvosita ta'sir etish orqali, turli ijtimoiy doira va makon doirasida shaxsning ishtiroki etish imkoniyatini yaratadi. Status hayot imkoniyatlarining asosiy omili emas lekin, u alohida strafikatsiyalarda qo'ldan qo'lga o'tishi bilan iqtisodiy qarama-qarshiliklarga asos bo'ladi. Veber oxir oqibatda "ishtirokchilar" nuqtai-nazari konsepsiyasi hayot imkoniyatlari oxirgi omili degan xulosaga keladi. Ishirokchilarning jamoviy kuchlari alohida mahsus maqsadlarni amalga oshirishni boshqaradi va sinf va status tavsiflarning birlashishi bu maqsadlarga erishish xarakatlari natijasidir.¹

4. Zamonaviy jamiyatlarda tengsizlik vaziyatiga an'anaviy jamiyatlarga nisbatan umuman boshqacha tarzda yondashiladi va tengsizlik holatiga o'zgacha baho beriladi. (ya'ni zamonaviy jamiyatlarda tengsizlik holatiga "ilohiyot aralashuvi natijasi yoki ilohiyotdan belgilangan haqiqat" deb emas, balki kishilarning ijtimoiy muhitida, ijtimoiy munosabatlarida yuzaga kelgan hamda, o'zgartirilishi mumkin bo'lgan vaziyat, deb baholanadi). Bugungi kunga kelib, tengsizlik klassifikatsiyalari (turlari, shakllari) talablarining soni g'ayri tabiiy tarzda ko'payib bormoqda. Shunisi qiziqki, bu tengsizlik klassifikatsiyalari bir-birlari bilan shu darajada chirmashib ketganki, ular o'zaro aloqada bo'lib o'rgimchak to'risimon murakkab tizimni ham tashkil qilishmoqda. Lekin, eng asosiysi – turli ko'rinishlarga ega bo'lgan tengsizlik shakllari, kishilar tomonidan ijtimoiy jarayonlar natijasi sifatida anglanibgina qolmay, balki "tenglik" nuqtai nazaridan qaraganda yanada mukamallashib bormoqda. Shuning uchun xam, ular jamoatchilik tomonidan ijtimoiy tengsizlikning yaqqol faktlari sifatida qabul qilinmoqdalar va ko'pgina baxs-munozaralarga

¹ Cultural Sociology: An Introduction 2012 Page 51

hamda turli sinflararo yuzaga kelayotgan ziddiyatlarga sabab bo'lmoqdalar.

Jamiyatdagi mavjud tengsizlik muammolariga va tengsizlik vaziyatiga ilk bor XVIII asrga kelibgina ya'ni, burjuaziyaning avj olinishi davridan boshlab o'zgacha baho va e'tibor berish boshlandi. "Inson ozod bo'lib tug'ilgan, shuning uchun u xamisha tuzoqda". Jan Jak Russoning ushbu mashhur aforizmi XVIII asr ma'rifatparvarligi davridagi ijtimoiy tengsizlikni tushunishga yordam beruvchi kalitdir. Avvalgi jamiyatlarda teologik (diniy) talqinlarga ko'ra inson ozod bo'lib tug'ilmagan, u dunyoga kelishi bilanq vertikal joylashgan biron-bir sinfga, tabaqaga mansub bo'ladi. Bu davrlarda Hattoki, kishi dunyoga kelmay turib u qaysi tabaqaga mansub bo'lishligi avvaldan ma'lum bo'lgan. Albatta, bunda kishi hayoti gorizontol o'zgarishlarga duch kelishi tabiiy holat hisoblangan: masalan, kishi yoshi o'zgarib borishi jihatdan, yashash hududini o'zgaritirish jihatidan bo'lishi mumkin. Biroq, ayrim sinflarga munsublik, mehnatning bo'linishi yoki tabaqalarga bo'linish tartiblari o'zgarimasdan qat'iy holatda qolavergan.

Russo ta'limotining asosi ijtimoiy tengsizlik va uni bartaraf etish yo'llari to'g'risidagi masala edi. Russo o'zining ilk asarlaridan boshlab XVIII asr Fransiyasida mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tuzumga radikal demokratik nuqtai-nazarda bo'ladi va tanqidiy fikrlar bildiradi. Aniq ifodalangan demokratizm uning dunyoqarashining muhim belgisi edi.

Russo barcha ijtimoiy nuqsonlarning bosh manbaini ijtimoiy tengsizlikda, deb biladi. To'qlikka sho'xlik va o'z navbatida axloqiy buzulishlar boylkdan kelib chiqadi. Russoning "Tengsizlik sabablari to'g'risida" asari tengsizlikning kelib chiqishini tadqiq qilishga bag'ishlangan. Ushbu asarda Russo tengsizlik o'zgarimas va abadiy tabiat qonuniyati emas, balki tarixiy hodisa deb yondoshadi. Russo diqqatining tenglik muammolariga qaratilishi tasodifiy emas. XVIII asr Fransiyasida iqtisodiy taraqqiyotning boshi bu masalani kun tartibiga qo'ymoqda va u davrning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda edi. Russo ikki turdagi vertikal tengsizlikni ajratadi: a) yoshi va salomatligi bilan bog'liq bo'lgan jismoniy tengsizlik; b) turlicha imtiyozlar bilan bog'liq bo'lgan siyosiy tengsizlik;

Russo "Tabiiy huquq" nazariyasi tarafdori edi. Insoniyat hayotining ilk davrlarida kishilar teng, erkin bo'lishgan va hech kim hech kimga qaram bo'lmagan. Ho'sh, qanday qilib ibtidoiy tenglikdan tengsizlik kelib chiqdi? Russo tengsizlikning bosh sababi deb xususiy mulkchilikning vujudga kelishini ko'rsatadi. Ijtimoiy taraqqiyot davomida mehnat qurollarining yaratilishi va takomillashtirilishi, dehqonchilik, o'troq turmush tarzi, metallga ishlov berish va hokazolar xususiy mulkning paydo bo'lishiga olib keldi. Xususiy mulkchilik kishilar o'rtasida tengsizlikning sababi bo'ldi, boy va kambag'al ana shundan kelib chiqadi. Kishilar manfaatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik, raqobat, boshqalar hisobiga boyishga intilish kabilar xususiy mulkchilik paydo bo'lgandan keyin uning eng dastlabki oqibatlari edi. Demak, Russo ijtimoiy tengsizlik to'g'risida fikr yuritib, avvalo tengsizlik vujudga kelishining iqtisodiy asosini ko'rsatib beradi. Uning fikricha, iqtisodiy rivojlanish ham, xususiy mulkchilik ham ijtimoiy tengsizlik paydo bo'lishining asosiy sababidir.

Russoning fikricha, tengsizlik elementlari davlat paydo bo'lganidan so'ng yanada oshdi. Davlat paydo bo'lganidan so'ng, boylar va kambag'allar o'rtasidagi tengsizlikka amaldorlar va tobe bo'lgan kishilar o'rtasidagi tengsizlik kelib chiqdi.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Jamiyatdagi turli sinflarning madaniyatining uziga xosligi
2. Ijtimoiy tengsizlik madaniy fenomen sifatida
3. Madaniyatning ijtimoiy funksiyasi
4. Madaniyat uzgarishi tendetsiyalari
5. Status va madaniyat
6. Stratifikatsiya va madaniyat

Nazorat savollari

1. Sotsial stratifikatsiya va sinflar munosabatlarini ta'riflang.
2. Sinflar madaniyati va uning uziga xos tomonlari qanday?
3. Sinfiy yondashuv nazariyalari borasidagi ilmiy qarashlar qanday?
4. Ijtimoiy tuzilish va madaniyatning o'zaro bog'liqligi nimada?

11-MAVZU: INSON SIVILIZATSIYASI VA GLOBALLASHUV

Reja:

1. Globallashuv sharoitida madaniyatni asrash muammolari
2. O'zaro madaniy ta'sir
3. Globallashuv jarayonida madaniy taraqqiyotdagi transformatsiya masalari
4. Ommaviy madaniyatning yoshlar ongiga ta'siri

Tayanch iboralar

Globallashuv, Ommaviy madaniyat, o'zaro madaniy ta'sir, xippi, subyektizm

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov takidlaganidek, "Globallashuv jarayoni hayotimizga taboro tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak-bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti varavnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'sh nilar, balki jahon miq yosida boshqa mintaqa vaboshqa hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib bor yaptiki, biron bir mamlakatning bu jarayondan chet da turish ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma'noda, global-lashuv – avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.¹

Globallashuv XX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida ahborot makoni, kapital, tavar va ishchi kuchi bozoridagi integrat siyalashuv, atrof muhitga tehnagen tasirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalari keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy – ekstrimestik xurujlar xavfning ortib borishini ifodalaydi. XXI

¹ Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T. "Ma'naviyat" 2008 yil. 111-bet.

asrga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasida tasir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la himoyalani olgan birorta ham davlat yo'q. Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan tasiri ham turlicha. Bu ham turli mamlakatlarning iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq.

Bugungi dunyoda globallashuv jarayoni ta'siridan xoli bo'lgan biron bir soxani topish qiyin. Bu bir tamondan, turli mamlakatlar hayoti rivojining bir-biri bilan bog'liq jihatlari taqozo etadigan obyektiv jarayon. Ikkinchidan uning ayrim noholis "Maqsadli mo'ljallari" ham yo'q emas.

"Ommaviy madaniyat" namoyondalari qora, zaharxanda, behayo kulguni "isyon ifodasi" deb bilishadi. "Nimaga qarshi isyon" degan savol tug'iladi. Agar "pop-madaniyat" dunyoga "ehson" etayotgan "pop-art" ("tasviriy san'at" desa ham bo'ladi), "pop- natijalariga qarab hukm yuritilsa, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarini isyonkorlik bilan inkor etadi: yuksak madaniyatni, ma'naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqsadlarni mensimaydi. Ular uchun ezgulikning o'zi yo'q. Jumladan, san'at — alohida iste'dodlar tomonidan yaratiladigan ma'naviy boylik, mo'jiza ekanligi kabi ijodning oliy mezonlari "pop-madaniyat" tarafdorlarining o'ta darajada g'ashini keltiradi. Ularcha, hamma san'atkor bo'lishi mumkin. Hamma narsa san'at atalishi mumkin. "Pop-art" — ommaviy san'at shu xulosa manbaida vujudga kelgan. Chunonchi, "ommaviy madaniyat" namoyandalaridan biri Karl Manning fikricha, atrof-borliqda, maishiy hayotda mavjud barcha narsalar (masalan, konserva bankalari, siniq tish cho'tkalari, mashina, vodoprovod kabilarning zanglagan bo'laklari, turli suratlar, jurnal-gazeta qiyqimlari ham) hayot bag'ridan alohida ajratilib, ularga muayyan tartib berilib, odamlar nazariga tutilsa, bu oddiy chiqindilar arxeologik qazilmalar chog'ida topilgan qadimgi yunonlar davriga xos antiqalarday o'zgacha ahamiyat kasb etib, "san'at", madaniyat namunalari" qatoridan o'rin olar emish. "Pop-art"chilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e'zozlashadi; ma'naviy dunyoni emas, maishiy-iste'molchilik his-tuyg'ularini qadrlaydilar va ularni keng

ommalashtirishga intiladilar. Ularning ma'naviy pozitsiyasi — ma'naviyatni o'ldirish va "narsalarga qullik"ni rag'batlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R. Bredberi aytganidek, "ommaviy madaniyat" maktabidan o'tgan avlod uchun hayotning ma'nosi — avtomobil, televizor, muzlatkichga ega bo'lish. Agar televizor ikkita bo'lsa, ularga shuncha yaxshi.

Ommaviy madaniyat ko'rinishlari

• **Kitch** (zarracha badiiy-estetik qiymatga ega bo'lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish),

• **komiks** (tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa — rasm mahsulotlari),

• **starizm** (subyektiv ehtirolarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktorlarni ilohiylashtirish),

• **Hippining** (avvaldan rejalashtirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan "keskin" tomoshalar, masalan, royal, pianino yoki avtomobillarni urib abjag'ini chiqarish yoxud o't qo'yish orqali vahshiyona, ommaviy "ko'ngil ochish" lar uyushtirish) "ommaviy madaniyat"ning ayrim ko'rinishlaridir.

"Mustaqil O'zbekistonimiz demografik xususiyatiga ko'ra yoshlar mamlakati hisoblanadi. Yurtimizda istiqomat qiladigan jami aholining 64 foizini 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar tashkil qiladi. So'ngi o'n yillikda muayyan barqarorlik kasb etgan bo'lsada, 2015-yilga kelib O'zbekiston aholisining 1,5 barobarga ortib, jami 36 million 330 ming kishidan ortishi kutilmoqda. Shu davr mobaynida mehnatga yaroqli aholi soni ham ikki barobarga oshadi va 2015-yilda qariyb 20 million nafar kishini tashkil etadi". yuqorida keltirib o'tilgan raqamlar nafaqat mehnat resurslari sonining ortishi balki yuqori intellektual kadrlarga ega ekanligimizni ham namoyish qilmoqda. Ana shuning uchun ham birinchi prezidentimiz I. Karimov "O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat" shiorini ilgari surgan. Hozirgi globallashtirish zamonda barcha yoshlar yangilikka, o'zgarishlarga qarab intilmoqda. Lekin, bu yangiliklarning barchasi bugungi kun yoshlariga qay darajada ta'sir qilayapti?, bu yangiliklardan yoshlarimiz qay darajada foydalanmoqdalar?.. Hozirda yoshlarimiz onggida madaniyat, sivilizatsiya degan iboralar shakllanmoqda. Sivilizatsiya (lot.

"fuqarolik") moddiy madaniyatning sinonimi, tabiat kuchlari ustidan inson egalik qilishining yuksak darajasi sifatida o'zida texnikaviy progressning ulkan kuchini ifoda etadi va ko'proq moddiy boyliklar ishlab chiqarishga da'vat etadi. Sivilizatsiya — inson tomonidan o'ziga tegishli bo'lmagan moddiy obyektlarni qayta o'zlashtirishni bildiradi. Madaniyat esa — insonning ichki fazilati, ma'naviyati, erkinligi yoki tushkunligi, tashqi olamga batamom bog'liqligi yoki ma'naviy mustaqilligiga beriladigan bahodir.

Biz yuqorida keltirib o'tgan "Yangilik" bir qarashda ajoyib narsaga o'xshaydi, lekin hozirgi kunda bu yangiliklarning saralanmaganligi bugungi yoshlarimizni mafkuraviy zaharlanishiga olib kelmoqda. Xususan yoshlar uchun ommaviy madaniyatning xatarli oqibatlarini Prezidentimiz bir necha bor qayd etgan edilar. Jumladan, "Fidokor" gazetasi muhbirining savollariga javoblarida: "Dunyoda bir qarashda beozor, siyosatdan xoli bo'lib tuyulgan shunday mafkuraviy ta'sir vositalari ham borki, ularga kunda ko'pda yetarlicha e'tibor beravermaymiz ...har qanday kasallikni oldini olish uchun avvalo kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror topdirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur", deb ko'rsatadi. "Ommaviy madaniyat"ning tag zamirida avvalo, tijorat, moddiy manfaatdorlik borligini bugungi zamonaviy fan ham e'tirof etadi. Haqiqatdan ham yot mafkuralar har doim erkin bozor muhitida xaridor gir tovarlar bilan mustahkam o'rin egallagan. Ommaviy madaniyatning ta'siridan saqlanish uchun avvalo, o'sib kelayotgan avlodni milliy ma'naviyatimizning hayotbaxsh ne'matlaridan bahramand etish va ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlab borish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Yoshlarni turli yot ta'sirlarga tushib qolishini oldini olish uchun: Birinchidan, unda qadriyatlariga, tarixiy ma'daniyatimizga bo'lgan chuqur hurmatni shakllantirish; Ikkinchidan, himoyalangan axborotlar bilan to'yintirish; Uchinchidan, kichik yoshidan boshlab milliy istiqol va ma'naviyat asoslari g'oyalarini singdirish;

To'rtinchidan, ota-onalarning tarbiyalash etikasini yanada shakllantirish, farzandga nisbatan mas'uliyat darajasini oshirish talab etiladi. Ma'naviyatga bo'layotgan tahdidlarning xavfli tamoni shundaki, buzg'unchi kuchlar o'zlariga nishon qilib avvalombor, barchamizning eng aziz, eng katta boyligimiz, ko'zimiz qorasi bo'lmish yoshlarimizni tanlashmoqda, turli niqoblar, birinchi galda so'z va fikr erkinligi, inson va jamiyat erkinligi deb atalgan niqoblar bilan ularning fikrini chalg'itishga, zamonaviy usul va vositalar orqali ularning hali murg'ak qalblarini egallashga intilmoqdalar. Ular iloji boricha, yoshlar ongida asrlar davomida shakllanib kelgan milliy qadriyatlarga nisbatan bepisandlik, hurmatsizlik kayfiyatini uyg'otib, o'z mafkurasini va g'oyasini singdirishga intilmoqdalar.

Xalqaro maydonda yuz berayotgan ijtimoiy – siyosiy jarayonga nazar tashlasak, turli siyosiy kuchlar o'zlarining strategik maqsadlariga intilib, “erkinlik va demokratiya” niqobi ostida faol harakatda. Bu buzg'unchi kuchlar o'z fa'oliyatlarini hamon ustalik, silliqlik bilan, bejirim bezaklar bilan olib bormoqdaki, har qanday kishini manfur niyatlari girdobiga tortish imkoniga ega. Bu kuchlar o'z niyatlari yo'lida millionlab mablag'larni ayayotganlari yo'q, ular yer yuzining istagan nuqtasida, istaganni o'zligidan ayirish va o'z ta'sir doirasiga olishni niyat qilib, buning ortidan millionlab foyda, daromadni ko'zlab ish yuritmoqdalar¹.

Insoniyat tarixi davomida har bir xalq shakllanishi asnosida uning milliy ma'naviyati, madaniyati ham o'z shakl – shamoyilini topib bordi. Ma'naviyat bobida sharqona va g'arbona qarashlar vujudga keldi. har bir qutb ma'naviyatining o'ziga xos tamonlari bo'lib, ularning o'zaro nomutanosib tamonlari ham mavjud. Sharq ma'naviyati kabi g'arb ma'naviyatining ham boy imkoniyatlari, fazilatlar bugungi g'arb dunyosi ma'naviy olamini boyitib kelmoqda. Bugun g'arb ma'naviyati bilan bog'lik qarashlar sifatida taraqqiyotning so'nggi davriga xos shunday tushunchalar

paydo bo'ldiki, afsuski, ularning ba'zilari hatto bugun g'arb dunyosidagi sog'lom ma'naviyatli insonlar qalbini larzaga solgan holda, sharqona ma'naviyatga nisbatan g'oyaviy tahdid, tajavvuz sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hatto g'arbning o'zi ham bugun o'zini ojiz sezayotgan buzg'unchi kuchlar dunyoga shunday illatlarni targ'ib – tashviq etmoqdalarki, bu tashviqotlar zamirida inson ma'naviyati, axloqi, millat manfaati bilan bog'lik g'oyalar yotibdiki, butun bir, millat taqdiri, kelajak avlod hayoti xavf ostida. Katta imkoniyatga ega bu kuchlar o'z mafkurasini singdirishga, ming yillik azaliy va muqaddas qadriyatlarimizdan G'arb qadriyatlarini ustun qo'yishga urinadi. Ular bu qadriyatlarining tarixini, mazmun – mohiyatini hech qachon xolis tushuntirmaydi, aksincha, ularning ma'nosi va falsafasini o'z g'arazli maqsadlariga moslab, soxtalashtirib joriy etishga harakat qiladi. Ular o'z g'arazli maqsadlarini “erkinlik” “demokratiya” singari chiroyli so'zlar bilan bezab, o'rab-chirmab dunyolari turmush tarziga kiritishga zo'r berib urinmoqdalar. Hozirgi kunda g'arb dunyosida erkinlikni niqob qilib olgan ayrim kimsalar nafaqat bizning milliy an'analarimiz, balki barchalar uchun qadrlil bo'lgan insoniylik aqidalariga to'g'ri kelmaydigan turli buzg'unchiliklarni ommoviy axborot vositalari orqali ochiqdan – ochiq targ'ib etayotganini ko'rib turibmiz. Natijada bugun odamlarni, xususan, yoshlarni buzg'unchi illatlar ta'siridan himoya qilish masalasi davrimizning dolzarb muommosiga aylangan. Afsuski, bugun jamiyatimizda ba'zan bu ta'sirlar girdobiga tushib qolib, o'z hayotini izdan chiqargan, jaholat, buzg'unchiliklar tuzog'iga tushib qolgan kimsalarning paydo bo'layotgani sir emas. Shu o'rinda I. Karimovning ushbu so'zlariga e'tiboringizni qaratmoqchimiz:

“Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'lik holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jaxonda bamisoli balo – qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish na'qadar muhim ekanligini anglab olmoqda”.

¹ Otamurotov S. Mamashokirov S. Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy taxdidlar. - T. “Yangi asr avlodi”. 2000-y.

Bugungi kunda dunyodagi sog'lom ma'naviyatli insonlarni tashvishga solib kelayotgan illatlar sifatida buzg'inchi kuchlar tamonidan targ'ib – tashviq qilinayotgan “ommaviy madaniyat”, individualizm, egosentrizm singari illatlarni misol keltirishimiz mumkin.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. *Globallashuv sharoitida madaniyatni asrash muammolari*
2. *O'zaro madaniy ta'sir*
3. *Globallashuv jarayonida madaniy taraqqiyotdagi transformatsiya masalari*
4. *Ommaviy madaniyatning yoshlar ongiga ta'siri*

Nazorat savollari

1. *Globallashuv sharoitida madaniyatni asrash muammolarini sanab o'ting?*
2. *O'zaro madaniy ta'sir tushunchasini izohlang?*
3. *Globallashuv jarayonida madaniy taraqqiyotdagi transformatsiya masalari nimada?*
4. *Ommaviy madaniyatning yoshlar ongiga salbiy ta'siri nimalarda ko'rinadi?*

12-MAVZU. INSON SOTSIOMADANIY HAYOTI SHAKLLARI VA JAMOATCHILIK TO'G'RISIDA ILMIY QARASHLAR

Reja:

1. *Insoniyatning sotsiogenezi haqida ilmiy qarashlar*
2. *Sotsiogenez bosqichlari*
3. *Jamoatchilik tushunchasi haqida umumiy ta'riflar*
4. *Jamoatchilik hayoti va demokratiya*

Tayanch iboralar

Sotsiogenez, mehnat taqsimoti, antropologiyaviy instinkt, faoliyat. tabu, davrlashtirish, jamoatchilik, demokratiya

1. Insonning sotsiogenezi haqidagi farazlar antropogenezni izohlaydigan ta'limotlardan anchagina ortiqligi bilan ajralib turadi. *Antropogenez tabiatshunoslik, birinchi navbatda, biologiyaviy fanlar bilan izohlansa, sotsiogenez kishilik hayoti turlicha tashkil etilganligini o'rganadigan ijtimoiy-gumanitar bilimlar orqali tushuntiriladi.* Bu bilimlar tabiatidagi o'ziga xosliklardan kelib chiqilsa, sotsiogenezning bayoni qanchalik murakkabligi ravshanlashadi. Shunga ko'ra, sotsiogenez nazariyalarida ko'p jihatlardan formal mantiq kuchiga tayanishga to'g'ri keladi.

Oldinroq aytilganidek, antropogenez tarixi bir necha million yil avval boshlangan bo'lib, dastlab primatlar qurollar bilan ishlash faoliyatiga ega bo'lmagan. Bular tayoqlar va toshlardan faqat himoya va hujum vositasi sifatida foydalanganlar.

Inson tadrijining sotsiogenezi (bu jarayon 2 million yildan beri davom etadi) kishilarning sotsiumga mansub zotlar bo'lib shakllanishini anglatadi. Bunday shakllanish kishilarning muayyan vaqtda muayyan hududdagi turli-tuman munosabatlaridan tashkil topgan turmush faoliyatini ifodalashi aniq.

Insonning kelib chiqishi sotsiogenez jihatdan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

birinchidan, qaysi ijtimoiy omillar kishilarning kelib chiqishiga ko'mak beradi?

ikkinchidan, inson qaysi tadrijiy bosqichlarni bosib o'tdi?

uchinchidan, insonning ijtimoiy shakllanish mexanizmi qanday kechdi?

to'rtinchidan, yer yuzi mintaqalarida kishilar tarqalishining shart-sharoitlari nimalardan iborat va uning mexanizmi qanday bo'lgan?

Ayni vaqtda, bu savollar sotsium kelib chiqishining asosiy masalalarini ham o'z ichiga oladi. Antropogenezning markscha tushuntiradigan ta'limotida buni hayvondan insonga o'tishning *bosh bo'g'ini tarzida* qarash mavjud. Bu, albatta, o'zining mavhumligi bilan ba'zi chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Chunki insonning hayvon ajdodlaridagi sodda qurollarni yasash va ulardan foydalanishi to'raligicha *antropobiologik instinktivlikdan* iborat bo'lgan. Bunda, birinchi navbatda, bu ajdodlarning hayot faoliyati uchun yordamchi vosita bo'lib hisoblangan va, nihoyat, faoliyat orqali hayvonlar tashqi muhitga instinktiv moslashgan. Hayvonlarda instinktiv qurollar yasash faoliyati shakllarining kelib chiqishi gominidlardan insonga o'tishni amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qilgan.

Gominidlar rivojlanishida insoniylikning boshlang'ich davri bo'lib qurolsozlik faoliyati va undan instinktiv yordamchi vosita sifatida foydalanishning asta-sekin inson hayot faoliyatining o'ziga xos usuliga o'tishi hisoblanadi. O'ziga xoslik esa mehnat qurollarini yasash, ishlab chiqarish alohida ehtiyojga aylanishidan iboratki, busiz inson hayotining o'zi ham amalda bo'lmas edi.

Qurolsozlik faoliyati tufayli ishlab chiqarishda mehnat taqsimoti kabi zaruriy munosabatlarning kurtaklari qaror topadi. Ya'ni, ibtidoiy jamoaning har bir a'zosi hayot kechirishni ta'minlash vositasining o'ziga tegishli qismini bajargan. Qurollar murakkablashib borgan sari jamoa a'zolarining o'zaro bir-birlariga bog'liqligi ham shunga muvofiq ortib borgan. Ayni vaqtda, bu holat individual qobiliyatlarni namoyon etish shart-sharoitlarini yaratib, birgalikda kechadigan faoliyatning unumdorligini oshirgan.

Insondagi bu mehnat taqsimoti eng tipik ko'rinishda bamisoli asalarilar oilasidagi tabiat tomonidan instinktiv belgilangan dasturlarni eslatadi.

Inson rivojlanishida sotsiogenez omillarining qanchalik muhimligi, ularning tutgan o'rinlari va bajargan aniq amallarida yaqqol ko'rinadi. Bunda sotsiogenez davomiyligini aniqlash zarur.

Olimlarning nuqtayi nazari muhim dalillarga tayanadi. Chunonchi, 1965-yilda Afrikaning *Rudolf ko'li* yonida topilgan elka suyagi mohir odamning shunday suyaklaridan farq qilmaydi. Bu suyakning yoshi 4,5 million yilga boradi. Ikki yildan so'ng o'sha joyda 5,5 million yil avval yashagan tik yuruvchi avstralopitek qoldiqlari topildi. Shu yili topilgan *keniapitekning* (Kenya) yoshi 9 million yilga boradi. 1980-yilda Misrda topilgan odamsimon mavjudot — *egiptopitek* qoldiqlari 30 million yil avval yashagan.

Ko'rinib turibdiki, inson ajdodlarining nomlanishidan tortib hamda yashagan joylari va vaqtlarigacha bo'lgan ma'lumotlar turlichadir. Bir tomondan, bu tayanish mumkin bo'lgan faktlarning ko'pligini bildirsa, ikkinchi tomondan, inson ajdodlari tarixi tobora uzoqqa borganligi mavjud nazariyalarni tez-tez qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shuningdek, bu materiallar ashyoviy xarakterdagi, ularda ma'noviylikni aniqlash imkoniyati juda oz. Erishilgan natijalar muayyan xulosalar chiqarish uchun yetarli. Evolyutsion nazariyasi vakillaridan biri amerikalik L.G.Morgan asosiy kasbi advokatlik bo'lishiga qaramay, 40 yil davomida antropologiya bilan ham shug'ullangan. U o'zining "*Qadimgi jamiyat*" asarida insoniyat madaniyati va jamiyati tadriji masalalarini yoritdi. Olim insoniyat rivojlanishini yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya bosqichlariga bo'ldi.

Morgan ilgari surgan g'oyalardan foydalanib, uning tarafdorlaridan biri insoniyat ibtidoiy jamoa davri tarixini davrlashtirgan edi. Chunonchi, yovvoyilik davri uch bosqichga bo'lingan:

Insoniyat zoti yoshligini bildirgan quyi darajasida kishilar ilk makonlari bo'lgan tropik va subtropik o'rmonlarda daraxt va ildiz mevalari iste'mol qilib yashaganlar va aniq nutq ular yetukligining bosh belgisi bo'lgan.

O'rta bosqichda kishilar baliq mahsulotlaridan, olovdan foydalanib oziq-ovqatlar tayyorlagan hamda daryo va ko'llar atrofida joylasha boshlagan.

Oliy bosqichda o'q-yoy ixtiro etilgani tufayli ovchilik bilan doimiy shug'ullanish mumkin bo'lgan.

2. Sotsiogenez bosqichini Morgan nazariyasi yo'nalishida rus etnografi V.P.Alekseev insoniyat tarixining boshlanishini insonning kelib chiqishidan, insonning o'zini esa gominidlar oilasi shakllanishi va mehnat faoliyati boshlashidan olishni taklif qildi.

V.P.Alekseev ibtidoiy to'da davrini quyidagicha izohlaydi:

Birinchi bosqich – bir necha million yil avval yashagan avstralopiteklar kichik oilasida hayvonot dunyosidan ajralib chiqishining ilk kurtagi ko'rina boshlagan.

Ikkinchi bosqich – pitekanthrop turi davri. Ularda sodda nutq va til paydo bo'lgan, ov qilish qurollari va usullari murakkablashgan bo'lib, ovchilik jamoalari o'zaro munosabatlari murakkablashganidan darak bergan. Bu davrdagi inson ajdodlarida jinsiy masalada ba'zi taqiqlar – tabu yo'lga qo'yilishi mumkin edi.

Uchinchi bosqich – neandertalni ifodalab hozirgi inson ko'rinishini maydonga keltirgan davrni o'z ichiga oladi.

Morgan va Alekseev nazariyalari

Bu bosqichlarning biridan ikkinchisiga o'tish davrida yuz bergan jarayonlarni zarur darajada tasavvur qilmasdan sotsiogenez to'g'risida gapirish yetarli bo'lmasdi. Shunga ko'ra, kishilik dunyosi kelib chiqishining umumiy jihatini aniqlab olish kerak.

Rus olimi V.F.Porshnev insoniy tarix anglangan mehnat faoliyatidan emas, balki mehnat qurollarini instinktiv yaratishdan, tayyorlashdan boshlanadi, deb hisoblaydi. ya'ni, inson ajdodi o'zidagi biologik instinkt talabiga ko'ra sof tasodifiy tarzda dastlabki tosh qurollarni yasagan.

Bunday tarzda kelib chiqqan inson, ya'ni, sotsium a'zosi yagona tip emas, balki bir necha xil ko'rinishda bo'lgan. Ular ichida o'z turi vakillarini eydiganlaridan tortib, qurbon bo'lishidan qo'rqib stixiyali tarzda, aniqrog'i, biologik instinkt talabiga ko'ra miyasining tegishli qismini kutilmaganda ishlatib yuborib boshqalardan ruhiyati rivojlangani bilan oldinga o'tib ketganlari

ham bor. Ana shu nuqtayi nazarni tasdiqlashga qaratilgan anchagina qiziqarli faktlar to'plangan. Lekin boshqa barcha shu turdagi nazariyalarda bo'lganidek, Porshnev qarashlarida ham munozarali xulosalar anchagina topiladi.

Kishilik dunyosi kelib chiqishi mexanizmini tushuntirishda nemis olimi F.Kliks ta'limotiga ko'ra inson kelib chiqishida mehnat qurollari yasash turli individlarda turlicha – birovda tez va soz, boshqalarida esa aksincha bajarilgan. Birinchilarining bu sohada ixtisoslashuvi mehnat taqsimotini keltirib chiqarishi, mutaxassis bo'lish uchun zaruriyat hosil etgan. Bular, albatta, tabiiy holat bo'lmay, balki sotsiumga tegishlilik, ijtimoiylikdir. Shu tarzda boshlangan jarayon oqibatda murakkab tizimga olib kelishi, tizim esa o'z-o'zidan rivojlanishi mumkin bo'lgan.

Ijtimoiy institutlar haqida¹

Ijtimoiy antropologiyaning yangi yo'nalishiga 1930-yillarda A.R. Redklif Broun va B. Malinovskiy tomonidan asos solingan. Bu yo'nalishga ularning Sharqiy Afrikada olib borgan tadqiqotlari, ayniqsa u erdagi ijtimoiy institutlarga e'tibor tutki bo'lgan. Bu yo'nalishda E.E. Evans Prichardning hissasi katta bo'ldi. Bundan tashqari Djomo Kenyattaning monografiyalarini keltirib o'tish darkor. Malinovskiy o'zining chiqish so'zida, Kenyattaning katta bilimiga, tajribaga ega antropolog sifatida va uning ishlarini yuqori baholab o'tadi. Malinovskiyning bu so'zlari xazil emas edi, aksincha u haqiqiy tadqiqotchi antropolog qanday bo'lishini aytib o'tgan va Kenyattaning ishlarini yana bir bor ijobiy baholagan. Kenyatta o'zining ishlarini yozib olib borishga odatlangan va u afrikaliklarning qabilaviy hayoti va unga bog'liq bo'lgan jihatlarni ko'rsatib o'tgan. Kenyatta Keniyadagi mustaqillik uun kurashlarda ishtirok etgan va yangi respublikaning prezidenti bo'lish uchun o'z yo'lini davom etdi. Lekin uning monografiyasi kikuya jamiyati haqidagi eng yaxshi manba sifatida qoladi.

¹ ENCYCLOPEDIA OF SOCIAL AND CULTURAL ANTHROPOLOGY. Edited by Alan Barnard and Jonathan Spencer. London & New York 2002 page 54-55

Evans Pritchardning kipsigis (*Kipsigis*)dagi ijtimoiy tashkilotlar haqidagi monografiyasi ham katta ahamiyatga ega. Ushbu monografiyada ikkita jihatni ajratib o'tadi: birinchidan, kipsigis (*Kipsigis*)larda siyosiy tizim mavjudligi; ikkinchidan, yosh asosida tayinlanish tizimining siyociy ahamiyati (Evans-Pritchard 1939: XXIII, XXXI). Bu ikki jihat Sharqiy Afrikani keyingi bosqichda tadqiq etishda asos bo'lib hixmat qildi. Ayniqsa Keniya va Tanzaniyadagi nomarkazlashuv tizimi mavjud bo'lgan holatlarni o'rganishda. Bu kabi ijtimoiy tashkilotlarni "Afrika siyosiy tizimi" (1940) mualliflari hisoblangan Meyer Fortes va Evans Pritchard tomonidan batafsil o'rgailgan. Ushbu asarda, sakkizta esseydan beshtasi Afrikadagi qirolliklar, uchtasi esa fuqarosizlik va segmentar jamiyatlarga bag'ishlangan. Sharqiy Afrikadagi Ugandada joylashgan Ankola qirolligi (Oberge v Fortesa i Evans-Pritchard 1940) va hech davltsiz Logoli, Bantu-Kavirondo hozirda Luia deb nomlanuvsi jamiyatlar ko'rsatib o'tilgan (Wagner in Fortes and Evans-Pritchard 1940). Ankola Buganda, Ruvanda va Burundi kabi buyuk qirolliklaridan biri bo'lgan. Bu qirolliklardagi effektiv byurakratiya va qirollarning buyukligidan dastlabki kelgan yevropalik tadqiqotchilarda katta ta'surot qoldirgan. Ular 'fetishized' yo'nalaishining ideal varintini ko'rishgan. Bu topilma Sharqiy Afrika bo'yicha manbalarga kiritilgan.

V.P.Alekseev sotsiogenez bosqichlari haqida gapirar ekan, jarayonning boshi (avstrolopiteklar hayoti) va nihoyasi (neandertallar jamoasi) to'g'risida fikr yuritadi. Bu jarayonlarga oid ashyoviy ma'lumotlardan foydalanib, mantiqiy xulosa yasash mumkin. Oraliq davr esa eng umumiy jihatlari bilangina ma'lum bo'lgani uchun uning to'g'risida aniq xulosa chiqarish mushkul. Shunga qaramay, sotsiogenez kechishi tarzi haqida aytish mumkinki, uning qaysidir bosqichida jinsiy munosabatlar tartibga solina boshlandi. Chunonchi, insestga tabu qo'yildi. Asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, bevosita biologik aloqalarning qon-qardoshlikka olib kelish hollari anglandi. Bular va boshqa ko'pgina jarayonlar natijasi o'laroq turli ijtimoiy me'yorlar qaror topishiga sharoit tug'ildi, til va tafakkur rivojlana boshladi. Sotsiumning

shakllanishi bilan inson areali, ya'ni, odamning yer yuzining turli qismlariga tarqalishi yuz berdi. Boshqa o'rinlarda bo'lganidek, bu borada ham javoblarni afsonaviy-diniy va ilmiy ko'rinishlarda olish lozim bo'ladi.

Ilmiy nuqtayi nazarlarning biriga ko'ra, inson yer sharining faqat bir qismida (Ch. Darvin, V.P.Alekseev va bosh- qalarning qarashlari) – *Afrikada*, L.Valua – *Mesopotamiyada* kelib chiqib, keyinroq dunyoning boshqa qismlarini o'ziga areal tutgan. Bu nazariya insonning Avstraliya qit'asiga qanday kelib qolganligini va irqqlar masalasini tushuntirib berolmaydi.

1938-yili V.Vaydenrayx insonning to'rt joyda – *Afrikada*, *Osiyoning janubi sharqida*, *Osiyoning sharqida* va *Yevropada* kelib chiqqanligi to'g'risida o'zining qarashlarini bayon qilgan edi. I.G.Podoplichko inson uch joyda – *Afrikaning markazi va shimoli*, *Yevropaning markazi va janubi*, *Osiyoning markazi va janubida*, M.F.Nestrux – ikki joyda – *Afrikaning shimoli*, *Osiyoning janubi sharqida* kelib chiqqanligi to'grisidagi nazariyani ilgari suradi.

Insonning ilk vatani to'g'risidagi masala garchi bir qator jihatlar bilan hal etilgan bo'lsa-da, hali-hamon fanda aniq xulosalar chiqarilmagan.

Inson qadimgi ilk ajdodining yer yuzining faqat bir qismida yoki bir necha joyida kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalarga qo'shimcha ravishda uning o'ziga oykumen – yashash joyi tanlashi, boshqacha aytganda, Sayyoraning quruqlik qismida joylashganligi va tarqalganligi masalalarini ham aniqlash lozim bo'ladi.

Kishilar sonining ko'payishi bilan manzilgohlar yaqinidagi ovlanadigan mavjudotlarning kamayishi obektiv ravishda yangi hududlarni o'zlashtirishga olib keldi. Ovchilar asta-sekin Shimoliy Yevropa va Osiyoning sahro erlariga, muzliklardan bo'shagan quruqlikka borib joylasha boshlaganlar. So'nggi paleolit davrida Sibir va Markaziy Germaniya o'zlashtirildi. Osiyo qit'asidan Bering bo'g'izi orqali bundan 20 ming yil avval odamlar Shimoliy Amerikaga o'tganlar. Keyinroq Avstraliyaga ham kelib joylashgan.

Insoniyat taraqqiyoti boshqa qator sohalarda bo'lganidek, quruqlikni tobora egallab, o'zlashtirib borishda ham ko'rinadi.

Sotsiogenez bilan bevosita bog'liq bo'lmagani holda antropologiyada inson mavjudligi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq masala – irq to'g'risida ham biroz to'xtalish lozim. Keng ma'noda irq shunday shakli, unda inson o'zining tashqi umumiy irsiy belgilarida, masalan, boshi, burni va yuz shakllarida, teri rangida, soch shakli va rangida, tana o'lchamlarida ifodasini topadi.

Ko'pchilik olimlar irqlarda kishilarning sotsiumga mansubligi aks etmaydi, deb hisoblaydilar. Shu bilan birga, ba'zi irqlarda u yoki bu sohaga aloqador jihatlar ko'zga tashlanadi. Masalan, AQSHning negr aholisi biologik jihatdan jismoniy madaniyat va sportga mos keladi. Ma'lumki, bu sohalar ijtimoiy hodisa. Yoki boshqa misol: avstroloidlar kino tomosha qilayotganida lentaning odatdagi aylanishida kadrlar orasidagi bo'shliqni to'la ko'rgani tufayli zarur estetik zavq ola olmaydi. Shuning uchun ularga kinolentani ikki marta tez ko'rsatish zarur bo'lar ekan. Binobarin, irqiylik shubhasiz qandaydir jihatlarni ifodalamasligi mumkin emas.

3. Jamoatchilik nazariyasi ijtimoiy fanlarda juda keng yoritilgan va tez-tez qo'llanilgan nazariya hisoblanadi. Bir paytlar bu atama tarifi bo'yicha turlicha tushunchalar yuzga kelgan.¹ Antropologiyada an'anaviy yondashuvlarni uchta keng bir biridan farq qiladigan yondashuvlarga ajratish foydali bo'lishi mumkin.

"Jamoatchilik" atamasi quydagicha xarakterlanishi mumkin: (a) kishilar o'rtasidagi umumiy manfaatlar, yoki (b) umumiy joylashuv (c) umumiy ijtimoiy tizim va struktura.

Bulardan kelib chiqqan holda, o'z navbatida Olim Frankenberg umumiy mafaatlarga erishish borasidagi narsalar (iqtisodiy, diniy yoki boshqa) jamoa a'zosining bir birlariga bo'lgan umumiy manfaatlarini ifoda etishini nazarda tutadi.

Insonlarning kichik guruhlarida yashash orqali jamoa a'zolari bilan turli darajada bir birlari bilan munosabatga kirishadilar; bundan tashqari joyga nisbatan va jamoaga nisbatan bo'lgan

¹ Social and cultural anthropology. - page 60

tushunchalarini bir-birlari bilan baham ko'rishadi. Shunday tarzda, jamoalar ijtimoiy jipslashganlik holatini yetarli darajani hosil qiladi.

Antropolog olimlar Minar va Grir lar uchun bir geografik hududda tabiiy joylashish (yashovchi va ishlovchi) asosiy hisoblanadi. Ma'lum bir joyda joylashish umumiy muammolar va umumiy istiqbollor borasidagi birgalikdagi harakatlar va faoliyatni tashkil etishni rivojlanishga olib keladi. Bu o'z navbatida sotsial guruh doirasida umumiy jipslik, o'zaro bog'liqlik hissi, sodiqlik kabi tushunchalari yuzaga keltiradi.

Antropolog olim Uorner uchun jamoat mohiyatdan bir butunlikdagi ijtimoiy vazifani bajaruvchi hisoblanadi: Istimoiy struktura xuddi inson tanasidek bo'lib, o'z hususiyatlari doirasida faoliyatini amalga oshiradi, boshqa organizmlar o'z xususatiga ko'ra bir biridan ajralib turganidek ijtimoiy strukturalar ham ajralib turadi. Bu farqlarni tushunish jamoat a'zolariga qandaydir mansublik hissini beradi. Bir butunlikdagi vazifadoshlik, jamoat strukturasi doirasida (oila, status-guruh, yoki boshqa) kerakli tarzda birgalikda ishlash uzoq vaqt davom etishi mumkin.¹

Ko'plab sotsiologlar uchun "jamoat" ta'rifi muammoasi vaziyatga xos sifatlarni tushuntimasligi kerak lekin, bunday tushunchalarni ham anacha eskirganligini hisobga olishimiz lozim. Bunday tushunturuvchi shakllar mutlaqo yangi emas; Ularni XIX asrda Dyurgeym va Marksning evolyusiyon sxemalarida ko'rish mumkin.

Bu qisman nemis sotsiologi Ferdinand Tennisning 1887 yilgi birdamlikning "jamiyat" dagi transsendentlik holati borasidagi nazariyasi bilan bog'liq. U ilgari surgan ilmiy farazga ko'ra, ijtimoiy tashkilotlarning an'anaviy shakllari har joyda asta sekinlik bilan o'rin almashib boraveradi, uyushmalar umumiy maqsadlarga samarali erishish uchun mahsus tashkil topgan.²

4. Demokratiya tarixining asosiy hodisalaridan biri bu zamonaviy jamoatchilik sohasining rivojlanishi hisoblanadi. OAV lari bu tarixiy rivojlanishining bir qismi sifatida kommunikativ borliqlarni tashkil etishga ko'maklashadi. XVIII asrdagi bosma

¹ Social and cultural anthropology. - page 61

² Social and cultural anthropology. - page 64

texnologiyalar yuzaga kelishi va amaliyotda qo'llanishi bilan turli kitob va gazetalar ko'ngilli tarzda chop etilgan. Bosma texnologiyalar mahsulotlari XVIII asrning o'rtalarida ingliz mayxona va qahvaxonalarida muhokamalarida markaziy o'rin tutgan. Qahvaxonalarda chop etilgan narsalar tarqatilar yoki osib qo'yilar va shu tariqa ilk jurnalistik kasb yuzaga kela boshlagan edi. Qahvaxonalar esa jamoatchilik hayotining muhim bir qismiga aylangan edi. Bosma mediasiz ommaviy to'planadigan joylarda bo'ladigan mustaqil munosabatlarni va jamoatchilik muhokamalarini tasavvur etib bo'lmaz edi.

Siyosiy jamoatchilik sohasi rivojlanishi bilan, OAV lar siyosiy madaniyatning shaffof va demokratiyalashuvi borasidagi kurashning markaziga aylandi. Britaniyada 1700-yillarning boshlarida muholif partiyalar yuzaga kela boshladi. Bunga jamoatchilik fikrining siyosiy jurnalistikaga asosida shakllangani bilan izohlash mumkin. 1800-yillardan boshlab jurnalistlar Parlamentda rasmiy joylarga ega bo'lishdi.¹

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. *Insoniyatning sotsiogenezi haqida ilmiy qarashlar*
2. *Sotsiogenez bosqichlari*
3. *Jamoatchilik tushunchasi: umumiy ta'riflar*
4. *Jamoatchilik hayoti va demokratiya*

Nazorat savollari

1. *Insoniyatning sotsiogenezi haqida ilmiy qarashlar ta'riflang?*
2. *Sotsiogenez bosqichlari borasida ilmiy qarashlarni sanab o'ting?*
3. *Jamoatchilik tushunchasi haqida umumiy ta'riflarni farqlanishi qanday?*
4. *Jamoatchilik hayoti tushunchasini ta'riflang?*
5. *Sotsiogenezga ta'sir qiluvchi omillar qanday?*

¹ The Blackwell Companion to the Sociology of Culture Mark D. Jacobs and Nancy Weiss Hanrahan.- page 81

13-MAVZU. O'ZLIKNI ANGLASH, GENDER VA MILLIY MUNOSABATLAR

Reja:

1. *Antropologiyada jins problematikasi*
2. *Mehnat taqsimotida gender munosabatlari*
3. *O'zbekistonda gender munosabatlari va xotin-qizlar tadbirkorligi rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar.*

Tayanch tushunchalar

Gender roli, gender stratifikatsiyasi, jins problematikasi, tadbirkor tiplar

Gender farqlanishlariga qaratilgan ikki turli hil fundamental yo'nalishlar mavjud. Birinchisida shuhasizki ayol va erkak o'rtasidagi farqlanishlar: jinsiy qarash va funksiyalarning turli hilligi. Bu yo'nalishda tushinishda gender o'rniga "jins" atamasini ishlatish odatga aylangan.

Ikkinchi bir yo'nalishda, ijtimoiy va madaniy hayotda gender farqlanishlari qanchalik amal qilishini antropolog fokusda tahlil etish uchun ajratib olinadi. Barcha inson jamiyatlarida erkak va ayol o'rtasidagi farqlanishi borasidagi konseptualizatsiya shubhasiz muhim hisoblanadi. Shunga qaramay erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning muhim o'zgarishi yo'nalishlari aniqlash borasida ishlar oxiriga etmagan va shuning uchun ham gender borasida umumiy xulosaga kelish qiyin. Gender turli jamiyatlarda erkakning ayolga munosabatini tahlil qilish va bu munosabatni turlicha tushunish borasida yaxshi izlanish yo'nalishi bo'la oladi.

Gender masalasiga antropologik taqdiqotlarda uzoq vaqt davomida beparvo qarab kelingan, bunga sabab gender masalasi shaxs o'xshashligi asosida o'rganilib kelingani bilan bog'liq.

Boris Malinovskiy entnografik detallar orqali qadimgi jamiyatdagi ayollar insituti to'g'risida ilk izlanishlarni boshlab bergan. Boshqa ko'plab klassik izlanishlarda ijtimoiy rolni ijtimoiy "erkak" bilan baravar holatda yoritilgan. Bu turdagi yo'nalish

androsentrik deb nomlangan (yunoncha "andros" erkak). 1970-yillardan boshlab antropogik tadqiqotlarda gender masalasi asosiy o'rganiladigan mavzuga aylanganini ko'rishimiz mumkin.¹

So'nggi yillardagi bir qancha antropologik tadqiqotlarda "ayollar pozitsiyasi" dan turib olib borilmayotgan bo'lsada turli xil jamiyatlarda erkak-ayol munosabatlarining turli xususiyatlarini yoritish borasida so'z yuritilgan. Bir qancha antropologlar faqatgina ayollarnigina kashf etmasdan erkaklar borasida ham Yangi hulosalarga kel boshlashdi. Extimol barcha jamiyatlardagi gender farqlanishlari tushunchalari shubhasiz "tabiiy emas" dir, lekin ularning qanchadir tushunchalari o'zlarning madaniyati xususiyatining bir qismi hamdir.²

Ko'pchilik jamiyatlarda mehnat taqsimotida ayollarning ishi erkaklarning ishidan muntazam ravishda ajratib kelinadi. Jamiyatdagi gender asosidagi mehnat taqsimoti ovchilik-termachik davridan beri yuz berib kelinaladi, va bu mavjudlik humanism borasida hech qanday yomon tushuncha sifatida keltilmagan. Qadimda erkaklar jismonan imkoniyatlari yuqoriligi sabab ovchilik bilan shug'ullanishgan, ayollar esa o'ljani pishirish, bolalarga qarash va shunga o'xshash maishiy ishlar bilan shug'ullanishgan. Bu holat ming yillar davomida o'rnatilgan tartib sifatida simvolik hususiyatga ega bo'lgan.³

Shuni takidlash lozimki, ayollarning o'sha paytdagi iqtisodiy hayotga ta'siri juda ahamiyatligi ekanligini ilmiy faraz qilish mumkin. Ister Bozerup o'zining klassik izlanishlarida agrar jamiyatlardagi mehnat taqsimoti va gender masalarini o'zaro qiyosiy tahlilini qiyosiy borgan. U o'zining xulosalarini Afrikadagi ayolarning qishloq xo'jaligi ishlarini olib borishi masalasi asosiy o'rin tutadi. Uning aniqlashicha ayollar qishloq xo'jaligi bilan ban bo'lish bilan birga uy yumushlari sohasida faoliyat olib borishadi.

¹ An Introduction to Social and Cultural Anthropology Thomas Hylland Eriksen page 125

² An Introduction to Social and Cultural Anthropology Thomas Hylland Eriksen page 126

³ An Introduction to Social and Cultural Anthropology Thomas Hylland Eriksen page 126-127

Bozerupning qarama qarishi xulosalariga ko'ra qishloq jamiyatlarida ayolarning siyosiy pozitsiyasi past ekanligi, ko'plab yangi texnologiyalar erkaklar tamonidan nazorat qilinishini aniqlagan.¹

Tadqiqotchilarning ko'pchiligi shuni tasdiqlashadiki, barcha tarixiy davrlarda barcha madaniyatlar va jamiyatlarda xotin-qizlarning tajribasi va faoliyati erga urilgan va tadqiq etilmagan. Ayolning xususiy sohaga, oilaviy ishlarga, uy xo'jaligiga mansubligi "tabiiy", "azaldan shunday", deb hisoblangan. Ayollar tarixi bo'yicha mashhur mutaxassis Gizel Bokning fikricha, ayollar ularning tajribasi, faoliyati, turmush sohalari tarixiy qiziqish va ahamiyatga ega bo'lmagandek tuyulishi bois sezilmay qolib ketavergan. Biroq "ayollarning tarixi erkaklarning tarixi singari umumiy deb hisoblanishi kerak", chunki bu tarix "nafaqat yarim insoniyatga, balki butun insoniyatga dahldordir".

Xotin-qizlar tarixi bo'yicha yana bir taniqli tadqiqotchi Joan Kellining fikricha, masala "ayollar tarixini qaytarish" haqida emas, balki, "ayollarga tarixni qaytarish" haqidadir. Ayollarning jamiyat rivojidadagi rolini tarixiy taxlil qilish alohida, mustaqil tadqiqot sohasi bo'lib ajralib chiqdi. Ana shu ilmiy yo'nalishning shakllanishi qanday yuz berganini ko'rib chiqamiz. Ayollar muammolarini ilmiy tadqiqotlar sohasiga kiritish G'arbda XX asrning 60-yillarida boshlandi va bir qator omillar: mavjud ijtimoiy tuzumda o'zgarishlar uchun har xil pozitsiyalarda turib kurashgan radikal harakatlarning (maoizm, yangi marksizm, negrlarning va milliy ozchilikni tashkil qiluvchi xalqlarning huquqlari uchun kurash harakati, yoshlar harakati, urushga qarshi harakat) ommalashuvi bilan, feminizm harakatining yangi to'loqini paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan, mazkur oqim vakillari yuqorida tilga olingan radikal harakatlar, "jins muammolari to'g'risida ochiqdan-ochiq gapirishga imkon bergan" jinsiy inqilob bilan bog'liq bo'lishgan. 1960-yillarning oxiri - 1970-yillarning boshlarida AQSHning bir qator universitetlari o'quv rejalariga

¹ An Introduction to Social and Cultural Anthropology Thomas Hylland Eriksen. - page 127.

fanlararo "xotin-qizlar dasturi"ni kiritdi. Uning umumiy qabul qilingan nomi "womens studies", "ayollar tadqiqotlari", ya'ni 1) ayollar mavzuida yozilgan, 2) ko'pincha ayollarning o'zlari yozgan "tadqiqotlar" Ayollar tarixi sohasida ixtisoslashayotgan tarixchilarning muvofiqlashtirish maqsadida 1989-yilda XVIII tarix fanlari kongressida "Ayollar tarixi tadqiqotchilarining xalqaro federatsiyasi" tuzildi, bir qator xalqaro uchrashuvlar o'tkazildi. Masalan, 1989-yilda Bellajioda (Italiya) birinchi konferensiya o'tkazildi, 1990-yilda esa "Ayollar tarixi" sohasida ilmiy ishlarni olib borayotgan tadqiqotchilarning birinchi xalqaro kongressi bo'lib o'tdi. 1970-yillarda va undan keyin BMTning xotin-qizlar maqomini oshirishga doir siyosati gender muammosi bo'yicha tadqiqotlarni kengaytirishga ijobiy ta'sir o'tkazdi. Bunda 1975-yilni YUNESKO Xalqaro xotin-qizlar yili e'lon qilishi hamda BMT doirasida nishonlangan xotin-qizlar O'n yilligi (1975-1985) bilan bog'liq tadbirlar muhim rol o'ynadi. BMT homiyligida o'tkazilgan bir turkum jahon xotin-qizlar konferensiyalari turli tarixiy davrlarda va turli ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda xotin- tadqiqotlarining uslubiy bazasi kengaytiriladi.

Tadqiq etilayotgan fanni nazariy jihatdan qaytadan anglash va konseptual apparatni qayta ko'rib chiqish natijasida ayollar tarixi yangi sifat kasb etadi. Shu munosabat bilan "ayollarning yangi tarixi" haqida gapirish mumkin bo'ldi. yuqorida eslatib o'tilgan ko'p tomli "G'arbda ayollar tarixi" kitobining kirish qismida muharrirlar Jorj Dyubi va Mishel Perro mazkur nashrda ayollarning tarixidan ko'ra ko'proq jinslarning o'zaro munosabatlari tarixi ko'rsatilgan, deb yozishgan. 1980-yillarda yana "ijtimoiy madaniy jins" deb ataluvchi "gender" tahlilning markaziy kategoriyasiga aylanadi, hamda ayollar tarihi zamirida "gender tarixi" deb ataluvchi fan shakllana boshlaydi.

Tarixda gender tahlilini qo'llashning maqsadga muvofiqligi birinchilar qatorida asoslab bergan amerikalik tarixchi Joan Skottning fikriga ko'ra "gender erkak va xotin-qizlar orasida ijtimoiy rollarni belgilash maqsadida ishga solinadi. Uning qo'llanishi biologik vajlarni aniq-ravshan rad etadi ...aksincha, gender madaniy konstruksiya – ayollar va erkaklarga yarashadigan

rollar to'g'risidagi g'oyalarni belgilash usuli bo'lib qoladi. Gender...jinsi bor jismning ijtimoiy kategoriyasidir". Shunday qilib, gender jinslar o'rtasida qabul qilinadigan farqlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy elementidir. Boshqa tomondan, gender ma'muriyat munosabatlarini belgilash uchun boshlang'ich vositadir, chunki barcha tarixiy bosqichlarda individning va jamiyatning gender ongini hukmronlik/bo'ysinish munosabatlarining vujudga kelgan tizimi, barcha sohalardagi ierarxiya shakllantirgan.

Jamoatchilik fikri institutlari, oilaviy va ommaviy tarbiya, axloq, ma'lumot, ommaviy madaniyat, faoliyatning muayyan turlariga qo'yilgan taqiqlar va rag'batlar va xokazolar gender maqomini, gender ierarxiyasini va axloqning gender modelini belgilab bergan. Bunda hokimiyatni, obro'ni va mol-mulkni taqsimlash tizimi, irqiy, etnik va sinfiy mansublik erkak va ayol maqomiga belgilovchi ta'sir o'tkazgan. Gender munosabatlar dinamikasini o'rganish, jamiyatning tarixiy rivojlanishini gender tahlil qilish gender tarixi uslubiy apparati shakllanishiga yordam berdi. Bunday apparatsiz tarixiy manbalarni o'rganish amri mahol bo'lur edi. Gender tarixining yangi konsepsiyasi umuman sivilizatsiya tarixini, xususan milliy tarixlarni o'rganishda yangi yondoshuvni taqozo etdi. Insoniyat rivojlanishining barcha – ibtidoiy jamoaya tuzumdan boshlab hozirgi vaqtgacha – davrlari gender tarixchilarning diqqatini jalb qiladi.

Ularning ilmiy tahlili birlamchi mehnat taqsimoti sabablari va oqibatlarini, xotin-qizlar ustidan ijtimoiy nazoritning shakllari, jamiyatda erkaklar ustunligi mafkurasining shakllanishi jarayonini, oila, nikoh munosabatlarning erkaklar va ayollar hayotiga ta'sirini, jamiyatda gender tengsizlik shakllanishiga diniy qarashlarning ta'sirini, ayollar va erkaklarning ijtimoiy huquqiy maqomini, siyosatda va yuqori hokimiyat tizimlarida xotin-qizlar yo'qligiga va gender masalalarining boshqa muhimligi bulardan kam bo'lmagan jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Mutaxassis-larning fikricha, tarix fanida gender munosabatlarning ahamiyati alohida tarixiy qimmatga ega bo'lib, shu tariqa tarix rivojida yangi istiqbollarni ochib berdi. Ana shu tadqiqotlar davomida shu narsa

aniqlandiki, gender munosabatlar insoniy munosabatlarning barcha boshqa turlari singari shu qadar muhimki, ular jamiyat tarixiga katta ta'sir o'tkazadi, jamoat munosabatlarining boshqa turlarini shakllantirishda ishtirok etadi. Gender tarixi bo'yicha mashhur mutaxassis Gizella Bok, tarixiy taraqqiyot gender tahlilini qo'llanish tarix umumiy konsepsiyasini o'zgartirishini va ijtimoiy tarixiy taraqqiyotni yangicha ko'rish uchun asos yaratishini isbotlaydi. Uning fikricha, tarixning "buyuk masalalari"dan jinslar o'rtasidagi munosabatlarni chiqarib tashlash bilim cho'qqilari sari yo'lni berkitib qo'yadi..."

Erkak va ayolning xatti-harakatlaridagi ko'plab farqlanishlar genderning ijtimoiylashuvdagi roli natijasidir. Har bir jamiyatda ayol va erkak o'zini turishi va harakatlarida rioya etishi lozim bo'lgan e'tiqod, qadriyatlar va me'yorlarga ega. Ayol va erkakning jinsiga qarab faoliyati va vazifasini madaniyatga xos tarzga ajratib qo'yilgan bo'ladi. Gender rollar muhit, iqtisodiyot shakli, insonlarning ko'nikish strategiyasi va ijtimoiy komplekslari bilan farqlanadi. Ijtimoiylashishda gender roli mehnat taqsimotida muhim hisoblanadi. Deyarli barcha jamiyatlarda mehnat taqsimoti gender asosida tashkillashtirilganini ko'rishimiz mumkin. Ayollar va erkaklarning qaysi sohalarda qanday faoliyat olib borishlari borasida insitutlashgan qoidalar mavjud.¹

Gender stratifikatsiyasi erkak va ayol o'rtasidagi ijtimoiy resurslar, kuch, prestij va shahsiy erkinlik borasida taqsimoti va ijtimoiy ierarxiyada turli pozitsilarda aks etishini aks etuvchi tushuncha. Gender stereotiplar gender statifikatsiya uchun yo'l ochib berdi. Bu jamiyat resurlaridan ayol va erkak teng huquqli ravishda foydalanishni anglatadi. O'gil va qizlar bolalikdan boshlab jinsiga xatti-harakatlarning jamiyatning qarashlariga mos ravishda normal tarzda ijtimoiylashishi uchun o'rgatiladi. Qizlar bolalarga nisbatan itoatkor qilib o'rgatiladi; bolalar kuchli agressiv, kirishuvchan qilib tarbiyalanadi. Bu erkaklar ayollarga nisbatan kuchliroq, prestij, imtiyozli va hurmatli bo'lishini ta'minlaydi.

¹ Introduction to Sociocultural Anthropology. Debub University page 132

Gender stratifikatsiyasida erkaklarning egallab turgan mavqei iqtisodiyotga, ijtimoiy va siyosiy hayotga ta'siri jihatidan muhim sanaladi. erkaklar ayollarga nisbatan qaror qabul qilish borasida kuchliroq sanalishadi. Bu vaziyat ko'p jamiyatlarga hosdir. Bu ayollarning aqliy qobilyati bilan bo'liq emas. Bu genderning ijtimoiylashuv jarayonidagi roli, gender ideologiyasi va stratifikatsiyasi netijasi hisoblanadi.¹

Gender tarix konsepsiyasi gumanitar fanlarda nisbatan yangi yo'nalishdir va uning MDH mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonda shakllanishi g'arb mamlakatlaridan farqli o'laroq sust bormoqda. Buning bir qator sabablari bor: sovet davrida feministik va gender konsepsiyalar keng rivoj topmadi, chunki ular sotsialistik jamiyatning obyektiv shartlariga javob bermaydi, deb qaralardi, bu jamiyatda "xotin-qizlar masalasi" "hal qilingan" deb hisoblangan, g'arbning barcha tajribasi esa "burjuacha" deb, shu sababli "zararli" va "begona" deb qaralgan. Sovet tarixiy adabiyotida ayollar tarixiga oid asarlar bo'lmagan deb bo'lmaydi, ammo ular Oktyabr inqilobidan keyin xotin-qizlar maqomining yaxshilanishiga bag'ishlangan, ularga ona va mehnatkash ayol sifatida qaralgan.

Keyingi yillarda muammolar orasida qizlarni bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash, bunda ularning ijtimoiy jinsiga aloqador ijtimoiy ijtimoiy holatlarni inobatga olgan ta'lim texnologiyalarini tashkil etishga xizmat qiladigan dasturlar yaratish masalasi bizning nazarimizda amaliy ahamiyatga molik yo'nalishlardan hisoblanadi. Xo'sh, bunda qaysi ijtimoiy ijtimoiy omillarga birinchi navbatda e'tibor qaratish lozim? Bizningcha, biz tadqiqotchilar birinchi navbatda bugungi qizlarimiz Sotsiologiyasidagi yetakchi motiv va shaxs xususiyatlarini o'rganishdir.

Birinchidan, iqtisodchi qizlarning xarakter xususiyatlarida o'ziga xoslik mavjudmi, degan savolga nazariy va amaliy javob qidirdik. Zero, bu tushuncha sotsiologiyada inson ijtimoiy hayotiga aloqador bo'lgan eng ananaviy va qadimiy tushunchalardan.

¹ Introduction to Sociocultural Anthropology. Debub University page 133-134

Lekin shunday bo'lsa ham bu tushuncha o'zining tugal yechimini topgan deb aytish qiyin. Gap shundaki, bu tuzilma eng o'zgaruvchan va beqarordir.

1. Konservativ – sotsiologiyani o'zida mujassam etuvchilar guruhi. Ular turli an'ana va udumlarga to'la ergashuvchilar, konservativ fikrlaydigan, turli fikr va qarashlarga nisbatan ehtiyotkor, o'z mahallasi va oilaviy munosabatlarga tez moslashadiganlar. Chunki ular "ko'pchilik haq" degan falsafaga tayanib yashaydilar.

2. Tadbirkor tiplar – ular o'zi va o'z maqsad – ehtiyojlariga yo'nalgan, zamona zaylini tez angelaydigan, tadbirkor-tavakkalchi, o'zini va o'zidagi sifat hamda fazilatlarini o'zgalarga pozitiv nuqtai nazardan namoyon eta oladigan, o'z oldiga uzoqni ko'zlagan maqsadlar qo'ya oladiganlar tipi. Ularda iqtisodiy tafakkur kuchli rivojlangan va har qanday harakatlarning moddiy va ma'naviy qiymatini tushunadi. Ta'kidlash lozimki, birinchi prezidentimiz I. Karimov tomonidan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilingan joriy 2011-yilda tadbirkor xotin-qizlar soni kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, oilaviy biznesda ularning ulushi va salohiyatli juda sezilarli. Yaratilayotgan yangi ish o'rinlarini egallayotganlar ham, ularni biznes subyektlari sifatida yaratayotganlarning salkam yarmini tadbirkor xotin-qizlar tashkil etmoqda.

3. Texnologik tiplar – yangicha texnologik o'zgarishlarga o'ch, jamiyatning taraqqiyotini his qiladigan, ko'proq uning talablariga moslashgan, doimo yangilikka intilgan, axborot texnologiyasi sohasida erkaklar bilan teppa-teng fikrlaydiganlar tipi. Ular yangidan yangi firmalarda muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritmoqdalar. Chunki bunday ayollar hattoki uy yumushlarini bajarishda ham fan va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga tayanib ish ko'rishni afzal ko'radilar, yangicha ishlashga, yaxshigina sarmoya topishga, korporativ hamkorlikka moyil ayollardir.

4. Uy bekalari tipi – Bu tipga moyillar qiz bolalik davridanoq bilinadi. Ular faqat uy-ro'zg'or bilan bog'liq malakalarga ega bo'lishni afzal ko'radilar va turmush qurgach ham faqat oilaviy

o'zaro munosabatlarda usta bo'lishni xohlaydilar, yaxshi, sog'lom farzandlar tug'ib, ularni sog'-salomat voyaga yetkazish ham ularning muddaolari. Aytish joizki, bu tip ham jamiyat uchun kerak, chunki ular butun umrlarini oilaga bag'ishlash, bola tarbiyasini ustuvor bilganlari bois farzandlar barkamol va sog'lom bo'ladi. Faqat davr talabi shuki, ular aqlli, ma'naviyatli va sog'lom farzand o'stirishlari uchun o'zlari bilimli, malakali, savodxon bo'lishlari kerak. Shu bois uy bekalarning ko'pchiligi bajonidil turli o'quv markazlarida malakalarini oshirmoqdalar. Ijtimoiy xarakterning an'anaviy sifatlari, ya'ni, milliy rasm-rusmlar tufayli avloddan avlodga o'tib kelayotgan sifatlari – samimiyat, soddalik, kamtarlik, mehmondo'stlik, ochiqko'ngillik, ishonuvchanlik, shirinsuxanlik, ta'sirchanlik, oilaparvarlik, ilm va ziyoni qadrlash va hokazolarni saqlashda ham o'zbekistonlik xotin-qizlarning o'rni va roli sezilarli. Bundan tashqari, ular ayni shu o'zbekona va sharqona sifatlarni o'z farzandlari ongiga singdiruvchi va avloddan avlodga yetkazuvchi shaxslardir. O'tkazilgan ko'plab tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ushbu sohani tanlagan yigit-qizlarning aksariyati uchun o'z oilasi va ota-onalarning nima bilan mashg'ul bo'lishi yetakchi ahamiyat kasb etadi. O'tkazilgan tadqiqotlar otaning o'g'ilga, onaning esa qizga ta'siri bevosita ekanligini isbotladi. E'tiborlisi shundaki, oiladagi demokratik munosabatlar, ya'ni, o'zaro hurmat, totuvlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, mas'uliyatlilikni rag'batlantirish kabilar bolada ilk yoshligidanoq to'g'ri iqtisodiy tafakkurning rivojiga ijobiy ta'sir etadi. Odatda ota yoki ona bolaga nisbatan zug'um qilgan, avtoritar munosabatlar ustuvor bo'lgan oiladan yaxshi iqtisodchi chiqmaydi. Demak, yoshlarda to'g'ri iqtisodiy tafakkur va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning dastlabki omili – oila va oilaviy munosabatlardir. Bunday ta'sir ayniqsa qizlar Sotsiologiyasida bevosita namoyon bo'ladi. O'tkazilgan tadqiqotlar xotin-qizlar boshqaruvining erkak boshqaruvchiga solishtirilganda, xotin-qizlar jamoasini boshqarishda (pedagogik jamoa yoki tibbiyot muassasalarida) anchagina samarali ekanligini isbot qildi va bunda ayol tabiatiga xos bo'lgan jihatlar muayyan ijobiy rol o'ynashi o'z isbotini topdi.

Xotin-qizlarni boshqaruv va rahbarlik faoliyatiga o'qitish tizimida biz qo'lga kiritgan barcha empirik natijalarni albatta inobatga olish va ularni samarali iqtisodiy faoliyatini ta'minlashga erishish lozim. Ijtimoiy nuqtai nazardan xotin-qizlarning iqtisodiy sohada karera qilishi yoki boshqaruvga o'zini ijtimoiy tayyorlashida uning faoliyatiga turtki bo'lgan motivatsiyasi masalasi ahamiyatlidir. Ya'ni, bu tom ma'noda nima maqsadda, va qanday ichki turtki-motivlar insonni aynan iqtisodchi bo'lishga, keyinchalik boshqaruvchi bo'lishga undaydi, degan savolga javobdir. Sotsiologiya bu holatni birinchi navbatda shaxsning o'zini o'zi amaliy hayotda namoyon etishga imkoniyati bilan bog'lab o'rganadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. *Gender-ijtimoiy-antropologik fenomen sifatida.*
2. *Feministik proektning asoslari.*
3. *Dunyoda feministik xarakatlar.*
4. *Emansipatsiya.*
5. *Antropologiyada jins problematikasi*
6. *Mehnat taqsimotida gender munosabatlari*
7. *Ijtimoiylashuvda gender roli va gender stratifikatsiyasi*
8. *O'zbekistonda gender munosabatlari va xotin-qizlar tadbirkorligi rivojlantish borasida amalga oshilayotgan ishlar.*
9. *Gender muammosi bo'yicha halkaro konvensiyalar*
10. *Ijtimoiy fanlarda gender masalarining yoritilishi*

Nazorat savolari

1. *Antropologiyada jins problematikasi*
2. *Mehnat taqsimotida gender munosabatlari*
3. *Ijtimoiylashuvda gender roli va gender stratifikatsiyasi*
4. *O'zbekistonda gender munosabatlari va xotin-qizlar tadbirkorligi rivojlantish borasida amalga oshilayotgan ishlar.*

14-MAVZU. IJTIMOYIY ANTROPOLOGIYA VA DINIY MUNOSABATLAR

Reja:

1. Ijtimoiy antropologiyada diniy munosabatlarning yoritilishi.
2. Diniy munosabatlarning sotsial predmeti va metodlari
3. Dinning vazifalari va diniy tashkilot turlari
4. Sekulyarizatsiya sotsiomadaniy fenomen sifatida

Tayanch tushunchalar

Din sotsiologiyasi, din, antifeodal burjua inqiloblari, uch bosqich qonuni, "qadriyatlarining axloqiy politeizmi", total institutlar, mazmun yoki mohiyat funksiyasi; tegishlilik yoki identifikatsiya funksiyasi; sotsial integratsiya va barqarorlik funksiyasi; madaniy qadriyatlar, asosan axloqiy normalarning muqaddaslashtirilishi funksiyasi, cherkov, denominatsiya va sekta, sekulyarizatsiya

1. Din sotsiologiyasining paydo bo'lishidagi ilk nazariyalar

Din sotsiologiyasi XIX asrning o'rtalaridan sotsiologiyaning mustaqil yo'nalishi sifatida rivojlana boshladi. Uning rivojlanishi uchun Yevropa jamiyatida ma'naviy uyg'onish jarayonlari va antifeodal burjua inqiloblarining sodir bo'lishi asos sanaladi. O'n sakkizi nchi asr faylasuflarining feodal ijtimoiy munosabatlar va g'arb jamiyatidagi cherkovning tanqidi dini sotsiologiyasining rivojlanishida asosiy sabablardan biri bo'ldi.

O'rta asrlar Yevropasi va yangi davrning boshlanishi ko'plab diniy asosdagi mojarolarga to'la bo'ldi. Mazkur davrning qator mutafakkirlari, jumladan, Gobbs, Lokk, Yum din asosidagi nizolar va notinchliklar tufayli uning jamiyatni birlashtiruvchi, tinchlantiruvchi, kompensatorlik kabi xususiyatlari borasida shubha bilan qaraydigan bo'lishgan. Gobbs xristianlik tarixida yuz bergan voqea va hodisalarga tayangan holda o'z asarlarida dinning jamiyat uchun xavf tug'diruvchi xususiyatlarini yoritgan. Ba'zi olimlar katolik cherkovini feodalizm tuzumining poydevori sifatida baholagan. Fransuz ma'rifatchilari Golbax va Didro jamiyatdagi dinning o'rini "tabiiy insonning" aqli va axloqi egallashi

kerak, degan g'oyani ilgari surishgan. Faqat ayrim ma'rifatchilar tomonidan din jamiyatning normativ tizimini ushlab turuvchi sotsial institut sifatida juda muhim, degan fikrlarni bildirgan.

Yuqorida keltirilgan barcha qarama-qarshi fikrlarning sababi yangi davr Yevropasining hayotida din tinchlik va barqarorlik garovidan ko'ra, baxs va sotsial konfliktlarning sababi bo'lib qolganligida edi. Shuning uchun jamiyatda din uchun shunday joyni ajratish kerak ediki, u sotsial tartibga tahlil solmasligi, aksincha, uni o'rnatishga ko'maklashishi zarur bo'lgan. Buning uchun jamiyatda dinga nisbatan diniy qarashlarni shakllantirish lozim edi.

Lokkning fikricha, mazkur maqsadga faqat dinni davlatdan ajratish, ya'ni "xususiyashtirish" orqali amalga oshirish mumkin. Shu orqali din har bir shaxsning o'z shaxsiy ishi va tanloviga aylanishi kerak bo'lgna. Davlat o'z navbatida fuqarolarning mulkini va mulkiy munosabatlarini himoya qilgan holda ularning e'tiqodi masalasiga aralashmaydi. Cherkov – bevosita insonning tanlovi va xohishiga ko'ra birlashadigan tashkiloti bo'lib, yaratguvchiga umumiy ishonch hissi asosida insonlarni birlashtiradi.

J.J.Russo esa mazkur muammoning boshqacha yechimini ishlab chiqqan. U o'zining "Ijtimoiy hamkorlik to'g'risida"¹

(1762) nomli asarida dinni jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatida talqin qilgan. U shunday yozadi: "Har bir fuqaro o'z burchlarini yaxshi ko'rishi uchun davlat dindan foydalanadi va unga ehtiyoj sezadi". Ammo Russo tarixiy jihatdan jamiyatda qaror topgan dinlarni nazarda tutmagan. U ma'lum "fuqarolik dini"ning yaratilishini nazarda tutgan. Uning nazarida fuqarolik dini o'zining ijtimoiylik xususiyatidan kelib chiqib, fuqarolik burchlarining amalga oshirishini ta'minlashi kerak bo'lgan. Mazkur fuqarolik dinining dogmatlariga triada deizi xos bo'lgan, ya'ni yaratguvchining mavjudligiga ishonch, abadiy hayot va ezgulikka ishonch, ijtimoiy hamkorlik va qonunlarning muqaddasligiga ishonch.

¹ Гараджа В. И. Социология религии: Учеб. пособие для студентов и аспирантов гуманитарных специальностей. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2005. С 33.

Jamiyatda dinga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, olimlar tomonidan yangi dinning yaratilishi borasidagi fikrlar va dinning jamiyatdagi o'rnini shakllantirish talablari mavjud bo'lgan diniy talablar, an'analarni qayta ko'rib chiqish, din fenomenini o'rganish va ilmiy asoslash ehtiyojini tug'dirdi. Mazkur ehtiyoj asosida sotsiologiyada yangi yo'nalish shakllanib o'z rivojini boshladi.

"Ma'rifatli inson" obrazi bogan sari Yevropa ilmiy olamida ustunlikka ega bo'la bordi. Unga ko'rsa, inson o'z aqli, ongiga va ilmga tayangan holda o'z hayotini ratsional to'g'ri va adolatli asoslarga tayangan holda qurishi mumkin. Shu o'rinda ongli ratsional insonning din va yaratguvchiga ishonchi masalasi o'rta chiqdi. Natijada dinga nisbatan an'ana va urf-odatlardan xoli bo'lgan ratsional qarash shakllana boshladi. Yangi davrda Yevropa jamiyatida qator sotsial o'zgarishlar dindagi talab va qoidalarni yangidan ko'rib chiqish va sotsial muhimlik nuqtai nazaridan baholash imkonini berdi.

I.Kant (1724–1804) yangi davrning faylasuf olimlaridan biri bo'lib, dinni turli dogma va diniy-teologik nuqtai nazardan emas, balki din falsafasi va ratsionallik nuqtai nazaridan o'rgangan. Uning fikricha, inson ongi cherkov doktrinalari va muqaddas yozma manbalariga qaraganda ishonchliroq va kuchliroq argumentlarni keltirib bera oladi. Ma'naviy yuksak inson o'z aqliga tayangan holda yashashi kerak. Shu kabi dinni falsafiy talqin qiluvchi nazariyalar dinni rad etishni emas, balki uning ratsional mohiyatini ajratib olishni o'zining asosiy maqsadi qilib olgan. Ratsional din ratsional davlat va huquqiy tartib bilan birgalikda insonning tolerant bo'lishi, jamiyat bilan uyg'unlikda yashashi, dindagi dogmatizm va fanatizmni yengib o'tishi kerak bo'lgan. Shuning asosida "axloqiy din" tushunchasi shakllandi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarining mazkur davrdagi rivojlantirishi, ya'ni sotsial dinamikasi ijtimoiy institutlarning differentsiatsiyasi jarayoni bilan birgalik kechdi. Undan tashqari jamiyatda segmentatsiya va plyuralizmning o'sishi kuzatildi. Natijada dinning iqtisod, oila, ta'lim, siyosat kabi sohalar bilan aloqasi masalalari dolzarflik kasb eta boshladi.

XVIII asr fransuz inqilobi va XIX asrning 30–40-yillarida sinflar o'rtasidagi antogonizmning paydo bo'lishi dinning sotsial

vazifalari, jamiyatdagi o'rni, jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi roli kabi masalalarni o'rganishga da'vat etdi. Dinning fan bilan muknosablari ham atroflicha o'rganila boshladi. Chunki fan jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biri edi. Fan va din o'rtasidagi qarama-qarshiliklar XIX asrning o'rtalarida o'zining eng baland nuqtasiga yetdi. Bunda Darvinning evolyutsion nazariyasi asos bo'ldi.

Radikal tanqidchilar sanalgan Feyerbax va Marks dinning taraqqiyot yo'lidagi to'siq, tormoz sifatida baholagan. Dinning tarafdorlari esa uni jamiyatning kuchini qaytadan tiklovchi omil sifatida baholashgan.

Kontning uch bosqich qonuni va dinning jamiyatdagi roli. Sotsiologik jihatdan din turli mafkura va dogmalardan xoli ravishda dinning funksiyalari, jamiyatdagi o'rni jihatidan o'rganilgan. O.Kontning (1798–1857) fikricha, sotsial hayotni tabiiy fanlarda qo'llanilayotgan bilishning induktiv usullari vositasida o'rganish lozim. Sotsiologiya shu usullar vositasida jamiyatda ideal tartib yo'llarini ko'rsatib berishi kerak edi. Kont o'z izlanishlari davomida sotsial tartibning asosini nima tashkil etadi va bunda dinning sotsial roli qanday? degan savolga javob berishga uringan. Kontning sotsial dinamikasi din tarixi asosida shakllangan tushunchalar asosida qurilgan jamiyat modelini nazarda tutadi. U jamiyatning taraqqiyoti jarayoni sifatida insonning hayoti kabi (bolalik, o'smirlik, yetuklik) uch bosqichni qamrab oladi. Uch bosqich qonuni teologik, metafizik va pozitiv bosqichlardan iborat. Teologik bosqichda inson voqyealarning ichki mohiyati va kelib chiqish sabablarini aniqlashga intiladi. Bu bosqichda diniy qarashlar uchta tip bilan belgilangan: fetishizm, politeistik, monoteistik.

Metafizik bosqichda mavhum tushunchalarning o'rni muhim bo'lib, turli xudolar o'rnini mavhum obrazlar egallaydi. Pozitiv bosqichda inson "tugal sabablar"ni emas, balki hodisalar o'rtasidagi kuzatiladigan empirik aloqalarni bilishni istaydi. Bu davrda boshqaruv ilmi insonlarning qo'lga o'tadi.

Kontning mazkur ta'limotida din sotsiologiyasi uchun muhim sanalgan ikki holat mavjud: birinchidan, rivojlanishning birinchi

teologik bosqi chida din jamiyatning ajralmas va muhim elementi sanalgan; ikkinchidan, rivojlanishning har bir bosqichi ma'lum sotsial struktura va hokimiyat munosabatlari bilan bog'liq.

Teologik g'oyalar ustunlik qilgan rivojlanishning birinchi bosqichi XIII asrgacha davom etgan va unda diniy rahnamolar va harbiylarning hukmronligi ustunlik qilgan. Metafizik bosqichda byurokratiya, yuristlar, ya'ni pozitivizm nuqtai nazaridan ishlab chiqarishdan uzoq bo'lgan sinflar hukmronligi o'rnatilgan.

Kontning fikricha, din deyaroli har doim jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'lgan. Ammo dindagi buzilish tufayli jamiyatdagi sotsial munosabatlarning tartibsizlanishi va uzilishi sodir bo'ladi. Shuning uchun sotsial tizimni tutib turuvchi yangi asoslar kerak bo'ladi.

XIX asrda qaror topgan pozitiv bosqichda jamiyat hayotida fanning nufuzi ortadi va muhandislar, olimlarning ahamiyati ortadi. Din inqirozga yuz tutugan paytda jamiyatning birlashishini ta'minlovchi asosiy omil sotsiologiya tomonidan ishlab chiqiladigan pozitiv ilmiy bilimning sintezidir. Ammo o'z izlanishlari davomida O.Kont insonlar ongini ma'rifat orqali yuksaltirish asosida jamiyatdagi tartibni o'rnatish mumkinligiga shubha bilan qaray boshlaydi va sotsial aloqalarning asosi sifatida "ikkinchi teologik sintez"ni amalga oshirishni ilgari suradi. U "pozitiv din" g'oyasining o'rnini insoniyatning yirik bir butun "Buyuk mavjudot" sifatidagi kultini taklif qiladi. Mazkur dinning diniy rahnamosi o'rnini sotsial hayot mexanzmlarini mukammal biluvchi va shu asosda jamiyatni boshqara oladigan sotsiolog egallashi kerak edi.

Kont din sotsiologiyasini ilmiy jihatdan yaratmagan bo'lsada, uning yaralishi uchun asosni shakllantirdi. Kontning fikricha, an'anaviy jamiyatlarda din sotsial strukturaning bir qismi bo'lib, jamiyatda ma'lum, jumladan, ijobiy vazifalarni bajaradi.

G.Spenser (1820–1903) ning fikricha, ijtimoiy evolyutsiyasi jamiyatning sanoatlashgan tipini hamda individualizm va utilitarizm tamoyillarini shakllantiradi. Utilitar individualizm nuqtai nazarida din jamiyat hayotining muhim regulyatori sanalmagan. Dindan ko'rsa, bozor va siyosiy faoliyatning ta'siri

muhimroq deb qabul qilingan. Angliyada mazkur davrda din madaniy odat sifatida talqin qilingan. Spenserning fikricha, din sotsiologiyasining asosiy vazifasi Angliya davlat cherkovi faoliyatining istiqbollari o'rganib, uning faoliyatidagi jamiyatda qaror topish nuqtai nazarilan omadli va omadsiz faoliyati borasida takliflar ishlab chiqishdan iborat bo'lgan. Spenserga xos bo'lgan mazkur yondashuvni sotsial reformator R.Tauni ham qo'llab quvvatlagan. U M.Veberning protestantlik axloqining kapitalizmning rivojlanishida asosiy sabab, degan fikriga qarshi chiqqan. Spenser Angliyada yangi diniy ta'limotning payg'ambari sifatida qabul qilingan. U din xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirilishini ko'rsatgan va fan orqali inson to'g'ri yo'lni topa olishini isbotlagan. G.Spenser din jamiyat hayotidagi sotsial nazorat instrumenti ekanligini ta'kidlagan.

Din sotsiologiyasining asoschilari sifatida E. Dyurkgeym, K.Marks, M.Veber tan olingan. *Din sotsiologiyasidagi asosiy yo'nalishlar*¹:

Evolutsionizm yo'nalishi (O.Kont, Spenser, Dyurkgeym, Zimmel)

Funksionalizm (A.R.Redkliff-Braun, B.Malinovskiy, T.Parsons, N.Luman, R.Merton)

Neoevolutsionizm (M.Veber, R.Bell)

Dinning konfliktologik nazariyasi (K.Marks va uning tarafdorlari)

E.Dyurkgeym (1858–1917) fransuz faylasufi va sotsiologi bo'lib, o'zining “Diniy hayotning elementar shakllari. Avstraliyadagi totemik tizim” nomli (1912) asari orqali din sotsiologiyasiga asos solgan.

E.Dyurkgeym barcha dinlarga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlashga harakat qilgan. U sotsial hodisalarni va dinni “sotsial fakt” sifatida o'rganish orqali ularning vazifalarini aniqlash va ularning strukturasi ochish muhim masala ekanligini ta'kidlagan. Olim din har bir jamiyatda mavjud ekan u faqat illyuziya va xato

¹ Гараджа В. И. Социология религии: Учеб. пособие для студентов и аспирантов гуманитарных специальностей. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2005. - 348 с.

fikrlarda, yolg'onlardan iborat bo'lishi mumkin emas (demak, biror aniq asos bor), degan fikrni ilgari surgan.

E.Dyurkgeym “Diniy hayotning elementar shakllari. Avstraliyadagi totemik tizim” nomli asarida uchta turli darajadagi va o'zaro aloqador mavzularni o'rganib, ularning natijalarini tahlil qilgan:

– Jamiyatning umumiy nazariyasi. Unda din integratsiyalovchi omil, “birdamlik” kafolati);

– Din nazariyasi. Unga ko'ra, din soiomadaniy fenomen sanaladi;

– Totemizm nazariyasi. Totemizmga aloqador bilimlar majmui.

Ko'p hollarda Dyurkgeymning, ayniqsa, totemizm borasidagi bildirgan fikrlari eskirib qolgan sanaladi. Ammo dinning jamiyatdagi o'rni, strukturasi va vazifalari borasidagi bilimlar juda o'rinni va din sotsiologiyasi uchun muhim sanaladi.

Dyurkgeymning fikricha, har bir din o'z doirasida o'zining qarashlari va qoidalarini ayni haqiqat sifatida qabul qiladi. Shuning uchun dinni o'rganishda uning yolg'on yoki haqiqat nuqtai nazaridan baholamaslik kerak. Olim barcha dinlarga xos bo'lgan asosiy elementlar primitiv dinlarni o'rganish davomida aniqlanadi, degan fikrni ilgari surgan. Shu nuqtai nazardan, dinning strukturasi oddiy dinlar misolida tadqiq qilish va vazifalarini aniqlash osonroq sanaladi. Dyurkgeym Avstraliya aborijenlarining totemik dinini dinning eng elementar shakli sifatida o'rgangan.

Dyurkgeymning nuqtai nazarida jamiyat individlarning yig'indisiga emas, “guruhii tasavvurlar”, “individdan yuqori” hosilalar, ya'ni til va dindan tashkil topgan. Olimning asosiy g'oyasi – individ jamiyatdan yaralgan, uning hosilasi.

K. Marks (1818–1883). Germaniyada XIX o'rtalari va XX asr boshlarida siyosiy manfaatlar va sotsial konflikt nazariyasi nuqtai nazaridan din mafkuraviy komponent sifatida qabul qilingan. “Jamiyatni o'zgartirish maqsadida undagi asosiy g'oyalarni, jumladan, dinni tanqid ostiga olish orqali muammoni yechib bo'lmaydi. Chunki din mazkur jamiyatni yaratmagan, aksincha, u

mazkur jamiyatning ijod mahsuli sanaladi". "Din yuraksiz (shafqatsiz) olamning yuragi sanaladi". Marksning din borasidagi asosiy tushunchalaridan biri "diniy begonalashuv".

K. Marks dinni tanqid qilgan va illyuziyalarga to'la hosila sifatida baholagan. U inson mana shunday illyuziyalarga muhtojlik holatidan qochishi kerak, deb ta'kidlagan. Olimning fikricha, inson tabiatan buyuk mavjudot bo'lgani uchun bo'ysunish, kamsitilish kabi holatlarni yomon ko'radi va oxir oqibat, albatta, bosh ko'taradi.

K. Marks dinni sotsial institut sifatida o'rganishda funksional yondashuvdan foydalangan. Diniy harakatlar tarixiga nazar tashlasak, azaldan jamiyatdagi sotsial o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Misol uchun ilk xristianlik Rim jamiyati quyi tabaqalarining sotsial o'zgarishlarni amalga oshirgan harakatlantiruvchi kuch sanalgan.

M. Veber (1864–1920) o'zining "Protestantlik axloqi va kapitalizm ruhi" (1905); "Dunyoviy dinlarning xo'jalik axloqi" (1916–1919); "Din sotsiologiyasi bo'yicha tanlanma asar" (1920–1921) dinni tadqiq qilishga bag'ishlangan qator asarlarida jamiyat hayotining turli jabhalarida din va insonning xatti-harakatlarini kuzatish natijalarini bayon qilgan. Veber insonni maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarini ratsional harakat sifatida baholagan. Qadriyatlarga taqqoslash har doim tanlov vaziyatida amalga oshiriladi. Inson tirik mavjudot sifatida doimo qadriyatlarga amal qilish va ularga qarshilik qilish o'rtasida tanlovni amalga oshiradi. "Qadriyatlarning axloqiy politeizmi" deganda, Veber, insonning bir narsani tanlashi, albatta biror narsadan voz kechishi bilan bog'liqligini anglatadi. Misol uchun karera uchun muhabbatdan voz kechish.

Veberning ratsional harakat nazariyasi ideal tip tushunchasi bilan bog'liq. Olim dinlar, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni o'rganishda ideal tiplardan foydalangan. Din sotsiologiyasidagi asketizm, mistika, magiya, cherkov, sekta kabi tushunchalar ideal tiplar sifatida turli hodisalarni baholash uchun kerak. Uning nazarida sotsiologiya ideal tiplar vositasida jamiyatdagi hodisalar va din kabi fenomenlarni tushuntirishi kerak. Shu orqali nima

sababdan ma'lum madaniyatlarda fan taraqqiy etishi, boshqalarida esa rivojlanmasligi, nima sababdan kapitalizm G'arbiy Yevropa mamlakatlarida qaror topishi, Xitoy va Hindistonda esa amalag oshmasligi kabi savollarga javob topish mumkin.

Veber "Protestantlik axloqi va kapitalizm ruhi" nomli asarida dinning institutlashuvi orqali sotsial o'zgarishlarga, jumladan, kapitalizmning rivojlanishiga asos bo'lganini ko'rsatgan. Sanoatlashgan kapitalizmning diniy komponentini o'rganish davomida Veber lyuteranlikning dunyoviy burchlarning majburiyati borasidagi dogmaga chek qo'yish orqali jamiyatdagi o'zgarishlarga katta turtki bo'lganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kalvinizm va puritansvo insonning "dunyoviy burchi va majburiyatlari" borasidagi dogmalarga tugal chek qo'ya oldi hamda kapitalistik psixologiya va mafkuraning diniy asoslarini yarata oldi. Misol uchun kalvinizm har bir inson birinchi navbatda o'z ishi va kasbini yaxshi bajarishi kerak, degan g'oyani ilgari surgan. Bu ishlab chiqarishning ijobiy rivojlanishiga olib keldi. "Kapitalizm ruhi" o'z ifodasini "kapitalizm axloqi"da topa boshladi.

Puritanstvo boylik va xaddan tashqari dabdabani inkor qilgan, qoralagan. U ham insonning asosiy vazifasi jamiyat uchun foydali bo'lgan ishni bajarish, ya'ni vazifasini bajarishdan iborat, degan g'oyani ilgari surgan. U insonning bironing haqqiga hiyonat qilmaslik, va'dasining ustidan chiqish, hisob-kitob bilan xatti-harakatlarni amalga oshirish, ratsionallik, o'z kasbiga hurmat bilan qarash kabi xususiyatlarini qadrlagan. Yaratguvchi tomonidan xristian biriktirilgan ish sidqidildan amalga oshirilishi lozim. Ammo o'z kasbini tanlash va uni eng maqbul yo'l bilan amalga oshirishni insonning o'zi tanlaydi.

Garchi Veber protestantlik asosida qaror topgan xo'jalik va turmush shakli kapitalizm uchun asos bo'lganligini ta'kidlagan bo'lsada, buni dokrina sifatida qabul qilishni rad etgan. Olim kapitalizmning rivojlanishi uchun boshqa sabablar ham asos bo'lishi mumkin, deb hisoblagan. Veber kapitalizm XVII asrda qaror topib bo'lgach, "protestantlik ruhi"ga va diniy motivatsiyaga bo'lgan ehtiyojini yo'qotganligini ta'kidlaydi.

Veber dunyo dinlarining nafaqat iqtisodiy soha balki jamiyat hayotining boshqa sohalariga – intellektual, madaniy, siyosiy va h.k.larga bo‘lgan ta‘sirini o‘rgangan. Sharq dinlarini tahlil qilish oqibatida Veber mazkur dinlarning xususiyati va mohiyati ularning Sharq jamiyatlarini G‘arb jamiyatlarinikiga o‘xshamagan rivojlanish yo‘lidan borganligini ko‘rstagan.

Veber diniy motvatsiyaning sotsial hayotdagi o‘rnini o‘rganish orqali dinning tarixiy rivojlanish jarayonidagi o‘rnini aniqlagan. Olimning fikricha, insonlarning sotsial faolligi ular amal qilayotgan qadriyat, norma, madaniyatga borib taqaladi.

Dunyoviy dinlarni taqqoslash natijasida Veber dinlarning ratsionallik darajasiga baho berishga xarakat qilgan. Uning nazarida dinning ratsionallik darajasi undagi sehr elementiga teskari proporsional hisoblanadi. Shunga ko‘ra primitiv dinlarda sehr elementi asosiy o‘rinni egallasa, mukammal dunyoviy dinlarda uning asosiy qismini ratsionallik egallagan. Shu asosda Veber dinlarning hayotga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra uch turga ajratgan:

- hayotga moslashuvchi dinlar – konfutsiylik, daosizm;
- hayotdan qochuvchi dinlar – hinduizm va buddizm;
- hayotni egallovchi (boshqaruvchi) dinlar – hinduizm va xristianlik.

Har bir din hayotga bo‘lgan ideal tip munosabatlarini ifodalaydi. Har birida turmush tarzining ma‘lum usuli, ratsionallik tipi mavjud bo‘lib, ular dunyo haqidagi, hayot haqidagi tasavvurlarni, shuningdek, ma‘lum ishonch va madaniy qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Turli diniy ta‘limotlarning har xil sotsiomadaniy asoslardagi faoliyati jamiyat uchun har xil sotsial oqibatlarni vujudga keltiradi.

Xristianlik dinining o‘zida ratsionallikning bir-biridan farqlanuvchi turlari shakllangan. Katolitsizm – lyuteranlik – kalvinizm sotsial borliqning din tomonidan ratsionallashuvining bosqichlari sanaladi. Uning natijasida jamiyatning sekulyarizatsiyasi va diniy tasavvurlarning o‘rnini dunyoviy qarashlarr egallashi sodir bo‘ldi. Veber zamonaviy davrni xudosizlik davri, deya ta‘riflagan. Uning fikricha, inson o‘zi yashayotgan mazkur davrda yaratguvchiga

ishonch uchun joy qolmaganligini o‘zidan yashirib yashashi kerakligini uqtirgan. “Qanchalik achinarli bo‘lmasin ratsionalizatsiya e‘tiqodga teskari proporsional jarayon sanaldi, deya ta‘kidlagan olim. Bu davr fan qadriyatlari va din o‘rtasidagi kurashlar va qarama-qarshiliklar davri. Qanday qadriyatlar asosida yashash kerakligi to‘g‘risidagi savolga javobni Qutqaruvchi berishi kerak, ammo sehrni yo‘qotgan mazkur olamda ortiq Qutqaruvchi va payg‘ambarlar mavjud emas. Chunki payg‘ambar va vahiy kelishiga ortiq insoniyat ishonmaydi”.

Endilikda insonning yerdagi hayoti va tabiiy hodisalar ilohiylik jihatidan emas, balki ilmiy jihatdan asoslanayotgan paytda haqiqiy e‘tiqodli, “pozitiv-diniy” insonning asosiy xususiyati uning tomonidan “o‘z intellektini qurbonlik” qilishidir. Chunki hozirgi hayotda yagona yaratguvchiga bo‘lgan ishonch yo‘q. Monoteistik dinlarning o‘rnini xudolar o‘rtasidagi doimiy kurash egallaydi. Shundan xulosa chiqargan holda Veber mazkur muammoning yagona yechimi insonning o‘zi ekanligini ko‘rsatadi. Payg‘ambarlarga va yangi dinning yaralishiga ishonch yo‘qligi hamda fanlar jamiyatdagi mazkur qadriyatlarni asoslab bera olmaganliklari uchun insonning o‘zi bir qarorga kelishi va tanlovini amalga oshirishi kerak.

Insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni va insonlarning birdamligini diniy jihatdan talqin qilish orqali yuksaklikka ko‘tarish holatiga Veber shubha bilan qaragan. U mazkur davrning ratsionalligi va dinga bo‘lgan munosabatni tan olishga jur‘ati yetmagan insonlarga qadim cherkovlarning davridagi e‘tiqod bilan yashash keraligi to‘g‘risidagi maslahatini bergan. Ular o‘sha davrlardagi tasavvurlar dunyosida yashashlari mumkin. Intellektning inson tomonidan shu tarzidagi qurbonligi e‘tiqodlilik belgisi sanalib, intellektual jihatdan insonning rostgo‘y bo‘lish holatidan qochishi sifatida baholanishi mumkin. Veber faol va axloqiy jihatdan mas‘uliyatli hayotiy pozitsiyalarga ega bo‘lgan. U inson davrga mos bo‘lishi va uning talablariga javob berishi kerak, degan fikrni ilgari surgan. O‘tmishdagi holatni qumsab yashash befoyda va samarasiz holat sifatida baholangan. Olimning fikricha, hych bir insonni qanday yashash kerakligiga o‘rgata olmaydi.

Veberning ilmiy ijodi inson xatti-harakatining mikroanalizini yagona tizimga birlashtirish, insoniyat tarixining to'g'risidagi tasavvurni shakllantirish va zamonaviy davrning interpretatsiyasini yebrish imkonini berdi.

Veber Marksning ko'pgina fikrlariga qarshi chiqqan bo'lsada, uning ishlarini o'rgangan va tegishli xulosalar chiqargan. Veberning fikricha, din inson faoliyatiga ulkan ta'sir ko'rsatuvchi vosita sanaladi va sotsial o'zgarishlarning sababi bo'ladi. Ko'p xollarda uning sotsial rivojlanish konsepsiyasi xarizma va payg'ambarlik tushunchalariga asoslangan. U E. Trelich bilan hamkorlikda diniy tashkilotlarning tipoloiyasini yaratib, tushunchalar apparatini ishlab chiqqan. Mazkur apparatdan bugungi kunda ham sotsiologiyada keng foydalaniladi.

E. Dyurkgeym, K. Marks, M. Veberning din sotsiologiyasi doirasida yaratgan asarlari din sotsiologiyasida shakllangan ilmiy yo'nalishlarga asos soldi: din va birdamlik, jamiyatning birlashuvi (Dyurkgeym); din va konflikt (Marks); din va sotsial o'zgarish (Veber).

2. Din sotsiologiyasining predmeti va metodlari

Sotsiolog dinni sotsial fenomen sifatida, ya'ni diniy xatti-harakatni guruhii xatti-harakat turi sifatida o'rganadi. Garchi sotsiologiya bevosita individlarni ham o'rgansada, uning asosiy o'rganish predmeti inson jamoalari va guruhlarining o'zaro munosabatlaridir.

Din sotsiologiyasining predmeti – diniy tashkilotlar, ularning shakllanishi va faoliyati. Bunda dinni jamiyatning mustaqil sohosi sifatida o'rganish barobarida diniy xatti-harakatlarni, indivilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topishi, ularning diniy tashkilotlar faoliyatiga ta'siri, diniy tashkilotlarning inson faoliyatiga ta'siri, diniy tashkilotlar faoliyatining jamiyat sohalariga ta'sir oqibatlarini kabilar sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi.

Din sotsial institut sifatida qator o'zaro bog'liq bo'lgan va boshqa sohalaridan ajralib turuvchi diniy xatti-harakatlar va o'zaro munosabatlar kompleksi sifatida sotsiologik jihatdan o'rganiladi.

Individning xatti-harakatiga ta'sirlar uning e'tiqodi orqali amalga oshiriladi. Chunki e'tiqod individning hayot to'g'risidagi tasavvurlari, kayfiyati hamda motivlarini belgilab beradi. Ammo

diniy tashkilot o'z a'zolarining xatti-harakatiga dissiplinar us orqali ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol uchun institutlarning ta'siri. Total institutlar deyilganida, a'zolarining hayoti qat'iy nazorat ostiga olingan majburlov uyushma tushunilib, a'zolarining ehtiyojlari tashkilot tomonidan q belgilanadi, qilinishi mumkin bo'lgan va ta'qiqlangan x harakatlar tashkilot qoidalari tomonidan belgilab qo'yil Maktab-internatlar, armiya kazarmalari. Qamoqlar, psixi kasalxonalarining faoliyati total institutlarga ko'p jihatdan ya Tashkilot tomonidan shaxsning butkul ravishda tashkilo qo'shilishi ehtiyojiga individning o'z irodasi va ijodkorligi x bermasligi uchun total institutlarning majburlov va qat'iy nazi vazifalari shakllangan.

Din sohasida ham total institutlar mavjud bo'lib, ular q belgilangan diniy normalar, qadriyat va e'tiqodga o'z a'zolar bo'yusundirish orqali birdamlikni ta'minlashni maqsad qila Albatta inson xatti-harakati jamiyat hayotining iqtisod, siyo kabi qator sohalarini tomonidan ham nazorat qilinadi. Und tashqari har bir din uni sotsial jihatdan aniqlashtiruvchi qatla larning manfaatlarini inobatga oladi.

Din sotsiologiyaning predmeti sifatida kundalik hayot namoyon bo'luvchi madaniyat modellari, belgili tizimlar sifati namoyon bo'ladi. Din sotsiologiyasining maqsadi individ uchi nafaqat emotsional jihatdan taskin beruvchi, balki mohiyati aloqador bo'lgan muammolarni yechuvchi diniy-belgi tizimlarni aniqlashdan iborat. Shu o'rinda aytib o'tish kerak barcha insonlar uchun bir xil ravishda diniy vazifalarni bajaruvcl yagona belgi shakllari mavjud emas. Shuning uchun din sotsi logiyasi mazkur belgilarni aniqlab, ularni ma'lum turlarga ajrat shi, ularga amal qilish qanday natijalarga olib kelishini aniqlash lozim.

Din sotsiologiyasi sotsiologiya fanining strukturasiqa nazi salsak, o'rta darajadagi nazariyalar toifasidan o'rin olgan. U empirik tadqiqotlar vositasida dinning jamiyatdagi shakllari, o'rn funktsiyasi, ta'sirlari va ta'sirlarining oqibatlarini borasida amaliy ma'lumotlar olib, ular asosida dinning nazariy modelini umumsotsiologik nazariyalar doirasida ishlab chiqadi.

Din sotsiologiyasi doirasida umumiy sotsiologiyada qo'llaniluvchi qator tushunchalar ishlatiladi: guruh, rol, hokimiyat, madaniyat va h.k. dinni tadqiq qilish davomida sotsiologik instrumentariy va metodlarni qo'llash maqsadga muvoffiqligini va samarasini isbotladi. O'z navbatida din fenomenini o'rganish orqali sotsiologiyaning asosiy tushunchalari ishlab chiqildi, qator yondashuv va usullar yaratilib, umumsotsiologik bilim sohasi boyitildi.

Ilmiy sotsiologiyaning asoschilari sifatida O.Kont, K.Marks din boraisda ham o'z qarashlarini bildirishgan. Ulardan so'ng E.Dyurkgeym, M.Veber, G.Zimmel kabi olimlar din sotsiologiyasining nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishdi.

Din sotsiologiyasining metodlari. Din fenomenini o'rganishda umumiy sotsiologiyada qo'llaniluvchi usullardan foydalaniladi. Bular: so'rov va statistik analiz; kuzatish va eksperiment; kross-madaniy taqqoslovchi tahlil; yozma manbalarning, tarixiy hujjatlarning tahlili, kontent analiz.

Din sotsiologiyasida ham muhim usullardan biri so'rov bo'lib, u odatda standartlashtirilgan intervyu yoki anketa tarzida amalga oshiriladi. Respondentlarga ularning diniy kelib chiqishi va e'tiqodi, diniy urf-odat va an'analarni bajarishi, qay darajada o'limdan keyingi hayotga ishonchi kabi qator savollar beriladi. Bunda respondentlarning e'tiqodlilik darajasi, dinga bo'lgan munosabati va uning namoyon bo'lish shakllari aniqlanadi. So'rov usuli orqali diniylik xususiyatlari va ma'lum sotsial ustanovkalar o'rtasida korrelyasion bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Din sohasidagi nisbatan chuqur aloqadorliklarni va sabablarni aniqlash so'rovdan tashqari boshqa usullarni va tahlilni talab qiladi. So'rov, eksperiment, statistik analiz, kuzatish kabi metodlar natijasida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, talqin qilish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Din insonning chuqur ichki his-tuyg'ulariga bog'liq bo'lgani uchun dinni o'rganishga aloqador bo'lgan tadqiqotlarda eksperiment usulidan axloqiy nuqtai nazardan yondashilgan holda kamdan-kam vaziyatlarda qo'llaniladi. Chunki insonning diniy tuyg'ularini manipulyasiya qilinishi individlar tomonidan ham salbiy qabul qilinadi. Ammo ba'zan insonning noodatiy xislatlarini

namoyon qilish (ekstrasenslik, shamanlik va h.k), diniy ta'limotlarni o'qitish dasturlarini kiritish vaziyatlarida mazkur usuldan foydalaniladi.

Kross-madaniy taqqoslash turli madaniyatlarda amal qiluvchi diniy fenomenlarni taqqoslashni va solishtirishni nazarida tutadi. Misol uchun mazkur usul vositasida M.Veber xristianlik va buddaviylikdagi qutilish tushunchasini diniy va madaniy jihatdan taqqoslagan.

Tarixiy yozma manbalar va hujjatlarni tahlil qilish metodi diniy tashkilotlarning tipologiyasini yaratish, dinning evolyutsiyasi bosqichlarini o'rganish, protestantizmning kapitalizmning rivojiga ta'sirini aniqlash paytida qo'llanilgan.

V.V.Rozanov kontent analiz usuli vositasida xristianlik tarixining qaysi bosqichlarida "yorug'lik" (xursandchilik, bayramlar, tinchlik) va qaysi bosqichlarida "zulmat" (azob-uqubat) ustunlik qilganini aniqlagan.

Sotsiolog din fenomenini o'rganish davomida sotsiologiyada qo'llaniluvchi turli metodlardan foydalanadi. Ba'zan tadqiqot to'liq bo'lishi uchun bir qancha metodlarni kompleks tarzda qo'llash maqsadga muvoffiq bo'ladi.

3. *Dinning vazifalari va diniy tashkilot turlari*

Din o'ziga xos bo'lgan turli vazifalarni bajarish barobarida jamiyatdagi individ va guruhlarning ehtiyojlarini qondiradi. Funktsional yondashuv dinning sotsial fenomen sifatida o'rganish imkonini yaratdi. Ammo har bir jamiyat o'z xususi yatlari va unda amal qiluvchi madaniyat nuqtai nazaridan farqlangshani uchun dinning har bir jamiyatda bajaruvchi funksiyalari ham bir xil emasligini inobatga olish lozim. Shuning uchun hamma dinlar uchun universal bo'lgan funksiyalarning ketma-ketligini ko'rsatish qator qiyinchiliklarga ega.

Funksional yondashuv nuqtai nazaridan din jamiyatda integratsiyalovchi va barqarorlikni ta'minlash vazifani bajaradi. Ammo zamonaviy jamiyatlarda ko'p hollarda jamiyat integratsiyasi va barqarorligi ko'p hollarda qonunchilik va huquq tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

Undan tashqari bugungi kunda din ba'zan jamiyatni dizintegratsiyalovchi omil sifatida o'z xususiyatlarini namoyon qilmoqda. Bitta din turli jamiyat va madaniyatlar bilan hamkorlikda turli xil vazifalarni bajarishi mumkin. Bu vazifalar jamiyat uchun ham ijobiy, g'ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Shularni inobatga olgan holda dinning quyidagi to'rtta funksiyasini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Mazmun yoki mohiyat funksiyasi
2. Tegishlilik yoki identifikatsiya funksiyasi
3. Sotsial integratsiya va barqarorlik funksiyasi
4. Madaniy qadriyatlar, asosan axloqiy normalarning muqaddaslashtirilishi funksiyasi.

Birinchi va ikkinchi funksiyalar bevosita shaxsga, qolgan ikkitasi esa sotsial strukturalarga qartilgan ta'sirni ifodalaydi.

Mazmun yoki mohiyat funksiyasini M. Veber barcha dinlarga xos bo'lgan asosiy funksiya sifatida baholagan. Din insonning hozirgi hayotidagi adolatsizlik, azob-uqubatlari va o'limi holatini "narigi dunyo"dagi farog'at uchun ahamiyatli, deya talqin qiladi. Bunda dinlarning kompensatorlik effekti namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda din imazkur funksiyasi doirasida insonning jamiyatda boshqa insonlarni ham inobatga olishi hamda hurmat qilishi, hamkorlikda yashashi kerakligi kabi fikrlarni isngdiradi.

Din insonning identifikatsiyasida muhim o'rinni egallaydi. U insonning butun umri davomida – bolaligidan keksaligigacha sotsializatsiyasida ishtirok etib, uning milliy o'zligini ta'minlashda ham ma'lum vazifani bajaradi. Insonning yoshiga aloqador bo'lgan urf-odatlar ko'pchilik dinlarda mavjud. Shaxs o'zini jamiyatning aksariyat qismiga tegishli ekanligini sezishi uchun ham azkur an'analarga rioya qilishga majbur bo'ladi. Dyurkgey dinning mazkur funksiyasini eng muhim funksiya sifatida baholagan. Chunki u orqali jamiyatda guruhviy birdamlik va identifikatsiya ta'minlangan.

Ammo mazkur holat individ psixologiyasiga dinning mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarini inkor qilmaydi. U jamiyatdagi

bardoshsizlik yoki konformlik holatini ham yuzaga keltirishi mumkin.

Dining sotsial integratsiya va barqarorlikni ta'minlash funksiyasi an'anaviy jamiyatlarda samarali hisoblanadi. Ammo jamiyatning differentsiatsiyasi va plyuralizmning o'sishi sharoitida hech bir mahalliy din mazkur vazifani to'laqonli bajara olmaydi.

Madaniy qadriyatlar, asosan axloqiy normalarning muqaddaslashtirilishi funksiyasi ham asosan an'anaviy jamiyatlar uchun xos bo'lib, dinning mazkur imkoniyati jamiyatning rivojlanishi barobarida chegaralanib boradi.

4. Diniy tashkilot turlari

Jamiyat va din rivojining primitiv bosqichyaida alohida sotsial struktura sifatida diniy tashkilotlar mavjud bo'lmaydi. Tarixiy jihatdan eng qadimgi diniy uyushmalar "vital" tipidagi (tabiiy ravishda hosil bo'lgan) birliklar bo'lib, ularga oila, urug', jamoa, xalq kirgan. Ular o'zaro qarindoshlik asosidagi identifikatsiya asosida birlashib, diniy e'tiqod mazkur identifikatsiyaga yondosh xususiyat sifatida shakllangan. Bunday din shakllari "xalq dinlari", "diffuz dinlar" nomini olgan.

Qadimgi Yunoniston va Rim diniy rahnamolar va Hatto ularning kollegiyasi tashkil topgan bo'lsada, bu davrda din hali to'laligicha shakllanmagan va xali ham madaniyatning bir bo'lagi sifatida amal qilgan.

Xristianlik dinida cherkov va sekta diniy tashkilotlarning ikki xil ko'rinishi sifatidanamoyon bo'ladi. Amalda mavjud bo'lgan diniy tashkilotlar odatda hech qachon mazkur tashkilot modellariga barcha ko'rsatkichlar bo'yicha to'laqonli ravishda muvoffiq kelmaydi. Ammo mazkur tushunchalar evristik qadriyatga ega. Ular diniy tashkilotlarning tipologiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur ikki tashkilotdan og'uvchi va ularga yondosh bo'lgan diniy tashkilot turlari ham mavjud.

R. Nibur AQShdagi diniy tashkilotlarni o'rganish davomida¹ sekt alar vaqt o'tishi bilan ularga xos bo'lgan tipik xususiyatlarni

¹ Гараджа В. И. Социология религии: Учеб. пособие для студентов и аспирантов гуманитарных специальностей. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2005. С. 221.

yo'qotishini aniqlagan. Yopiqlik xarakteri va elitarlik xususiyati o'z safiga istalgan shaxsni qabul qilishga tayyorlik xususiyatiga o'z o'rmini bo'shatib beradi. "Ongli ravishda safiga qo'shilish" xususiyati shu e'tiqodda tug'ilganlar uchun o'z ma'nosini yo'qotadi. Chunki ular tug'ilib, ota-onasi tufayli mazkur e'tiqodga amal qilishni boshlagan hisoblanadi. Hayotni inkor qilish yoki unga bo'lgan befarqlikning o'rmini sotsial hayotdagi faol ishtirok va sotsial tartib-qoidalarni qo'llab-quvvatlash holati almashtiradi. Ammo sektalardagi shu kabi o'zgarishlarni ularni to'laqonli ravishda cherkov sifatida talqin qilish uchun asos bo'la olmaydi. Chunki ular jamiyatning keng tabaqalari orasida yetarli darajada tarqalmagan bo'ladi. Undan tashqari ular fuqarolarning milliy identifikatsiyasini ta'minlay olmaydi va davlatga sidqidildan vafodorlik ko'rsata olmaydi.

R.Nibur diniy tashkilotlarning mazkur turini "denominatsiya", ya'ni sekta va cherkov o'rtasidagi oraliq tashkilot sifatida nomlagan. Niburning fikricha, denominatsionalizm AQSh jamiyatiga xos bo'lgan hodisa bo'lib, uning asosiy sababi mazkur jamiyatda o'rnatilgan diniy plyuralizm va davlat cherkovi maqomiga da'vo qilishi mumkin bo'lgan diniy tashkilotning mavjud emasligidir. Amerikada 200 dan ortiq yirik denominatsiyalar faoliyat olib boradi. Nibur sekta – denominatsiya – cherkovni dinning rivojlanish bosqichlari sifatida baholaydi.

Jamiyat va e'tiqod o'rtasidagi qadriyatlarining bir-biriga muvofiq kelmasligi insonni o'zining asosiy dinidan voz kechib biror sektaga murojaat qilishiga olib keladi. Konflikt yangi turdagi diniy guruhlarini yuzaga keltirishi mumkin.

Cherkov, deminatsiya va sektalar qator farqlarga ega bo'lgan holda o'zining o'xshasha tomonlariga ham ega sanaladi. Ularning barchasida a'zolarining joylashuvi va vazifalari qat'iy belgilab berilgan bo'ladi.

G.Bekker zamonaviy jamiyat va undagi din fenomenini o'rganish davomida dinning shunday shaklini ajratib, talqin qilganki, unga ko'ra mazkur din biror diniy tashkilot emas, balki faqat a'zolarining ishtiyogi (entuziazmi) asosida faoliyat olib boradi. Bekker dinning mazkur shaklini "kult" nomi bilan atagan.

5. Sekulyarizatsiya sotsiomadaniy fenomen sifatida

Sekulyarizatsiya Yevropa tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, burjuaziyaning yuksalishi hamda zamonaviy olamning shakllanishi uchun asos sanaladi. U Dyurkgeym va Veber kabi olimlarning diqqat markazida bo'lgan.

XV-XVI asrlardan boshlab Yevropa jamiyatida dinning ahamiyati va nufuzi pasayib borgan. Sekulyarizatsiya – bu jamiyat hayotining turli jabhalarining din ta'siri va nazoratidan forig' bo'lishi jarayonidir.

"Sekulyarizatsiya" atamasi mazkur ma'noda ilk bor 1646 yil Vestfal tinchlik shartnomasini imzolash paytida ishlatilgan. Ular g'olib tomonlarning urush davomida ko'rgan talafotlarining o'rni diniy monastrlar mulkini musodara qilish orqali to'ldirish mazmunida qo'llashgan. Dunyoviy davlat hisobigav cherkov yerlarining musodara qilinishi amaliyoti XVII–XVIII asr Yevropa monarxlari tomonidan keng qo'llanilgan. Ammo Taleyan tomonidan 1789-yilda bo'lgan Fransiya milliy yig'ilishida bildirgan taklifi mazkur jarayonning jadallashuviga olib keldi. Natijada cherkovning barcha mulki millat tasarrufiga o'tkazildi. Bu holat cherkov mulkining musodara qilinishi hamda monastrlarning bekitilishini nazarda tutgan.

Natijada sekulyarizatsiya tushunchasi keng ma'noda qo'llanila boshlandi. U zamonaviy madaniyatni va dunyoviy davlatni shakllantiruvchi omil sifatida talqin qilina boshlandi. XVII asr boshlarida Venetsiya respublikasida kuzatilgan jarayonlar mazkur holatning misoli bo'lishi mumkin. Venetsiyada o'sha davrda fuqarolarning cherkovlarga ajratadigan moddiy yordami miqdori chegeralanib qo'yildi, dalat tomonidan cherkov binolarining qurilishi nazorat ostiga olindi, jinoyatda ayblangan din vakillari oddiy fuqarolar kabi sud oldida javo berishi tartibi o'rnatildi, dindorlar va ularning oila a'zolari hukumat atrkibidan chiqarib tashlandi. Venetsiya salib yurishlarida qatnashishdan qat'iyon voz kechgan. Venetsiyaning mazkur xatti-harakatlari va yangi tartiblari Rim tomonidan salbiy qabul qilingan.

Aslini olganda jamiyatdagi sekulyarizatsiya jarayoni dinning mavjudligini xavf ostiga qo'ymaydi. U shunchaki diniy va dunyoviy tushunchalarni bir-biridan farqlaydi.

Rim papaligi tomonidan sekulyarizatsiya jarayoniga qarshi kurashish holatlari XVI–XVII asrlarda amalga oshirilgan, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Shundan so‘ng papalik boshqa hyech qachon dunyoviy davlatga qarshi chiqish urinishlarini amalga oshirmadi.

Sekulyarizatsiya jarayoning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bu iqtisodiyotdir. Kapitalizm va sanaotlashtirilish jarayoni dinning davlatdan adjralish jarayonini tezlashtirib yubordi. Iqtisod sohasidan boshlab sekulyarizatsiya jamiyatning boshqa sohalari tarqala boshladi. Angliyaning rivojlanishi bunga misol bo‘la oladi. Sanoat rivojlanishi ortda qolayotgan davlatlarda siyosat seulyarizatsiyani tezlashtirishda muhim o‘rin tutgan. Bu holat XVIII asrda Fransiya va Rossiyada kuzatilgan. Bugungi kunda rivojlanish darajasi past bo‘lgan davlatlarda mazkur jarayonning namoyon bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Yevropadagi ma‘naviy uyg‘onish davri jamiyatning sekulyarizatsiya jarayonini yanada jadallashtirdi. U inson ongining diniy ta‘qiqarlar va dogmalardan xoli bo‘lishi g‘oyasining keng tarqalishiga olib keldi. Shunga ko‘ra, sekulyarizatsiya zamonaviy jamiyatni va madaniyatni shakllantirgan omil sifatida baholanishi mumkin. Chunki u jamiyatda din instituti va diniy tashkilotlarning o‘rnini, ularning ta‘sirini va vazifalarini tubdan o‘zgartirdi.

Sekulyarizatsiyani dinning boshqa sohalardan butkul uzilishi sifatida tushunmaslik kerak. Albatta bugungi kunda ham din siyosat, madaniya, iqtisod sohalari bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Ko‘pchilik sotsiologlarning fikricha, sekulyarizatsiya qaytarilmaydigan jarayon sanaladi va dinning ta‘sir doirasi chegaralanishi, qisqarib borishini nazarda tutadi. Boshqa sotsiologlar esa sekulyarizatsiyani dinning namoyon bo‘lish shaklining o‘zgarishi sifatida baholashadi. Unga ko‘ra, o‘z umrini tutatgan dinning o‘rnini yangi din shakllari egallaydi. Shu nuqtai nazaridan sekulyarizatsiya normal jarayon sanalib, vaqt o‘tishi bilan u dinning yangi qandaydir shakllarining nufuzi ortishiga olib kelishi mumkin.

P.Bergerning fikricha, sekulyarizatsiya jarayonining oqibatlarini har bir individ uchun individual ma‘no kasb etadi. U o‘zining “Muqaddas parda” (1967) nomli asarida sekulyarizatsiya

iqtisod va sanoatlashuv sohasidan boshlanib, siyosat sohasiga o‘tishini ta‘kidlagan. Shu bilan birgalikda din ongning bir shakli sifatida inson hayotida muhimligini hamda siyosiy nuqtai nazardan mafkura tarkibida faoliyat olib borishi kerakligini aytib o‘tgan.

Olim sotsial strukturalar darjasidagi sekulyarizatsiyani “obyektiv sekulyarizatsiya” nomi bilan atagan va u “subyektiv sekulyarizatsiya” bilan birgalikda amalga oshishini ta‘kidlagan, ya‘ni “ko‘cha odami” borgan sari o‘zining dinga bo‘lgan qiziqishi va ehtiyojini yo‘qotib boradi. uning kundalik hayoti cherkovga murojaat qilishni nazarda tutmaydi. U diniy odatlar va burchlarni keyinga surishga odatlanib qoladi va ko‘p hollarla ularni unutib qo‘yadi.

Bergerning fikricha, dinning oilaga ta‘siri ham kundan-kunga pasayib bormoqda. Din jamiyatni yagona tizimga birlash tiruvchi muqaddas qadryait maqomini yo‘qotib bormoqda. Din individning shaxsiy tanlovi masalasiga aylanishi barobarida yagona qadriyat va yagona hayotiy yo‘l maqomini yo‘qotib bormoqda. Din har bir insonning shaxsiy ishiga aylanib qolganligi uchun dinning roli va ahamiyati kamayib bormoqda.

T.Parsons va R.Bellning fikricha, jamiyatdagi qarashlarning plyuoralizatsiya tufayli ortishi oqibatida sekulyarizatsiya jarayoni davomida dinga bo‘lgan qarashlarr ham o‘zgaradi. Ammo mazmunan din o‘zining mohiyatini yo‘qotmaydi. Dinning sotsial guruh va insonning dunyoqarashi va xatti-harakatlariga ta‘sir ko‘rsatish mexanizmlari o‘zgaradi, xolos.

Mustaqil ta‘lim mavzulari

1. *Ijtimoiy antropologiyada diniy munosabatlarning yoritilishi*
2. *Total institutlar*
3. *Sotsial integratsiya va barqarorlik funksiyasi;*
4. *Tegishlilik yoki identifikatsiya funksiyasi;*

Nazorat savollari

1. *Din sotsiologiyasining paydo bo‘lishidagi ilk nazariyalariga ta‘rif bering*
2. *Kontning uch bosqich qonuni va dinning jamiyatdagi rolini izohlang.*
3. *Diniy tashkilot turlarini sanab o‘ting.*

15-MAVZU. IJTIMOY ANTROPOLOGIYANI TADQIQ ETISH USULLARI

Reja:

1. Dala tadqiqotlari olib borish. Etnografik dala tadqiqotlari. Etnografik tasvir
2. Kuzatish va ro'yxatga olish. Ishtirokli kuzatish, fokus guruh usuli.
3. Sifatiy va miqdoriy kontent-tahlil

Tayanch tushunchalar

Kuzatish va ro'yxatga olish, dala tadqiqotlari, etnografik dala tadqiqotlari, etnografik tasvir, ishtirokli kuzatish, fokus guruh usuli, sifatiy va miqdoriy kontent-tahlil

Ijtimoiy antropologiya fan sifatida shakllangandan buyon o'zining tadqiqot borasida o'ziga xos uslubga ega. Ma'lumotlar olishda tadqiqotchi bevosita ishtirok etishi tadqiqotning samarali olib borilishini ta'minlaydi. Ijtimoiy antropologiyada dala tadqiqotlari, kuzatish, intervyu, fokus guruh, hayotiy tahlil, hodisalarni ro'yhatga olish kabi bir qator uslublardan foydalaniladi. Bu usullar sotsiologiya va etnografiyada keng qo'llanilib keliniladi. Biz quyida ijtimoiy antropologiyada bu uslublarda qay tarzda foydalanish mumkinligi to'g'risida so'z yuritamiz.

Dala tadqiqotlari olib borish

Ijtimoiy antropologiyani boshqa ijtimoiy fanlardan ajratib ko'rsadigan jihati shundaki unda madaniyat va ijtimoiy hayotga oid etnografik dala tadqiqotlariga asosiy urg'u beriladi. Dala tadqiqotlari bir necha oylar Hattoki bir yoki ikki yilni o'z ichiga olishi mumkini, bu o'rganilayotgan voqelikni tushunish va uni tekshirib ko'rish bilan bog'liq bo'ladi. Antropolog voqelikni yanda chuqurroq tushunish uchun o'rganayotgan obyektiga qaytib o'zgarishlarni qayd qilib borishi zarur bo'ladi. Garchi antropologiyaga dala tadqiqotlari borasida turlicha maktablar shakllangan bo'lsa ham ular uchun umumiy narsa o'rganilayotgan obyekt

tadqiqotlari bevosita qatnashish va ularning o'zgarish va g'aryib hususiyatlarini yozib borishdir.

Antropologlar dala tadqiqotlarida beixtiyor masxaraboz rolini ijro etishlari ham mumkin. Bu rolga kirishish tadqiqotni ajoyib tarzda boshlash imkonini berishi mumkin. Biz hammamiz ozmi ko'pmi artrofimizdagi o'zimiz uchun notanish jihatlari tominidan masxarabozdek tuyulamiz, bu jamiyatdagi ijtimoiy hayotimizni bir qismi hisoblanadi.

Antropologlar tomonidan dala tadqiqotlarida bazida muammoli deb faraz qilingan usullardan biri bu ekspertning tadqiqotlarda mavjud bo'lishidir. Ko'pgina dala tadqiqotchilari o'zlarining yo'l boshlovchilari va ma'lumot oluvchi manbalariga katta hurmat va extirom ko'rsatishadi. Bu bilan ular mahalliy jamiyatdagi yashiringan g'ayri oddiy hususiyatlarni ko'ra olishlari mumkin.

Agar yuqoridagi ikki holatda kasbiy va insoniy jihatlarga zarar etkazmasdan dala tadqiqotlari olib borsa antropologda hech qanday muammo yuzaga kelmaydi. Antropologlarning olib borgan tadqiqotlarini borasida yozuvlarning o'qiydigan bo'lsak ularda dala tadqiqotlari davomida bir qator qiyinchiliklar hususan oziq ovqat tugab qolishi, yordamchiga muhtojlik, kasal bo'lishi holatlari orqali ko'zagan maqsadlari barbod bo'lganliklarini ko'ramiz. Faqatgina ozgina tadqiqotchilargina o'zlarining izlanishlari davomida qulay sharoitga rohatlanib hos sayohat olib borganliklarini takidlaydilar.

Boshlanishida tadqiqotchining til va xulq-atvor borasidagi tajribasining kamligi ko'gina vaziyatlarda yordamga muhtoj qilib qo'yadi. Tadqiqotchining doimo noodatij tabiiy sharoitlarga, g'ayrioddiy taomlarga va turli hil gigienik sharoitlarga ko'nikishiga to'g'ri keladi. O'rganayotgan qishlog'ida hech qachon yakka tarzda qolib ketishi kerak emas bu uning hayoti uchun havfli ham bo'lishi mumkin. Agar tadqiqotchi maxsus mashinaga ega bo'lsa katta qulaylikga ega bo'lib izlanishlari boshqa tomondan kash qilish imkoniga ega bo'ladi.

Shahar sharoitdagi dala tadqiqotlarida tadqiqotchi ancha qulayliklarga ega bo'lishi mumkin hususan tadqiqotni muntazam

ravishda olib borish zarurati tug'ilmaydi, TV va transport qulayliklari mavjud bo'adi va fundamental metodlardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Dala tadqiqotlarida kuzatishda obi-havo sharoitlaridan kelib chiqib norasmiy dala uslublaridan foydalanishi mumkin. Bu tadqiqotchidagi mavjud texnikaga bog'liq bo'ladi. Texnika rivojlanishi bilan tadqiqotlarni qayd qilib borish yanada osonlashdi. Dastlab olimlar izlanishlarini reprezentabillikni ta'minlash borasida muammolarga duch kelishgan bo'lsa hozirda deyarli bunday muammo yo'q. Qayd qilingan axboratlarni qayta ishlash va boshqa manbalar bilan solishtirgan holatda hulosa chiqarish imkoniyati tadqiqot natijalarini yanada sifatli ko'rinishga olib keladi.

Kuzatish va ro'yhatga olish

Kuzatish tadqiqotlarda an'anaviy qo'llanilib kelinayotgan metod hisoblanadi. Bu metod tadqiqotchilar tomonidan "keng tasvirlash" imoniyatini bera olish bilan mashhuz hisoblanadi. Bu metodni afzalligi muhokama qiladigan bo'lsak uning o'rganilayotgan muhit borasida samarali va tabiiy xulosalarni bera olishini hisobga olishimiz lozim. Kuzatuv metodni bir necha shakllari ko'rib chiqadigan bo'lsak bevosita kuzatuv keng qo'llanishini ko'ramiz. Bevosita kuzatish Chikago sotsiologiya maktabi tomonidan ko'p qo'llanilgan.

Bevosita kuzatish metodi sifatli tadqiqotlar olib borining bir turi hisoblanadi. Bu juda ko'plab fanlarning metodologiyasida xususan madaniy antropologiyada ham keng qo'llaniladi. Bunda o'rganilayotgan tadqiqot jarayonida turli xil immitatsiyalarga yo'l qo'yilishi holatlarini oldini oladi. Bu metodni ijtimoiy antropologlar, Britaniyada Boris Malinovski, AQSHda Frans Boazni talabalari va Chikago sotsiologik maktabi vakillari o'zining urban dala tadqiqotlarida birinchilardan bo'lib qo'llagan. Shuningdek Frank Galminton XIX asrning oxirlarida o'zining Zuni deb nomlangan hindu qabilalarini o'rganish davomida keng qo'llagan.

¹ Small Places, Large Issues An Introduction to Social and Cultural Anthropology Thomas Eriksen page 24-25-26

XX asrda Boris Malinovski, Margared Mid kabi ijimoiy hayotni o'rganivchi olimlar tomonidan o'z tadqiqotlarida qo'llaydi. Bu usul etnograf va antropologlarni ma'lum guruhlarining ijtimoiy hayoti borasida ularning madaniyati ularni o'zgarib borishi xaqida haqqoniy ma'lumotlarni qo'lga kiritishi mumkin. Bu madaniyat bilan yashashda davomida tadqiqotchidan juda ziyraklik talab etiladi. Bu shunigdek G'arb jamiyatdagi submadaniyat ko'rinishlarini jamiyatni turli qatlamlarini o'rganishda ham qo'l keladi.

Tadqiqot davomida tadqiqot ob'etni o'zgartish mumkinligi va vaziyatga qarab moslashtirish mumkin. Hususan jarayon davomida interviyu, muhokama, tahlilni o'sha guruhni kuzatish davomida amalga oshirish mumkin. Kuzatuv sifatli tadqiqotlar sirasiga kirsam ham to'plagan ma'lumotlarini mavzuga oid jihatlarini umulashtirishda qayd qilingan solishtirishda miqdoriy jihatlarni ham hisobga oladi. evosita kuzatish borasida olim Hovell quydagicha to'rt bosqichni muhim deb hisoblaydi.

- O'rganadigan kishilari bilan o'zaro hamjihatlikni barpo etish
- Butun obyekttni bir butunlikda qamrab olish
- Kuzatuv ma'lumotlarini qayd qilib borish
- Yig'ilgan ma'lumotlarni umumlashtirish

Kuzatuv metodning quydagicha turlari mavjud:

- Bilvosita ishtirok - o'rganish davomida aholi yoki obyekt bilan umumiy aloqa mavjud bo'maydi
- Passiv ishtirok - tadqiqotchi ma'lum rol bilangina cheklanadi
- Mo'tadil ishtirok - tadqiqotchi "ichkari" va "tashqari" borasidagi balansni saqlab qoladi
- Faol ishtirok - tadqiqotchi o'rganilayotgan guruhning to'laligicha a'zosiga aylanib kompleks tarzda ma'lumotlarni to'laydi

Mukammal ishtirok - tadqiqotchi aholi bilan bevosita integratsiyaga kirishib ma'lumotlarni to'laydi vaziyatga qarab boshqa me'todlarni ishtirok davomida qo'llaydi¹

¹ Social Anthropology Core Course Calicut University page 23-24

Kuzatish har qanday antropologik kuzatishlarda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchi kuzatish orqalikinsonlarning kundalik hayotiga oid ko'plab faktlarga ega bolishi mumkin. Bunda individual va kollektiv xulq-atvor va xatti-harakatlar kuzatilishi lozim bo'ladi. Barcha xatti-harakatlar joylar, obyektlar kuzatilishi va qadt qilib borilishi muhim hisoblanadi. Bu jaryonlarni jamiyat hayotini ichiga kirgan holatda, bevosita kuzatish muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotchi atrof-muhit kuzatish orqali barcha hodisalarni visual imkoniyatlarda ko'rib chiqadi. Shunda antropolog o'zi o'rganayotgan jamiyatning faoliyati va rivojlanishining bir qismi sifatida namoyon bo'ladi.¹

Fokus guruh usuli

Fokus guruh metodi sifatli tadqiqotlar olib borish usuli hisoblanadi. Bu miqdoriy tadqiqotlar o'tkazilgandan keyin ma'lumotlar borasida izlanish hisoblanadi. "Fokus guruh" atamasi odatda guruh miqyosida o'tkaziladigan muhokamalarda ishlatiladi. Bu usul aniq xaqiqiy ma'lumotlar olishni ta'minlaydi. Shuning uchun bu haqqoniy standartlarga ega metodologiya sifatida foydalaniladi. Fokus guruh o'rganilayotgan mavzuga doir o'zini qarashlari va tajribalari orqali ma'lumot bera oladigan shaxslarning tanlab olingan guruhi bilan o'tkaziladi. Fokus guruh intervyuchisi mavzuga doir bir necha yo'nalish bo'yicha ma'lumotlarni qo'lga kiritishi mumkin. Bu usulning yutuq tamonlaridan biri shundayki ma'lumotlarni olish barobarida tadqiqotchi respondentlar bilan bevosita muloqatda bo'lishi va ularning fikrlariga boshqa kishilarning ta'sir eta olmasligidadir. Lekin muammo shundaki shaxslarni o'rnini birini fikriga ta'sir eta olmaydigan darajada joylashtirish lozim, o'z fikriga ega bo'magan respondentlar guruhdagi umumiy so'zlardan kelib chiqib fikr bildirishi mumkin.

Bu jarayonda moderatorning roli juda muhim sanaladi. Moderatorning guruhdagi mahorati tadqiqot muvofaqiyatini yaxshi darajada ta'minlaydi. Fokus guruhlarda interviyu o'tkazish shakl-

larini ikki guruhga bo'lib olish mumkin. Guruhda interviyu o'tkazilayorganda tadqiqotchi qatnashchilarni savollarga javob berishi muhim ham muhim sanaladi. Binobarin fokus guruhlarda qatnashchilar tomonidan ma'lumotlar berilishi jarayonida qatnashchilar bir biriga o'zaro ta'sir etish holatlariga ziyraklik bilan yondashish zarur hisoblanadi.

Ijtimoiy holatni o'rganishda fokus guruh usuli bir qator afzaliklarga ega bo'ladi. Individual tarzda o'tkaziladigan interviyu bilan taqqoslaydigan bo'lsak fokus guruhda guruhdagi sharoit va emotsional holat kelib chiqib ko'proq oshkoralik va ishonch yuzaga keltirib va xatti-harakatlarni boshqarishi muhim hisoblanadi. Tadqiqotchi uchun individual interviyuni nazorat qilish osonroq bo'ladi fokus guruhda esa qatnashchilar tashabbusni o'z qo'llariga olishlari mumkin. Kuzatish bilan taqqoslaydigan bo'lsak fokus guruhda qisqa muddat davomida ko'proq ma'lumotlarni qo'lga kiritish mumkin. Kuzatish metodlarida izlanilayotgan voqealikni sodir bo'lishi kutish zarur bo'ladi. Fokus guruh tadqiqotlarida qatnashilarning kundalik so'zlashuv tilidan foydalanish va o'tkazilayotgan mavzuda ularning manfaatlari ifoda etishlari foydalanish muhim sanaladi.¹

Sifatli va miqdoriy kontent tahlil

Sifatli ma'lumotlar – dala tadqiqotlari orqali to'plagadigan ma'lumotlarni obyektivligi, sezuvchalik, haqqoniyligi, detallar boyligini ko'rsatib bera olishida ifodalanadigan termin hisoblanadi.

Miqdoriy ma'lumotlar – yig'ilgan ma'lumotlarni takrorlanish va ahamiyatiga qarab raqamlarda va turli statistik shakllarda o'lchash mumkin bo'lgan ma'lumotlarni nomlashda qo'llaniladigan termin hisoblanadi.

Ma'lumotlar to'plangandan so'ng uni tahlil etish keying muhim bosqich hisoblanadi. Sifatli va miqdoriy metodlar orqali to'plangan ma'lumotlar tahlili uchun turli xil usullardan foydalaniladi. Miqdoriy ma'lumotlar uchun tadqiqodchilar tajribada

¹ Introduction to Sociocultural Anthropology. - page 64-65

¹ Social Anthropology Core Course Calicut University page 22-23

sinalgan statistik texnologiyalarni kompyuter modellaridan foydalangan holda amalga oshiradilar. Odatda ma'lumotlar tahlilini rejasi yig'ilishidan oldin tuzib chiqiladi.

Sifatli ma'lumotlarning tahlili tadqiqotchining dala tadqiqotlari yozib borgan qaydnomasi, kuzatuvdagi tasmasi qaydlar va intervyu beruvchilarning bergan ma'lumotlarini yozib borish orqali amalga oshiriladi. Intervyu jarayoni jarayoning tasmasi qaydi va ovozlarning yozib olish tahlil qilishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Antropolog tahlil etishda o'zini qarashlari bilan odamlarning o'rganilgan qarashlarini ajrata olish muhim sanaladi. Sifatli ma'lumotlari turkumli tahlilini amalga oshirish uchun ko'plab sxema va kompyuter modellari mavjud.¹

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Dala tadqiqotlari olib borish.
2. Etnografik dala tadqiqotlari va Etnografik tasvir
3. Kuzatish va ro'yxatga olish. Ishtirokli kuzatish,
4. Fokus guruh usuli.
5. Sifatli va miqdoriy kontent-tahlil

Nazorat savollari

1. Antropolog tadqiqotchi dala tadqiqotlarida ko'pincha nima yuzasida muammolarga duch keladi?
2. Chikago sotsiologik maktabi tamonidan ko'p qo'llanilgan tadqiqot usulini aniqlang?
- Bevosita kuzatuv usulini Britaniyada samarali qo'llagan antropolog olimni aniqlang?
3. Tadqiqotmetodlardan qaysi biri samarali va tabiiy xulosalarni chiqarish borasida afzalliklarga ega?

¹ Introduction to Sociocultural Anthropology. - page 73-74.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Asarlar. 1–19-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996 – 2011.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 80 b.
3. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat kiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 48 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 56 b.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruza. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 64 b.
7. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat engilmas kuch – Toshkent, 2008.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
9. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasining Sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisidagi nutqi. Xorijiy ijtimoiy – siyosiy doiralar vakillarining munosabatlari va sharhlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 184 b.
10. Karimov I.A. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. 2014 yil 15 – may kuni Samarqand shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqlari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Crapo, Richley. Cultural Anthropology: Understanding Ourselves and Others. 5th edition. – Boston: McGraw Hill Higher Education, 2001.
2. Ember, Carol R. and Melvin Ember. Cultural Anthropology, 13th edition. – Boston: Pearson Education, Inc, 2011.
3. ENCYCLOPEDIA OF SOCIAL AND CULTURAL ANTHROPOLOGY. Edited by Alan Barnard Jonathan Spencer. – London & New York, 2002.
4. Belik A.A. Kulturnaya(sotsialnaya)antropologiya. – M., 2009.
5. Minyushev F.I. Sotsialnaya antropologiya. Kurs leksiy. – M.: Mejdunarodnyy Universitet Biznesa i Upravleniya, 1997.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ashirov, A. Atadjanov Sh. Etnologiya: O'quv qo'llanma. – Toshkent., 2007.
2. Ashirov, A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent., 2007.
3. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. T.: o'qituvchi, 1994.
4. Madaniy va ma'rifiy ishlar. Lug'at. T., 1996.
5. Mamajonova M. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda madaniy merosning ahamiyati. Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. 2002, №1.
6. Falsafa qomusiy lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. – 230 b.
7. O'rolov A., Xojixonov M. Temuriylar ma'naviyati va madaniyati. Sug'diyona, 1996.
8. M.Bekmurodov, N.Yusupova. Madaniyat sotsiologiyasi. T.: Nishon – Nashr, 2010.
9. Yusupova G.X., Bugayeva G.A. Siyosiy fikrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi, 2007.
10. Course of social anthropology, 2011.
11. Cultural Sociology: An Introduction Les Back, Andy Bennett, Laura Desfor Edles, 2012.
12. Introduction to Sociocultural Anthropology. Zerihun Doda, Dehub University, 2005.
13. Lexikon zur Soziologie / Hrsg. W. Fuchs u.a. Opladen: Westdeutscher Verlag, 1978. S. 885.
14. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. – Cambridge, 1994. – R. 92.

15. Method In Social Anthropology Selected Essays by K.R. Radcliffe – Brown Edited by M.N. Srinivas. The University Of Chicago Press, 1958.

16. Ph.K.Bock. Culture Shock. A reader in modern cultural anthropology. – New York, 1970. – P. 23.

17. Small Places, Large Issues An Introduction to Social and Cultural Anthropology. Thomas Eriksen, 2001.

18. Social Anthropology Core Course Calicut University, 2011.

19. The Blackwell companion to the sociology of culture / edited by Mark D. Jacobs and Nancy Weiss Hanrahan. – UK Copyright, Designs, and Patents Act, 2005.

20. The Meanings of Social Life: A Cultural Sociology Oxford University Press Jeffrey C. Alexander, 2003.

21. Tony Bennett, Mike Savage, Elizabeth Silva, Alan Warde, Modesto Gayo – Cal and David Wright. Culture, Class, Distinction/ Published in the USA and Canada by Routledge. – New York, London, 2008.

22. Арапов А. История и культура // Общественное мнение. Права человека. 1998. №4.

23. Антропология. Учебник для вузов В. М. Харитонов, А. П. Ожигова, Е.З. Година. – Владос, 2004.

24. Борневассер М. Социальная структура, идентификация и социальный контакт // Иностранная психология. – 1993. – Т.1. – № 1. – С. 69.

25. Буддизм: история и культура. – М., “Наука”, 1989.

26. Введение в теорию межкультурной коммуникации/А.П. Садохин. – М.: Высш. шк., 2005.

27. Вебер М. Избранные произведения. М.: Прогресс, 1990.

28. Гиртц К. Интерпретация культур. – М.: 2004.

29. Грачев Г.В. Информационные технологии политической борьбы в российских условиях // Полис. 2000. – № 3. – С.10.

30. Даль В. Тольковый словарь живаго великорускаго языка. – М.: Издание книгопродавца-типографа М.О.Вольфа, 1881. – С. 217.

31. Джаббаров И., Дресвянская Г. Души, святые, боги Средней Азии. – Ташкент, Узбекистан, 1993.

32. Ионин Л.Г. Социология культуры. М., Логос, 1996.

33. История политических и правовых учений. Издательства Михайлова В.А. Санкт – Петербург, 2000.

34. Клайв Эррикер. Буддизм. – М. “Гранд”, 1999.

35. Клод Леви – Строс Структурная антропология. – Москва: Эксмо – Пресс, 2001.
36. Ковалев А. Д. Формирование теории действия Толкотта Парсонса // История теоретической социологии. В 4-х тт. -Т.3. -М.: Канон, 1997. -С.150-179.
37. Культура, культурология и образования (Материалы “Круглого стола”). Выступления В.А. Лекторского // Вопросы философии, 1997. – № 2. – С.4.
38. Культурология. XX век: антология. Философия и социология культуры. – М.: ИНИОН, 1994.
39. Леви – Строс К. Первобытное мышление. – М.: Республика, 1994.
40. Никишенков А.А. История британской социологии. – СПб.: 2008.
41. Орлова Э.А. Введение в социальную и культурную антропологию. – М., 1994.
42. Пугаченкова Г. Будущее начинается вчера // Общественное мнение. Права человека. 1998. №4.
43. Руднев В.П. Словарь культуры XX века. – М., 1997.
44. Соколов В.М. Толерантность: состояние и тенденции // Ж. Социологические исследования, №8, 2003.
45. Социология Культуры. Учебное пособие. Матецкая А.В., – М., 2006.
46. Социология. Основы общей теории. – М., 1998.
47. Столяренко В.Е. “Антропология – системная наука о человеке: учебное пособие для студентов ВУЗов”. 2ое изд. – Ростов – на – Дону: Феникс, 2004 – 384с.
48. Тейлор Э. Первобытная культура. – М., 1999.
49. Терин Д.Ф. Категория цивилизации и основная дихотомия социальной теории // Ж. Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены, №1, 2004.
50. Топоров В.Н. Миф. Ритуал. Символ. Образ. Исследования в области мифопоэтического. – М.: Прогресс – Культура, 1995.
51. Умаров Э. Культурология. – Т.: 2006.
52. Фролов С. Социология. – М., 1999.
53. Холбеков А., Идилов У. Социология. – Т., 1999.
54. Щюц А. Структура повседневного мышления // Ж. Социологические исследования, 1986, №1.

Иджимоий антропологија фанидан мавзурлар юзасидан мухим Тайанч атамалар

Anthropology – Антропологија: Инсониятни бир бутунликда таqqosлаб ва нисбийлик асосида таdqиқ қилувчи фан.

Artifacts – Артефактлар: Инсониятнинг маданият о‘tmishини о‘rganishда аниқланадиган қадимда инсонлар фойдаланган моддий қолдиқлар.

Assimilation – Assimilatsiya: Ozchilikning ko‘pchilik aholi ichiga singishib ketishi, bunda ozchilik aholi hukmron madaniyat me‘yorlari va qadriyatlarini qabul qiladi.

Bueracracy – Byurokratiya: Aniq hokimiyat ierarxiyasiga, amaldorlar xulq – atvorini belgilab beradiganko‘rsatma va yo‘riqnomalarga ega bo‘lgan tashkilot tipi, amaldorlar shtati.

Classical archeology – Klassik arxeologiya: Tarixiy arxeologiya oid bo‘lib birinchi navbatda Yevropa va O‘rta Sharq Sivilizatsiyasilarini o‘rganuvchi arxeologiya yo‘nalishidir.

Cultural relativism – Madaniy nisbiylik: Har bir jamiyatning madaniyati umumiy sharoitdan kelib chiqib erishilgan deb tushunuvchi va madaniyat shakllari boshqa madaniyat shakllari bilan o‘lchanmaslik haqidagi tushuncha.

Cultural turn – Madaniy burilish: Kundalik hayotdagi madaniyatni mazmuni borasidagi turli hil yodashuvlari tushunish va izohlash uchun ishlatiladigan tushuncha.

Cultural universals – Madaniy universalizm: Me‘yorlari, o‘lchamlari bilan madaniyatni jamiyatni barcha qatlamlarida birdek amal qilishi haqidagi tushuncha.

Culture complex – Madaniy kompleks: Madaniyat belgilarining o‘zaro aloqadagi to‘plami.

Culture pattern – Madaniy andozalar: Jamiyatdagi madaniyat ko‘rinishlagini bir butunligi tashkil etishi.

Culture shock – Madaniy shok: Insonda o‘zi birinchi marta o‘zi uchun tanish bo‘lmagan madaniyat elementlari bilan duch kelganda yuzaga chiqadigan ijtimoiy – ruhiy beqarorlik.

Enculturation – Inkulturizatsiya: Shaxsning tafakkur tarzi va harakatlari an'anaviy va o'zi ko'nikgan madaniyat namunalariiga bevosita mos kelgan holda o'zlashtirishi.

Ethnocentrism – Etnotsentrizm: O'zining madaniyat ko'rinishlarini va hayot tarzini boshqa madaniyat shakllarinidan ustun qo'yib ularni rad etadigan tushunchalar majmuasi.

Firstly group – Birlamchi guruh: Bir-birlari bilan shaxsiy munosabatlarda bo'lgan individlar guruhi.

Gender stratification – Gender stratifikatsiyasi: Jamiyat ierarxiyasida pozitsiyalarning jinslar o'rtasida nomutonolib tarzda taqsimlanishi.

Genetic – Genetika: Organizmlarning ikki xususiyati: irsiyat va o'zgaruvchanligini o'rganadi.

Genotype – Genotip: Muayyan belgilar uchun javob beradigan gen yoki genlar yig'indisi. Keng ma'noda esa individ meros qilib olgan genlar yig'indisi genotip deb ataladi. Fenotip esa, aksincha, belgi o'lchamlari, boshqacha qilib aytganda kuzatish va o'lchash mumkin bo'lgan belgilardir.

Ideal type – Ideal tip: Voqelikdagi real mavjudligi shart bo'lmagan ijtimoiy obyektning asosiy belgilarini ta'kidlovchi konstruktsiya.

Heredity – Irsiyat: Organizmning belgi va rivojlanish xususiyatlarini kelgusi avlodlarga o'tkazib turish xossasidir.

Human – Inson: Kishi, uning ongi, odob – axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi, talab – ehtiyojlarining qondirilishi, ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga bevosita bog'liqdir.

Massification – Massifikatsiya: Oldin yuz bergan kichik hodisalar orqali voqealikning yanada kengayishi va ommalashishi haqida tushuncha.

Monogamy – Monogamiya: Erkak va ayol o'rtasida juftlikka asoslangan nikoh turi.

Moral panic – Axloqiy vaxima: Ma'lum bir guruh va jamoatchilik muammo yuzasidan jamoachilikning havotirining oshib borishi odatda bu ijtimoiy nazaorat tarbini kuchaytishish uchun qo'llaniladi.

Object – Obyekt (*lot.* object – narsa) – subyektning bilish va amaliy faoliyatida unga qarama – qarshi turadigan narsa.

Participant observation – Ishtirokli kuzatuv: O'rganyotgan jamoasini ichiga kirib tadqiq etish. Taqiqotchi muhitda sodir bulayotgan voqealarni bevosita ishtirokchisiga aylanadi.

Phenotype – Fenotip: Organizmning barcha belgi va xususiyatlarning yig'indisi.

Qualitative data – Sifatli ma'lumotlar: Dala tadqiqotlari orqali to'plagadigan ma'lumotlarni obyektivligi, sezuvchalik, haqqoniyligi, detallar boyligini ko'rsatib bera olishida ifodalanadigan termin hisoblanadi.

Quantitative data – miqdoriy ma'lumotlar: Yig'ilgan ma'lumotlarni takrorlanish va ahamiyatiga qarab raqamlarda va turli statistik shakllarda o'lchash mumkin bo'lgan ma'lumotlarni nomlashda qo'llaniladigan termin hisoblanadi.

Questionnaires – So'rovnoma: Odatda miqdoriy tadqiqotlarda respondent larga murojaat etadigan savollar yig'indisi.

Real objectivity – Obyektiv reallik: Inson ongiga bog'liq bo'liagan, undan tashqaridagi moddiy olam.

Racism – Irqchilik: Biologik ko'rinish nuqtai – nazaridan ma'lim bir toifani boshqasidan ustun qo'yuvchi ijtimoiy – siyosiy suiste'mollik.

Reform – Reformatsiya: O'zgarish, qayta qurish ma'nolarini anglatadi.

Religion – Religiya: Muayyan hamjamiyat a'zolarining e'tiqodi bo'lib, o'z ichigv sig'inish va ehtirom bilan qaraladigan timsollar, shuningdek, marosimlarni qamrab oladi.

Respondents – Respondentlar: Tadqiqotlarda ma'lumot olish mumkin bo'lgan odamlar guruhi.

Scientific method – Ilmiy uslub: Tizimli kuzatish natijasida olingan ma'lumotlarga mantiqiy tizimdan foydalangan holda baho berish.

Small – scale society – Kichik hajmli jamiyat: Bir xil turdagi odamlar guruhini ozchilikni tashkil etishi.

Sociology – Sotsiologiya: Jamiyatning strukturasi, uning elementlari va mavjud bo'lishi shart – sharoitlarini, shuningdek ushbu strukturada amalga oshadigan ijtimoiy jarayonlarni o'rganuvchi fan.

Socialization – Ijtimoiylashuv: Odamning o‘rab turgan muhitidagi ijtimoiy madaniy elementlarni o‘zlashtirishi jarayoni.

Social actor – Ijtimoiy rol: Shaxs, ijtimoiy guruhning ijtimoiy guruhning ijtimoiy munosabatlardagi ta’siri va ahamiyati me’yori, ishtirok etish darajasi, ijtimoiy maqomi. Ijtimoiy rol ushbu maqomga mos keluvchi huquq va vazifalar majmuasi bilan chegaralanadi.

Social control – Ijtimoiy nazorat: Jamiyatning sog‘lom ijtimoiy tartibni ta’minlash maqsadida individ hatti – harakati va hulq – atvoriga maqsadli ta’siri, individ ijtimoiylashuvining omili.

Social group – Ijtimoiy guruh: Har bir a’zosi boshqalariga nisbatan taqsimlangan kutinmalar asosida ma’lum bir tarzda o‘zaro xatti – harakat qiluvchi individlar yig‘indisi.

Social stratification – Ijtimoiy stratifikatsiya: Jamiyatni turli katmlarini ijtimoiy jihatdan ifodalovchi atama. U iearxik ko‘rinishda bo‘lishi ham mumkin.

Society – Jamiyat: Muayyan hududda istiqomat qiluvchi, yagona siyosiy hokimiyatga itoat qiladigan va o‘zlarini boshqa qo‘shni guruhlardan farqlaydigan odamlar guruhi.

Stability – Barqarorlik: (Ijtimoiy) jamiyatdagi tinch – totuvlik va uni mustahkamlash uchun shart – sharoitning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, kuchlar va siyosiy partiyalar o‘rtasidagi hamjihatlik vaziyati; davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy kelishuv holatining muttasil davom etishi va h.k.

Subculture – Submadaniyat: Ma’lum bir jamiyat ichida o‘ziga madaniyat ko‘rinishlarini ma’lum bir guruhlarda o‘rtasida tarqalishi.

Subject – Subyekt (lot. subjectus – asosiga qo‘ymoq). Amaliy faoliyat va bilim bilan bog‘liq bo‘lgan, obyektini bilishga qaratilgan faollik manbai.

Survey method – O‘lchov usuli: Obyektiv ma’lumotlarni yig‘iy va statistik tahlilni o‘rganuvchi miqdoriy tadqiqot usuli.

Tradition – An’analar: O‘tmishdan foydaliligi jihatidan insonlar qabul qiladigan, avloddan – avlodga o‘tadigan madaniy norma va qadriyatlar, ko‘nikmalar.

MUNDARIJA

1-Mavzu. Ijtimoiy antropologiyaga kirish	3
2-Mavzu. Ijtimoiy-madaniy antropologiya fanida nazariyalar.....	11
3-Mavzu. Etnos va antropogenez.....	18
4-Mavzu. Irqlar, irqchilik va ksenofobiya.....	29
5-Mavzu: Inson va madaniyat. madaniy taraqqiyot va turmush tarsi.....	39
6-Mavzu. Zamonaviy antropologiyada madaniyat shakllanishi konsepsiyalari.....	67
7-Mavzu. Antropologiyada siyosiy tizimlar va siyosat	75
8-Mavzu. Zamonaviy oila va qarindoshlik.....	86
9- Mavzu. Tafakkur tarzi va kundalik hayot (doimiylik)	96
10-Mavzu. Sotsial maqom va ijtimoiy tengsizlik	103
11-Mavzu: Inson sivilizatsiyasi va globallashuv	112
12-Mavzu. Inson sotsiomadaniy hayoti shakllari va jamoatchilik tug‘risida ilmiy qarashlar.....	119
13-Mavzu. O‘zlikni anglash, gender va milliy munosabatlar	129
14-Mavzu. Ijtimoiy antropologiya va diniy munosabatlar ...	139
15-Mavzu. Ijtimoiy antropologiyani tadqiq etish usullari.....	160
Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.....	167
Ijtimoiy antropologiya fanidan mavzular yuzasidan muhim Tayanch atamalar	171

Socialization — Ijtimoiy muhitidagi ijtimoiy madaniy elementlarning o'zaro taʼsiridagi jarayon.

Social actor — Ijtimoiy rol o'ynovchi shaxs.

ijtimoiy guruh — Ijtimoiy munosabatlarga ega bo'lgan shaxslar guruhidir.

ijtimoiy hujum — Ijtimoiy munosabatlarni buzishga qaratilgan harakat.

ijtimoiy nisbat — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi munosabati.

o'zaro taʼsir — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

Sotsializm — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

turli kishilar — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

ko'rinib turadigan — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

Sotsialistik yagona qo'shni — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

Stab — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

totuvlik mavjudligi — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

o'rtasidagi fuqarolar c — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

etishi va h.l. Subkul — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

o'ziga mada tarqalishi. Subject — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

faoliyat va qaratilgan faol — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

Survey m yig'iy va statist — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

Tradition insonlar qabul — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

norma va qadriyat — Ijtimoiy munosabatlarning o'zaro taʼsiridagi taʼsiri.

IJTIMOIIY ANTROPOLOGIYA

Muharrirlar: A.Tilavov
A.Abdujalilov

Texnik muharrir: Y.O'rinov
G.Azamova

Musahhiha: Y.O'rinov
Dizayner:

Nash.lits. №7970-9851-48b3-46a5-3c39-6117-9767
28.08.2020-yil

Terishga 10.09.2020-yilda berildi. Bosishga 25.12.2020-yilda
ruxsat etildi. Bichimi: 60x84^{1/16}. Ofset bosma. «Times New
Roman» garniturasida. Shartli b.t. 10.23. Nashr b.t. 11.0.

Adadi 150 nusxa. Buyurtma №6.
Bahosi shartnoma asosida.

«Go To Print» nashriyoti, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Shiroq ko'chasi 100-uy
e-mail: go_to_print@mail.ru

«Go To Print» MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shahri, Shiroq ko'chasi, 100-uy.
Tel: +99871 228-07-96, faks: +99871 228-07-95.

"Go To Print"

ISBN 978-9943-6882-5-4



9 789943 688254